


MADAMIN ESHMURODOV

**ISTE'DOD QIRRALARI:
TIL, TARIX VA TAFAKKUR**

Tanlangan maqolalar



Xorazm -2024

UO'K 81(091)(046)

KBK 80/84

E 99

Madamin Eshmurodov. [Matn]: "Iste'dod qirralari: Til, tarix va tafakkur".

Maqolalar to'plami. M.Eshmurodov. Xorazm: Ogahiy nashriyoti, 2024-yil.

332 b.

Aziz kitobxon!

Madamin Eshmurodov qiyofasida insoniy fazilatlariga boy ustoz, olim, tashkilotchi, rahbar shaxsni ko'ramiz. U filologiya va tarixning bir necha yo'nalishlari: "Avesto", tilshunoslik, sharq xalqlari tarixi, qadimgi xalqlar yozuv madaniyati va yozma yodgorliklari, davlatchilik tarixining bilimdoni, ushbu sohalar bo'yicha qimmatli asarlar muallifidir.

Ushbu "Iste'dod qirralari: Til, tarix va tafakkur" to'plamiga muallifning ish faoliyatida izlanish olib borgan "Avesto", tilshunoslik, yozma tarixiy manbalar to'g'risidagi respublika va chet el nufuzli jurnallarida chop etilgan ilmiy maqolalari jamlangan.

Ushbu to'plam tariximizga qiziquvchi barcha kitobxonlarga, olimlar va tadqiqotchilarga manzur bo'ladi deb o'ylaymiz.

Mas'ul muharrir:

A. O'razboyev,
filologiya fanlari doktori,
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi

ISBN 978-9910-9446-5-9

©M. Eshmurodov "Iste'dod qirralari: Til, tarix va tafakkur".

© Ogahiy nashriyoti, 2024 yil.

SERQIRRA OLIM OLAMI

Filologiya fanlari nomzodi, dotsent Urganch innovatsion universiteti rektori, taniqli filolog-sharqshunos, tarixchi va folklorshunos Madamin Eshmurodov O‘zbekistonda ijtimoiy fanlar taraqqiyotida, oliy ta’lim yuksalishida o‘z o‘rniga ega insondir. Qo‘lingizdagi ushbu to‘plam olimning uzoq yillik mehnatlari samarasi sifatida dunyoga kelgan maqolalarining saylanmasi – muntaxobotidan iborat. Bunda biz olimni asosan uch muhim yo‘nalishdagi ilmiy-ijodiy ishlaridan bahramand bo‘lamiz:

1. “Avesto”ga oid tadqiqotlar. Bunda olimning ilk ijodiy izlanishlari bo‘lgan “Avesto” va o‘zbek xalq og‘zaki ijodi tadqiqiga bag‘ishlangan maqolalar. Bularga muallif qalamiga mansub “Avesto” va davlat qonunchiligi”, “Avesto” va o‘zbek folkloridagi mushtarak motivlar”, “Avesto” va Xorazm”, “Avesto”da suv kulti”, “Avesto”da Varaxran obrazining timsoliy talqinlari”, “Avesto”da yulduz kulti va uning mifologik talqinlari”, “Avesto”dagi Vayu obrazining funksional tahliliga doir”, “Avesto”ning Yevropada o‘rganilishi”, “Avesto”da “Xurshid-yasht” alqovi, “Avesto”da “Xurshid-yasht” alqovining yaratilishiga doir”, “Avesto”dagi mifologik qatlam haqida”, “Bahrom yasht”da mifologik timsollar”, “Avesto”da Dota ilohi haqida”, “Quyosh kulti va uning “Avesto”dagi tallini” kabi maqolalarni kiritishimiz mumkin. Ushbu maqolalarning

katta qismi muallifi tomonidan 2002- yilda yoqlangan “Avesto”da mifologik qatlam” (tabiat kultlari asosida) mavzusida nomzodlik dissertatsiyasi natijasi sifatida dunyo yuzini ko‘rdi.

2. Tarixnavislik, xususan, o‘zbek davlatchilik tarixining vujudga kelishi va rivojida Xorazm vohasi hududi hamda ahli o‘rni masalalariga bag‘ishlangan, ilk manbalarga asoslanuvchi maqolalar. Bularga “Tarixi O‘tamish Hoji ibn Mavloni Muhammad Do‘st Sulton” (“Chingiznoma”)da mo‘g‘ul va turkiy sulolalar tavsifi”, “Abu Rayhon Beruniy avestoshunos sifatida”, “Avesto” jamiyatida oila, nikoh va meros masalalari”, “Avesto”da davlatchilik atributlarining aks etishi”, “Avesto”da Ardivisura Anaxita obrazining mifoe-pik talqini”, “Avesto”da davlat chegaralari masalasi”, “Avesto” davri ijtimoiy munosabatlar tarixidan”, “Komyobning “Tavorix ul-xavonin” asari haqida, “Muhammad Aminxon davrida Xiva-Buxoro diplomatik munosabatlariga doir”, “Munajjim Mazdak”, “Munis va Ogahiyning “Firdavs ul-iqbol” asari”, “Olloqulixonning Rossiya bilan diplomatik munosabatlari”, “Rus istilosi arafasida Xivada ta’lim”, “Xorazm yozma manbalarida o‘zbek davlatchiligi tarixi aksi”, “Xorazmiy tiliga doir tarixiy va ilmiy manbalar xususida, “Xorazmshohlar davlatidagi unvon va mansablar”, “Xorazmshohlar tarixiga oid manbalar” kabi ko‘plab muhim fakt va materiallar hamda nazariy xulosalarga boy maqolalarni misol keltirish mumkin.

3. Mumtoz filologiyaning turli yo‘nalishlariga oid ishlar. Bularga “Abulg‘ozi Bahodirxon tarixiy asarlarining lingvistik tadqiqi” “Arab-fors alifbosida “alif” harfining qo‘llanishi haqida”, “Diaxron omonimiya va tabdil masalasiga doir”, “Fors tili Hirot lahjasining ba’zi hususiyatlari haqida”, “Fors tili leksikasidagi ba’zi turkiy so‘zlar xususida”, “Fors tili leksikasining Yevropa tillari leksikasi qiyosiga oid”, “Fors tili leksikasining Yevropa tillari leksikasi qiyosiga oid”, “O‘zbek tilining tarixiy leksikasida “haft” so‘zi bilan bog‘liq birikmalar haqida”, “XI-XII asrlarda Xorazmda tilshunoslik”, “Yoqut al-Hamaviy Ma‘mun akademiyasi va uning olimlari haqida “, “Yoqut al-Hamaviyning “Mu‘jam al-udabo” asaridagi Xorazm adiblari”, “Abu Mansur as-Saolibiy va uning adabiy qarashlari”, “Ogahiyning forsiy tarixlari”, “Ogahiyning tarjimada asliyatni saqlash mahorati hususida” kabi mumtoz filologiyaning turli mavzu va yo‘nalishlariga oid maqolalarini misol keltirish mumkin.

Olimning keyingi davrdagi maqolalari o‘zbek tili ixsosligidan filologiya fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiyasini tayyorlash (bugungi kunda ish nihoyasiga yetish arafasida) tayyorlash munosabati bilan Xorazm turkiy solnomalarida davlatchilik terminologiyasi masalalariga bag‘ishlangan.

Muallifning “Xorazm turkiy tarixnavisligiga oid “Chingiznoma” asarining lingvistik tadqiqi”, “Xorazm tarixnavisligidagi ayrim davlatchilik atamalarining leksik-

semantik xususiyatlari”, “XX asrning birinchi yarmida bitilgan Xorazm tarixini yorituvchi qo‘lyozma asarlar” kabi maqolalari ana shu munosabat bilan yuzaga kelgan.

Qo‘lingizda ushbu kitob Madamin Eshmurodovning til, tarix va tafakkur masalalariga oid o‘quvchiga katta ma’naviy quvvat bera oladigan maqolalar to‘plami bo‘lgani bois uni “Iste’dod qirralari: Til, tarix va tafakkur” deb nomlashni lozim topdik. O‘ylaymizki, ushbu kitob mutaxassislardan tashqari barcha ma’naviy va ma’rifat muhiblarini quvontiradi.

Abdulla O‘ROZBOYEV,
filologiya fanlari doktori,
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi

“AVESTO” TADQIQOTLARIGA OID MAQOLALAR



“AVESTO” VA DAVLAT QONUNCHILIGI

“Avesto”da davlat va jamiyatning muhim belgilaridan biri bo‘lgan qonunchilik va axloqiy me’yorlar diniy dunyoqarash doirasida berilgan. Bu masala avestoshunolar, jumladan, Ibrohim Purdovud¹, Jalil Do‘stxoh², Dinshoh Eroniy³, Oshtiyoniy⁴ kabi ko‘plab olimlar tomonidan tadqiqot markazida bo‘lgan. Ushbu mavzuga o‘zbek avestoshunolari ham e’tibor qaratganlar. Bunday tadqiqotlar qatorida, jumladan, S.Hasanovning “ “Avesto” –huquq manbai” maqolasini qayd etishimiz mumkin⁵.

Yuqorida ta’kidlanganidek, “Avesto”da axloqiy va huquqiy me’yorlar diniy dunyoqarash qobig‘ida berilgan. Ushbu kitobda qonun tushunchasi *data* so‘zi orqali ifodalangan. Pahlaviy tilida *dât* shaklida bo‘lgan bu so‘z⁶ qadimgi hind tilidagi *dhâman* (qonun, dastur) so‘zi bilan o‘zakdoshdir⁷. Shuning uchun ham “Avesto”da Dota (Dod) qonun, adliya, insof va adolat, qonun homiysi bo‘lgan iloh nomidir. “Avesto”ning ko‘pgina joylarida uning nomi zikr etilgan o‘rinlarni uchratamiz.

Masalan:

... Mitra shafqat qilmaydur unga,
Mensimasa agar Mazdani

¹Ibrohim Пурдоуд. Фарҳанге ироне бостон. Бахше нухуст. Энтешороте анжўмане ироншеноси. Техрон.1326 х.

²Авесто. Дар дў желд. Мўтаржим проффессур Жалил Дўстхоҳ. Устоди донешгоҳе Эсфаҳон - Техрон. Марварид. 1991 м.

³Диншоҳ Ирони. Ахлоке ироне бостон. Техрон Магбе-йе мажлес, 1312 х.

⁴Оштиёни. Зардўшт (Маздаясна ваа ҳукумат) Техрон, Баҳор. 1367 х.

⁵Ҳасанов С. “Авесто” - ҳуқуқ манбаи” // Мулоқот, 1999, 1-сон.

⁶Pierre Jean de Menasce. Shkand-Gumanik Vicar, texte pazand-pehlevi transcript traduit et commenté. Fribourg. Suisse. 1945. r 2; 271.

⁷Табризий Мухамад бин Халаф Бурхоне котей. Техрон. Амири Кабир. 1997.–С. 807.

Va barhayot avliyolarni,
Yaylovlari hadsiz-hududsiz
Mitrani gar tan olmasa u,
Mensimasa qonun, Rashnuni,
Haqiqatni, foni y odamni.

(“Mehr yasht”,159-band)⁸

yoki: “jamiyki bu gunohkorlarning jismiga duruj devi yo‘l tutgandir va haqiqat hakami ularni xor etmishdir. Haqiqat hakami xor etgan kimsalarning boshi Yaratganning oldida egikdir.”⁹ Ushbu satrlar “Vandidod”ning 16-fargardi 18-bandidan olingan bo‘lib, bunda haqiqat hakami deb tarjima qilingan atoqli ot asliy matnda Doita (Dod)dir.

Bugungi kunda ko‘plab eroniy tillar, (jumladan, kurd va afg‘on tillarida **dād**, tojik tilida **dod**, fors tilida داد shaklida “adolat” ma’nosini ifodalovchi mazkur so‘z mazdaparastlik dini,uning hukm va qonunlari, tabiati mazmunida kelgan. Mazkur so‘z, shuningdek, “vidavidota” (“Vandidod”)ning tarkibiy qismlaridan biridir. Bundan tashqari, ushbu so‘zga o‘zakdosh **dodar** so‘zi *xoliq, xudo* degan ma’noni anglatadi va Ahuramazdaning sifatlaridan biri tarzida qayd etilgan. Dodar (dey) sharafiga uch kun: dey ba ozar (ozar kunidan keyin keladigan dey), dey ba mehr (mehr kunidan keladigan dey), dey ba din (din kunidan keyin keladigan dey) qo‘yilgan.

Zardo‘shiylik e‘tiqodida qiyomat kunida ro‘y beradigan sinov nomi bo‘lgan “dodiston” atamasida ham ushbu tushuncha mavjudligini ko‘ramiz. Bundan tashqari, zardo‘shiylik diniy matnlaridan biri ham “Dodistoni diniy” (pahlaviycha “Dodistoni

⁸ Авесто. Тарихий-адабий ёдгорлик. Асқар Маҳкам таржимаси. “Шарқ”, 2001. –Т. : Б. 199

⁹ Авесто. Тарихий-адабий ёдгорлик. Асқар Маҳкам таржимаси. “Шарқ”, 2001. –Т. : Б. 159

dinik”) deb nomlanadi. Pahlaviy tilida yozilib, 28600 soʻzdan iborat boʻlgan bu kitob muallifi 2-milodiy asrning birinchi yarmida zardoʻshtiyarning Kirmon va Forsdagi katta moʻbadi Manush Yuvon Yimak (Manuchehr Javon Jam oʻgʻli)dir. Bu kitobda 92 diniy savolga javob berilgan. Mazkur birikmada “dodiston” soʻzi “hukm, fatvo, raʼy” maʼnolarini beradi.

“Avesto”ning “Vandidod” qismi Oʻz nomi bilan zardoʻshtiylik qonun-qoidalari majmuidir. “Vandidod” avestoshunos J.Doʻstxoq taʼrificha, “vidaivdota” “devlarni haydovchi yoki halok qiluvchi qonun” deb nomlanuvchi, forsiyda oʻzgargan holda shu tarzda ataluvchi “Avesto” qismlaridan birining nomidir. Ushbu tarkibni “devlarni halok qiluvchi” deb oʻgirishimiz uni asl maʼnosi va mazmuni (borliqdagi ikki kuch - Ahuramazda va Axriman oʻrtasidagi jangu jadal) ifodasiga oydinlik kiritadi¹⁰.

“Vandidod”da qonunchilikka oid bir necha atamalarni uchratamizki, bugungi kunda qonun kodekslarida oʻz ifodasini topgan holatlarning ayrimlari unda diniy dunyoqarash qobigʻida aks etgani koʻrinadi. Misol tariqasida quyidagi parchalarni keltirishimiz mumkin:

–Kimda-kim birovni urmoqqa qasd qilsa, uning gunohi “oshiripta”dir. Kimda-kim birovning boshi ustiga urmoq qasdidagi bostirib kirsam, uning gunohi “avauyrayishtra”dir.

–Kimda-kim gʻaraz bilan birovni urmoqqa qasd qilsa, uning gunohi “aridush”dir.

–Kimda-kim besh marta ushbu gunohga qoʻl ursam, uning gunohi “pishavtanu” boʻladi.

–Ey, olamni yaratgan zot! Ey haqiqat!

¹⁰Авесто Жилди дўввўм. Мўтаржим профессор Жалил Дўстхоқ. Устоди донешгоҳе Эсфохон. - Техрон, Марварид. 1991.-С. 979.

Kimda-kim “oshiripta” gunohi bilan bulg‘ansa, gunohining jazosi ne bo‘ladi? Axura Mazda javob berdi:

- Besh qamchin aspaxik-ashatra bilan, saravashu-charana bilan savalanadi. Ikkinchi marta o‘n qamchin aspaxik-ashatra bilan, o‘n qamchin saravashu-charana bilan savalanadi. Uchinchi marta o‘n besh qamchin aspaxiq-ashatra bilan, o‘n besh qamchin saravashu-charana bilan savalanadi. (“Vandidod”, 4-fargard, 17-18-bandlar.)¹¹

Shuningdek, “Avesto”da xususan, uning “Vandidod” qismida jamoa mulkiga katta e‘tibor qaratilgan. “Vandidod”ning 4-fargard 46-bandida o‘qiyimiz: Ey Spiytomon Zardo‘sh! Hech kim suv va yonib turgan olov qarshisida gustohlik qilmasin. Hech kim o‘z qo‘shnisidan olgan omonatidan tonib, yolg‘on so‘ylamasin. Zardo‘shiylik e‘tiqodida jamoa mulki bo‘lgan suv va olovga katta ahamiyat berilgan. Bu hol, ayniqsa, ularning suv ilohasi haqidagi mifologik tasavvurida yakdil ko‘rinadi. Zardo‘shning “Dev qudratini oshiruvchi vositalar nima?” - mazmunidagi savoliga Axura Mazda quyidagicha javob beradi: Nodurust bilim o‘rgatuvchi va odamlarni gumroh qilguvchi ashmuhlarning kirdori. Uch yil muttasil belbog‘ bog‘lamagan, gohlarni kuylamagan va suv ilohasi sha’niga hamdu shukronalar keltirmagan kimsalar.

Ardvisura Anohita suv ilohasi bo‘lib, “Avesto”ning eng muhim yashtlaridan biri “Obon yasht” uning madhiga bag‘ishlanadi. Bu iloha nomi uch qismdan tarkib topgan: birinchi qismi: “*ariduy*” va u bunda, shubhasiz, “*dare*” ma‘nosida kelgan. Ikkinchi “suro” yoki “sura” donishmand va uchinchi qism “anohita” pok, beg‘ubor ma‘nosidadir. Bu so‘z pahlaviycha Anohid, armancha Onoxit va forsiyda Nohiddir va Zuhra sayyorasi ham shunday nomlanadi. Obon (pahlaviycha Opon) hamma suvlar ilohi va Ano Hitoning

¹¹ Авесто. Тарихий-адабий ёдгорлик. Аскар Маҳкам таржимаси. “Шарк”, 2001. –Т. : Б. 118

sifatidir. Bu nom pahlaviy yozma manbalaridan birida Burzyazd deb nomlangan va Opom Napot yoki Napot Opom bilan bir deb hisoblangan.

Ma'lumki, Zardo'shtiylik e'tidodida murdorni yoqish mumkin bo'lmaydi. Buni quyidagi parchalarda ko'rish mumkin:

Ey, olamni yaratgan zot! Ey, haqiqat! Nimanidir qidirib yurgan, yoxud chopib borayotgan, yayov yo suvoriy, yoxud arava haydab ketayotgan mazdaparastlar murdorni olovda pishirayotgan yoxud kuydirayotgan kishilarga duch kelsalar, nima qilmoqlari lozim? Axura Mazda javob berdi: Ular murdorni olovda kuydirayotganlarini so'zsiz o'ldirishlari kerak. Shundan keyin qozonni to'ntarib, o'choqni buzib tashlaydilar.

Bu hol, albatta, Markaziy Osiyo va Eron xalqlarining ko'p ming yillik tibbiy bilimlari va ularga qat'iy amal qilishlari bilan izohlanadi. Murdor(o'laksa)ni pishirishdan tiyilgan va tiygan odamlarga esa ma'naviy mukofot va'da qilingan. Buni quyidagi satrlarda ko'rishimiz mumkin bo'ladi: Ey olamni yaratgan Zot! Ey, haqiqat! Murdor yoquvchi olovni Bahrom oloviga aylantirgan kishining joni tanasidan bo'lgach, oqibati nechuk bo'ladi?

Axura Mazda javob berdi: Uning topg'usi oqibati bu moddiy olamda Bahrom oloviga un ming pora olovni keltirib qo'shgan bilan barobardir.

Ushbu o'rinda zikr etilgan Bahrom olovi haqida ayrim ma'lumotga ega bo'lsak, mazkur dasturning kuchini to'laroq tasavvur qilamiz. Otashi Bahrom yoki ozari Bahrom yetti xil otashkadadan (Sosoniylar davri) biri hisoblanib, maxsus bir otashkada nomi emas, balki Eronning ko'plab shaharlarida Ozari Bahrom qaror topgan edi. Ardasher Bobokon dushman changalidan qutulish uchun Fors qo'ltig'iga yetib keladi va u yerda Ardasher otliq qishloq barpo qiladi, daryo sohilida o'nta Ozari Bahrom barpo

qiladi. Zardo'shtiylarning e'tiqodiga ko'ra, taqvodorlarning har birida Ozari Bahrom bo'lmog'i kerak. Dindorlar dasturining ba'zilariga ko'ra esa, faqat bitta Ozari Bahrom bo'lmog'i kerak. Chunki, u shohdir va bir necha shoh bir iqlimga sig'maydi. Bugungi kunda Ozari Bahromning eng muhimi bundan yetti yuz yil avval bino qilingan Hindistondagi Navsoriy otashgohidir. Forsiy lug'atlarda "Bahrom otashkadasi" iborasi hamal Bahrom (Mirrix) doirasida bo'lgani uchun hamal burjidan kinoya, deb izohlangan.

Otashi Bahrom har birini tayyorlash qiyin va uzoq cho'ziladigan o'n olti xil turdagi olovdan tarkib topadi. O'n olti olovdan har biri marosimlar davomida to'plangandan keyin yilning oxirgi besh kunining birinchi kuni olovlarni bir otashdonga soladilar va yangi yilning birinchi kuni uning atrofida diniy qo'shiqlarni kuylaydilar.

Xulosa sifatida ta'kidlash mumkinki, "Avesto" dunyoga kela boshlagan davr Markaziy Osiyo va Eronda davlatchilik allaqachon shakllangan edi va bu hol "Avesto"ning mazmun-mohiyatida o'z aksini topgan. "Avesto", S.P.Tolstov ta'kidlaganidek, o'zining ko'p qatlamli va murakkabligi bilan e'tiborga loyiq. Unda aks etgan jamiyat va davlat doirasidagi rusum va qonun-qoidalar ma'lum bir tartibda izchil berilmasligi, tabiiydir. Birinchidan, biz "Avesto"ning asliy matniga ega emasmiz. Ikkinchidan, hozirgi kunda fanga ma'lum bo'lgan va jahonning ko'pgina tillari (jumladan, o'zbek tiliga ikki mutarjim M.Is'hoqov, A.Mahkam tomonidan) o'girilgan "Avesto"da qonun-qoidalarning asosiysi "Vandidod"da jamlanganiga ko'ra, bu tartib asliy matnda saqlangan bo'lsa kerak, degan xulosa chiqarish mumkin.

"Ilm sarchashmalari".

2007-4 son, 6-8-betlar.

“AVESTO” DA DAVLATCHILIK ATRIBUTLARINING AKS ETISHI

Uch ming yillik tariximizning muhim manbai bo‘lgan “Avesto” ma’lumotlari asosida biz o‘sha davr ijtimoiy hayotining ko‘p qirralarini o‘rganishimiz mumkin. “Avesto” olami o‘zining boy madaniy qatlami bilan insoniyat tarixida muhim o‘rin egallaydi. Bugungi kunlarda muhim mavzulardan biri “Avesto” davridagi jamiyat, uning tarkibi va ijtimoiy munosabatlar tarixi, davlatchilik atributikalarini yoritishdan iboratdir.

“Avesto”da ahmoniylargacha bo‘lgan geografik, hududiy nomlar, atamalar, ijtimoiy-iqtisodiy ma’lumotlar, siyosiy tarix, diniy-falsafiy va turli ma’lumotlar saqlangan. Unda jumladan shunday deyiladi: “O, Spitama Zaratushtra, yashaydigan joylarga, bu yerlarga baxtlik qancha kam bo‘lsada, tinchlik tortiq qildim. Birinchidan, odamlar yashashi uchun eng yaxshi mamlakatni, Vanxvi Datyo‘ daryosidagi Aryanam Vayjega asos soldim.

Ikkinchidan, men, Axuramazda, eng yaxshi mamlakatlar va o‘lkalardan bo‘lgan Gava So‘g‘da (So‘g‘diyona) makoniga asos soldim.

Uchinchidan, men, Axuramazda, eng yaxshi mamlakatlar va o‘lkalardan bo‘lgan qudratli Mouruga (Marg‘iyona) asos soldim.

To‘rtinchidan, men, Axuramazda, eng yaxshi mamlakatlar va o‘lkalardan bo‘lgan, baland bayroqlari bo‘lgan go‘zal Baxdi (Boxtar) ga asos soldim”¹².

¹² Ushbu mazmun Asqar Mahkam tomonidan amalga oshirilgan tarjimada ayrim ifoda o‘zgarishlari bilan berilgan. Qarang: Авесто. Тарихий-адабий ёдгорлик. Асқар Маҳкам таржимаси. “Шарқ”, 2001. –Т. : Б. 107. Biz ushbu tarjimada Jalil Do‘stxoh nashriga asoslandik. Avesto. Ko‘hantarin surudhoyi ironiyon. Tehron. Marvorid. 1991 m.

“Avesto”da tilga olingan juda ko‘plab mamlakatlar -O‘rta Osiyo va O‘rta Sharq, Afg‘oniston, Eronning shimoli-sharqiy hududlari bilan bog‘liqdir. Yasht qismlari ariylarning yerlari haqida quyidagicha e‘lon qiladi: “U mamlakatning jasur sardorlari ko‘pdan ko‘p harbiy yurishlar qiladi, uning keng yaylovlarga ega, suvga serob tog‘larida chorva tinch o‘tlov va yemish bilan ta‘minlangan, bu yerdagi sersuv chuqur ko‘llar to‘lqinlanib turadi, kema qatnaydigan keng daryolarning oqimi Pourutadagi Iskta, Xaravaydagi Mouru, So‘g‘ddagi Gava va Xvarizam tomoniga toshib intiladi”.

M.Ishoqov tarjimasida ushbu mazmun quyidagicha ifodalanadi:

*Botir shohlar so‘qish, jadalga,
Saflashuvchi o‘shal yerlarni,
Osmono‘par tog‘u toshlarni,
Sokin, bo‘liq yaylovlar ichra,
O‘tlab yurgan semiz mollarni,
To‘lqinlari baland sapchigan,
Chuqur moviy ko‘llarni ko‘rar.
Kema yurgich keng daryolar-u
Sokin suvlar o‘z oqimlarin
Parut Ishkata tomon,
Marvu Xarayva tomon,
So‘g‘ddagi Gava tomon,
Jadal eltishni ko‘rar
Va yo **Xvarizmi** tomon.*

Bundan tashqari “Avesto” da (Yasht, Ardvi Sura alqovi, Obon Yasht. 5-Yasht) Qang‘ muqaddas makoni tilga olingan:

Va tag‘in Ardviga,
“Menga Ber omad, - dedi.
- O, muqaddas Ardvi Sur,

Qo‘rqmas varsakining
Avlodlarini yengay,
Muqaddas Qang‘adagi
Xshatrosuk tangligi...”

Bu makonga tarjimon M. Is‘hoqov shunday izoh beradi: “Qang‘aning muqaddas makonlar qatorida alohida ta’kidlanishi Zardo’shtiylik va “Avesto”ning vatani Turonzamin, Amu va Sirdaryolar oralig‘ida bo‘lganiga yana bir dalildir”. Bu fikr Ilmda o‘z isbotini topib bormoqda.

“Avesto” ma’lumotlariga ko‘ra, eroniy sulolalaridan bo‘lgan Kayoniylar sulolasining so‘nggi vakillaridan biri Kavi Vishtasp payg‘ambar Zaratushtraga homiylik qiladi. Ko‘pchilik tadqiqotchilar Kavi Vishtaspni Boxtarda hukmronlik qilganini e’tirof etadilar. “Avesto” ma’lumotlariga ko‘ra, Kavi Vishtasp davrida davlat uyushmasi mavjud bo‘lgan. Misol uchun, Gohlarda Zardo’sht kichik hukmdorlarni urushlarni to‘xtatishga, kuchli va odil podsho qo‘l ostida birlashishga da’vat etadi. Aftidan, o‘sha paytdayoq kichik mulklarning yagona podshoh hukmronligi ostidagi nisbatan yirik siyosiy uyushmalarga birlashuvi boshlanadi. Payg‘ambar Zardo’sht va shoh Vishtasp bu birlashuvning tashabbuskorlari edilar.

O‘tgan asrning oxirlaridan boshlab, hozirgi kunga qadar “Avesto” ma’lumotlari (viloyatlarning Aryoshayona bo‘yicha birlashishi), Gerodot va Gekatey asarlari (“Katta Xorazm”), shuningdek, Ktesiyning qadimgi Boxtar podsholigi haqidagi ma’lumotlari va nihoyat, arxeologik tadqiqotlar natijalari O‘rta Osiyoda ilk davlat uyushmalarining paydo bo‘lishi muammolarini o‘rganish uchun asos bo‘lgan bo‘lishiga qaramasdan, qadimgi davlatlar hududlari, shakllari, boshqaruv tizimi va sanasi bilan

bog'liq bo'lgan mavzularning ko'pgina yo'nalishlari hamon ilmiy bahslarga sabab bo'lmoqda.

Ko'pchilik tadqiqotchilar O'rta Osiyoda ilk davlatlarning shakllanish va rivojlanish jarayonini ahmoniylargacha bo'lgan davrda deb hisoblaydilar va miloddan avvalgi IX-VII asrlar bilan belgilaydilar (M.Dunker, V.Tomashek, F.Altxaym, S.P.Tolstov, M.M.Dyakonov, I.M.Dyakonov, V.M.Masson, M.Dandamayev, Ya.G'ulomov, B.A.Litvinskiy, Ye.V. Rtveladze, I.V.Pyankov, A.S.Sagdullayev va boshqalar).

Ilmiy adabiyotlar O'rta Osiyoda ahmoniylargacha bo'lgan davrda mavjud bo'lgan quyidagi davlat uyushmalari haqida so'z yuritadi: 1. Aryoshayona - O'rta Osiyodagi qadimgi viloyatlarning "dahiyosasti" uyushmasi; 2. Aryanam Vayjex - bu ham Aryoshayonadek yoki uning markazi Ariya va Marg'iyonada bo'lgan "Katta Xorazm" yoki Amudaryoning quyi oqimidagi Xorazm davlati; 3. Qadimgi Boxtar davlati. 4. Ko'chmanchi qabilalar konfederatsiyasi.

Ilk davlatchilik masalasida juda ko'plab ilmiy bahslar bo'lib o'tgan bo'lishiga qaramay, bu masala hanuz o'z yechimini topgan deb hisoblanmaydi. Xususan, "Katta Xorazm" ("Avesto" tilida Xvarizam, qadimgi fors tilida Xvarazmish, qadimgi yunon tilida Xorasmiya) davlatining hududiy joylashuvi va paydo bo'lgan davri masalalari ham ancha munozarali mavzu. Arxeologik tadqiqotlar ayrim hollarda yozma manbalar ma'lumotlarini tasdiqlamaydi. Miloddan avvalgi IX-VIII asrlar Xorazm madaniyati Amirobod nomi bilan mashhurdir. Bu madaniyatning me'morchilik yodgorliklari, asosan, chayla va yarim yerto'lalardan iborat bo'lib, mustahkam turar joylar uchramaydi. Xorazmdagi dehqonchilikning rivojidan darak beruvchi yirik sugorish inshootlari, mustahkam

mudofaaga ega bo‘lgan turar joylar (Kuzalikir, Ding‘alja) miloddan avvalgi VI-V asrlarga oiddir.

Qadimgi Xorazmning joylashuv hududlari ham ancha munozarali mavzu hisoblanadi. Ayrim tadqiqotchilar (Tarn, Altxaym) ahmoniyargacha xorazmiylar Parfiya chegaralaridan sharqiy yo‘nalishda Kopetdog‘ yonbag‘irlarida joylashgan desalar, ayrimlari (Xenning, Gershevich) bu davlatning markazi Marv va Hirot atrofida bo‘lib, Kir II bosib olganidan so‘ng Quyi Amudaryoga - hozirgi Xorazm hududlariga ko‘chib o‘tgan deyдилar. Ayrim tadqiqotchilar fikricha (S.Tolstov, M.Vorobeva), qadimgi Xorazmning chegaralari hozirgi Xorazm hududlaridan ancha keng bo‘lib, O‘rta Amudaryodagi Qo‘shqal‘adan boshlab Orol dengizigacha bo‘lgan hududlarni o‘z ichiga olgan.

Umuman, mil. avv. VII asrning oxiri - VI asrda Xorazm davlati mavjud bo‘lganligi aniq. Bu davr Xorazmda qurilish va hunarmandchilik ancha rivojlangan. Tadqiqotlar natijasida bu hududlardan bronza va temirdan yasalgan mehnat hamda harbiy qurollar, sopol urchuqlar, bronza igna, bigizlar, sopol idishlar topilgan. Bu topilmalar qo‘shni Marg‘iyona, Boxtar va Sug‘diyona topilmalariga o‘xshab ketadi.

“Ilm sarchashmalari”.
2008, 4-son, 46-49-betlat.

“AVESTO” DA DAVLAT CHEGARALARI MASALASI

“Avesto”ni xalqimizning bebaho ma’naviy merosi bo‘lgan yozma yodgorliklar ichida davlat va jamiyat masalalari yoritilgan eng qadimiy manba sifatida e’tirof etishimiz mumkin.

“Avesto”ni davlatchilik tarixiga oid manba sifatidagi o‘rni o‘z vaqtida ko‘plab avestoshunoslar, tarixchilar tomonidan bir qadar o‘rganilgan. “Avesto”ning davlatchilik tarixining muqaddam manbasi ekanligini Prezidentimiz I.A.Karimov YUNESKO Ijroiya kengashining yakunlovchi 155-sessiyasidagi nutqida ta’kidlab, jumladan, “uchinchi ming yillik ibtidosida biz hozirgi O‘zbekiston hududida qadimiy sivilizatsiyaning, davlatchilik va Zardo’shtiylik dinining paydo bo‘lishi va rivojlanishi nuqtai nazaridan bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan, umumiy insoniyat taraqqiyotida yorqin iz qoldirgan ikki shonli sananing guvohi bo‘lamiz” degan edi¹³.

Jumladan, “Avesto”da ilk davlat atributlaridan biri bo‘lgan davlat chegaralari masalasi ham e’tiborga olinganini ko‘ramiz. “Avesto”ning “Vandidod” qismi birinchi fargardida Ahura Mazda yaratgan o‘n olti sarzamin haqida so‘z boradi. Ushbu o‘rinda o‘zbekchaga “**sarzamin**” tarzida tarjima qilingan so‘zning avestoviy shakli **karshwar** bo‘lib, “**mamlakat**”, “**davlat**” ma’nolarini beradi¹⁴. Pahlaviy tilida esa *kishvar* shaklini olgan¹⁵. Bu so‘zning “davlat” ma’nosi hozirgi fors tilidagi *kishvar* so‘zida ham saqlanib qolgan¹⁶. Hozirgi fors tilida “chegara”, “davlat chegarasi” ma’nosini

¹³ Авесто. Тарихий-адабий ёдгорлик. Аскар Маҳкам таржимаси. “Шарк”, 2001.Т.Б. 3.

¹⁴ Barthlomae Ch. Altiransihes Worterbuch. - Strassburg, 1950. p. 409.

¹⁵ Grundriss der Neupersischen Etymologie. Strassburg, 1893.p.858.

¹⁶ Персидско-русский словарь. М. 1983. Том II. С. 331.

“marz” so‘zi ifodalasa. uning “Avesto”dagi shakli “meruzu”dir. Mazkur so‘zning “uy”, “maskan” ma’nosidan o‘sib chiqqanligi ham davlatchilik tarixiga oid ilmiy fikrlarni quvvatlaydi¹⁷. “Vandidod”da shunday satrlar uchraydi: “Men - Axura Mazda - yaratgan ilk sarzamin va birlamchi yurt bu - Doitiyo daryosi sohilidagi xushmanzara Iyron Vij edi¹⁸”. Ushbu satrlarda tilga olingan Iyron Vij “Ayaesto”da Ayrana Vaija yoki Ayrana Vijanga bo‘lib, eroniylar yeri yoki eroniylarning asl vatani ma’nosini beradi. Bu nomning “Yangi Avesto”, hususan, “Vandidod”ning birinchi va ikkinchi fargardlarida muntazam takror ishlatilishidan eronshunos olimlar, qadimshunoslar yutuqlaridan ko‘rinadiki, Bu er Markaziy Osiyo, xususan, Xorazm hududi bo‘lgan¹⁹. Quyidagi satrlar nafaqat Xorazmning tarixiy hududini aniqroq tasavvur qilishga, balki, ushbu bebaho yozma yodgorlikning Xorazm zaminida vujudga kelganligini ilmiy jihatdan isbotlashda ahamiyati katta:

“Yaratguvchi Axura Mazda Iyron Vijdagi ezgu Doitiyo daryosi sohilida olam xudolari bilan anjuman o‘tkazdi.

Yaxshi suruvlar sohibi Jamshid (Jam) Iyron Vijdagi ezgu Doitiyo sohilidagi eng go‘zal odamlar bilan anjuman o‘tkazdi.

Yaratguvchi Axura Mazda Iyron Vijdagi ezgu Doitiyo daryosi sohilida olam xudolari bilan o‘sha anjumanga tashrif buyurdi²⁰.

Yaxshi suruvlar sohibi Jamshid (Jam) Iyron Vijdagi ezgu Doitiyo sohilida obro‘-e‘tiborli odamlar bilan o‘sha anjumanga tashrif buyurdi”.

Avestoning “Yashtlar” qismidagi “Tir yasht”da shunday satrlar bor: “Rayumand va farrixmand Tishtar yulduzini

¹⁷ Jamasp (Hoshshg). Vendidad. vol. II. Golossarial Index Bombay. 1907.

¹⁸ Авесто. Тарихий-адабий ёдгорлик. Аскар Маҳкам таржимаси. “Шарк”, 2001.-Т.: Б. 107.

¹⁹ Авесто. Жилди дўввўм. Мўтаржим профессор Жалил Дустхоҳ, Устои донешгоҳе Есфохон. Техрон. Марворид. 1991. с. 938.

²⁰ Авесто. Тарихий-адабий ёдгорлик. Аскар Маҳкам таржимаси.” Шарк”, 2001.- Т.: Б.

olqishlaymiz. U qudratli tirandoz Orshning yoy o‘qi Aryu Xshusa tog‘idan Xunvand tog‘i sari shiddat bilan uchib borgani kabi, Farog‘ Kart daryosi tomon shitob qiladi²¹”.

Ushbu satrlarda tilga olingan afsonaviy Orsh Manuchehr zamonida yashagan va Eron va Turon chegaralarini belgilash uchun Elburz tog‘ining cho‘qqisidan turib kamondan o‘q otadi. Abu Rayhon Beruniy Tir oyining bir kunida o‘tkaziladigan Zardo‘sh-tiylarning Tiyrgon bayrami haqida yozadi: “Manuchehr Afrosiyobdan yengilgach, Afrosiyob uni Tabaristonda tutqin qilib qo‘ydi hamda Eron va Turon chegarasini o‘q bilan aniqlashga qaror qildi. Shu payt farishta Isfandarmuz hozir bo‘ldi va “Abisto”da (Beruniy “Avesto”ni shu shaklda zikr etgan) ta’riflanganday o‘q-yoy keltirishlarini buyurdi. Shunda sharofatli donishmand va taqvodor Orshni kamon otish uchun olib keladilar. Orsh yalang‘ochlanadi va o‘z badanini hozir bo‘lganlarga ko‘rsatib dedi: “ – Ey podshoh, ey xaloyiq! Mening jismimga boqing! Menda hech qanday yara-chaqa va kasallik yo‘q. Lekin aniq bilamanki, ushbu o‘qni otgandan keyin parcha-parcha bo‘lib ketaman va jonimni sizga fido qilaman”. Keyin qo‘lini kamonga uzatadi va xudo qudrati bilan o‘q kamondan ayrilgach, o‘zi jon berdi. Xudo shamolga o‘qni saqlashni buyurdi. O‘sha o‘q Ro‘yon tog‘idan Sharqning eng uzoq nuqtasi Farg‘onaga yetdi va dunyoda undan katta daraxt bo‘lmagan bir daraxt ildiziga qadaldi. O‘sha joyni Eron va Turon chegarasi qilib belgiladilar. Naql qilishlaricha, o‘q otilgan joyidan qadalgan joyigacha olti ming farsang edi. Tiyrgon bayrami Eron va Turon o‘rtasidagi sulh munosabati bilan yuzaga kelgan”²². Bu borada Beruniy anchayin

²¹ “Авесто. Тарихий-адабий ёдгорлик. Аскар Маҳкам таржимаси.” Шарк”, 2001.-Т.: Б. 234.

²² انتشارات امیر کبیر. ترجمه اکبر دانا سرشت، آثار اثار الباقیه. بیرونی ابو ریحان محمد ابن احمد. 1323 هـ. تهران

mukammal ma’lumotlar beradiki, shularga asoslanib avestoshunos Jalil Dustxoh yozadi: “ ... Bugungi “Avesto”da Orshga faqat bir ishora bor va uning qissalarida Orsh haqda so‘z yo‘q. Abu Rayhon Beruniy so‘zlaridan ma’lum bo‘ladiki, u yashagan vaqtdagi “Avesto” bugungi “Avesto”dan mukammalroq bo‘lgan”²³. Yuqorida tilga olingan Farg‘ona toponimida uning tarixiy hududi nazarda tutilishini ham e’tibordan soqit qilmasligimiz kerak. Davlat chegaralari masalasining bu tarzda afsona qobig‘ida bayon qilinishi ham “Avesto”ning tadqiq qilinayotgan muammo borasida ajdodlarimizdan meros ilk yozma manba ekanligini tasdiqlaydi.

Shuningdek, Eron va Turon sarhadlari masalasi Afrosiyob (turkiy manbalarda Alp Er To‘nga) nomi qayd etilgan o‘rinlarda ham uchraydi.

Umuman, “Avesto”da davlatchilik tarixining yoritilishi haqida gapirar ekanmiz, tarix va adabiyotshunoslik ilmida ko‘plab e’tibor qaratilgan odil shoh g‘oyasining ildizi ham ushbu qadim yodnomaga borib taqalishini ta’kidlash zarur. Chunki, avestoshunoslar tomonidan unda uchraydigan davlatchilikka oid atamalardan biri husravah (shoh, podshoh, hozirgi fors tilida “xusrav”) so‘zi aslida “ezgu nom” va “mashxur” ma’nosidan kelib chiqqani qayd qilinadi²⁴.

Jahon avestoshunosligida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarni o‘rganish natijasida ushbu bebaho yodgorlikning davlatchilik tariximizni tadqiq qilishda qanchalik katta ahamiyatga ega ekanligini ko‘ramiz.

“Ilm sarchashmalari”. 2007-2-son, 16-18-betlar.

²³ Авесто. Жилди дуввўм. Мўтаржим профессор Жалил Дустхох. Устоди донешгоҳе Есфохон. – Техрон. Марворид. 1991. с.898.

²⁴ Grundriss der iranischen Philologie, herausgegeben von Wilh. Geiger und Ernst Kuhn Band I. - Strassburg, 1896. p. 193.

“AVESTO”DA VARAXRAN OBRAZINING TIMSOLY TALQINLARI

“Avesto”dagi tabiat kul’tiga aloqador mifologik personajlar tizimida turli xil jonivorlarning timsollashtirilgan obrazlari ham, alohida mavqega ega. Zardo’shtiylar sigir, it, tuya, qo‘chqor, qobon, ot va qushlarni mo‘tabar deb bilganlar. Zardo’shtiylarning jonivorlar kul’ti bilan bog‘liq mifologik tasavvurlari “Baxran yasht”da saqlanib qolgan.

Ma’lumki, “Dinkard” kitobida qayd qilinishicha, “Avesto”ning o‘n to‘rtinchi yashti g‘alaba va shon-shuhrat ma’budi, adolat va imon posboni Varaxran (“Avesto” talqinicha, Veretragna)ga bag‘ishlangan. Ezgu niyat sohiblariga omad va g‘oliblik baxsh etuvchi mo‘tabar ilohlardan biri hisoblangan Varaxran Axuramazda tomonidan yaratilgan. Shuning uchun u Axriman tarafdorlariga qarshi kurashib, hamisha ezgu so‘z, ezgu amal va ezgu fikrni qo‘llab-quvvatlaydi deb tasavvur qilingan. Varaxranning “Baxran yasht” alqovidagi talqinlari ham ajdodlarimizning ana shu mifologik tasavvurlarini o‘zida mujassamlashtirgan. Varaxran obrazining mifologik qiyofasi bu ma’budaning Zardo’sht huzurida hozir bo‘lishi tasvirida o‘ziga xos tarzda talqin qilingan. Bu lavhalar tabiat kul’tining o‘ziga xos ko‘rinishlaridan biri-jonvorlarni timsollashtirish an’anasining “Avesto”dagi mifologik talqinlarni o‘rganishda ham muhim ahamiyatga ega.

Ma’lumki, qadimgi mifologik tasavvurlarga ko‘ra, insonga homiylik qiluvchi g‘ayri oddiy kuchlar turli xil ko‘rinishda namoyon bo‘lishi xususiyatiga ega deb qaralgan. Shuning uchun ham xalqimiz orasida oq ilonni arvoh deb o‘ylab, uning ustidan un

sochish odati (1), qo‘yni esa bobolar ruhi deb tushunish, arvoq kapalakka ishonish udumlari, shuningdek, sehrli ertaklarda afsonaviy homiylarning turli-tuman jonivorlarga aylana olishi bayon etilgan motivlarning mavjudligi ham bejiz emas.

Jahon xalqlari folklorining universal epik motivlaridan biri hisoblangan evrilish hodisasining mifologik talqini “Baxran yasht”da ham qo‘llanilgan. Bu motiv Varaxranning Zardo‘sh tuzurida bir necha xil ko‘rinishda namoyon bo‘lishi tarzida ifodalangan.

Zardo‘sh Axuramazdaga murojaat qilib, dunyoda eng kuchli ba eng qudratli zot kim deb so‘raganda, u Varaxran haqidagi so‘zlaydi. Shundan keyin Varaxran ilk bor Zardo‘shning tuzuriga shamol bo‘lib keladi. Varaxranning Zardo‘sh tuzuriga ikkinchi marta kelishi tasvirida esa ma‘bud “oltin muguzli buqa” sifatida namoyon bo‘ladi. Bu oddiy buqa emas, balki shohlarning o‘rtasida kuch-qudrat o‘rlab turgan ilohiy bir xilqatdir:

Oltin muguz buqadek

Ko‘rinib Zardo‘sh tomon

Ikkinchi bor namoyon

Axuradan yaralgan.

Shohlari o‘rtasidan

Kuch, Qudrat hovri o‘rlar

Shunda bo‘ldi namoyon

Axuradan yaralgan.(3)

Qahramonning buqa-ho‘kiz sifatida tasvirlanishi ham O‘rta Osiyo xalqlari mifologiyasining qadimiy motivlaridan biri. Zardo‘shiylik asotirlaridagi ilk odam-Gavomard (Qayumars) ham yarmi inson, yarmi ho‘kiz ko‘rinishida tasavvur qilingan. Buqa yoki ho‘kiz kul‘ti hosildorlik inonchi bilan bog‘liq holda kelib chiqqan bo‘lib, mamlakatimizda olib borilgan arxeologik qidiruvlar chog‘ida

bu jonivor tasviri tushirilgan ko'pgina lavhalar, buqa haykalchalari topilgan.(4)

Varaxranning timsoliy ko'rinishlari orasida uning oq ot tarzida namoyon bo'lishi tasviri alohida o'rin tutadi. Zardo'sht huzuriga uchinchi marta kelganida u oltin yuganli, oltin quloqli ot bo'lib ko'rinadi:

*Uchinchi bor Varaxran
Zardo'shtga ko'rinibdi,
Axuradan yaralgan
Oppoq ot, oltin yugan,
Oltin quloq bir jiyron.(5)*

Bu lavhadan ko'rinib turibdiki, Varaxran obraziga xos yetakchi belgilardan biri, ya'ni uning kuch-qudrat timsoli sifatida sharaflanishi o'z aksini topgan. Uning oltin shohlari uzra kuch-qudrat ramzi sifatida tasavvur qilingan. Qadimda podsholar taxtining tuya shaklida yasalganligining asosi ham ana shunda. Etnograf G.P.Snesarevning ma'lumot berishicha, tuya kul'tining izlari xorazmliklarning islomdan oldingi marosim va udumlarida ham saqlanib qolgan. Xususan tuya kul'tining mo'tabar va pok jonivor deb e'zozlash, ularni daryo suvini boshqarib turadigan afsonaviy kuch-arallar nomi bilan atash, "tuyako'z" deb ataluvchi tumorlarni taqish, tuya junini magik xususiyatiga ega bo'lgan ashyo sifatida qadrlash kabi udumlar (6) zamirida bu jonivor kul'ti bilan aloqador qadimgi mifologik tushunchalar yotadi.

O'rta Osiyo xalqlari mifologiyasida tuya kul'ti kata ahamiyatga ega bo'lganligini arxeologik materiallar ham tasdiqlaydi. Xususan, Varaxsha va Toshkentdan topilgan qadimiy tangalarda, Panjikentdan topilgan muhrda, Samarqand va Marv shaharlarida aniqlangan terrakota haykalchalarida tuya tasviri tushirilganligi ma'lum. Bu materiallardagi tasvirlarda O'rta Osiyoda

qadim vaqtlarda shakllangan tuya kul’ti o‘z ifodasini topganligi va bu an’ana “Avesto” mifologiyasi bilan bog‘liqligi L.I.Rempel tomonidan ham qayd qilingan. (5.31-bet).

Darhaqiqat, “Avesto”da Veretragnaning to‘rtinchi marta Zardo’sht qoshiga kelishi lavhasida bu ma’bud tuya ko‘rinishida namoyon bo‘lganligi tasvirlangan:

*To‘rtinchi bor Bahrom
Zo‘r tuya bo‘b ko‘rindi,
Shiddatkor mayin juni
Kiyimbop, qoyilmaqom. (73-bet)*

Zardo’shtiyalar Veretragnaning timsoliy ko‘rinishlaridan birinchi tishlari o‘tkir kabob sifatida yovvoyi hayvon bo‘lib, o‘zining nihoyatda kuchliligi va tezkorligi bilan ajralib turadi. Uning ana shu sifatleri Veretragnaning jangovorligi va kuchliligiga o‘xshatilgan va natijada kuydagi mifologik tasavvur qilganlar. Ma’lumki, qobon yovvoyi hayvon bo‘lib, o‘zining nihoyatda kuchliligi va tezkorligi bilan ajralib turadi. Uning ana shu sifatlar Veretragnaning jangovorligi va kuchliligiga o‘xshatilgan va natijada quydagi mifologik tasavvur kelib chiqqan:

*Beshinchi bor Zardo’shtga
Ko‘rindi Axur Mazda
Yaratgan Veretragna,
Darg‘azab qobon misol.*

Shuningdek, “Bahrom yasht”da Varaxranning tog‘ qo‘chqori, yovvoyi taka ko‘rinishidagi timsoliy obrazlari ham tasvirlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Снесарев Г.П Релекты домусильманских верований и обрядов у узбеков Хорезма. -М.,Наука 1969,с.114.

2. Жўраев М. Ўзбек халқ наصري жанрларини тасниф қилиш безонлари // Ўзбеке тили ва адабиёти, 1996, 5-сон, 36-бет.

3. Авесто. Бахром яшит. || Ўзбек тили ва адабиёти, 2000, 2-сон. 73-бет (М.Исхоқов таржимаси)

4. Ремпел Л.И.Цеп времен. Вековые образы и бродячие сюжеты в традиционном искусстве Средней Азии. -Тошкент, 1987,с.22-24; Беленицкий А.М.Изображение быка на памятниках искусства древнего Панджекента (К истории зооморфизма в древнем изобразительном искусстве Средней Азии) // Этнография и археология Средней Азии. -М.,1979,с.88-94.

Urganch davlat universiteti, Xorazm ma'mun akademiyasi.

“FILOLOGIK TADQIQOTLAR”.

Toshkent – 2002, 56-59-betlar.

“AVESTO”DAGI VAYU OBRAZINING FUNKSIONAL TAHLILIGA DOIR

“Avesto”dagi tabiat kul’tlari sistemasidagi mifologik personajlar orasida shamol ma’budi obrazi mavjud bo‘lgan. Vaynu va Vata deb atalgan bu ma’budlar dualistik qarashlar ta’sirida yovuz hamda ezgu shamollarga bo‘lingan. M.Boysning qayd qilishicha, Vata-yomg‘irli bulutlarni olib keluvchi shamol ma’budi bo‘lsa, Vayu yengilgina shabada timsoli hisoblangan. Shuning uchun ham “Rigveda”da Vaynu “ma’budlar ruhi” deb ta’riflangan.²⁵

“Avesto” mifologiyasi bo‘yicha, Vayu Axuramazda tomonidan yaratilgan iloh bo‘lib, muqaddas ichimlik xaomani ilk bor tatib ko‘rish sharafiga muyassar bo‘lgan. Zamin bilan Osmon oralig‘idagi bo‘shliqni to‘ldirib turuvchi Vayuning asosiy vazifasi olamdagi tartibotni saqlab turish, yomg‘irli bulutlarni olib kelish, ezgulikni himoya qilishdan iboratdir. Vayu “Yasna”da Vayu ezgu ma’bud sifatida e’tirof etilmaydi. Bu esa qachonlardir shamol ma’budi ezgulik va yovuzlik haqidagi tushunchalar ta’sirida ikki xil stixiya ifodasi sifatida tasavvur qilinganligini ko‘rsatadi. Keyinchalik Vayu ezgu ma’bud sifatida tan olingan va yazatlar qatorida sanaladigan bo‘lgan.

Vayuning shaxslantirilgan tasviriga ko‘ra, u oltin dubulg‘a kiygan, oltin tojli, oyoq kiyimlari va jangovar aravasi ham tillodan yasalgan. Vayu eng e’tiborli ma’budlardan biri bo‘lganligi uchun Axuramazdaning o‘zi Aryana Vayejadagi Doitiya datyosining taxtda o‘tirgancha Vayu haqiga xaoma va barsman bilan namoz keltirib, yovuz ruh Angromaynyuni yengishda omad baxsh etishini tilagan.

²⁵ Бойс М. Зороастрийцы. Верования и обычаи. – М.: Наука, 1987, С.14.

Vayu ham uning iltijosini qabul qilib, Axuramazdaga shunday omadni baxsh etgan.

Vayu obrazi talqiniga xos yana bir xususiyat shundan iboratki, “Avesto”da u botir jangchi, yovuzlik bilan ezgulik, zamin bilan osmon o‘rtasidagi vosita sifatida ham tasvirlangan. Harbiy kuch timsoli sharafiga bag‘ishlangan “Baxran yasht”da bahodir Varaxran ilk bor Zardo‘shning qoshida qudratli shamol sifatida paydo bo‘ladi:

*Zardushdga paydo shu on
Bo‘ldi ilohiy Baxran
Birinchi bor ko‘rindi
Axur Mazda yaratgan
Kuchli shamol bo‘lib, u
Va lekin xush, yoqimli.
Qanotida Xvarno
Balolardan qutqar
Qudratli tanti barno.²⁶*

Shu o‘rinda Vayu – shamol ma’budining mifologik personaj sifatidagi funksiyasini oydinlashtiruvchi ma’lumotlar mavjud. Zardo‘sh tiylar Vayuni yovuz kuchlarga qarshi kurashuvchi eng qudratli, Vayuning o‘z so‘zlari orqali shunday berilgan:

*Va Zardo‘sh tga dedi:
“Qudratidan kuchliman,
Himoyati ihotam.
Menman ezgu ma’murlik
Men senga eng mehribon,
Ezgulik hosilimdir
Dardga em bo‘lg‘ich (malham).*

²⁶ Авесто. Яшт китоб // М. Исхоқов таржимаси. –Тошкент: “Шарқ”, 2001.95-бет

*Men odamlar va devlar
Yovligin etib barham,
Alvasti-yu jodugar,
Zolim kayoniylarni
Karapanlarning barin,
(Yenggay, iloh madadkor).²⁷*

Qadimgi odam tabiat hodisalarini jonlantirib tasavvur qilingani sababli shamolning ham shaxslantirilgan mifologik obrazini yaratgan. Bu obraz haqidagi xalq qarashlarining tadrijiy rivoji natijasida shamol tangrilari, bu tabiiy hodisani o‘ziga bo‘ysundirgan deb tasavvur qilinuvchi afsonaviy ilohalar to‘g‘risidagi mifik tushunchalar kelib chiqqan. Shamolni kuch-qudrat, g‘oliblik va erkinlik ramzi deb bilgan Zardo‘sh tiylar uni shon-sharaf ma‘budi Varaxranning timsoliy ko‘rinishlaridan biri sifatida tasavvur qilganlar.

ADABIYOTLAR:

1. *Бойс М. Зороастрийцы. Верования и обычаи. М., 1987, с. 14*
2. *Авесто Варахран алқови // “ Ўзбек тили ва адабиёти”, 2000, 2-сон, 72-бет. (М. Исхоқов таржимаси).*
3. *Ўша манба, 73-бет.*

**УРҒАНЧ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ,
ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ.
“ХОРАЗМ ФОЛЬКЛОРИ”, IV ТОМ. ТОШКЕНТ-2002. (60-62-бетлар)**

²⁷ Авесто. Яшт китоб // М. Исхоқов таржимаси. –Тошкент: “Шарқ”, 2001.95-бет

“AVESTO” DA YOMG‘IR OTI OBRAZI

“Avesto” mifologiyasiga ko‘ra hosildorlik, mo‘l-ko‘lchilik, daryo suvining to‘lib oqishi qut-baraka timsoli sifatida tasavvur qilinadigan Ardivisura Anaxitaga bag‘ishlangan alohida “Yasht” mavjud. Unda talqin qilinishicha, Ardivisura “non-u rizq o‘stiruvchi”, “podani to‘ydiruvchi”, yerlar sahnidagi yurtlarni yashnatuvchi”, ezgulik timsolidir Ardivisura zaminiga hayot baxsh etuvchi, suvga baraka beruvchi va daryo suvlarining homiysi sifatida gavdalanadi. Zardo‘shiylik ta‘limoti keng yoyilgan davrlarda Ardivisura Anaxita- mo‘l hosil timsoli sanalgan Muqaddas Ona obrazining qiyofasi tasvirlangan sopol va tosh haykalchalar har bir xonadonda mavjud bo‘lgan. O‘rta Osiyodagi qadimiy qal‘a va shaharlarda olib borilgan arxeologik qazish ishlari chog‘ida topilgan ayol iloha ma‘buda haykalchalarining aksariyati Anaxitaning timsoli ekanligi mutaxassislar tomonidan qayd qilingan.

Ardivisura Anaxitaning haykalchalari sifatidagi timsoliy ko‘rinishlari yaratilishiga bu mifologik obrazning “Avesto”dagi talqinlari asos bo‘lganligiga shubha yo‘q.

“Ardivisura alqovi”ning 126-127 bandlarida suv va hosildorlik timsoli quyidagicha tasvirlangan.

*Ko‘zga ko‘rinib keldi,
Muqaddas Ardivi Sura,
Yosh nihol go‘zal qizdek,
Lek qudratli, purviqor.
Bo‘yi adl, sarvqomat,
Nur taratib ilohiy.
Oliyjanob, purhimmat.
Bashang kamzuli yengli,*

*Oltin-ziynatli yengli,
 Barsman xipchin qo‘lida,
 Ko‘z-ko‘z qilar sirg‘asi.
 To‘rt qirra quyma oltin
 Axuradan nok xilqat,
 Ardvi go‘zal bo‘yniga
 Taqqan Marjon shodasi.2*

Ko‘rinadiki, Ardvisura Anaxita bag‘oyat suluv qiz suvratida tasavvur qilingan. Qaddi-qomati kelishgan bu yosh ma‘buda zebu ziynatlarga burkanganu qo‘lida Zardo‘sh tiylarning muqaddas timsollaridan biri-barsman navdalarini ushlab turganligi madh etiladi. Shu bois bo‘lsa kerak, mamlakatimiz hududidan topilgan asori antiqalarda bu go‘zal ma‘buda bug‘doy boshog‘i, daraxt novdasi, gul, meva yoki bola ushlab turgan yosh, navqiron ayol sifatida gavalantirilganligini ko‘ramiz.

Ma‘lumki, klassik mifologiyada ma‘budalar muayyan jonivor, o‘simlik, narsa-hodisalardan iborat o‘ziga xos atributlari bilan xarakterlanadi. Bunday atributlar mifologik persanaj mohiyatini oydinlashtirishga xizmat qiladi. Yuqorida qayd qilinganidek, barsman (yoki o‘simlik novdasi, bug‘doy poyasi, ho‘l meva va h.k. tarzidagi ekvivalentlari) Ardvisura anaxitaning muqaddaslik alomati deb qaralgan bo‘lsa, ma‘budaning haykalchalarida chaqoloq ko‘tarib turganligi ifodalanishi esa uning asli homiysi, qut-baraka timsoli deb tasavvur qilinganligidan dalolat beradi. “Yasht”lar talqiniga ko‘ra, Xukariya cho‘qqisidan suv olib, Vorukash dengiziga quyadigan muqaddas Ardvisura to‘rtta oq ot qo‘shilgan arobada borayotgan “oq bilakli go‘zal”dir:

*Mana, Ardvi arobada,
 Tizgin tutib boradi...*

*Bir xil zotli to‘rt oq toy,
Uni eltmoqda ravon.
Bu toylar-chi, beomon,
Devlar-u jodugarlik,
Jinlaru inson aro
Yovlikka solar qiron.*

Ko‘rib turganimizdek, Ardvisuraning ilohiyligi, qudratli va ezgu niyatli ma‘buda ekanligini anglatuvchi belgilardan biri uning mifologik artibutlari vazifasini bajaruvchi “to‘rt oq toy”dir. Bu otlarning shunchaki afsonaviy arobani tortuvchi jonivorlar deb baxolab bo‘lmaydi. Avvalo ularning oq rangli ekanligi ilohiylik, magik sifatga egalik, o‘zga olamga taaluqlilik alomatidir. Fikrimizcha, Ardvisura otlarining oq rangli bo‘lishi ularning ilohiy jonzot, ya‘ni hosildorlik ma‘budasiga daxldorligini ko‘rsatuvchi yetakchi semantik belgidir. Bu otlar oddiy jonivor emas, balki samoviy tulporlar hisoblanadi. Samoviylik ifodasi esa rang timsoli (oq)da mujassamlashgan.

Otlarning mifologik tabiatini belgilovchi ikkinchi xossasi esa ularning beqiyos magik xususiyatiga egaligida ko‘rinadi. Ana shunday magik xususiyati tufayli ular “devlaru jodugarlar, jinlaru yovuz insonlarga qiron solib” suv va mo‘l hosil timsoli Ardvisurani himoya qilishadi. Demak, Axuramazda tomonidan hadya etilgan to‘rtta oq ot Ardvisurani himoya qiluvchi mifologik jonivorlardir.

Tarixiy-arxeologik ma‘lumotlarning guvohlik berishicha, ma‘budalarning otlar bilan birgalikdagi tasviri ifodalangan lavhalar juda ko‘plab osori antiqalarda qayd qilingan. Xususan, Samarqand tarix muzeyiga xususiy kaleksiyadan qabul qilib olingan bir qadimiy muhrda yengilgina qanotlari hilpirab turgan ma‘buda qulochini yozganicha ikki ot ustida borayotganligi tasvirlangan. L.I.Rempelning qayd qilishicha, ikki tomonga qarab turgan otlar

yag‘rini ko‘rinishidagi taxtda o‘tirgan ma’buda haykalchasi bronza asriga mansub yodgorliklar sirasiga kiradi. Hosildorlik ma’budasining tulporlar bilan birga tasvirlanishi samo bilan bog‘liqligi va nur, ezgulikni o‘zida mujassamlashtirganligidan dalolat beradi. Darhaqiqat, to‘rt oq ot Ardivisuraning hosildorlik, qut-baraka va ezgulik ma’budasi ekanligini ko‘rsatuvchi zoomorf mifologik timsoldir.

Yevroosiyo mifologik an‘analarining tizimining yetakchi personajlaridan biri hisoblangan ot obrazi bir qator tangri va ma’budalarning atributi vazifasini bajarishini V.V.Ivanov ham ta’kidlagan edi. Hind-yevropa mifologiyasida ma’budalarning ot qo‘shilgan samoviy aravada yurishi an’anaviy epik motivlardan biridir.

Ardivisura ham to‘rt oq toy qo‘shilgan aravada yurib, daryo suvi limmo-limligi, dalalarda o‘t-o‘lanlanlarning baravj o‘sishi, ekinzorlarda, bog-‘rog‘lar barakasi, oila farovonligini ta’minlab turadigan ma’buda sifatida tasvirlanadi. Demak, otlar Ardivisuraning yetakchi atributi, uning ezgulik homiysi sifatidagi mifologik xossalarini yuzaga chiqaruvchi vositadir.

“Avesto”da Ardivisuraning otlar bajaradigan funksiyalar va ularning mifologik tabiati haqida ma’lumotlar berilgan, 5-yashtning 120-bandida “to‘rt oq toy”ning funksional-semantik mohiyati quydagicha oydinlashtiradi:

*Ardivisura xizmatiga,
Akuda to‘rt ot berdi.
Bir tulpori Yomg‘irdir,
Biri El, biri Bulut,
Subli bulut birla dul.
Uni doim qo‘riqlab,
Subin mo‘l-ko‘l qilarlar.*

*Shudringu qor, do‘lu muz,
Ardivisurani to‘lg‘iz.*

Bu Yashtda Ardivisura yomg‘ir, shamol, bulut va do‘lning mifologik talqini sifatida ifodalangan to‘rt ot do‘lning mifologik talqini sifatida ifodalangan to‘rt ot qo‘yilgan arobada borayotgan tez oqar sersuv daryo misolida tasvirlanmoqda. Yomg‘ir, shamol, bulut va do‘l Ardivisuraning doimiy posboni, uning suvini mo‘l-ko‘l ushlab turish vazifasini bajaruvchi mifologik obraz hisoblanadi. Bu obrazlar Zardo‘shiylik ta‘limoti va “Avesto” mifologik qatlamlarida muhim ahamiyat kasb etuvchi tabiat kul‘tining zoomorf timsolidir.

Ardivisuraning to‘rt oq oti tabiat hodisalarining timsollashtirilgan mifologik talqini bo‘lib, ularga xos yetakchi funksional xossa-suv stixiyasi bilan bog‘liqdir.

Otning suv manbalari, xususan, yomg‘ir bilan aloqadorligi “Avesto” mifologiyasi uchun an‘anaviy hodisa hisoblanadi. Xususan, oq ot ko‘rinishida tasavvur qilingan. Tishtariyaning oq ot shaklidagi talqini va Ardivisuraning to‘rt nafar oq toydagi birinchisi - Yomg‘ir oti obrazlarining mifologik tabiati hamda genezisi mushtarak zaminga ega deb o‘ylaymiz .

“Avesto” mifologik qatlamiga taalluqli bo‘lgan bu motiv va e‘tiqodiy qarashlar o‘zbek xalq muhim rol o‘ynagan. Mashhur olim X. Zarifov o‘zbek xalq dostonlaridagi epik otlar suv tulporlaridan tug‘ilgan deb tasvirlanishi, topishmoqlardan ot, suv, daryo, ko‘l obrazining poetik atributlaridan biri bo‘lib kelishi va qadimda Balx daryosining nomi “Fariasp” ekanligiga asoslanib quyidagi xulosaga kelgan edi:

“Demak, tulpor ot suv ma‘buda yoki suv ma‘budi bilan yaqin munosabatda bo‘lgan ilohiy kuchlaridan biri bo‘lib, yaxshiliklarni himoya qilishda, yomonlik hamda yovuzlarga qarshi kurashda

yordam beradi. Ot obrazining bu xususiyatlari uning suv xudosi Anaxita (Noxit) bilan aloqasi borligidan darak beradi”.

Chindan ham o‘zbek xalq topishmoqlarida ot obrazi daryo, suv, soy, yomg‘ir, qor, yel, tumanning epiteti bo‘lib keladi. Xususan, quyidagi jumboqqa e’tibor beraylik:

Bizning, bizning, bizning ot

Bizanglaydi bizning ot,

Oyog‘ida gul-kishan,

Guldiraydi bizning ot.

Bu topishmoqning javobi “daryo”dir. Daryoning oqishini otning yelishiga, uning sharqirab, guldirashini samoviy tulporning kishnashiga o‘xshatish ham mavjud. Masalan, sharq folklorida saqlanib qolgan qadimgi turkiy afsonalardan birida aytilishicha, ulkan tangri Oqbuzot deb atalgan tulporni minib osmonning birinchi qavatida sayr qilib yurganida momoqaldiroq gumburlar emish. Ya’ni ulkan otini qamchi bilan urganda momoqaldiroq bo‘larmish.

Qozoqlar esa momoqaldiroq gumburlashini eshitib qolishsa “Ko‘kning ayg‘iri kishnadi” deyishar ekan.

Bu dalillarning barchasi qadimgi turkiy mifologiyada yomg‘ir, momoqaldiroq, chaqmoq kabi tabiiy hodisalarning voqea bo‘lishini samoviy tulpor faoliyati bilan bog‘lab talqin qilishi an’anasi mavjud bo‘lganligini ko‘rsatadi.

Ardvisuraning to‘rtta oq ot qo‘shilgan aravada yurishini suv stixiyasi bilan tasvirlash an’anasining eng tugal epik transformatsiyasi o‘zbek folkloridagina mavjuddir. Bu fikrni isbotlash uchun bizda hozircha ikki dalil bor. Birinchisi folklorshunos M. Jo‘rayev tomonidan oqqorg‘onlik M.Maqsudovadan yozib olgan quyidagi samoviy qarashdir: aytishlaricha, tangri aravasini qo‘shirib, osmonu falak bo‘ylab sayrga chiqqanida, arava g‘ildiraklarining ovozi momoqaldiroq bo‘lib eshtilar emish. Olim

mazkur afsonada “O‘rta Osiyoda yashagan turkiy qavmlarning Zardo‘shiylik bilan bog‘liq qarashlari” aks ettirilganligi to‘g‘ri qayt qilingan.

Fikrimizcha bu mifologik e‘tiqod to‘rt ot-yomg‘ir, shamol, bulut va do‘l otlar qo‘shilgan aravada viqor bilan o‘tirgan Ardvisuraning samoda aylanib yurib, momoqaldiroq gumburlatish, bulutlarni quyuqlashtirib yomg‘ir yog‘dirishi to‘g‘risidagi qadimiy tasavvurlar asosida kelib chiqqan. Chamasi, xalqimiz orasida yomg‘ir va momoqaldiroq haqidagi samoviy afsonaning “Avesto” mifologik qatlami ta‘sirida shakillangan namunalar mavjud bo‘lgan. Oq qo‘rg‘onda qayd qilingan e‘tiqodiy qarash esa shu samoviy afsona syujetining mifologik tasavvur holida saqlanib qolgan ko‘rinishidir.

Ardvisura otlarning obrazi tabiat kul‘tiga ishonch an‘anasi bilan aloqador mifologik tasavvurlar silsilasining sintezi sifatida yuzaga kelganligi va bu ishonchlar o‘zbek folklorining epik janrlari obrazlar tizimida o‘z badiiy ifodasini topganligining ikkinchi dalili “Yomg‘ir oti” obrazidir. Yomg‘ir oti Xorazm ertaklarida qayd qilingan hayotiy mifologik obraz bo‘lib, qahramonning g‘ayrioddiy sarguzashtlarida ishtirok etadi.

“Avesto”ning yaratilish o‘rnini ko‘pgina olimlar Xorazm vohasi deb e‘tirof etishganligi va xorazmliklarining urf – odat, marosim hamda folklorida Zardo‘shiylikka aloqador an‘analarining izlari hanuzgacha saqlanib kelayotganini hisobga olsak, Xorazm ertaklarida Yomg‘ir oti obrazining uchrashi tabiiyligi ma‘lum bo‘ladi. Yomg‘ir oti obrazi bevosita Ardvisura Anaxitaning to‘rt samoviy bedovidan birinchisi Yomg‘ir tulpori to‘risidagi mifologik tasavvurning epik diffuziyasi natijasida shakillangan

Yuqorida ko‘rib o‘tilgan masalalar yuzasidan chiqargan xulosalarimizni shunday umumlashtirishimiz mumkin:

1) Ardivisura Anaxita- suv, mo‘l hosil, qut-baraka timsoli sifatida tasavvur qilingan mifologik obraz. Besh-yasht alqovlarida bu mifologik obraz to‘lib oqqan daryo, suv ma’budasi, navqiron go‘zal qiz suratida tasvirlangan;

2) Ardivisura obrazining mifologik mohiyatini oydinlashtiruvchi poetik detallardan biri bu ma’budaning doimiy atributi sifatida tasavvur qilingan to‘rtta oq ot-yomg‘ir, shamol, bulut va do‘l singari tabiat hodisalarining mifologik timsolidir.

3) Ardivisuraning doimiy suv bilan ta’minlab turish, uni yovuz kuchlar xurujidan himoya qilish va mifologik tabiatini belgilash vazifasini bajaruvchi to‘rt ot obrazi O‘rta Osiyoda yashagan qadimgi dehqonlarning tabiat hodisalarini timsollashtirish bilan bog‘liq animistik qarashlari va agrar kul’tlari asosida kelib chiqqan;

4) “Avesto”dagi mifologik qatlamning epik diffuziyasi natijasida Ardivisura otlarining asotiriy mohiyatiga aloqador qadimiy inonchlar tizimi ham epik an’anaga singib ketgan. U epik ot shajarasining afsonaviy suv tulpori bilan bog‘liqligi haqidagi afsonalar yomg‘ir va momoqaldiroq to‘g‘risidagi xalq qarashlari silsilasida samoviy ot aoliyati bilan aloqador talqinlar va nihoyat, o‘zbek xalq ertaklaridagi mifik otlar obrazlarining “yomg‘ir” detaliga daxldor epik ko‘rinishlarida o‘z badiiy ifodasini topgan.

ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

- 1- *Заставкая Ф.А. Бония плодородия афрасияба кушанского времени История материальной культуры Узбекистана Тошкент, 1959,№1. А.Маргиданская богиня 1973. Антонова Е.В. Антропоморфная скульптура древних земледельцев Передней и Средней Азии.-М 1977. Мери Бойс. Зороастрийцы и обычам- М.Наука.1987-С.78*
- 2- *Avesto “Arvisura alqovi” M. Mexakov tarjimasi. // “O‘zbek tili va adabiyoti”. 1999.№4.69-70 betlar.*
- 3- *“Arvisura alqovi”’, 65-bet.*

- 4- Л.И.Ремпель. *Цеп времен. Вековые образы бродячие Сюжеты в традиционном искусстве Средней Азии Ташкент. Изд. Литературы и искусство. 1987-С.89-91.*
- 5- В.В.Иванов *Конь // Мифы народов мира. I-М.1982-С.666.*
- 6- “*Ardisura alqovi*”//*O‘zbek tili va adabiyoti.1999.№4. 68-69 betlar.*
- 7- X.Zaripov. *O‘zbek xalq dostonlarining tarixiy asoslari bo‘yicha tekshirishlar Po‘lkan shoir – Toshkent. 1976.78-bet.*
- 8- Хлонина И.Д. *Из мифологии и традиционных верований порцов Этнография народов Алтая и Западной Сибири- Новосибирскю1978-С.71.*
- 9- Валиханов Ч.Ч.*Избранные произведения Алматы.1958-с-159.*
- 10-М.Жо‘раев *O‘zbek xalq samoviy afsonalari.-Toshkent.Fan.1995-71 bet.*

**“FILOLOGIK TADQIQOTLAR”, 3-TOM. URGANCH-2000,
(38-45 betlar)**

“AVESTO” TADQIQOTLARIGA OID

Yurtimiz xalqlarning tarmushi, dini, madaniyati, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tuzumi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni o‘z ichiga oluvchi “Avesto”ni tadqiq qilish asosan XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlangan. “Avesto”ning 1280 yilda ko‘chirilgan qo‘lyozma nusxasi bizgacha saqlangan. Dastlabki “Avesto” 21 ta kitobdan iborat bo‘lgan. Hozirgi vaqtgacha uning ayrim qismlari saqlanib qolgan: Yasna “qurbonlik keltirish” Виспрат – “hamma hukmronlar”, Yasht “qadrlash”, “ulug‘lash” Видевдат – devlarga qarshi qonun”. Bularning hammasi sosoniylar davrida tahlil qilingan. Yasna kitobi 72 bobdan iborat bo‘lib, ulardan 17 tasi “Gotalar” ya‘ni payg‘ambar Zardo‘shlarning muqaddas qo‘shiqlari, uning diniy nasihatlaridan iborat. Виспрат 24 bobdan iborat bo‘lib, Zardo‘shlarning ayrim xudolarga bag‘ishlangan madhiyalardir. Ular bayram va diniy marosimlarda ijro etilgan, Yashtning 21 bobida afsonaviy qahramonlar va ulug‘ xudolarga bag‘ishlangan madhiyalar to‘plangan. Видевдат to‘liq saqlangan kitob bo‘lib, 22 bobdan iborat.

1766-1761-yillarda Fransuz olimi Anketil Dyuperron Hindistonning Gujarat viloyatida Zardo‘shliylar avlodlarining urf-odatları va diniy marosimlari bilan tanishib chiqib “Avesto” tilini o‘qishga muvassar bo‘lgan. Dyuperron yurdiga qaytgandan so‘ng, 1771-yilda “Avestoni” tarjima qilgan. Keyinchalik K.Gel’dner, A.B.Djekson, V.Geytet, X.Bartalome kabi tadqiqotchilar mazkur asar va uning tilini o‘rganish, turli izohlar bilan nashr qilish davrini boshlab berishdilar. XX-asrga kelib sharqshunoslik fanining taraqqiy qilishi tadqiqotchilar safini yanada kengaytirdi M.Boys, K.Xoffman, A.A.Freyman, B.I.Abayev singari olimlar “Avesto”

tadqiqotiga o‘z hissalarini qo‘shganlar. Avestoshunos I.B.Steblin-Kamenskiy “Avesto”ning ruscha tarjimasini amalga oshirdi va 1990-yili Dushanbada “Adib” nashriyotga nashr qilindi.

Mustaqillik sharofati tufayli o‘tmish tariximizga, milliy qadriyatlarimizga bo‘lgan munosabat tubdan o‘zgardi. Bizning olimlarimiz ham xalqimiz o‘tmishini aks ettiruvchi “Avesto”ni har tomonlama keng miqyosda o‘rganmoqdalar. Ayniqsa “Avesto” va qadimgiXorazm tili bilimdoni tarix fanlari doktori M.Is’hoqov, Professor. Xomidjon Hamidovlarning ilmiy izlanishlari diqqatga sazovardir.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 110-sonli qaroriga asosan “Avesto” yaratilganligining 2700 yilligiga bag‘ishlangan “Avesto” – vatanimiz tarixini o‘rganishda muhim manba” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya TEZISLARI, XIVA-2000. (34-35-betlar.)

“AVESTO” VA O‘ZBEK FOLKLORIDAGI MUSHTARAK MOTIVLAR

Ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan ma’naviy qadriyatlardan biri “Avesto” xalqimiz badiiy tafakkurining shakillanishida g‘oyat muhim o‘rin tutadi. Ma’lumki, Zardo’shtiylik bilan bog‘liq e’tiqodiy inonchlar va tasavvurlarni o‘zida mujassamlashtirgan bu muhtasham yodgorlik qadimgi Xorazm hududida yaratilgan bo‘lib, unda o‘sha davrda yashagan kishilarning turmush tarzi, urf-odati va marosimlari, falsafiy, badiiy – estetik va axloqiy qarashlari, folklor an’analari va mifologik tasavvurlar tizimi o‘z ifodasini topgan.

Ma’lumki, “Avesto”da 21 “Yasht” mavjud bo‘lib, har bir yasht muayyan ma’bud yoki ilohiy sharoflovchi alqovlardan iboratdir. “Devkard” kitobida qayd qilinishicha 14-yasht g‘alaba va shon – sharaf ma’budi, adolat va imon posboni Varaxran (“Avesto” talqinicha Vertagna) ga bag‘ishlangan. Ezgu niyat sohiblariga omad va g‘oliblik baxsh etuvchi mo‘tabar hisoblangan Varaxran Axura Mazda tomonidan yaratilgan. Shu bois u Axriman tarafdorlariga qarshi kurashib hamisha ezgu so‘z, ezgu amal va ezgu fikrni qo‘llab quvvatlaydi deb tasavvur qilingan. Varaxranning “Bahrom yasht” alqovidagi talqinlar ham ajdodlarimizning ana shu mifologik tasavvurlarini o‘zida mujassamlashtirgan. Varaxran obrazining mifologik qiyofasi bu ma’budning Zardo’sht huzurida hozir bo‘lishi tasvirida o‘ziga xos tarzda talqin qilinadi.

Ma’lumki, arxaik mif talqiniga ko‘ra homiy kuchlar turli xil ko‘rinishda namoyon bo‘lish xususiyatiga ega bo‘ladi deb tasavvur qilingan. Shu bois xalqimiz orasida oq ilonni arvoh hisoblab, uni ko‘rganda ustidan un sochish, qo‘yni bobolar ruhi deb tushunish, arvoh kapalakka ishonish udumlari, shuningdek, sehrli ertaklarda

homiylarning turli-tuman jonivorlar suvratda namoyon bo'lishi, qahramonlarning har xil narsa-hodisalarga evrilishi motivlari shakillangan bo'lib, bu etnofolkloriy hodisalarining genezisi bevosita animistik qarashlarga borib taqaladi. Demak, epik qahramonning turli xil shakillarga kira olishi, ya'ni evrilish xususiyatiga ega bo'lishi eng qadimiy mifik qarashlar asosida kelib chiqqan motiv hisoblanadi. Shu motivini o'ziga xos ifodasini Varaxran obrazi talqinida ham ko'rish mumkin. Bu ma'bud Zardo'sht huzurida bir necha yil ko'rinishida namoyon bo'ladi. Varaxran ilk bor "kuchli va yoqimli shamol" bo'lib Zardo'sht huzuriga keladi:

*Birinchi bor ko'rindi,
Axur Mazda yaratgan.
Kuchli shamol bo'lib u,
Va lekin xush, yoqimli.*

(M. Is'hoqjon tarjiması)

Qadimgi odam tabiat hodisalarini jonlantirib tasavvur qilgani bois shamolning ham timsollashtirilgan obrazini yaratgan. Bu obraz haqidagi xalq qarashlarining tadrijiy rivoji natijasida shamol parilari, bu tabiiy hodisasi o'z izmiga bo'ysundirgan deb tasavvur qilingan afsonaviy ma'budlar to'g'risida inonchlar kelib chiqqan. Shamolni kuch-qudrat, g'oliblik va erkinlik ramzi deb bilgan ajdodlarimiz uni shon-sharaf ma'budi Varaxranning timsoliy ko'rinishlaridan biri sifatida e'tirof etganlar.

Varaxranning Zardo'sht huzuriga ikkinchi marta kelishi tasvirida esa bu ma'bud "oltin muguzli buqa" sifatida namoyon bo'ladi. Bu oddiy buqa emas, balki shohlarining o'rtasidan kuch-qudrat hovri o'rlab turgan ilohiy bir jonzot:

*Oltin muguz buqadek,
Ko'rinib Zardo'sht tomon,*

Ikkinchi bor namoyon

Bo’ldi shunda Varaxran.

Axuradan yaralgan

Shohlari o’rtasidan

Kuch, qudrat hovri o’rlar.

Qahramonning buqa-ho‘kiz sifatida tasvirlanishi ham O‘rta Osiyo xalqlari mifologiyasining qadimiy motivlaridan biri Zardo‘shiylik asotirlaridan ilk odam – Gavomard (Qayumars) ham yarmi inson, yarmi ho‘kiz suvratida tasavvur qilingan. Buqa yoki ho‘kiz kul’ti hosildorlik inonchi bilan bog‘liq holda kelib chiqqan bo‘lib, mamlakatimiz hududida olib borilgan arxeologik qazish ishlari chog‘ida bu jonivorlar tasviri tushirilgan ko‘pgina lavhalar, buqa haykalchalari topilgan. O‘lkamizdagi dehqonchilik madaniyatining yuzaga kelishi va taraqqiyoti natijasida ko‘p haydash vositalaridan biri hisoblangan ho‘kizni mo‘tabarlashtirish an’anasi kelib chiqqan.

Varaxranning timsoliy qiyofalari orasida uning oq ot ko‘rinishida namoyon bo‘lishi tasviri alohida o‘rin tutadi. Zardo‘sh huzuriga uchinchi marta kelganida u oltin yuganli, oltin quloqli ot bo‘lib ko‘rinadi:

Uchinchi bor Varaxran,

Zardo‘shga ko‘rinibdi,

Axuradan yaralgan

Oppoq ot, oltin yugan,

Oltin quloq bir jiyron.

Boshi uzra ko‘kka bo‘y-

Cho‘zgan kuch-qudrat hovri.

Bu lavhadan ko‘rinib turibdiki, Varaxran obraziga xos yetakchi belgilardan biri, ya’ni uning kuch-qudrat timsoli sifatida sharaflanishi o‘z aksini topgan. Uning oltin shohlari uzra kuch-

qudrat o'rlashi esa uning samo-ko'k bilan aloqadorligi, ya'ni ma'budligining ifodasidir.

O'rta Osiyo folklorida oq ot obrazi alohida epik mavqega ega. Chunki epik otning oq yoki ola tusli bo'lishi, badanining biror joyida oqi borligi, ya'ni chinordagi bu jonivorning rang timsollari bilan bog'liq qadimiy inonchlarga borib taqaladi. Mifologik qarashlarga ko'ra oq rang zulmat dunyosi, yer osti olami qorong'ulik bilan "qora" rangga qarama-qarshi qo'yiladi. Shu bois folklor asarlarida ham udum va marosimlarida ham oq rang yaxshilik, farovonlik, ezgulik timsoli deb qaraladi. Varaxranning oq ot qiyofasida tasvirlanishi motivining tezisida ham rang bilan bog'liq qadimiy inonchlar muhim o'rin tutadi.

Bundan tashqari "Bahrom yasht"da Varaxranning tuya, qobon, go'zal yigit, Varanga qushi, tog' qo'chqori, yovvoyi taka va devqomat kishi ko'rinishidagi timsoliy talqinlari haqida ham atroflicha ma'lumotlar berilgan. Qadim ajdodlarimizning animistik shamonilik va kul't miqlari asosida kelib chiqqan badiiy bunday talqinlar Varaxran obrazining o'ziga xos mifologik tabiatini belgilovchi yetakchi epik belgilar hisoblanadi. "Bahrom yasht"dagi bunday mifik talqinlarni xalqimizning folklor an'analari, ayniqsa, ertak va afsonalardagi evrilish motivlari, pir va homiylar obrazining epik tasviri bilan qiyoslab o'rganish "Avesto" mifologiyasining o'zbek xalq og'zaki badiiy ijodiyotiga epik diffuziyalanishi xususida muhim ilmiy-nazariy xulosalar chiqarish imkonini beradi.

"FILOLOGIK TADQIQOTLAR" 3-TOM.
URGANCH-2000.(68-70 betlar)

“AVESTO” VA XORAZM

Zoroastrizm dinining muqaddas kitobi “Avesto”ning yaratilishi bevosita Xorazm bilan bog‘liqdir. Buni ko‘pchilik olimlar- B.Struve, S.P.Tolstov, F.Altaym va eron olimi Ibrohim pur Dovutlar “Avesto” Amudaryo bo‘yida joylashgan viloyatlarda, bevosita Xorazm o‘lkasida yaratilganligini e’tirof etadilar. “Xorazm” so‘zi dastlab “Avesto”da uchraydi. “Avesto”ning “Mitxra yashti” deb ataluvchi V bo‘lim 14 chi qismida sug‘di nomi bilan birga Xorazm ham eslatiladi.

Otashparastlik dinining “Muqaddas olovi” birinchi bor Xorazmda yoqilganligidan guvohlik beruvchi ayrim rivoyatlar ushbu muqaddas kitobda saqlanib qolgan. Masalan: Axuramazda – Zardo’sht ta’limotidagi ezgulik, yorug‘lik, yaxshilik xudosi Zardo’sht huzuriga “Arivano – vajo” shahriga borganligi, bu afsonaviy shahar joylashgan o‘lkaning tasviri Xorazm o‘lkasining aynan o‘zi ekanligini juda ko‘plagan yirik g‘arb va sharq olimlari e’tirof etganlar.

Qisqasi, “Xorazm” nomi “Avesto”da bir necha marta tilga olingan. Bu esa qadimgi Xorazm o‘lkasi xalqlarining tarixi, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, madaniyati, urf-odatini o‘rganishda “Avesto” muhim manba ekanligidan dalolat beradi.

***“MA’RUZALAR TEZISLARI”. URGANCH-1999,
(28-29 bet.)***

“AVESTO”DA SUV KUL’TI

Ma’lumki, dehqonchilik bilan juda qadim vaqtlardan buyon muntazam ravishda shug‘ullanib kelgan O‘rta Osiyo xalqlari turmushida suv alohida ahamiyatga ega bo‘lgan. Shuning uchun ham bu yerda shakllangan mifologik qarashlar sistemasida suv kul’ti kelib chiqqan. Suv yerning koni bo‘lganligi tufayli qadimgi kishilarning dehqonchiligi bevosita suv bilan bog‘langan edi. Yerdagi hayotning paydo bo‘lishini suv bilan bog‘lab tushuntirishga asoslangan mifologik qarashlar ham suv kul’ti ta’sirida yuzaga kelgan.

Zardo’shtiylikda suv gavharini saqlovchi yulduzlar haqidagi mifologik tasavvurlar mavjud bo‘lgan. “Tiyr yasht”da o‘z ifodasini topgan mifologik qarashlarga ko‘ra, yerdagi jamiki suvlarning manbai — obi hayot gavhari Tishtar yulduzida saqlanadi. Shu bois yovuz Axriman “suv gavharini asraguvchi tamomi yulduzlarni mahv etish maqsadida” parilarni qo‘zg‘agan. Ammo sharafnok Tishtar parilar ustidan g‘olib chiqib, ularga shikast bergan va Axuramazdaning xohishi bilan porloq subhidamdasub bod to‘la olis yo‘llar, ma’budlar amr etgan serob manzillar sari otlangan. Zaminni suv bilan ta’minlovchi Tishtar yulduzi parilarni Farog‘kart daryosi bo‘yidan quvib yuborgach, bulutlar to‘p-to‘p bo‘lib kela boshlaganlar. Bu esa xayrli yildan darak berardi. Tishtar sersuv bulutlarni zamin uzra yo‘naltiradi. “Tiyr yasht” talqinicha, “Sershitob yomg‘ir sellari — yetti iqlimga parokanda bo‘lguvchi xo‘sh-xurushli suvlar ana shu bulutlardadir”. Zamindagi jamiki suvlarning gavhari osmonda, ya’ni Tishtar yulduzida joylashgan deb o‘ylagan Zardo’shtiyalar qurg‘oqchilik bo‘lganda “osmon qadar zabardast bo‘lgan yaxshilar”, ya’ni suvning yomg‘ir bo‘lib

yog‘ishini so‘rab, maxsus marosimlarni o‘tkazishgan bo‘lishi kerak. Bunday marosimlarda suv gavharini asraguvchi Tishtar yulduzi, bulutlardan yog‘ilgan suvni zamin bo‘ylab tarqatuvchi Satavays yulduzi, Farog‘kart daryosi, Ardvi bulog‘i va undan oqib keladigan muqaddas daryo, Vorukasha dengizi sharaflangan. Bu qadimiy yomg‘ir chaqirish marosimining izlari “Yetti buyuk yasht”ning 27-bandida saqlanib qolgan.

Zurdushtiylik mifologiyasida suv gavharini asrovchi Tishtar yulduzi Apam Napat naslidan deb talqin qilingan. Masalan, “Tiyr yasht”ning 3-bandida Tishtar yulduzi “qudrat sohibi, buyuklikda bemisl, o‘tkir nigohli, zabardast va baland poyali, butun borlig‘i yaxshilikdan iborat Apam Napat naslidan” deyilgan. “Yetti kichik yasht”da ham obi hayotni sharaflashga bag‘ishlangan alqovda suv bilan Apam Napat nomi yonma-yon keladi:

“Buzrukvor rad — Apam Napat, Mazda xalq qilgan suvni olqishlaymiz”; “Uchqur tulporli buzrukvor rad — Apam Napatni olqishlaymiz. Mazda bunyod etgan ashavan suvni olqishlaymiz” .

Apam Napat suv kul‘ti bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan mifologik personajlardan biri hisoblanadi. Apam Napat avestocha so‘z bo‘lib, M. Boysning fikricha, “suv o‘g‘li” degan ma‘noni bildiradi. Bu mifologik personaj nomini I. Braginskiy “suv avlodi” deb tarjima qilgan bo‘lsa, I. V. Rak esa “suvning nabirasi” deb izohlashni taklif qilgan .

Bizningcha, Apam Napat — bevosita suv stixiyasi bilan aloqador mifologik obraz bo‘lib, Zardo‘shhtiylikda katta mavqega ega bo‘lgan. ”Kichik Avesto”da Mitra bilan Apam Napatning Axuralar qatorida tilga olinganligi ham ana shu fikrni tasdiqlaydi.

Apam Napatning suv ma‘budi sifatidagi mifologik talqini Xvarno alqoviga bag‘ishlangan “Zamyad yasht”ning 51—52-bandlarida o‘z ifodasini topgan. Unda aytilishicha, uch og‘iz ilon

Zahhok ta'qibidan qochib borayotgan Xvarno (farnn) bu yovuz maxluq qo'liga tushmaslik uchun Vorukasha dengizining tubiga yashirinadi. Bu dengizda "suv o'g'li" Apam Napat yashar edi. Uchqur otlar sohibi bo'lgan bu hukmdor dengiz to'liqlari aro otini eldirib, Xvarnoni tutib oladi:

*Xvarno bo'ldi paydo,
Vorukasha dengizida
Shu zahotiy oq uni
Tutdi hukmdor Apam —
Napat, otlari uchqur
Apam — Napat eladi
Va deydi hayolida:
"Tutib bo'lmas Xvarnoni
Dengizning qoq tubidan,
Tagsiz suvning tubidan
Qanday chiqay tutibon?"*

Mazkur yashtda Apam Napat to'g'risidagi mifologik qarashlarning muhim bir jihati o'z ifodasini topgan. Ya'ni, Zardo'shtiylar Apam Napatni suv ma'budi sifatida tasavvur qilish bilan bir qatorda, uni zamindagi insonlarni yaratgan zot deb ham e'tirof etganlar.

Bu esa Zardo'shtiylik mifologiyasining qadimiy qatlamlarida bu ma'bud ma'lum ma'noda olamning yaratilishida ishtirok etuvchi mifik qahramon sifatida ham tasavvur qilinganligini ko'rsatadi. Avestoshunoslarning taxmin qilishlaricha, suv kul'ti bilan bog'liq bu personaj qadimgi hind-eron mifologiyasidagi suv ma'budi obrazi asosida kelib chiqqan. Dastlab ma'lum bir suv havzasi — buloq, yoki daryo bilan bog'liq mifologik timsoli sifatida tasavvur etilgan bu personajni ayrim qabilalar yomg'irdan avvalgi momaqaldiroqning atropomorf ko'rinishi deb hisoblaganlar.

Keyinchalik bu mifologik obraz ezgu suv ma’budi sifatida tasavvur qilina boshlagan va Zardo’shtiylik aqidalarida esa uni Vorukasha dengizida yashovchi uchqur otlar sohibi deb ta’riflash an’anasi kelib chiqqan.

Suv kul’ti bilan aloqador bunday qadimgi tasavvurlarning mifologik talqinlari “Avesto”ning barcha qismlarida o’z ifodasini topgan. Zardo’shtiylik mifologiyasiga ko’ra, zaminga hayot bag’ishlaydigan suv Ardvi nomli muqaddas buloqdan chiqadi. Ardvi bulog’i Garonman degan joydagi samoviy tog’ning eng baland nuqtasi— Hukariya cho’qqisining yuqori qismida joylashgan. “Ardvi” so’zi aslida avestocha leksik birlik bo’lib, I. V. Rakning fikricha, “namlik” degan ma’noni bildiradi. Qadimgi hind-eron mifologiyasida bu afsonaviy daryo Amudaryoning timsoli sifatida muqaddaslashtirilgan.

Afsonalarga qaraganda, Hukariya cho’qqisi ma’budlar va ilohlar makon tutgan samo manzillariga tutashib ketadi. Bu cho’qqida joylashgan muqaddas chashma bo’yida esa suv ma’budi Ardisura Anaxita yashaydi. Xususan, “Ardisura alqovi”da hayotbaxsh ne’mat hisoblangan suvning e’zozlanishi bilan bog’liq mifologik tasavvurlar o’z aksini topgan:

*Sig’ingin, ey, Spitama,
Suvi lim-lim Ardviga,
Dardlarga em keng Ardviga,
Sig’in butun dunyoning
Topinchu alqoviga
Loyiq Ardvi Suraga .*

Zardo’shtiylikda samoviy tog’ cho’qqisidagi afsonaviy buloqdan boshlanib, quyiga tomon shitob bilan oqqancha, Vorukasha dengiziga qo’yiladigan Ardvi daryosi shunday ta’riflanadi:

*Ibodot qil, sharafl
Kenglik ichra tengsizga,
Dunyoning bor suvi bir
Bo 'lsa, teng emas zotga...
Oqimi qudratliki,
Hukaryadan suv olib,
Vorukashga eltuvchi
Arđvi surga namoz qil...
Uning bitta tarmog 'i
Yetti kishvar oshadi,
Kishu yozda tinmaydi,
Oqib tinim bilmaydi .*

Zardo'shtiylik mifologiyasida Hukariya cho'qqisidan oqib tushadigan muqaddas daryo hosildorlik va suv ma'budasi Arđvisura nomi bilan ham atalgan. Arđvisura Anaxita suv ilohasi hisoblanadi. Unga bag'ishlangan yashtda tasvirlanishicha, pok Arđvisura ming alp bo'yidek sarvqomat oltin tog'dan qudrat-la, shitob bilan oqadi.

Arđvi daryosi suyiladigan joy — Vorukasha mifologik dengiz nomi bo'lib, ayrim tadqiqotchilar uni hozirgi Orol dengizi bilan qiyoslasalar, ba'zilar, masalan, M. Is'hoqov buni "O'zbekistonning Qizilqum cho'llari o'rnidagi qadimgi Tetis dengizi haqidagi xotiraning "Avesto"da saqlangan izi" deb hisoblaydi.

Biz ham ana shu fikrni quvvatlagan holda, Vorukasha dengizi to'g'risidagi mifologik tasavvurlar ham qadimgi suv kul'ti asosida kelib chiqqan, deb o'ylaymiz.

Arđvi bulog'idan suv oladigan afsonaviy daryoning nomi ham "Arđvi" deb yuritilgan. Suv ma'budining nomini bildiruvchi Arđvisura atamasi ham ana shu mifologik daryo nomi asosida yuzaga kelgan bo'lishi kerak.

Ardvi suv kul’tini o‘zida mujassamlashtirgan mifologik daryoning nomi bo‘lsa-da, ayrim tadqiqotchilar uni Amudaryo bilan bog‘laydilar. Xususan, E.V. Rtveladzening fikricha, “Ardvi daryosi, garchi “Avesto”da u mifologik daryolar sirasiga kiritilgan bo‘lsa-da, aslida bir vaqtlar mavjud bo‘lgan real daryodir. Menimcha, bu daryo qadim zamonlarda Vorukasha (Orol) dengiziga qo‘yilgan Vahvi-Daitya (Amudaryo)ning asosiy tarmoqlaridan biri bo‘lgan. 1558-yilda Xorazmga safar qilgan ingliz sayyohi Jenkinson Amudaryoning bosh irmog‘i Ardok deb atalganligini qayd qilinganligi ham ana shu fikrni tasdiqlaydi. Chunki Ardok atamasi Ardvi daryosining nomi bilan etimologik jihatdan aloqadorligi yaqqol ko‘rinib turibdi” .

Ardvi daryosi Amudaryo bilan qiyos qilinganligi uchun ham Hukariya cho‘qqisidagi muqaddas buloqdan boshlanadigan afsonaviy daryo to‘g‘risidagi mifologik qarashlar yuqorida matni keltirilgan o‘zbek xalq, afsonasi syujetida o‘z ifodasini topgan. Xorazmliklarning suv kul’tiga aloqador qadimiy udumlari asosan Amudaryo bilan bog‘langan. Suv ilohi sifatida tasavvur qilingan mifologik qahramon — Hubbi haqidagi afsonalar keng tarqalganligi, daryodan o‘tayotganda Hubbinomini tilga olib, suvga non, tuz tashlash, daryo toshgan paytlarda “suv qonsiragan” deb hisoblab, ho‘kizlarni so‘yib qurbonlik marosimlarini o‘tkazish kabi odatlar shular jumlasidandir.

Zardo’shtiylik marosimlari va udumlarida ham suv kul’tiga alohida e’tibor berilgan. Suvning marosim va rituallardagi asosiy funksiyalarini belgilashda uning poklash xususiyatiga egaligi asosga olingan. “Vandidod”dagi yettinchi fargardning uchinchi bo‘limida “Ey, Ashavan Zardo’sht! Aridvyusvar nomli chashmaning suvi yerlar urug‘ini, ayol qornidagi go‘dakni va onalar ko‘ksidagi sutni pok qiladi” deyilganda ham suvning ana shu muhim xususiyatini mifologik idrok etish o‘z ifodasini topgan. Aridvyusvar chashmasi

deganda Hukariya cho‘qqisida joylashgan deb tasavvur qilingan muqaddas Ardvi bulog‘i nazarda tutilmoqda. Zardo‘sh tiylar bu buloqdan otilib chiqadigan suv eng pokiza, eng toza suv bo‘lib, olamdagi barcha narsani poklaydi, deb tushunishgan.

Qadimgi mifologiyada suv kul‘ti mo‘l hosil olish G‘oyasi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lganligi uchun ham “Avesto”da tasvirlangan muqaddas daryo qut-baraka va suv ma‘budasi Ardisura Anaxita obrazida timsollashtirilgan. Suv kul‘tining kelib chiqishi va Zardo‘sh tiylik marosimlaridan keng o‘rin olishi esa bevosita tabiatni mifologik talqin qilish an‘anasining o‘ziga xos ko‘rinishlaridan biridir.

“O‘zbek tili va adabiyoti”.
5/2001,(55-58 betlar).

QUYOSH KUL’TI VA UNING “AVESTO”DAGI TALQINI

Ma’lumki, qadimgi davrlarda yashagan odamlar tabiat hodisalari, osmon yoritkichlari va samoviy jismlar harakatini bamasoli bir mo’jiza deb bilishgan hamda bu haqda turli-tuman tasavvurlarni yaratganlar. Chunki qadimgi odamlarning turmush tarzi tabiat bilan bevosita bog‘liq. bo‘lganligi sababli ro‘y beradigan har bir tabiiy hodisaga alohida e’tibor berganlar. Barcha tabiat hodisalari, shuningdek, kuyosh, oy, yulduzlarni muqaddaslashtirib tasavvur qilish an’anasi esa keyinchalik arxaik mifologiyada kul’t miflarining yuzaga kelishiga asos bo‘lgan.

“Avesto”da quyosh kul’ti bilan bog‘liq xalq qarashlari aks etgan o‘rinlar ko‘p uchraydi. Masalan, “Vandidod”ning yettinchi fargardidagi sakkizinchi bo‘limining 45 — 46 bandlarida shunday deyilgan:

“45. — Ey, olamni yaratgan zot! Ey, haqiqat! Oftob ostida yotgan odam jasadi yerga tushib ketsa, yer necha vaqtdan so‘ng o‘zining dastlabki pokizalik holiga qaytadi?”

46. Ahura — Mazda javob berdi: —Ey, Ashavan Zardo’sht! Oftob ostida yotgan odam jasadi yerga tushib ketgan lahzadan besh yil o‘tgach, zamin o‘zining dastlabki poklik holiga qaytadi” (1).

Bu bandlarda quyosh nurining magik hususiyatga ega ekanligi, ya’ni marhum jasadini poklash xossasiga ega deb qaralganligi haqidagi mifik qarashlar o‘z ifodasini topgan. Zardo’shtiylar tasavvuriga ko‘ra o‘lgan odamning jasadi ramziy ma’noda nopok hisoblanadi, shu bois marhum jasadi maxsus joydagi yog‘ochdan yasalgan tobut — katlarda qo‘yilgan. Shu joyda quyosh nurlari uni poklaydi deb tasavvur qilingan.

Zardo'shtiylarning quyosh kul'tiga aloqador rituallaridan biri vafot etgan kishining jasadini bir yilgacha oftob nuri ostida qo'yish odatidir. Bu odatga rioya qilmaslik ham gunoh sanalgani bois "Videvdod"ning beshinchi fargardidagi 14-bandda "Kimda — kim bir yil murda jismini dahmaga — oftobro'yaga qo'ymas ekan, uning jazosi bir ashavanni qatl etgan bilan barobardir. Murdaning jismi dahmada yomg'ir yog'ib, uning tamomiy chirkinlarini yuvib ketmaguncha va parrandalar uni yeb bitirmagunlariga qadar turishi lozim" deyiladi.

Mazkur fargard Zardo'shtiylarning dafn marosimlarida quyosh va yomg'ir suvlari kul'tiga topinish muhim o'rin tutganligini ko'rsatadi.

Qadimda quyosh nafaqat zamindagi mavjudotlar, balki ezgu ruhlar va ma'budlar olamining bezavolligini ta'minlovchi ulug'vor mifologik timsol deb tasavvur qilingan. Chunki quyoshning zarrin nurlari sayyoramiz uzra tarala boshlashi bilanoq. "muqaddas ruhlar qalqib", "muqaddas nurni emgan zamin yashnaydi". Bu haqda "Xurshid yasht"ning ikkinchi bandidagi alqovda shunday deyilgan:

*Quyosh balqib chiqqanda,
Mazda bergan yer balqir,
Oqar suv balqir shunda,
Qaynar buloq suvlari.
Barcha xilqat yashnaydi,
Muqaddas ruhlar qalqar,
Quyosh chiqqan chog'ida.
Mazda bergan yer yayrar,
Muqaddas nurin emib.*

*Suylar bo‘lib bahravor,
(Bo‘lar quyosh chiqqanda)²⁸*

Zardo‘shiylik dini aqidalariga ko‘ra quyosh botgach, yovuz kuchlar ta’siri ostida qolgan zaminda Ahriman yaratgan devlar hukmronlik qiladi. Ular borliqni g‘orat qilish payida bo‘ladilar. Faqat tong otib, ularning manfur rejasi amalga oshmay qolaveradi. Tun qorong‘uligi Ahriman yaratgan yovuz kuchlarga taalluqli bo‘lganligi uchun yer yuzidagi suv havzalari ham kechasi devlar xuruji tufayli bulg‘anar emish. “Xurshed yasht “da quyosh chiqishi bilan “Mazda yaratgan (oqmaydigan, dengiz va ko‘l) suylar ham yorishishi aytiladi. Bizningcha, alqovning bu bandida quyoshnurlarining poklash xususiyatiga ega deb tasavvur qilinishi haqidagi mifologik qarashlar o‘z ifodasini topgan.

Xullas, quyosh kul’ti Zardo‘shiylik mifologiyasida yetakchi o‘rinda turuvchi inonchlardan biri bo‘lib, yashtlarning shakllanishida ham muhim ro‘l o‘ynagan.

Adabiyotlar:

1. *“Guliston” jurnali. 1999 yil, 5-son, 48-bet.*
2. *“Guliston” jurnali. 1999 yil, 3-son, 52-bet.*
3. *“Avesto” (M.Isxoqov tarjimasi) // “O‘zbek tili va Adabiyoti” jurnali. 1999 yil, 5-son.*

***“Tarix va filologiya fanlarining dolzarb muommolari”,
Xiva – 2001, (101-103-betlar).***

²⁸ Авесто. Яшт китоб // М. Исхоқов таржимаси. –Тошкент: “Шарк”, 2001.36-бет.

“AVESTO”DA YULDUZ KUL’TI VA UNING MIFOLOGIK TALQINLARI

O’rta Osiyo xalqlari mifologiyasidagi yulduzlarni muqaddaslashtirish an’anasi bilan aloqador samoviy afsonalar syujetining qadimiy ildizlari “Avesto”ga borib taqaladi. Chunki yulduzlarga topinish an’anasi Zardo’shtiylikdagi tabiat kul’tlarining ajralmas qismi hisoblangan. Zardo’shtiylik quyosh, oy kabi osmon jismlari qatorida yulduzlarini ham ilohiylashtirganlar hamda ularni sharaflovchi alqovlarni yaratganlar. “Avesto” mifologiyasini o’rganishga bag’ishlangan ilmiy tadqiqotlarda astral kul’tlarning Zardo’shtiylik marosimlarida tutgan o’rni, yulduzlar bilan bog’liq mifik e’tiqodlarni o’zida aks ettirgan miflarning talqini va ularning folklor asarlarida saqlanib qolgan izlari masalasi hozirga qadar maxsus tadqiq etilmagan.

“Avesto” mifologiyasida astral kul’tlarning talqinlarini tadqiq etishda “Tiyr yasht” matnlarini tahlil qilish muhim xulosalar chiqarishga asos bo’ladi. Ma’lumki, “Tiyr yasht” “Avesto”dagi yashtlarning sakkizinchisi bo’lib, suv va hosildorlik timsoli deb qaralgan Tishtar yulduzini sharaflovchi alqovlardan tashkil topgan.

“Avesto” mifologiyasi talqiniga ko’ra, zaminning to’rt tomoni mavjud bo’lgani kabi, osmonning ham to’rt qutbi bor deb tasavvur qilingan. Osmonning har bir tomoni muayyan yulduz bilan bog’liq holda timsollashtirilgan. Manbalarda qayd qilinishicha, Zardo’shtiylikka e’tiqod qilgan qadimgi ajdodlarimiz samo kengliklarining sharqiy qismida Tishtriya, ya’ni Sirius yulduzi, janub tomonida Satavesa yulduzi (falakiyot ilmida Antares nomi bilan tanilgan yulduz), Shimolda Hafturang (ya’ni Yetti qaroqchi

yulduzlari), mag‘rib tarafida esa Vanand (Vega) yulduzi hukmronlik qiladi deb o‘ylaganlar.

Yashtda bayon etilgan astral qarashlarga ko‘ra, Parvin nomi bilan atalgan yulduz Surayyo bo‘lib, borliqdagi hayotning boqiyiligini, ezgulikning hamisha barhayotligini ta‘minlovchi ma‘budlardan biri sifatida sharaflangan. Sataviys esa osmon suvlarining xomiysi deb qaralgan Tishtriyaning yaqin hamrohidir. Axura Mazda tomonidan zaminga suv yetkazib berish uchun yaratilgan bu yulduzning vazifasi samo gumbazining janubiy qismini yovuz kuchlar xurujidan saqlash hamda Tishtriya samoviy qo‘llardan olib kelgan suvni yetti iqlimga taqsim qilishdan iboratdir. Hatto “Tiyr yasht”ning boshlanmasi ham Tishtar bilan Sataviys yulduzlarini sharoflovchi alqov bilan boshlangan:

“Rayumand va farihmand Tishtar yulduzi, Mazda bunyod etgan suv yetkazuvchi qudratli Sataviys yulduziga xushnudlik bo‘lsin”.

Sataviys Axura Mazdaga taalluqli samoviy iloh sifatida zaminning har bir go‘shasi suvdan serob bo‘lib, yashnab turishiga xizmat qiladi. Shu boisdan ham bu yulduzning nomi mazkur yashtda qurg‘oqchilik keltiruvchi yovuz devlar bilan olishib, obi-hayotni olib keluvchi Tishtar yulduzi bilan birga tilga olinadi. “Avesto”da aytilishicha, Sataviys zamindagi daryolar bilan chambarchas bog‘langan, chunki daryolarning sersuv bo‘lishi Sataviysning samoviy faoliyati mahsuli deb qaraladi.

Hafturang, ya‘ni Yetti qaroqchi yulduzlari qadimgi Zardo‘sh tiylar hayotida muhim amaliy ahamiyatga ega edi. Bu yulduz turkumining ko‘zga yaqqol tashlanib turadigan yettita katta yulduzi ajdodlarimiz uchun tunda manzilni, dunyo tomonlarini aniqlash uchun tabiiy asos vazifasini o‘tagan. Odamlar kechasi ana shu yulduzga qarab shimol tomonni osongina aniqlaganlar. Bu

yulduzlar osmonning shimol tomonida ko‘ringanligi uchun ham Hafturang samo gumbazining o‘sha tomoniga egalik qiluvchi mifologik timsol sifatida talqin qilingan.

Hafturang yulduzlari devlar, jodugarlar va parilar bilan kurashib, sobit e‘tiqod egasi bo‘lgan ashavanlarni hamda ilohlarni yovuz kuchlar xurujidan himoya qiladi. Shuning uchun ham “Tiyr yasht”da bu yulduz “jodular va parilar qoshida poydor” deb ta’riflangan.

Zardo‘shdiylik mifologiyasida Hafturang yulduzi do‘zax darvozalarini ham nazorat qiladi deb qaralgan. Chunki do‘zaxga muhtalo qilingan badniyat kishilarning ruhlari, shuningdek, jahannamni o‘ziga makon qilgan jodugar va parilar ezgulik kuchlariga daxl qilmasliklari uchun bu yulduz timsolida mujassamlashgan qudratli homiy, ularning hatti-harakatlarini tinimsiz kuzatib turarkan. “Avesto” talqinlariga ko‘ra, Hafturang yulduzini ashavanlarning 99999 nafar qudratli va zabardast fravashilari qo‘riqlab yurishadi.

“Avesto”da eng ko‘p sharaflangan va e‘zozga loyiq deb qaralgan yulduz Tishtriyadir. “Tiyr yasht” sharaftomasida aytilishicha, har bir imonli kishi orombaxsh va xush baxt ato qilishi uchun marhamatli va fidoiy Tishtarga murojaat qilishi, uni baland ovoz bilan olqishlashi zarur. Oy bilan birgalikda ishva qilib, olamga yuz ko‘rsatadigan Tishtar yulduzi oromu osoyishtalik bag‘ishlaguvchi mo‘tabar samoviy iloh deb tasavvur qilingan.

Zardo‘shdiylik an‘analariga ko‘ra, bu yulduzning sharaflovchi alqov so‘zlarini aytish chog‘ida ashavan kishi qo‘lida barsman novdalarini ushlab turishi, bu marosimga atab maxsus ne‘mat - sut qo‘shib iylangan xaoma ichimligini tayyorlashi, alqov matnini ezgu o‘y, ezgu amal va ezgu so‘z bilan ijro etishi talab qilingan. Ana

shundagina, Tishtar yulduzi sharafiga aytilgan alqov ijobat bo‘lib, odamlar faraxbaxsh yorug‘likka erishadilar, deb qaralgan.

Tishtar yulduzi osmon suvlari bilan bog‘liq, deb tasavvur qilinganligi uchun ham Zardo‘shhtiylarning astral mifologiyasida muhim o‘rin tutgan. Chunki “Tiyr yasht”ning ikkinchi bo‘limidagi 4-bandida buyuk qudrat sohibi, o‘tkir nigohli va bemisl muruvvat egasi Tishtarni “suv gavhari, unda bo‘lgani uchun olqishlaymiz” deyilgan. “Avesto”da o‘z ifodasini topgan qadimiy mifologik tasavvurlar bo‘yicha, yer yuzidagi barcha suvlarning ibtidosi, aslida, osmondagi yulduzlarda joylashgan. Ana shu yulduzlar bag‘rida joylashgan obi hayot – “suv gavhari” tushunchasi orqali ifodalangan. Zero, “Vandidod”dagi 1-fargardning 13-bandida “Ey, suvlar gahvarini o‘zida asraguvchi yulduzlar! Chiqingiz!”- deb qayd qilingan.

Tishtar yulduzi oq ot vujudiga kirib, tulpor qiyofasida samoviy ko‘llar uzra parvoz qilar ekan, qurg‘oqchilik keltiruvchi parilar va devlar bilan olishib, g‘olib chiqadi. Uning mardligi va qudrati tufayli qurg‘oqchilik devlari chekinadilar va osmon suvlari yomg‘ir bo‘lib, zamin uzra taraladi. Bu suvdan bahra olgan nabotot va hayvonot olami, insonlar dunyosi hayotida faraxbaxsh kunlar boshlanadi. “Tiyr yasht”ga singdirilgan mifologik tasavvurlar talqinicha, Tishtar yulduzi qudratli tirandoz Arshning kamonidan otilgan o‘q Aryu Xshusa tog‘idan Xunvant cho‘qqisi tomon shiddat bilan uchib borgani singari shitob bilan uchib borar ekan, Axura Mazdaning marhamati bilan suv va giyoh, ma’budlari, keng yaylovlar sohibi Mitra unga yo‘l ochib beradilar. Tishtarning yo‘liga chiqqan parilar uni suvli ko‘llar bo‘yiga yaqinlashtirmaslikka harakat qiladilar. Ammo Tishtar parilar ustidan g‘olib chiqib, obi hayot uzra parvoz qiladi.

Tishtarning yomg'ir suvlarini zamin uzra sochishi mazkur yashtda shunday tasvirlangan:

“Tishtar yulduzini olqishlayman. U parilardan g'olib keldi. Suvi g'oyat keng zamin hududini qoplagan qudratli Farog' Kart daryosi uzra osmon o'rtasida dumli yulduzlar jismiga qo'shilish lahzalarida parilar bunga barham bermoq istadilar. Haqiqatda, u pokiza bir tulpor vujudiga kirib, suvdan to'lqin va mavjdlar yaratadi. So'ng epchil shamol essa boshlaydi. Shundan so'ng, iloh Sataviys bu suvni yetti iqlimga taqsimlaydi. Ko'rkam va osudabaxsh Tishtar o'lkalar sari yuz buradi va ularni qutlug' yildan ogoh aylaydi”.

Shunday qilib, “Avesto”da yulduz kul'ti alohida o'rin tutadi. Bu masalaga alohida e'tibor berilishining sababi shuki, Xorazmda o'troq hayot, dehqonchilik qadimdan davom etib kelayotgan bo'lib, uning asosi sug'orish ishlari bilan bog'lanib ketadi. Yulduz kul'tining e'zozlanishining asosida ham ularning suv bilan aloqadorligi masalasi yotadi.

ADABIYOTLAR:

1. “Guliston”, 2000, 5, 59-60-betlar.
2. “Avesto”, “O'zbek tili va adabiyoti”, 1999, 1-3.
3. Jurayev M. O'zbek xalq ertaklarida sehrlil raqamlar. T., 1991.

**“XORAZM FOLKLORI”. III-TOM.
XIVA-2001.44-47 BETLAR.**

“AVESTO”NING YEVROPADA O‘RGANILISHI

Bugungi kunda qo‘lyozma nusxalari Kopengagen, Oksford, London va Sank-Peterburgda saqlanayotgan va bizgacha yetib kelgan “Avesto” kitobi Yeropa tadqiqotchilari diqqatini XVIII asrdan buyon o‘ziga jalb qilib kelmoqda. 1771-yilda Anketil Dyuperron bu muqaddas kitobning ilk fransuzcha tarjimasini amalga K.Geldner, J.Darmsteter, X.Xyubshman, A.B.Djekson, B.Geyter, X.Bartolome kabi tadqiqotchilar mazkur asar va uning tilini o‘rganish, turli izohlar bilan nashr qilish davrini boshlab berishdi. XX asrga kelib sharqshunoslik fani taraqqiy qilishi tadqiqotchilar safini yanada kengaytirdi. X.Rayxelt, E.Benvenist, Dyushen Giyyemen, V.B.Xenning, J.Gurilovich, G.Morgenetyerne, A.Kristensen, A.Meye, R.Goto, X.Xumbax, X. Nyuberg, K. Xoffman, A.A.Freyman, V.I.Abayev singari o‘nlab eron tillari va ularni qiyosiy o‘rganish, hind-yevropa tillari bo‘yicha keng ko‘lamda shug‘ullanuvchi olimlar “Avesto”ga u yoki bu darajada muhim manba sifatida murojaat qildilar. Asarning tuzilishi, fonetik va morfologik strukturasi atroflicha taxlil qiladilar. Qadimgi Xorazm tili ham Eron tillarining sharqiy guruhiga mansubligi, hozirda ham toponomik atamalar va shevalarda qadimgi Xorazmcha so‘zlar mavjudligi, S.P.Tolstovning arxeologik tekshirishlarida topilgan ashyoviy dalillar orqali isbot qilingan. Shu ekspeditsiya tarkibida ilmiy tadqiqot olib borgan A.S.Milkov, M.S.Andreev, G.P.Snesarev, Y.G.G‘ulomov singari olimlar yurti Xorazm Zardo’shtiylikning eng qadimiy makoni ekanligini tasdiqlaydilar. Darhaqiqat, “Avesto” oromiy alifbosiga asoslangan o‘rta fors tilida yozilgan bo‘lib, olimlarni katta bir guruhi: B.B.Struvve, B.B.Trever,

S.P.Tolstov, N.Prsoxov, A.O.Makkevelskiy Markaziy Osiyoni uning vatani deb e'tirof qiladilar.

Shunga qaramasdan "Avesto" tili, tovushlar sostavi, tilining grammatik tuzilishi jihatidan rang-barang Eron so'zlashuv tilining eng arxaik shakli bo'lib, yozilgan muddati lokal xususiyatini aniqlashda uning XIII asrgacha asosan og'zaki shaklda bo'lganligi uning yaratilgan tili o'lik tillarga aylansada, Pahlaviy tilidagi nusxasiga unli va undoshlarni ifodalovchi talay belgilar qo'yish natijasidagina talaffuzning buzilmasligi ta'minlangan. Shu tariqa 14 ta unli 34 ta undosh tovushlarni ifodalovchi 48 ta harfdan iborat "Avesto" alifbosi yuzaga kelgan. 1931-1944-yillarda Kopengagenda to'liq faksemele nusxasi tayyorlangan "Avesto" kitobining tili dialektologik jihatdan tayangan manba masalasi fanda uzil-kesil hal qilinmagan bo'lsa-da, uning tarixiy-madaniy jihatdan qadimgi sharqiy Eron tili va madaniyati bilan bog'liq ekanligini e'tirof etilgan.

"Avesto"da keltirilgan mif va afsonalar, gimnlardagi obrazlar, xudolar Hindiy afsona va miflariga to'la xamohangdir deb e'tirof etadi R.Renou, I.M.Oranskiy, Elezarenkova kabi olimlar.

1895-yilda Kichik Irmoq daryosining chap qirg'oqlari Arabsun qishlog'idan oromiy yozuvida yozilgan ikkita toshni topdi. Unda Axuramazda nomi Xurmuzd shaklida yozilgan edi. Behistun qoyalaridagi yozuvlarda ham oromiy tildagi tarjimasida shunday talaffuz qilinadi. Arabsun toshlarida vavilon shohi Bela va oqila malika Dayna mozdakiylar ma'lumot bergan. "Avesto" Yashtning 9,26 bo'limlarida Zaratushtra Vishtasining xotinidan o'ziga va mazdaki diniga ishonishni so'raydi Olov (Atar)dan baxt va shodlik tilaydi. O'z istaklarini amalga oshirishni Olov bilan bog'laydi. "Avesto"da Olov nihoyatda qudratli va kuch ramzi sifatida e'tirof etilgan. 1923-yilda Persopol yaqinida Dariyatning qabr toshi

topilgan va uning oromiy harflarida yozilgan manba ekanligini eslasak, Arabsun yozuvlarini undan farq qilmasligi bu fikrni inkor etishi oydinlashadi. Ikkala tosh manbada ham ilohiy shoh va malikalar ularni o‘z e’tiqodiga ishontirishga intilgan Xurmuzd va uning homiylari haqida gap ketadiki, bu “Avesto” Yashtlardagi da’vatlarga xamohangdir. Oromiy orfografik uslubida yozilgan Arabsun yodgorligi “Avesto” tili va matnining bizgacha yetib kelgan bo‘lagi sifatida alohida qimmatlilik kasb etib, fanda katta qiziqish uyg‘otgan.

Eramizdan oldingi XI asrning 404-yili sanasining qo‘yilganligi esa, yuridik hujjat sifatida o‘lkan ahamiyat kasb etadi.

Miloddan avvalgi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayot haqida g‘oyatda muhim ma’lumotlar beruvchi “Avesto” kitobi xalqimizning ma’naviy merosini jamlagan qimmatli yodgorlikdir. Islohiy talab tufayli yaratilib, qariyb 2500 yil diniy e’tiqod sifatida yashagan Zardo’shtiyilik Yevropalik olimlar mehnati tufayli G‘arbiy Yevropa, Eron, Hindiston orqali juz’iy o‘zgarishlarga uchrasada, o‘zi vujudga kelgan hududga qaytgani quvonchli holdir. Uning jahon madaniyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatganini, xalqlarni ma’naviy yuksaltirishdagi ahamiyati, o‘z davri uchun tomomila yangi mafkura bo‘lganligini “g‘arbiy nazariya” tarafdorlari ham, “sharqiy nazariya” tarafdorlari ham inkor qilmaydilar.

Bizningcha, jahon qator dinlarning shakllanishida g‘oyaviy-nazariy negiz sifatida xizmat qilgan Zardo’shtiylik diniga insonlarni ezgulikka da’vat etgan, umuminsoniy qadriyatlarni ulug‘lagani bois aynan shu mezonda turib baho berish ilmiy xoslik o‘lchovidir.

ADABIYOTLAR:

1. Соколов С.Н. “Язык Авесты” в книге: *Основы Иранского языкознания. Древнеиранские языки. Издательство “Наука”, Москва, 1979, стр.129-135.*

2. *Xorazm tarixi 1 jild. "Xorazm nashriyoti", 1996-yil, 69-72 betlar.*
3. *Оранский И.М. Авестинский язык, место Авестийского историко-диалектической классификации иранских языков. В книге : Иранские языки в историческом освещении. Издательство "Наука", Главная редакция Восточной литературы, Москва 1979, стр.11-12; 192.9.*
4. *Боголюбовъ М.Н. Молитво Ахурамазде на древнеиранском языке среди арамейских надписей из Арбсуна. В книге История Иранского государство и культуры. Главная редакция Восточной литературы, М.1971, стр.277-285.*

***"FILOLOGIK TADQIQOTLAR".
URGANCH-1999. (47-49 betlar.)***

“AVESTO”DA “XURSHID – YASHT” ALQOVI

Sharq xalqlari badiiy tafakkurining shakllanishi va taraqqiyotidagi ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan ma’naviy qadriyatlardan biri – “Avesto” g’oyat muhim o‘rin tutadi.

“Avesto”da 21 ta “Yasht” mavjud bo‘lib, ularning har birida muayyan ma’bud yoki ilohni sharaflovchi alqovlar mavjud. “Denkard” kitobida qayd qilinishicha, 14-yasht g‘alaba va shon-sharaf ma’budi, adolat va iymon posboni Varaxranga bag‘ishlangan. Ezgu niyat sohiblariga omad va g‘oliblik baxsh etuvchi mo‘tabar iloh hisoblanadi. Vraxran Axura-Mazda tomonidan yaratilgan. Shu bois u Axriman tarafdorlariga qarshi kurashib, hamisha ezgu so‘z, ezgu amal va ezgu fikrni qo‘llab-quvvatlaydi deb tasavvur qilingan. Varaxranning “Bahrom yasht” alqovidagi talqinlari ham ajdodlarimizning ana shu mifologik tasavvurlarini o‘zida mujassamlashtirgan. Vraxran obrazining mifologik qiyofasi bu ma’budning Zardo’sht huzurida hozir bo‘lishi tasvirida o‘ziga xos tarzda talqin qilinadi.

Arxaik mif talqiniga ko‘ra homiy kuchlar turli xil urinishda namoyon bo‘lish xususiyatiga ega deb tasavvur qilingan. Shu bois xalqimiz orasida oq ilonni arvoh hisob qilib, uni ko‘rganda ustidan un sochish, ayni bobolar ruhi deb tushunish, arvoh kapalakka ishonish udumlari, shuningdek, sehrli ertaklarda homiylarning turli-tuman jonivorlar suratida namoyon bo‘lishi tasvirida o‘ziga xos tarzda talqin etiladi.

Shu motivning o‘ziga xos ifodasini Vraxran obrazi talqinida ham ko‘rish mumkin. Shamolni kuch-qudrat, g‘oliblik va erkinlik ramzi deb bilgan ajdodlarimiz uni shon-sharaf ma’budi Vraxranning timsoliy ko‘rinishlaridan biri sifatida e’tirof etganlar.

Varaxranning Zardo'sht huzuriga ikkinchi marta kelishi basvirida esa bu ma'bud "oltin muguzli buqa" sifatida namoyon bo'ladi. Bu oddiy buqa emas, balki shohlarining o'rtasidan kuch-qudrat hovri o'rlab turgan ilohiy bir jonzotdir.

Qahramonning buqa-ho'kiz sifatida tasvirlanishi ham O'rta Osiyo xalqlari mifologiyasining qadimiy motivlaridan biri – Zardo'shtiylik asotirlaridagi ilk odam Gavomard (Qayumars) ham yarmi odam va yana yarmi ho'kiz suratida tasavvur qilingan. Buqa yoki ho'kiz kul'ti hosildorlik inonchi bilan bog'lik holda kelib chiqqan bo'lib, mamlakatimiz hududida olib borilgan arxeologik qazish ishlari chog'ida bu jonivor tasviri tushirilgan ko'pgina lavhalar, ya'ni buqa haykalchalar topilgan.

Varaxranning timsoliy qiyofalari orasida uning oq ot ko'rinishidan namoyon bo'lishi tasviri alohida o'rin tutadi. Zardo'sht huzuriga uchinchi marta kelganida u oltin yuganli, oltin quloqli ot bo'lib ko'rinadi.

Varaxran obraziga xos yetakchi belgilardan biri, ya'ni uning kuch-qudrat timsoli sifatida o'z aksini topgan. Uning oltin shohlari uzra kuch-quvvat o'rlishi esa uning samo - ko'k bilan aloqadorligi, ya'ni ma'budligining ifodasidir.

O'rta Osiyo xalqlari folklorida oq ot obrazi alohida epik mavqega ega.

"Bahrom yasht"da Varaxranning tuya, qobon, go'zal yigit, Varaxn qushi, tog' qo'chqori, yovvoyi taka va devqomat kishi ko'rinishidagi timsoliy talqinlari haqida ham atroflicha ma'lumotlar berilgan. "Bahrom yasht"dagi bunday mifik talqinlarni xalqimizning folklor an'analari, ayniqsa, ertak va afsonalardagi evrilish motivlari, pir va homiylar obrazining epik tasviri bilan qiyoslab o'rganish "Avesto" mifologiyasining o'zbek xalq og'zaki badiiy ijodiyotiga

epik diffuziyalanishi xususida muhim ilmiy-nazariy xulosalar chiqarish imkonini beradi.

“ “Avesto” – buyuk qomisiy asar”, Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. 6-fevral, 2001-yil. Toshkent-2001, (48-51-betlar).

“AVESTO”DA “XURSHID-YASHT” ALQOVINING YARATILISHIGA DOIR

“Avesto”da ko‘plab mifologik syujetlar, obrazlar va manzaralar mavjud bo‘lib, ular asosan 22 bobdan iborat bo‘lgan uning “Yasht” kitobida jamlangandir. Har bir bob iloh Axura mazda irodasi bilan yaratilgan ma’budlar va ma’budalar sha’niga aytilgan alqovlardan iboratdir.

“Xurshid-yasht” Zardo’shtiylar uchun muqaddas hisoblangan quyoshni madh etishga bag‘ishlangandir. Bu yashtning yaratilish tarixi va “Avesto”ga kiritilishi masalasida turli xil qarashlar mavjud. Masalan, bu yashtni o‘zbek tiliga tarjima qilib, “San’at” jurnalida chop ettirgan Asqar Mahkamning fikricha, “Bu qisqa yasht, aftidan, keyingi davrlarda qohinlar tomonidan o‘lik tilda yaratilgan va asosiy manbaga kiritilgan. Ehtimol, qohinlar Quyoshga bag‘ishlangan alohida shunday yasht bo‘lishini lozim bilganlar. Matn har jihatdan sun’iydir va bu kabi sun’iy matnlar “Avesto”da oz emas”. (“San’at”, 1991 6-son, 18-bet).

Bizningcha, bu fikr unchalik to‘g‘ri emas. Nazarimizda, quyosh kul’ti keng ommalashgan davrlarda bu samoviy yoritgichga bag‘ishlangan alqov va duo olqishlari mavjud bo‘lgan. Olamni nurga ko‘mib, ezgulik va hayot baxsh etuvchi bu yoritqich erta

tongda chiqishi, shuningdek, botishi paytida o‘qiladigan maxsus alqovlarni ijro etish an’anaga aylanganligi tabiiydir. Hatto uzoq muddat havo bulutli bo‘lib, surunkali yog‘ingarchilik bo‘lganda qadimgi odamlar “Quyoshni chaqirish” marosimini o‘tkazganlar.

Quyosh chiqishi va botishi bilan bog‘liq alqovlarni aytish an’anasining mavjud bo‘lganligini isbotlaydigan dalillardan biri shuki, samoviy yoritqichlarga bag‘ishlangan magik aytimlarning ayrim namunalari bugungi kunda ham saqlangan. Masalan, yangi oy chiqqanida fотиha o‘qish, oy yoki quyosh tutilganida turli aytimlarni aytib, temir ashyolarni taqillatish ana shu an’ananing bevosita davomi hisoblanadi. Shunga ko‘ra Zardo’shtiylik aqidalari keng yoyilgan davrlarda quyosh kul’tiga ishonish an’anasi mavjud bo‘lgan ekan, bu samoviy yoritqichni ulug‘lovchi olqishlar, quyosh chiqishi va botishini sharaflovchi alqovlar ham ijro etilganligi tabiiydir.

Quyosh kul’ti bilan bog‘liq shamsiy miflar asosida kelib chiqqan ana shu qadimiy alqovlar bir joyga jamlanishi “Avesto”dagi oltinchi yasht “Xurshid-yasht”ning yaratilishiga asos bo‘lgan deb o‘ylaymiz.

**“ AVESTO”-O‘RTA OSIYO XALQLARI
MADANIYATI TARIXIDA”.**
Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari
27-28 aprel 2001-yil.
Nukus-Xiva-2001. (98-99 betlar).

“BAHROM YASHT”DA MIFOLOGIK TIMSOLLAR

Sharq xalqlari badiiy tafakkurining shakllanishi va taraqqiyotida ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan ma’naviy qadriyatlardan biri — “Avesto” g’oyat muhim o‘rin tutadi. Ma’lumki, Zardo’shtiylik bilan bog‘liq e’tiqodiy inonchlar va tasavvurlarni o‘zida mujassamlashtirgan bu muhtasham yodgorlik qadimgi Xorazm hududida yaratilgan bo‘lib, unda o‘sha davrda yashagan kishilarning turmush tarzi, urf-odat va marosimlari, falsafiy, badiiy-estetik va axloqiy qarashlari, folklor an’analari va mifologik tasavvurlar tizimi o‘z ifodasini topgan. Ajdodlarimizning ezgulik va yovuzlik, suv, olov, osmon yoritqichlari, o‘simliklar va tog‘- Tosh kul’ti bilan bog‘liq qadimiy inonchlari, jonivorlarni mo‘tabarlashtirish hamda tabiatni mifologik anglash bilan aloqador tasavvurlari Zardo’shtiylikda o‘ziga xos tarzda talqin qilingan. O‘rta Osiyoda yashagan qadim ajdodlarimizning Zardo’shtiylikdan avvalgi ibtidoiy qarashlari, xususan, hosildorlik kul’tini e’tirof etishga qaratilgan mifik talqinlar ham “Avesto”ga singdirib yuborilgan. Shu bois bu ko‘hna yodgorlik o‘zbek mifologiyasining qadim ildizlari, genezisi va tadrijiy takomili bosqichlarini o‘rganishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Biz ushbu maqolamizda mifik tasavvurlarning “Avesto”dagi talqinlarini tahlil qilish maqsadida bu muhtasham yodgorlikning muhim uzvlaridan biri — “Bahrom yasht”dagi mifik obraz va timsollar mohiyatini ochib berishga harakat qilamiz.

Ma’lumki, “Avesto”da 21 “Yasht” mavjud bo‘lib, har bir yasht muayyan ma’bud yoki ilohni sharaflovchi alqovlardan iboratdir. “Denkard” kitobida qayd qilinishicha, 14-yasht g‘alaba va shon-sharaf ma’budi, adolat va imon posboni Varaxran (“Avesto”

talqinicha Vertragna)ga bag'ishlangan. Ezgu niyat sohiblariga omad va g'oliblik baxsh etuvchi mo'tabar iloh hisoblangan Varaxran Axura Mazda tomonidan yaratilgan. Shu bois u Axriman tarafdorlariga qarshi kurashib, hamisha ezgu so'z, ezgu amal va ezgu fikrni qo'llab-quvvatlaydi deb tasavvur qilingan. Varaxranning "Bahrom yasht" alqovidagi talqinlari ham ajdodlarnimizning ana shu mifologik tasavvurlarini o'zida mujassamlashtirgan. Varahran obrazining mifologik qiyofasi bu ma'budning Zardo'sht huzurida hozir bo'lishi tasvirida o'ziga xos tarzda talqin qilinadi.

Ma'lumki, arxaik mif talqiniga ko'ra homiy kuchlar turli xil ko'rinishda namoyon bo'lish xususiyatiga ega bo'ladi deb tasavvur qilingan. Shu bois xalqimiz orasida oq ilonni arvoh hisob qilib, uni ko'rganda ustidan un sochish, qo'yni bobolar ruhi deb tushunish, arvoh kapalakka ishonish udumlari, shuningdek sehrli ertaklarda homiylarning turli-tuman jonivorlar suvratiga engan holatda namoyon bo'lishi, qahramonlarning har xil narsa-hodisalarga evrilishi motivlari shakllangan bo'lib, bu etnofolkloriy hodisalarning genezisi bevosita animistik qarashlarga borib taqaladi. Demak, epik qahramonning turli xil shakllarga kira olishi, ya'ni evrilish xususiyatiga ega bo'lishi eng qadimiy mifik qarashlar asosida kelib chiqqan motiv hisoblanadi. Shu motivning o'ziga xos ifodasini Varaxran obrazi talqinida ham ko'rish mumkin. Bu ma'bud Zardo'sht huzurida bir necha xil ko'rinishda namoyon bo'ladi. Varaxran ilk bor "kuchli va yoqimli shamol" bo'lib Zardo'sht huzuriga keladi;

*Birinchi bor ko'rindi,
Axur Mazda yaratgan.
Kuchli shamol bo'lib u,
Valekin xush, yoqimli.*

Qadimgi odam tabiat hodisalarini jonlantirib tasavvur qilgani bois shamolning ham timsollashtirilgan obrazini yaratgan. Bu obraz haqidagi xalq qarashlarining tadrijiy rivoji natijasida shamol tangrilari, bu tabiiy hodisani o‘z izmiga bo‘ysundirgan deb tasavvur qilingan afsonaviy ma’budlar to‘g‘risidagi inonchlar kelib chiqqan. Shamolni kuch-qudrat, g‘oliblik va erkinlik ramzi deb bilgan ajdodlarimiz uni shon-sharaf ma’budi Varaxranning timsoliy ko‘rinishlaridan biri sifatida e’tirof etganlar.

Varaxranning Zardo’sht huzuriga ikkinchi marta kelishi tasvirida esa ma’bud “oltin muguzli buqa” sifatida namoyon bo‘ladi. Bu oddiy buqa emas, balki shohlarning o‘rtasida kuch-qudrat hovri o‘rlab turgan ilohiy bir jonzot:

*Oltin muguz buqadek,
Ko‘rinib Zardo’sht tomon.
Ikkinchi bor namoyon
Bo‘ldi shunda Varaxran.
Axuradan yaralgan
Shohlari o‘rtasidan
Kuch, qudrat hovri o‘rlar.*

Qahramonning buqa-ho‘kiz sifatida tasvirlanishi ham O‘rta Osiyo xalqlari mifologiyasining qadimiy motivlaridan biri. Zardo’shtiylik asotirlaridagi ilk odam — Gavomard (Qayumars) ham yarmi inson, yarmi ho‘kiz suvratida tasavvur qilingan. Buqa yoki ho‘kiz kul’ti hosildorlik inonchi bilan bog‘liq holda kelib chiqqan bo‘lib, mamlakatimiz hududida olib borilgan arxeologik qazish ishlari chog‘ida bu jonivor tasviri tushurilgan ko‘pgina lavhalar, buqa haykalchalari topilgan. O‘lkamizda dehqonchilik madaniyatining yuzaga kelishi va taraqqiyoti natijasida qo‘sh haydash vositalaridan biri hisoblangan ho‘kizni mo‘tabarlashtirish an’anasi kelib chiqqan.

Qahramonning ho‘kiz ko‘rinishida namoyon bo‘lishi motivi o‘zbek folklorida ham mavjud. “Zangiota maqbarasining qurilishi” nomli afsonada naql qilinishicha, “Amir Temurning buyrug‘iga binoan Turkistonda Ahmad Yassaviyga maqbara qurilishi boshlanibdi. Qurilish boshlanganining ertasi kuni kelib qarasarlar, kechagina terilgan g‘ishtlar sochilib, maqbara buzilib, poydevori qiyshayib yotganmish. Ustalar qaytadan ish boshlabdilar. Bir necha kun o‘tar-o‘tmas qurilayotgan maqbara yana buzilib ketaveribdi. Shundan so‘ng amir qurilayotgan maqbara atrofiga qorovullar qo‘yishni buyuribdi. Poylab yotgan qorovullar yarim kechasi gubir-gubir ovozlarini eshitib maqbara qurilayotgan tomonga qarab, hayratdan yoqa ushlab qolibdilar: Ne ko‘z bilan ko‘rishsinki, maqbarani qandaydir bir ho‘kiz buzayotgan emish. Shundan keyin Ahmad Yassaviyning o‘zlari jiyanlari Zangiota tug‘ilgan paytda “mendan avval jiyanimga maqbara qurilsin” deb vasiyat qilgan ekanlar, degan ovoza tarqalibdi. Shu voqeadan keyin Zangiota maqbarasi qurila boshlanibdi” .

Ma‘lumki, o‘zbek mifologiyasi talqinicha Zangiota — qoramollarning homiysi, podachilarning piri hisoblanadi. Shu bois afsonada maqbarani buzayotgan ho‘kiz aslida zoomorfik qiyofada namoyon bo‘lgan pir, ya‘ni Zangiotaning timsoliy qiyofasi deb talqin qilinishi lozim. Varaxranning buqa suvratida tasvirlanishi an‘anasi bilan yuqorida keltirilgan o‘zbek xalq afsonasidagi ho‘kiz obrazi genezisi mushtarak e‘tiqodiy inonchlar tizimi — hosildorlik kul‘tiga borib taqaladi.

Varaxranning timsoliy qiyofalari orasida uning oq ot ko‘rinishida namoyon bo‘lishi tasviri alohida o‘rin tutadi. Zardo‘sh t huzuriga uchinchi marta kelganida u oltin yuganli, oltin quloqli ot bo‘lib ko‘rinadi:

Uchinchi bor Varaxran.

*Zardo ‘shtga ko ‘rinibdi,
 Axuradan yaralgan
 Oppoq ot, oltin yugan,
 Oltin quloq bir jiyron.
 Boshi uzra ko ‘kka bo ‘y-
 Cho ‘zgan kuch, qudrat hovri.*

Bu lavhadan ko‘rinib turibdiki, Varaxran obraziga xos yetakchi belgilardan biri, ya’ni uning kuch-qudrat timsoli sifatida sharaflanishi o‘z aksini topgan. Uning oltin shohlari uzra kuch-qudrat o‘rlashi esa samo-ko‘k bilan aloqadorligi, ya’ni ma’budligining ifodasidir.

O‘rta Osiyo xalqlari folklorida oq ot obrazi alohida epik mavqega ega . Chunki epik otning oq yoki ola tusli bo‘lishi, badanining biror joyida oqi borligi, ya’ni chiporligi bu jonivorning alohida magik xususiyatga egaligining belgisi deb qaralgan. Qolaversa, otning oqligi ham ajdodlarimizning rang timsollari bilan bog‘liq qadimiy inonchlariga borib taqaladi. Mifologik qarashlarga ko‘ra oq rang yorug‘lik, ezgu olam, yaxshilik bilan bog‘liq bo‘lib, shu xossasiga ko‘ra zulmat dunyosi, ya’ni yer osti olami, qorong‘ulik bilan muqoyasalanuvchi “qora” rangga qarama-qarshi qo‘yiladi. Shu bois (folklor asarlarida ham, udum va marosimlarda ham oq rang yaxshilik, farovonlik, ezgulik timsoli deb qaraladi. Varaxranning oq ot qiyofasida tasvirlanishi motivining genezesida ham rang bilan bog‘liq qadimiy inonchlar muhim o‘rin tutadi.

Bundan tashqari “Bahrom yasht”da Varaxranning tuya, qobon, go‘zal yigit, Varag‘n qushi, tog‘ qo‘chqori, yovvoyi taka na devqomat kishi ko‘rinishidagi timsoliy talqinlari haqida ham atroflicha ma’lumotlar berilgan. Qadim ajdodlarimizning animistik, shomoniylilik va kul’t miqlari asosida kelib chiqqan bunday talqinlar Varaxran obrazining o‘ziga xos mifologik tabiatini belgilovchi

yetakchi epik belgilar hisoblanadi.”Bahrom yasht”dagi bunday mifik talqinlarni xalqimizning folklor an’analari, ayniqsa, ertak va afsonalar-dagi evrilish motivlari, pir va homiylar obrazining epik tasviri bilan qiyoslab o’rganish “Avesto” mifologiyasining o’zbek xalq og’zaki badiiy ijodiyotiga epik diffuziyalanishi xususida muhim ilmiy-nazariy xulosalar chiqarish imkonini beradi.

“O’zbek tili va adabiyoti”.
5 / 2000, (41-44 betlar).

“AVESTO”DAGI MIFOLOGIK QATLAM HAQIDA

“Avesto”ning mifologik qatlamlari mohiyatan ajdodlarimiz-ning ibtidoiy e’tiqod va dunyoqarashlariga chambarchas bog’lanib ketadi. Shu jihatdan ular tadqiqotchilar oldida bir qator murakkabliklarni tug’diradi. Hozirgacha avestoshunoslikda “Avesto”ning mifologik ildizlarini tabiat hodisalariga ibtidoiy nuqtai nazardan qarash mahsuli sifatida baholash yetakchi o’rin egallab kelmoqda. Bu qarash ham tarixiy asoslarga ega. Masalan: suv, havo, tuproq, olov va samoviy yoritqichlar kabi tabiiy hodisalar ma’lum mifologik obrazlashtirish bosqichlarini o’tgach, e’tiqod tushunchasi maqomi ila borgan. Lekin, bu holatni barcha mifologik qatlamlarga baravar tadbiiq etib bo’lmaydi. Xususan, ezgu borliq yaratmish Axuramazda timsoli muayyan qiyofada belgilanmagan. Bu timsolda azaliy va abadiy cheksiz yolqin nur ibtidosi tasavvur etilgan. Bu esa uzoq ajdodlarimizning abstrakt timsoliy darajasi g’oyat yuksak bo’lganidan dalolatdir. Binobarin, “Avesto” mifologiyasida shu kabi

abstraktlashtirish orqali tushunilgan va e’tiqod qilingan ilohiy va ma’budiy timsollar butun tizimni tashkil etadi.

“Avesto” mifologiyasining tarixiy asoslari tekshirilgan ekan, bu tizimning hind mifologik tizimi bilan o‘o‘xshash va farqli jihatlari ham olimlar e’tiboriga tushgan. Bu hol bejiz emas. Chindan ham “Avesto” mifologiyasining bir qator unsurlari qadimgi hindlarning “Rigveda” kitobida ayrim fonetik farqlar bilan bir xilda nomlangan. Lekin bu o‘xshashliklarga nisbatan har ikki manbaning o‘zaro farqli jihatlari ko‘proq. Masalan: “Avesto”ga xos Arta –“haqiqat”, Drouga “Yolg‘on”, Spanta_Maynyu-“Muqaddas fikr”, Ako-Mana – “Yovuz fikr” va boshqa dualistik qarama - qarshi qo‘yilgan kuchlar “Ringveda”da dunyoqarash tizimi darajasiga yetmagan. Yana bir muhim farqli jihat mavjudki, u ham “Avesto”da Axuramazdaning hamisha barhayot “yordamchilari” ameshaspenlarning mavjudligini e’tirof etishdir. “Avesto” bilan “Rigveda” jamiyatlari dastlabki (mil.avv III-II ming yillik o‘rtalarigacha) umumiy, yoki o‘zaro yaqin bo‘lgan davrlar uzoqlasha borgan sari “Avesto”ning ilohiyot va inonch tizimlarida o‘zak tasavvurlardagi farqlar chuqurlasha borgan. Bu farqlar avvalo Zardo’sht (Zaratushtra) - behdin (ezgu din) xabarini keltirgan “payg‘ambar”, Axuramazda - ezgu borliqni yaratgan zot va uning o‘zi yaratgan bir qator ma’budlar (Tishtriya, Ardivisura), ko‘plab mifologik obrazlar tizimida namoyon bo‘ladi. Bu tizim “Avesto”da ko‘pxudolik saqlagandek tasavvur hosil qiladi. Lekin aslida xudolar emas, balki Axuramazda yaratgan va ularga sig‘inishi odamlarning namozlarini oson qilish niyati bilan halol qilgan ma’budlar iyerarxiyasi edi. Demak, “Avesto” “Rigveda”ga nisbatan diniy — falsafiy tafakkurning bir qadam ilg‘or shaklini ifoda etgan. Bu yakka xudolik - Axuramazda va uning izmi bilan mavjud ikkilamchi (Mazdadan keyin) zotlarga e’tiqod qilish demakdir. Zero, bu

ma'budlar Axuramazda irodasining mahsuli edi. Shunday qilib "Avesto" orqali ilk vahdoniyat tushunchasi rasman vujudga keldi. Ayni shu jihatlari bilan "Avesto" "Rigvedai"da aks etgan ko'p xudolik tizimidan yuksakroq ijtimoiy ong shakllarini aks etiradi.,

Avestoshunoslik "Avesto" mifologiyasini bir qancha qatlamlarga ajratib ko'rsatadi:

a) dunyo va uning kelib chiqishi masalasi bilan bog'liq mifologik tasavvurlar;

b) insonning shakllanishi bilan bog'liq tasavvurlar;

v) ilohiyat - iloh va ma'budlar tizimi haqidagi mifologik tasavvurlar;

g) qabohat, razolat, yovuzlik keltiruvchi kuchlar haqidagi mifologik tasavvurlar;

d) dunyoning poyoni, unda inson tani va ruhning taqdiri bilan bog'liq esxatologik tasavvurlar.

Bizning kuzatishimizcha, keltirilgan tasnifda ayrim mifologik orqali bo'g'inlar o'z o'rnini topmagan. Jumladan:

1. "Avesto"dagi mifologik qahramonlar.

2. Davlatchilikning mifologik talqinidagi podsholar sulolasi.

3. Turli urf - odat va rasm - rusumlarni amalga oshirish bilan bog'liq inonchlar.

Dunyoning yaralishi va uning ilohiy tartibi haqidagi mifologik qatlam birgina yer haqidagi tasavvur bilan cheklangan emas. Bu jarayon o'z ichiga butun bir koinot tushunchasini hamda uning abstrakt umumlashma ko'rinishidagi markazi hisoblanmish ezgu makon Xvanirata bilan birgalikda Axuramazda yaratgan mifologik kenglikni o'z ichiga oladi. "Avesto" kitobi dunyoning yaralishi masalasida turli qismlarda joylashgan, ko'p hollarda mukammal boshdan oyoq bayon etilmagan tafsilotlarni beradi. Bulardan yig'ma tasavvur shakllantirish mumkin. Masalan, Zardo'sht gohlaridan

birida (“Yasni” 30-band 4-qator) olamni yaratishda ikki ibtido ishtirok etgani ta’kidlanadi. Bu fikr Zaratushtra falsafasining dualistik mohiyatidan kelib chiqadi va o‘z o‘rnida bu mohiyat har bir yaralmish hodisada ezgulik va yovuzlik ziddiyati orqali izohlanadi. Gohlarning mazkur bandi odatda turlicha izohlanib kelinadi. X.Xumbax bu parchani sof dualistik ma’noda talqin qilsa, M.Is’hoqov ikki qarama-qarshi ibtidoning birini ularning birinchisi ezgu ibtidoning o‘zligidan yovuz ibtidoning sitib chiqarilishi deb qaraydi. Binobarin, yovuz ibtidoni o‘zidan uzoqlashtirgan Axuramazda to Jamshid (Yima Xshayatiya) podsholigining oxirigacha o‘zi yaratgan dunyoni bezavol holda saqlay bildi.

“Avesto”dagi dunyo yaralishi jarayoni 44-“Yasna” misolida qadimiy ajdodlarimizning fikrlash darajasi hamda dunyoni tushunish shakliga muvofiq tarzda aks etganini ko‘rsatish mumkin. Unda Zardo’sht Axuramazdaga bir qancha savollar bilan murojaat etadi. Bu savollarda soddalik alohida bo‘rtib turadi. Lekin shunga qaramay ayrim tushunchalar ilohiy abstraksiya orqali ifodalanishi diqqatga sazovor: “Haqiqatni yaratgan zot kimdir? Quyosh va yulduzlarning yo‘lini kim solib bergan? Kimning sharofati ila oy to‘lishadi va hilolaga qaytadi? Yerni kim (muallaq) ko‘tarib turadi? Bulutlarni kim tushib ketishdan asrab turadi? Suvlarni va o‘simliklarni kim saqlaydi? Yorug‘lik va qorong‘ulik qaysi san’atkorning yaratmishi? Uyqu va uyg‘oqlikni kim yaratgan? Oqil odam uchun uning vazifalarini eslatib turuvchi tongni, kunduzni va oqshomni kim yaratgan? va hokazo”. Ushbu tasavvur an’anasi “Avesto”dan boshqa yozma yodgorliklarda ham uchraydi. Masalan: Ahmoniylerden qolgan qoyatosh bitiklarida ulug‘ xudo Axuramazda bu yerni, bu osmonni va insonni yaratdi degan jumla ko‘p uchraydi. Demak, yaratish funksiyasining Axuramazdaga nisbat berilishi Zardo’shtiylik mifologiyasi uchun qat’iy an’ana hisoblangan. Ushbu

mifologik qatlamning Zardo'shtiylik adabiyotidagi ko'rinishlarida masalaning bir qatorqo'shimcha boyitilgan tafsilotlarni o'qish mumkin. Bular qatorida "Bundahshin" kitobining o'rni alohida. Unda birinchi bo'lib, osmon yaralgani, ikkinchi bo'lib suv, uchinchi yer, to'rtinchi o'simliklar, beshinchi hayvonot dunyosi, chorva, oltinchi galda odam yaralgani haqida gap boradi. Olamning olti kunda yaralishi degan g'oya shunday qilib birinchi marta "Avesto"da asoslanib berilgan.

Odam yaralishi haqidagi mifologik talqin "Avesto" falsafasining mag'zini tashkil etadi. Bunga ko'ra Axuramazda borliq yaralishining oltinchi kunida Gayamartan degan mifologik zotni yaratdi. Bu zot "Avesto"da ta'riflanishicha yarmi tanasi odam, yarmi esa xo'kiz qiyofasida bo'lgan. Naql qilinishicha, Gayamartan bu ezgu olamda birinchi bo'lib, Axuramazdaning uch ezgu asoslarini tenglab qalbiga solgan inomli zotdir. Gayamartan o'rta asrlarda Kayumars koinot ezguligi uchun yashab o'tgan va hayoti so'nggida Anghra Manyu bilan jon taslim etdi. Lekin uning iymonli ruhining moddiy asosi bo'lmish ikki urug'idan odamzotning er va ayol jins ibtidosi paydo bo'ldi. Bular martiyon va martiyonaklar (mashiya va mashiyona) edi. "Avesto" naqliga ko'ra bu juftan yetti juft o'g'il va qiz paydo bo'lib, o'z navbatida ularning har bir jufti o'zaro birlashib odamzot qavmi vujudga kelgan deb hisoblanadi, Odam yaralishi tarixi mifologik rivoyati "Bundahshin", "Zatspram" kitoblarida batafsil berilgan.

"Avesto" mifologik qatlamlarining markazida, avvalo, iloh (xudo) Ahuramazda va bir qancha ma'budlar, "Avesto" tili bilan aytganda, yazatlar joylashadi. Bu tizim "Avesto" nuqtai nazaridan yakka yaratuvchi Ahuramazda faoliyatining natijasidir. Bizgacha yetib kelgan "Avesto" kitobi bu tizimni o'zgarmas haqiqat deb tushunadi. Ammo ko'plab tadqiqotlarning ko'rsatishicha, ushbu

tizimning ayrim vakillari Zardo’shtiylikning ma’lum taraqqiyot bosqichida yakka xudolik g’oyasi Ahuramazda irodasini ro’yobga chiqaruvchi ma’budlar qatoriga kiritilgan. Aslida esa zardugatilik rasmiylashish jarayonida Zaratushtra missiyasi tarixan ham yuzaga kelmasdan avval bir qator ilohiy zotlar e’tiqod ob’yekti sifatida bo‘lgan. Bular Mitra, Xaoma, Verotragna, Vayu, Anaxita, Xvarno kabilardir.

Ma’lumki, tabiat unsurlarining himoyachilari bo‘lgan ma’budalardan tashqari yerga, odamlar va hayvonotga, o‘simliklar dunyosiga xizmat qiluvchi funksiyaga ega bo‘lgan, ma’budiy timsol darajasiga ko‘tarilgan tabiat hodislari “Avesto” mifologiyasining ajib bir badiiy idrok orqali bezatilgan qatlamini tashkil etadi. Bu timsollarni ma’budlashtirish jarayoni ularning har birini vazifadoshlik tizimiga kiritish juda qadimiy miflashtirish tafakkur darajasining mevasidir. Bu kabi e’tiqodiy mifologik tasavvurni ajdodlarimiz quyosh oy va yer qator samoviy yorqin yulduzlar bilan bog‘langanlar. E’tiborli jihati shundaki, miflashgan tasavvur mazkur osmon jismlarini yerda hayot uchun o‘ta muhim bo‘lgan tabiat unsurlariga bog‘lab, ularni ham muqaddaslashtirgan.

ADABIYOTLAR:

1. Дрезден М. Мифология древнего Ирана. // Мифология древнего мира. - Москва: Наука, 1977. С. 337-338
2. “Avesto” в- русских переводах (1961-1996). - Санкт-Петербург. Журнал “Нива”, Летний сад., 1998. Соколов СП. Зороастризм. 10 - бет. Такдосланг: ДрѣзденМ. Мифология древнего Ирана. // Мифология древнего мира. Москва: Наука, 1977. С. 338-339; Бертельс Е.Э. Избранные Том 1. История персидско - таджикской литературы. Раздел: древняя иранская литература- М.: Наука, 1968. С. 230-252.
3. Дрезден М. Мифология древнего Ирана. // Мифология древнего мира. С. 340-362.

4. *Рак И.В. Мифы древнего и раннесредневекового Ирана-Санкт-Петербург, 1998.*
5. *Исҳоқов М. Эзгу ўй, озод сўз, эзгу амал китоби. “Ўзбекистон овози” газетаси, 2001, 20 апрель.*
6. *“Авесто” в русских переводах... 136-137 бетлар. Таржима М .Исҳоқовники.*
7. *Мифология древнего Ирана //Мифология древнего мира. с. 341-334.*
8. *Рак И.В. Зороастрийская мифология.- Санкт-Петербург, 1998. С: 162-165.*

“Xorazm folklori”. Toshkent – 2003, (19-22-betlar)

“AVESTO” DAVRI IJTIMOYIY MUNOSABATLAR TARIXIDAN

Uch ming yillik tariximizning muhim manbai bo‘lgan “Avesto” ma’lumotlari asosida biz o‘sha davr ijtimoiy hayotining ko‘p qirralarini o‘rganishimiz mumkin. “Avesto” olami o‘zining boy madaniy qatlami bilan insoniyat tarixida muhim o‘rin egallaydi. Bugungi kunlarda muhim mavzulardan biri “Avesto” davridagi jamiyat, uning tarkibi va ijtimoiy munosabatlar tarixini yoritishdan iboratdir. “Avesto” va ba’zi bir tadqiqotlar asosida Avesto olamidagi ijtimoiy munosabatlarni yoritmoqchimiz.

“Avesto” jamiyatni to‘rt tabaqaga bo‘ladi: ruhoniylar, jangovarlar, peshovar (hunar ahli) va kishovarlar. Aynan mulkdorlar va tavongarlar jamoasi bo‘lgan “Avesto” olami peshovar va barzgar (kushchilar)ni yuqori tabaqa xizmatkorlariga aylantirgan edi.

“Avesto”da aqliy mehnat namoyondalari biror bir tabaqa yoki sinf sifatida tilga olinmagan. “Avesto” davri jamiyatining to‘rt tabaqalik tizimi Firdavsiyning “Shohnoma”sida ham tilga olinadi. Bir tabaqadan boshqa bir tabaqaga o‘tishni “Avesto” qat’iyan man qilardi. Biroq, shuni ta’kidlash lozimki, faqat shohning inoyati va maxsus farmoni bilan biror bir xizmat ko‘rsatgan kishiga faqat jangchilar tabaqasiga o‘tkazilishi mumkin edi. Ruhoniylar tabaqasiga o‘tish mutlaqo mumkin bo‘lmagan. Ruhoniylarning asosiy qismini mo‘badlar tashkil qilgan. Ular quyidagi daraja va maqomga ega bo‘lganlar

Zutar - zaotar (zuta, ashulachilar) “Yasna” matnlarini o‘qiydigan, u bilan aloqador rasm-rusumlarni bajaradigan asl mo‘bad. Bugungi kunlarda uning faqat bittagina yordamchisi bor,

Uni rasvik - raswik (rosbi, olovga qaraydiganlar) deydilar. “Avesto” hamda sosoniylar davrida uning oltita (olti amshospandga o‘xshash) yordamchilari bo‘lgan. Yettinchi yordamchi zutarning orqasida turgan va uni “sraokavarza” - srushovarza derdilar. Uning vazifasi butun marosim tartibini nazorat qilishdan iborat bo‘lgan. Mo‘badlar ruhoniylarning muhim bir qatlami sifatida “Avesto” jamiyatida katta mavqega ega bo‘lganlar. “Avesto”da ularni “atharavan”, pahlaviy tilida “asron” (asrok) deb ataganlar. Ularning uchinchi nomlari “kohin” yoki umuman jamoa ulug‘i sifatida “Avesto”da faqatgina bir marta kelgan “toui” (maguy), qadimiy fors tilidagi “maguy” (mug)ga to‘g‘ri keladi.

Ahmoniylar davrida muglar yuqori tabaqadagi ruhoniylar sifatida barcha viloyatlarda din boshqaruvi va dinni barcha imperiya hududlarida tarqatish uchun katta hissa qo‘shdilar. Somoniylarning birinchi shohanshohlarida muglarni “magu mart” - Magu Mart derdilar. Ularning ichidan eng yuqori martabali ruhoniylar “magupat” (magu pat) mo‘bad nomi bilan atagan kohin chiqqan. Sosoniylarning oxirgi davrlarida barcha Zardo‘shdiy ruhoniylar mo‘bad nomini oldilar, biroq eng ulug‘ mo‘badni “magupaton magupat” (Magupatan magupat) **mo‘badi mo‘badon**, barcha **mo‘badlar mo‘badi** deganlar. Bundan tashqari ruhoniylar martabasiga o‘tgan va o‘z shogirdlariga ega bo‘lganni “xirpat” (“Avesto”dagi - Aerapaiti) deydilar. Bugungi kunlarda hind Zardo‘shdiy birinchi bosqichdagi xirpat mo‘badni “novar” deydilar. Novar kam ahamiyatli kichik marosimlarni boshqara oladi. Biroq u “Videvdod”, “Yasno” va “Visparad” marosimlarini boshqarolmasa ham, ishtirok etishi mumkin. Ikkinchi darajada xirpat “martab” (martab) maqomiga ko‘tariladi va barcha marosimlarni boshqara oladi. Mo‘badlardan ham yuqori maqomda “dastur”lar turadilar. Ular barcha ibodatxona va otashxonalarini

hamda diniy muassasalarni boshqarardilar. Pahlaviy tilida bu istiloh, “mo‘badi buzurg” nomi bilan tilga olingan. Dasturi dastur Zardo’shtiylar jamoasining rahbari sifatida faqat shahanshohdan pastroq turgan.

“Ardasheri Bobakon davrida barcha ruhoniylar soliqdardan ozod qilindi va ularning foydasiga ushr solig‘i joriy qilindi. Ularga mol mulklar va katta imtiyozlar berildi. Natijada, kuchayib ketgan ruhoniylar davlat ishlariga aralashib shahanshohlarni taxtdan olib, o‘zlarining nomzodlarini shohlikka ko‘tarardilar. Shopur I, Xurmuz I va Bahrom II davridagi mo‘badon mo‘badi Kartir/Kardar yozishmalarida (Taxti Rajab, Persepolda) uning qancha katta qudratga ega bo‘lganini ko‘rish mumkin.

Jangovarlar:

Ular (egallagan mol-mulklariga qarab) ikki toifaga bo‘linardilar: yuqori mansab va past mansabdagi jangovar jangchilar hamda ularning farzandlari va oilalari. Jangovarlik ham meros bo‘lib, barchalari aslzoda sanalardilar. Tinchlik vaqtida ular nyux saroyida xizmat qilib viloyat va chegaradagilar astondorlik, marzbonlik qilardilar, yer va mol-u mulklarining boshqaruvi bilan mashg‘ul bo‘lardilar. Urush va yurishlar davrida o‘z piyoda va suvoriylari bilan saroyga hozir bo‘lib, qo‘shin qanotlarini boshqarardilar. Past mansabdagi jangovarlar asosan otliq askar sifatida qo‘shinga qo‘shilib yurish va jangga tayyor bo‘lardilar. “Avesto” davridagi qo‘shin asosan muayyan hudud aholisi (etno-territorial) asosida tuzilar edi. Harbiy unvon va mansablar quyidagicha bo‘lgan:

1. **Vuzur farmondor** (ulut farmondor. Yurishlar vaqtida poytaxtda qolib. shahanshoh noibi bilan birga mamlakatni idora etardi).
2. Eroniyspaxad (barcha qo‘shin qo‘mondoni).
3. Ispahbad (otliq qo‘shin qo‘mondoni).

Baygonsolor (piyodalar qo‘shini

qo‘mondoni). 4. Artishtoronsolor (armiya front qo‘mondoni). 5. Gundsolor (bir qanot qo‘mondoni). 6. Dirafshsolor (dasta tug qo‘mondoni). 7. Satrap (nohiya shohi).8. Astondor (aston qo‘shinining qo‘mondoni). 9. Argbad (qal‘abegi).. Aronsipaxboz (noxyaya harbiy ishlarining vaziri).

Manbalarda jangovarlar oilalaridan yetti xonadon Vispuhar nomi bilan tilga olinadi va ulardan eng mashhur sulolalari Spandiyor, Ispahbud, Mehron, Suran va Koran ekani qayd qilinadi.

Bundan tashqari shahanshohning shaxsiy gvardiyasi (gurdon), sipohi jovid (abadiy shoh xizmatida bo‘lganlar), shahriston dasgalari, qal‘alar va chegaradagi qo‘shinlar ham harbiy tizim doirasida amal qilardilar. Yana harbiy tizimda dehqon va rustoqlar aholi hisobidan yuzlab boshqa amal va mansablar bo‘lgan (suyursotchi, shotir, mehtar, chopar, borbar, borovodor va q).

Jangovarlar ham barcha soliqlardan ozod edilar, qimmatbaho kiyim kiyish, qurol - aslaha olib yurishga haqlari bo‘lib, oila a‘zolariga ipak matodan kiyim kiyish, zeb-u ziynatlar bilan yurish uchun haqdor bo‘lganlar.

Peshavarlar (hunar ahli): asosan shahar aholisi va hunarmandlardan iborat bo‘lgan. Ular yilida uch marta soliq to‘lardilar va markaziy davlat tomonidan tayinlangan maxsus mufattish (harbiy va mudofaa ishlar bo‘yicha), nozir (soliq masalasi bo‘yicha) va mubassir (grajdanlik ishlari bo‘yicha) amaldor tomonidan nazorat qilinaridi.

Kishovarlar:

Kishovarlar, ya‘ni ziroatchi, qo‘shchilar “Avesto” jamoasining eng past tabaqasi hisoblanardilar. Ular jangovarlar va ruhoniylar yerlarida ishlab. mulk egalariga “begor” kabi majburiyatni yil davomida bajarib, davlatga esa yer va jon solig‘ini to‘lardilar. Urush va harbiy yurishlar paytida piyoda askarlar sifatida xizmatga jalb

qilindilar. Tinchlik paytida mulk egasi yerida yilida bir marta “begor” majburiyatini bajarardilar. Soliq ulardan katta miqdorda olinardi. Masalan, bir jarib (1 ga) ziroatli yerdan bir dirham, bir jarib tokzordan sakkiz dirham, bir jarib sholi ekilgan maydondan besh dirham soliq olinardi. Har bir ziroatchi 30 yoshdan 50 yoshga to‘lgunga qadar jon solig‘i ham to‘lashga majbur edi.

“Avesto” davri jamiyati markazlashgan davlat tomonidan boshqargan. Eng oliy hukmdor shohanshoh bo‘lib u barcha qudratni mutlaq o‘z qo‘liga olgan edi. Uning ramziy ilohiy hukumati “farraxi ezidiy” (“Avesto”dagi “farra Ahuramazda”) bo‘lib, Ahuramazda tomonidan odamlar ustidan boshqaruv huquqini olganining belgisi edi. Shahanshoh hukumati faqatgina Ashkoniy shohlari davrida mo‘badlar tomonidan birmuncha cheklandi. Biroq tez orada shoh mutlaq hokimiyatini qayta tikladi. “Avesto” ham shoh hokimiyati va mulkdorlarni himoya qiladi va unda podshohlar haqqiga keltirilgan duolar juda ham ko‘pdir.

Shohdan keyin eng yuqori amal bu Vuzruk faromodorga tegishli bo‘lib, u ming nafardan iborat shoh soqchilarining qo‘mondoni hisoblanib “hazorbad” (ming kishidan iborat qo‘shinning qo‘mondoni) unvoniga ega edi. Shu bilan birga u barcha saroy ishlariga mas’ul va vazirlarning ustidan boshliq bo‘lgan. Keyingi vazifa va amalllar:

Shohhomordabir (barcha boyliklar vaziri), ganjhomordabir (xazina vaziri), doddabir (adliya vaziri), kodohomordabir (siyisxona dabiri, miroxur), otashxomor (otashxonalar ta’minoti bo‘yicha vazir), ravangondabir (vaqf mulklari vaziri), erondabirbad (devon boshlig‘i), artistoronsolor (barcha qo‘shinlar qo‘mondoni), andarzbadospvargon (otlixdar o‘qituvchisi), suturpizishk (baytor) va hokazo.

Adliya ishlarining barchasini shohning o'zi nazorat qilardi, Navro'z va Mehrjon bayramlarida hamda qabul vaqtida, o'tirishlarda ham nyux sud va adliya ishlarini olib borgan. Biroq, da'vo bilan shohga faqat maxsus qoziylar - dodsiton orqali murojaat qilish mumkin edi. Bu uchun shahardovar (shahar qozisi), roderon (mamlakat qozisi), sipohdovar (qo'shin qoziyisi) degan amallar joriy qilingan edi. Diniy masalalar bo'yicha ishlar ruhoniylar zimmasida bo'lgan. Gerodot ma'lumotiga qaraganda, ahmoniylar davrida adliya ishlarini olib boradigan yetti nafar pore va midiyalix asilzodalardan iborat kengash tashkil qilingan bo'lib, ular adliya ishlariga mas'ul edilar. Shoh, yetti xiradmandlar kengashi va dodraslar (qozilar) tomonidan chiqarilgan qaror va jazo turlari ham ko'p edi. Bular turli yo'llar bilan amalga oshiriladigan o'lim jazosidan boshlab, jismoniy jazolar, moddiy jarima va turli sinovlardan (issiq va sovuq -vaji garm va vaji sard imtihonlari)dan o'tishni, turli narsalarni yeyish, ichish bilan ont ichirishni taqozo qilindi. Bu yerda Firdavsiy "Shohnoma"sidagi Siyovushning Sudoba tuhmatiga giriftor bo'lib, aybsizligini isbotlash uchun olov bilan imtihon qilinganini misol tariqasida tilga olish kifoya qiladi.

Gunohkor uch xil ayblanishi mumkin edi. 1. Diniy gunoh, jinoyat. 2. Ra'iyatni shoh va davlatga nisbatan jinoyatlari, ya'ni siyosiy gunoh. 3. Shaxsni boshqa shaxsga nisbatan jinoyati. Jazo tayinlash jarayonida shaxsning qul yoki ozod ekani, jinsi va yoshi ham inobatga olingan. Zardo'sht dinida ba'zi hayvonlarga qarshi ko'rsatilgan jinoyatlar ham ko'rsatilgan. Jumladan, it va barcha xonaki hayvonlar Ahuramazda qo'shini qatorida sanalgani bois maxsus himoyaga olingan. hayvonlarga yetkazilgan zarar va azob uqubat uchun jazo belgilangan. Jazo belgilash jarayonida asosan "Avesto"ning huquqqa doir "Dotik" naskalaridan foydalanganlar. "Dotik", ya'ni dod va adolatdan iborat qismlar bo'lib, u "Nikotam",

“Vandidod”, “havas”, “Salotam” kitoblaridan iborat. Bundan tashqari Zardo’shtiy ruhoniylari tomonidan pahlaviy tilida yozilgan “Modigoni xazordaston” (ming qonunchilik masaladan iborat kitob), “Dinkard” (Ozarpat xati bilan IX asrda yozilgan), “Dodsitoni dinik” (IX asrning oxirlari), “Bundahishn”, “Artavirafnomak”, “Xudoynomak” va boshqa asarlar ham Zardo’shtiyalar jamoasidagi “Avesto” huquqi manbaalarini tashkil qilgan.

ADABIYOTLAR:

1. *Boys Meri. Zoroastriysi. Verovaniya i obichai. Moskva: Nauka, 1987. -302 s.*
2. *Vostok - Zapad. Perevodi. Publikasi. M., 1982. - 452 s.*
3. *Beruniy Abu Rayhon. Osor ul-boqiya Toshkent: Fan 1968.*
4. *Mole Marian. Ironi bo’ston. Tarjumon Jola Omuzgor. Tex,ron:Tus. 1377/1999. - 133 s.*
5. *Tarixi tamadduni Eron. Tarjimon Javod Muxyi. (Kartir yozuvlari). Texron, 1377/1999.*
6. *Rashshod Muhammad. Falsafa az ogozi tarix (dar 7 jild). Jildxoi 1 va 2. Dushanbe: Irfon, 1990.-480 s.*
7. *Firdavsiy “Shohnoma”. (Nomi kason va joyxo). Xusayn shaxidiy Mozandaroniy (Bejan). Balx: Bunyodi Nishopur. 1377/1999. - 811 s.*
8. *Raziy Xrshim. Avesto: Gotxo, Yasna, Yasht, Visparad, Xurda Avesta. Tarjima va u pazuxish. Texron: Intishoroti Bexjat - Farnav. 1378/2000. - 658 s.*
9. *Darmesteter J. Le Zend-Avesta. 3 vols. Paris. 1960.*
10. *Bleek Artur Henry : Avesta. The religions Books of the Parsees. 3 vols. New York. 1974.*
11. *Ibrohim Puri Dovud. Gotho. Tehron. 1354.*
12. *Ibrohim Puri Dovud. Yasno. Jildi 1. Tehron. 1340.*
13. *Ibrohim Puri Dovud. Yasno. Jildi 2. Tehron. 1338.*
14. *Ibrohim Puri Dovud. Yashtxo. Jildi 1. Bamabay. 1307.*
15. *Ibrohim Puri Dovud. Yashtxo. Jildi 2. Bamabay. 1310. 16.Ibrohim Puri Dovud. Visparad. Tehron. 1343.*
17. *Ibrohim Puri Dovud. Xurda Avesto. Bamabay. 1310.*

REZYUME

V state idyot rech o sosialno - obshestvennom klassifikasii v periode "Avesta".

REZUME

In this article the opinion is spoken about the social classification in the period of "Avesta".

*"Xorazm ma'mun akademiyasi axborotnomasi",
2008/1, (64-68-betlar)*

**“AVESTO” JAMIYATIDA OILA, NIKOH VA
MEROS MASALALARI**

“Avesto” davrida yashayotgan jamiyatda oila va nikoh hamda meros masalasini ana shu muhim ahamiyat kasb etadi. Bu mavzuni o‘rganishda bizga “Avesto” bilan birga yozma manbalar va mavjud tadqiqotlar yaqindan yordam beradi. Qadimiy o‘lkamizda shu muddatlar hukmron ideologiya sifatida amal qilgan otashparastlik va Zardo‘shiylik o‘sha qadimiy jamoaning ijtimoiy munosabatlar asosini tashkil qilgan. Oila va nikoh ham Zardo‘shiylik diniga binoan uning asosiy g‘oyalaridan kelib chiqqan yo‘lda amalga oshirilgan. Zardo‘shiylik dinida oila muqaddas sanalgan va oilasiz yashash man‘ qilingan. Farzandi bo‘lmagan kishilar Zardo‘shiylik ajdasiga ko‘ra Chinvot ko‘prigidan o‘tib ezgulikka erisha olmasdi. Manbalar va ma‘lumotlar shuni ko‘rsatadiki, oila qurish majburiy bir vazifa bo‘lgan.

“Avesto” (Yasno, Goh 32, 1 band) da oila “xavoitush” deb nomlanadi. Bundan tashqari, shu joyda muayyan hududda yashayotgan qabila, avlodni viriz‘inam nomi bilan ataladi. Qabiladan katta uyushmaning nomi ulug‘, buyuk, ya‘ni xalq/elat

ma’nosidagisini “Avesto”da “airyamna” (airyamno) deyishgan. “Damon” yoki “nimon” oila/xonavoda yashaydigan maxal va manzildir. “Vis” bir nechta xonavoda yashaydigan mahal, dehqon/qishlok deyilgan. “Zantu” esa bir-birlaridan yaqin bo‘lmagan, biroq; muayyan xonavodaga emas bir zan-ayolga yaqin oilalarning yashash joylari. Zantuga tegishli guruhni mazkur matnda “airiman” deyishgan. “Daxiyu”/kishvar, mamlakat millat yoki bir elat yashaydigan hududdir. Uni “daxiyupaiti”/dexpat boshqargan. Shunday qilib “Avesto” olami jamiyatini oila, avlod, qabila, elat, ular yashaydigan dex va mamlakat tashkil qilardi.

“Avesto” bo‘yicha qadimiy jamiyatning asosi bo‘lgan oila va nikoh masalasini quyidagicha tahlil qilish mumkin:

1. Muayyan bir yoshga yetgan har bir o‘g‘il va qiz o‘z ota - onalari va ba’zan o‘z ixtiyorlari bilan oila ko‘rishlari lozim bo‘lgan. Oila ko‘rishga kuchlari yetmaganlarga Anushervon davrida davlat xazinasidan yordam berishgani ma’lum. Farzandi bor odamlar, Zardo’sht ta’limotiga binoan, Alvand va Damovand tog‘larini boylagan Chinvot ko‘prigidan bemalol o‘tadilar. Bolasizlar esa narigi dunyoda sarson va sargardon bo‘lib “buridapul” (ko‘prikdan o‘tolmagan) sifatida yurar edi. Axmoniyilar davrida ularning imperiyalarining barcha hududlarida ko‘p bolali oilalarga mukofot ham berardilar. Zardo’sht ham nikohni rizqu-ro‘zining asosi, farovon ne’mat keltiruvchi deb bilardi. Er va xotin nikohda birgalikda yerga ishlov berib, bog‘larni gulafshon va boyliklarni ko‘paytirishlari mumkin edi. Qadimiy Xorazmda ham oila qurish yoshi yigit va qizlar uchun 13, 14 va 15 deb manbalarda ko‘rsatilgan. Qizlarni 9 yoshda nomzod va 13 yoshda erining uyiga jo‘natish mumkin bo‘lgan.

2. Yoshlar aslan ota-onalarining roziliklari bilan, ular kelgan qarorga rozi bo‘lib oila kurishlari zarur edi. Ayniqsa, qizlar faqat

otalari tanlagan kuyovga erga tegishlari lozim bo'lgan. O'z ixtiyori bilan erga tekkan qiz "xudsarzan" (o'z ixtiyori bilan erga tekkan juvon, qaysar ayol ma'nosida) nomini olib, merosdan maxrum bo'lardi va hech qachon o'z oilasida "poshshozan" (shoh ayol, malika) makomiga erga bo'la olmasdi. O'z ixtiyori bilan uylangan yigitlar haqida "Avesto" matni va Zardo'sht hech nima demagan, faqat o'g'ilni merosga egalik qilish, bu dunyo va oxirat baxtiga erishish uchun ota-onaga itoat qilishi lozim bo'lgan.

3. Mahramlar o'rtasidagi nikoh ham "Avesto" jamoasida shoh oilasi va aslzodalar o'rtasida mavjud bo'lgan. Biroq bunday nikoh haqida bevosita ma'lumotlar yetib kelmagan. Qadimiy Rim va Yunon tarixchilari ma'lumotlaridan ko'pincha shoh va a'yon-ashroflarda yaqin qarindoshlar bilan oila ko'rganlar haqida ma'lumot olamiz.

Firdavsiy o'zining "Shohnoma"sida Baxmanni o'z qizi Xumoyga uylanishish tasvirlaydi. (Yake duxtarash bud, nomash Xumoy; Xunarmandu bo donishu pokroy; Xame xondandi varo chexrzod; Zi geti ba didori u bud shod; Padar var paziruftash az nekui; Ba d-on din, ki xoni varo pahlavi; Xamon dilafro'z tobanda moh; Chunin bud, ki obistan shoh). Kurush/Kir o'z xolasini, Doro I birodari qizi Farotagunni, Kambiz/Kambuj; avval opasi, keyin singlisini, Doro II uchta qizi (katta qizi Amastaris va kenjasinin nomi Anasso)ni o'z nikohiga kiritgan edi. Asatira - eng mashhur malika bo'lgani bilan bir vaqtda Doro III xotini hamda singlisi edi.

4. Qadimda "Avesto" olamida erning xotinlari soni haqida ham ma'lumot mavjud. Aslzodalar va boy tabaqadagi erkaklarning xotinlari bitta bo'lmagan. Masalan, Kir I va Kambuja III ning uchta xotini, Doro I ning yetti, Ardasherni 360 nafar xotin v cho'rilari bo'lgan (Amir Temur xaramida to'rt shar'iy xotini bilan birga yana 20 ga yoki joriya/qumolari bo'lgani kabi). Biroq shuncha ayollardan

faqatgina bittagina ayol qonuniy, qolganlari esa g‘ayriqonuniy sanalardilar. Qonuniy xotun “qazokbonuk” qolganlarni chokar/joriya, qumo derdilar.

Oilada ayollar quyidagi maqomlarga va meros olish huquqiga ega edilar.

a) poshshozan/malika - otasi va o‘z oilasi roziligi bilan erga tekkan qiz.

b) xudsarzan - o‘z ixtiyori bilan otasi va oilasining rozilgisiz erining uyiga ketgan qiz.

v) chokarzan - tul qolgan ayol, ikkinchi erga tekkan juvon.

g) anvoqin - biror bir oila a’zosiga tegishli bo‘lgan qiz. Oilasi uni birinchi o‘g‘il bolasini bobosiga berish sharti bilan erga berishgani. Shu o‘g‘il onasi o‘rnida merosxo‘r sifatida qoladi. Ko‘pincha o‘g‘illari bo‘lmagan oilalar va shaxslar shu tartibga amal qilganlar.

l) satarzan - yosh yoki bevaqt vafot etgan o‘g‘ilga erga tekkan qiz. Oila avval uni O‘LGAN yigit nikohiga kiritilib, keyin unga qayta sep yigib erga beradilar. Bu qizning birinchi farzandi, ko‘pincha o‘g‘li vafot etgan yigitning farzandi sanalardi va uning oilasiga beriladi. Ba’zan farzandi bo‘lmagan kishi biror bir qizni surab o‘z nikohiga rasman kiritar edi. Keyin uni yangi sep va narsalari bilan qayta erga berib uning farzandini asrab olardi. “Avesto” jamiyati patriarxal jamoa bo‘lib, barcha huquq er va oilaning boshlig‘ining qo‘lida edi. Zarur bo‘lganda o‘g‘il katta qizi va singlisini otasiga xizmat qilish uchun berardi. “Gata”larning 53 bobi 5 gohida shunday deyiladi: “Sizlarga aytgum, ey kuyov bo‘lgan yigitlar va ey kelin bo‘lgan qizlar! Doyim o‘z juftlaringizni eslanglar va yakdillik va birjihalik bilan pok din tariqasida yurib, pok va ittifoq ila rostlik libosini kiyinglar. Shunda to‘g‘ri va shodmonlik bilan kechirgan bo‘lasizlar”. Er xotini vafot etganda

boshqa ayolga uylanishi mumkin edi. Ayol esa ikkinchi faqat chokarzan sifatida qayta erga tegishi mumkin edi. Biroq, agarda uning birinchi eridan farzandi bo'lmasa, ikkinchi oilasida paydo bo'lgan farzandlarining oldingi eriga tegishli bo'lardi. Diniy tafakkurga binoan, oxiratda u birinchi eri tegar ekan. Agarda ayolning eri bir muddat g'oyib bo'lsa, xotini boshqa erga birinchi eri qaytishi bilanok uning huzuriga qaytib yana "poshshozan" darajasiga ko'taradi. Poshshozan umumiy mulkidan boshqalarga hadya va tuhfarlar berishi mumkin. Ko'p hollarda ayol erining mol-mulkiga sherik, eri mulkining mutasaddiysiga edi. "Avesto" buyicha ayol eridan qolgan mulkka egalik qilishi lozim bo'lgan. Er zaruriyat to'g'ilganda xotiniga tegishli bo'lgan mol-mulkdan foydalanishi mumkin edi. Biroq, birinchi imkoniyat bilan uni qaytarib berishi talab qilingan. Ayol mol-mulkidan ibodatxona qursa, uning mutavalliyligi faqat bolalariga tegishli erining esa unga daxli bo'lmagan. Ayolning ta'minoti xoh boy bo'lsin, xoh kambag'al, faqat erining zimmasida bo'lgan. Er o'z xotiniga biror bir mulk, boylik yoki zeb-ziynat bersa va uni uch kun davomida qayta so'ramasa, u narsalar xotinniki bo'lib turdi. Er ularni qayta talab qilganda berish-bermaslik ayol ixtiyorida bo'lgan. Xotin biror bir xonaki qayvon (qo'y, echki, tuya, ot)ni olib kelsa va eri uch kun davomida hech bir narsa demasa, ularni boqib olishi va o'z mulkiga aylantirishni mumkin.

6. Er o'z xotinini yaqinda vafot etgan biror bir boy kishiga "er"ga berishi ham mumkin bo'lgan. Shunda ayoli "poshshozan" o'rnidan "chokar"likka tushardi. Shundan keyin tug'ilgan farzand o'lgan odamning bolasi sanalardi va ona bilan o'g'il uning merosxo'riga sanardi. Ayolga, albatta kamroq meros tegsa ham uning moli hisoblanib, "sobiq" erining unga daxli bo'lmagan. Zardo'shtiy faqat o'z dinidagi va o'z elatiga uylanishi mumkin

bo‘lgan, aks holda bunday kishini bir o‘likka erga tekkan deb ta’nasor qiladilar.

Asrab olgan bolalar va farzandxondalarning o‘rni.

“Avesto” matnlarida farzandxond qilganlarning masalasi juda muhimdir. Farzandxonda uch darajaga ega bo‘lgan 1. Tirik vaqtida farzand qilinganlar. 2. Zo‘raki farzand. 3. Vorislar tomonidan tayinlangan farzand. Endi xdr birini mufassalroq ko‘rib chiqamiz.

1. Farzand qabul qilingandan so‘ng uni farzand sifatida qabul eilgan shaxs vafot etadi. Bu farzand vafot etganga o‘g‘il sifatida qoladi.

2. “Zo‘raki” farzand. O‘zidan katta o‘g‘il yoki aka-ukalari bo‘lmagan shaxs o‘ziga taalluqli bo‘lgan qiz, poshshozan bo‘lgan xotining qizini farzandlikka qabul qiladi.

3. Vorislar tomonidan asrandi voris quyidagicha qabul qilingan. a) vafot etgan shaxsning katta singlisi, agarda u boshqa bir oilaga taalluqli bo‘lmasa; b) vafot etgan shaxsning akasining qizi; v) marhumning akasining o‘g‘li.

Yuqoridagilardan shu ma’lum bo‘ldiki, farzandlikka ham erkak va ham ayol qabul qilinishi mumkin bo‘lgan. Biroq farzandlikka qabul qilingan balog‘atga yetgani, solimaql bo‘lmog‘i, Zardo’shtiy dinida ekani va jazosi o‘lim bo‘lgan jinoyat sodir etmagani talab qilinadi. Bundan tashqari uning xonavodasi va ko‘p bolalari bo‘lmagani lozim bo‘lgan. Bunday shaxs bir yoki bir nechta xonavodaning farzandxondi bo‘lishi mumkin edi. Bunday holat ko‘pincha erkaklarga ma’qul bo‘lgan. Qizlardan esa erga tegmagani, biror bir boshqa xonavodaga tegishli bo‘lmaganlari, birov bilan nikohsiz yashamagani, fohisha bo‘lmagani farzandlikka qabul qilingan. Biroq ba’zan qizlardan Zardo’shtiy bo‘lmagan va yoshi kichik bo‘lganlar ham farzand sifatida tanlangan.

Manbalarda biz farzandlikka qabul qilganlarning boshqa merosxo'rlar bilan munosabatlari, ularning hayotlari haqida ma'lumot topmaymiz. Faqat shu rasm va rusumning uzoq muddat davom etgani, bu tartib oilaning kattasi nazoratida amalga oshirganini, tarbiya va ta'lim olganini taxmin qilsa bo'ladi.

Farzand besh yoki yetti yoshgacha onasi oldida parvarish topardi. Yetti yoshda u otasi ixtiyoriga o'tib maxsus marosimda sitra jomasini unga kiydiradilar va beliga kusti/gushti (bugungi kunlarda milliy kurashdagi belbog' turi ana shu go'shti - kamarni ushlab kurashga tushgan Zardo'shtiyardan qolgan) degan kamarni boylardilar. Shundan keyin bolaga din asoslarini, qilichbozlik, o'q otish, nayza tashlash, otsuvorlikni kattalar o'rgatardilar. Qadimiy "Avesto" olamida ta'lim va tarbiya masalasi alohida mavzudir.

Xulosa sifatida shuni aytish kerakki, oila va nikoh, qadimiy "Avesto" jamoasida x,am muqaddas bir burch bo'lgan va u meros va vorislik masalasi hamda xususiy mulkchilik bilan yaqin aloqada bo'lgan. Bizningcha, nikoh masalasi "Avesto" jamoasidagi ruhoniylar, jangchilar, peshovar va kashovarlar tabaqalarida turlicha bo'lgan. Bu mavzu doirasida qullar va asirlarning ahvollarini o'rganish ham katta ahamiyatga egadir.

FOYDALANGAN MANBALAR VA ADABIYOT:

1. *Fray R. Naslediye Irana./ Kul'tura narodov Vostoka. Materiali i issledovaniya. M.: Nauka, 1972.-400 s.*
2. *Boys Meri. Zoroastriysi. Verovaniya i obichai. Moskva: Nauka, 1987. - 302 s.*
3. *Vostok - Zapad. Perevodi. Publikatsii. M., 1982. - 452 s.*
4. *Beruniy Aburayx,on. Osor ul-bokiya min al-kurun al-x,oliya. zadimgi xalqlardan kolgan yodgorliklar. A. Rasulev tarjimasi. Toshkent: Fal 1968.*
5. *Mole Marian. Ironi boston. Tarjumon Jola Om>zgor. Texron:Tus. 1377/1999. - 133 s.*

6. *Tarixi tamadduni Eron. Tarjumon Javod Muxyi. (Kartir yozuvlari). Texron. 1377/1999.*
7. *Rashshod Muhammad. Falsafa az ogozi tarix (dar 7 jild). Jildxoi 1 va 2. Dushanbe: Irfon, 1990.-480 s.*
8. *Farxangi “Shohnoma”. (Nomi kason va joyx,o). Xusayn shaxidiy Mozandaroniy (Bejan). Balx: Bunyodi Nishopur. 1377/1999. - 811 s.*
9. *Roziy ^oshim. Avesto: Gotx^o, YAsna, YAsht, Visparad, Xurda Avesta. Tarjima va pazuxish. Texron: Intishoroti Bexjat - Farnav. 1378/2000. - 658 s. 10. Darmesteter J. Le Zend-Avesta. 3 vols. Paris. 1960.*
11. *Bleek Artur Henry: Avesta. The religions Books of the Parsees. 3 vols. New York. 1974.*
12. *Ibroxim Puri Dovud. Gotxo. Texron. 1354.*
13. *Ibroxim Puri Dovud. YAsno. Jildi 1. Texron. 1340*
14. *Ibroxim Puri Dovud. YAsno. Jildi 2. Texron. 1338.*
- 15: *“ Ibroxim Puri Dovud. YAshtxo. Jildi 1. Bamabay. 1307.*
16. *K- Ibroxim Puri Dovud. YAshtxo. Jildi 2. Bamabay. 1310.*
17. *Ibroxim Puri Dovud. Visparad. Texron. 1343.*
18. *Ibroxim Puri Dovud. Xurda Avesto. Bamabay. 1310.*
19. *Avesto. Bargardoni xaft X,ot az Gotxo surudaxoi Zardo’sht. Bo matni avestoyi va go’zorisxoyi zabonshinosi. Pazuxish va navishtayi doktor Obtin Sosonfar ustodi peshini Donishgoxi Millii Eron. Parij. 2002. - 534 b.*

“Ilm sarchashmalari”. 2008 – 3, (31-35-betlar).

“AVESTO”DA ARDVISURA ANAXITA OBRAZINING MIFO-EPIK TALQINI

“Avesto” mifologiyasida tasvirlanishicha, hosildorlik, mo‘l-ko‘lchilik daryo suvining to‘lib oqishi, qut-baraka timsoli sifatida tasavvur qilinadigan personajlardan biri Ardivisura Anaxitadir. Bu personaj suv ma‘budasi bo‘lib, u haqidagi mifologik tushunchalar “Avesto”ning “Ardivisur yasht” deb atalgan qismida mujassamlashgan. Bu yashtda talqin qilinishiga ko‘ra, Ardivisura “nonu rizq o‘stiruvchi”, “podani to‘ydiruvchi” ezigulik timsolidir. Ardivisura zaminga hayot baxsh etadigan, daryo suviga baraka beradigan, odamlarni yovuz kuchlar hujumidan asraydigan ezgu homiy va ayni paytda daryo suvining mifologik egasi sifatida gavdalanadi.

Ardivisura Anaxita obrazining o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, u ko‘pfunksiyali mifologik personajdir. Uning dastlabki va asosiy vazifasi obihayot manbai sifatida talqin qilingan Ardivi yoki Doitiya daryosiga homiylik qilishdan iboratdir. Shu tariqa uning suv ma‘budasi sifatidagi mifologik funksiyasi shakllangan. Bundan tashqari, Ardivisura Anaxita hosil mo‘l bo‘lishini ta‘minlovchi, homilador ayollarning og‘irini yengil qiluvchi, umuman, chin dildan ixlos bilan namoz yo‘llagan kishilarni qo‘llab-quvvatlaydigan ezgu ilohadir.

Zardo‘shiylik dini keng tarqalgan davrlarda Ardivisura Anaxita dalalarda hosil mo‘l bo‘lishini ta‘minlaydigan ezgu ma‘buda, ya‘ni Muqaddas ona timsolida talqin qilingan. Muqaddas Ona mo‘l hosil, doimiy yashillik va daryolarning sersuvligi timsoli sanalgan. Go‘zal ayol ko‘rinishida tasvirlangan Ardivisura Anaxita obrazi o‘sha davrlarda yaratilgan tosh va sopol haykalchalarda ham o‘z ifodasini

topgan. Zardo’shtiylar suv va hosildorlik ma’budasining bunday haykalchalarini o‘z uylarida, shuningdek, ibodat-xonalarda saqlaganlar va marosimlar chog‘ida unga sig‘inganlar. Bunday haykalchalar bor bo‘lgan xonadon ahli Ardvisura Anaxita sharafiga namoz yo‘llab, uning sharafiga qurbonlik marosimlarini muntazam ravishda o‘tkazib turgan. Shuning uchun ham Ardvisura Anaxita bunday sodiq, e’tiqodli kishilarni o‘z himoyasiga oladi deb ishonganlar. Zardo’shtiylik mifologiyasida qut, baraka va serhosillik tushunchalari ham Ardvisura Anaxita obrazi bilan bog‘lab talqin qilingan. Dehqonchilik an’analari keng yoyilgan hududlarda o‘tkazilgan arxeologik tekshirishlar davomida bu ma’buda haykalchalarining ko‘p topilganligi ham Ardvisura Anaxita kul’ti Zardo’shtiylik mifologiyasining shakllanishi va taraqqiy etishida katta rol o‘ynaganligidan dalolat berib turibdi. Xususan, O‘rta Osiyodagi qadimgi qal’a va shaharlarda olib borilgan arxeologik qazishmalar chog‘ida topilgan ayol ko‘rinishidagi terrakota-haykalchalarning aksariyati Anaxitaning timsoli ekanligi mutaxassislar tomonidan yakdillik bilan qayd qilingan²⁹.

Ardvisura Anaxitaning terrakota haykalchalar ko‘rinishidagi timsoliy ifodalarining yaratilishiga bu mifologik obrazning “Avesto”dagi talqinlari asos bo‘lgan. Chunki bu qadimiy obidada suv ma’budasining mukammal obrazi tasvirlangan. “Ardvisura alqovi”ning 126-129-bandlarida suv va hosildorlik timsoli sifatida tasavvur qilingan bu ilohaning tashqi ko‘rinishi haqidagi qadimiy

²⁹ Заславская Ф.П. Богиня плодородия в коропластике Афрасиаба кушанского времени // История материальной культуры Узбекистана. – Тошкент, 1959, №1; Пугаченкова Г.А. Маргианская богиня // СА, 1959 №29-30; Массон В.М. Сарияниди В.И. Среднеазиатская терракота эпохи бронза. – М., 1973; Антонова Е.В. Антропоморфная скульптура древних земледельцев Передней и Средней Азии. – М., 1977; Мэри Бойс. Зороастрийцы. Верования и обычаи. – М.:Наука, 1987, С.78.

mifologik tasavvurlar to‘la aks ettirilgan. E’tiborlisi shundaki, “Avesto”da tasvirlangan mifologik personajlar orasida faqat Ardivisura Anaxita inson ko‘rinishida, ya’ni antropomorf qiyofada tasvirlangan. Bu darajada mukammal tasvirlangan boshqa obraz “Avesto”da mavjudligi qayd qilinmagan.³⁰ Qadimgi mifologiya tadqiqotchilaridan biri M. Drezdenning yozishicha, “Ardivisur yasht”ning mualliflari ko‘z o‘ngida bu ilohaning haykalchalari mavjud bo‘lgan. Ular ana shu haykalchalarga qarab turib yoki bu ma’budaning ilohiy go‘zalligini xayolan tasavvur qilib, Ardivisura Anaxita timsolini talqin qilganlar³¹.

Zardo’shtiyalar tasavvuricha, Ardivisura uzun bo‘yli, ko‘kraklari to‘liq, adl qomatli xushro‘y qiz ko‘rinishida bo‘lgan. U oltin taqinchoqlar bilan o‘ziga oro bergan, oltin yoping‘ichini qo‘lida tutganicha, suv uzra namoyon bo‘ladi. Bamisoli yosh daraxt niholidek nozikbadan bu ma’budaning yuzidan ilohiy nur taralib turgan:

*Ko‘zga ko‘rinib keldi
Muqaddas Ardivisura.
Yosh nihol go‘zal qizdek
Lek qudratli purviqor...*³²

Belini tarang qilib bog‘lab olgan, xushqomat Ardivisura yuz-ko‘z qilib, odam ko‘rinishida yasalgan oltin chambarakni boshiga kiyib olgan. Bu chambarak sakkiz g‘ildirakli aravaning gupchagi shaklida yasalgan bo‘lib, unga harir ipak matodan bog‘ichbandlar bog‘langan. “Avesto”da Ardivisuraning egniga kiygan liboslari haqida ham ma’lumotlar mavjud. Bu mifologik personaj uch yuz

³⁰ Рак И.В. Мифы древнего и средневекового Ирана. - СПб, 1998, С.144.

³¹ Дрезден М. Мифология древнего Ирана / пер.С.англ. И.М.Стеблин-Каменского. // Мифология древнего мира. – М., 1977. С.355.

³² Авесто. Яшт китоб // М. Исхоков таржимаси. –Тошкент: “Шарк”, 2001.32-33-бетлар.

suvlar terisidan tikilgan pocha po‘stin kiygan sarvqomat sanam timsolida tasavvur qilingan.

Bizningcha, Zardo‘sh tiylar suv va hosildorlik ma‘budasi Ardivisura Anaxita siymosida o‘zlarining ideal go‘zallik haqidagi qarashlarini ham ifodalaganlar. Shuning uchun ham bu mifologik obraz betakror go‘zallik timsoli sifatida talqin qilingan. “Avesto”da Ardivisura Anaxitaning tashqi ko‘rinishi, qiyofasi nihoyatda go‘zal qiz sifatida tasvirlangan. U keng Ranxa daryosi suvlari uzra go‘zal qiz misol namoyon bo‘lib, odamlarga sog‘-omonlik, dalalarga serhosillik, yer yuzidagi jamiki suv manbalariga baraka bag‘ishlaydi. Uning nur yog‘ilib turgan nurafshon siymosi, ko‘rkam qaddu qomati yashtda Shunday tasvirlangan:

Keng Ranxa suvlaridan,

Ardivisura namoyon

Bo‘ldi go‘zal qiz misol

Qomati tik ulug‘vor.

Ko‘rinadiki, Ardivisura Anaxita judayam suluv, sarvqomat qiz ko‘rinishida tasavvur qilingan. Qaddi-qomati kelishgan bu yosh va go‘zal ma‘buda zebu ziynatlarga burkangan, qo‘lida Zardo‘sh tiylarning muqaddas timsollaridan biri - barsman novdalarini ushlab turgan holatda madh etiladi. Suv ma‘budasining haykalchalari va boshqa tasvirlarida ham u ko‘pincha bug‘doy boshog‘i, daraxt novdasi, gul, meva yoki chaqaloq ko‘tarib turgan yosh, navqiron, go‘zal ayol sifatida gavdalantirilgan. L.I.Rempelning yozishicha, “novda, meva va idishlar ilk dehqonchilik madaniyatida hosildorlik ma‘budasining timsollari hisoblangan”.(5)

Fikrimizcha, qadimgi mifologiyada, ayniqsa, dehqonchilik madaniyati shakllangan davrlarda paydo bo‘lgan hosildorlik kul‘ti ta‘sirida suv bilan bog‘liq ma‘budalar turli xil o‘simliklar yoki

jonivorlar bilan birgalikda tasvirlangan. Bunday o‘simlik (yoki meva) va jonivorlar hosildorlik va suv ma’budasining mifologik timsollari vazifasini bajargan va mifik personajlar mohiyatini oydinlashtirgan. Yuqorida keltirilgan parchada Ardivisura Anaxita qo‘lida barsman novdalarini ushlab turgan holatda tasvirlanishida ham suv va serhosillik ilohasining muqaddasligiga, sharafnokligiga ishora yotadi.

Zardo‘shiylik mifologiyasi talqinicha, Ardivisura Anaxita hosilning mo‘l bo‘lishi, zamin sathining kengligi, daryolar sersuvligi, podalar bo‘liqligini ta’minlovchi ezgu homiydir. Shuning uchun ham mazkur yashtda bu iloha “butun dunyoning topinchu alqovlariga loyiq zot” deb ta’riflanadi.

Ardivisura Anaxita nafaqat suv va hosildorlik ma’budasi sifatida emas, balki oilani balo-qazolardan himoya qiluvchi, insoniyat zuryodiga baraka ato etuvchi mo‘tabar zot hamdir:

*Muqaddas, mo‘tabar u,
Er pushtining ozig‘i,
Erkak beliga mador.
Ikkiqatga najotkor.*

Bu bandda o‘z ifodasini topgan mifologik tushunchalar ham mazkur yashtda bir necha o‘rinda takrorlangan bo‘lib, Ardivisura obrazining oila homiysi sifatidagi xususiyatlarini oydinlashtirishga xizmat qilgan. Ardivisura Anaxita erkaklar urug‘ini ko‘paytirib, ayollarning oson ko‘zi yorishida bosh-qosh bo‘lib turadi. Uning ehsoni tufayli onalar suti mo‘l bo‘lib, chaqaloqlar sog‘lom o‘sadi va yovuz kuchlar xurujidan himoyatda bo‘ladi deb qaralgan.

Ardivisura Anaxitaga sig‘inish Zardo‘shiylikdagi tabiat kul‘tlari orasida salmoqli mavqega ega bo‘lgan. Unga sig‘inish udumi bajarilayotganda ma’buda haqiga sut qo‘shilgan xaoma hadya etganlar. Bu ilohaga faqat odamlar emas, balki ma’budlarning

o‘zlari ham ehtirom bildirishgan. Masalan, Axuramazdaning o‘zi Aryanam Vaejudadagi ezgu daryo Daitya sohilida Ardvisura sharafiga namoz baxshida etganligi ham “Avesto”da o‘z badiiy ifodasini topgan.

Axuramazda namoz paytida muqaddas Ardvisuradan Zardo’shtning ko‘ngliga imon nurini sohib, Axuraga imon keltirish fikrini uning qalbiga jo qilishni so‘raydi. Haq yo‘lida kim dildan ehson qilsa, ajrini beradigan ezgu ma’buda Ardvisura Anaxita uning bu iltijosini bajo keltirib, Axuraga shunday omadni baxsh etadi.

Zardo’shtiylik ta’limotiga ko‘ra, kimda-kim ezgu niyat bilan qurbonlik keltirsa, Ardvisura uning iltijosini ijobat qilgan. Yovuz maqsad bilan uning nomini tilga olganlar esa ma’buda ehsonidan quruq qolganlar. Ammo “Avesto”da aytilishicha, kimki chin dildan so‘rasa, Ardvisura uni ham noumid qilmagan. Masalan, Faridun bilan Purva jang qilishayotganda, bahodir Faridun o‘z raqibini ko‘kka otib yuboradi. Shunda osmonga chiqib yirtqich qushga aylangan Purva uch kecha-kunduz uchib yurib, Ardvisuraga ixlos bilan namoz yo‘llaydi. Chin-dildan ilhom ila bu ma’buda Sha’niga duolar qilib, agar sog‘-omon yerga qaytib tushsa, sut qo‘shilgan xaoma ehson etajagini bildiradi. Shunda Ardvisura unga yordamga keladi.

Ardvisura ezgu niyatli kishilarga omad baxsh etuvchi ma’buda. U bo‘y qizlarga yaxshi kuyov nasib qilishini, homilador ayollar omon-eson ko‘zi yorishini ta’minlaydi. Shuning uchun ham mazkur yashtning 87-bandida “qizlar yaxshi er, farovon uy va xoja tilab”, ayol esa ko‘zi yorishida ma-dadkor bo‘lishini so‘rab, namoz yo‘llasalar, Ardvisura o‘zining yulduzli makonidan Axura yaratgan er yuziga tushib, ezguliklarni ko‘zlab so‘zlashi tasvirlangan.

Binobarin, “Avesto”dagi bu mifik personaj to‘lib oqqan daryo, suv ma’budasi, navqiron go‘zal qiz, oila va inson homiysi sifatida

tasvirlangan. Ushbu obrazning mifologik mohiyatini oydinlashtiruvchi muhim detallardan biri bu ma'budaning suv stixiyasi va mo'l hosil g'oyasi bilan bog'liq holda tasavvur qilinganligidir.

Ardivisura Anaxita to'rt oq ot qo'shilgan aravada yurishi tasvirlangan bo'lib, yomgir, bulut, shamol va do'l singari tabiat hodisalari suv ma'budasining mifologik timsollari sirasiga kiradi. Ardivisurani doimiy ravishda suv bilan ta'minlab turuvchi va uni yovuz kuchlar xurujidan himoya qiluvchi to'rt ot obrazi O'rta Osiyoda yashagan qadimgi dehqonlarning tabiat hodisalarini timsollashtirish an'analari asosida kelib chiqqan mifologik personajlardir.

ADABIYOTLAR:

1. *Zaslavskaya F.P. Boginya plodorodiya v koroplastike Afrasiaba kushanskogo vremeni // Istoriya materialnoy kul'turi O'zbekistana. -Tashkent, 1959, №1; Pugachenkova G.A. Margianskaya boginya // SA, 1959, № 29-30; Massoy V.M., Sarianidi V.I. Sredneaziatskaya terrakota epoxi bronzi. -M., 1973; Antonova E.V. Antropomorfnyaya skulptura drevnix zemledelsev Peredney i Sredney Azii. -M., 1977; Meri Boys. Zoroastriysi. Verovaniya i obichai. - M.: Nauka, 1987, S.78.*
2. *Rak I.V. Mifi drevnego i srednevekovogo Irana. - SPb, 1998, S. 144.*
3. *Drezden M. Mifologiya drevnego Irana / per. s angl. I.M.Steblyn-Kamenskogo // Mifologiya drevnego mira. - M., 1977, S.355.*
4. *Avesto. Ardivisura alqovi (5-yasht) // O'zbek tili va adabiyoti, 1999, 4-son, 69-70-betlar (M.Is'hoqov tarjimas).*
5. *Rempel L.I. Sep vremen. Vekovie obrazi i brodyachie syujeti v tradisionnom iskusstve Sredney Azii. - Tashkent. Izdatelstvo literaturi i iskusstva, 1987, S.93.*

**“Ilm sarchashmalari”, Urganch davlat universiteti,
(64-66-betlar).**

“AVESTO” DA DOTA ILOHI HAQIDA

“Avesto”da davlat va jamiyatning muhim belgilaridan biri bo‘lgan qonunchilik va axloqiy me’yorlar diniy dunyoqarash doirasida berilgan. Bu masala eron avestoshunoslari, jumladan, Ibrohim Purdovud, Dinshoh Eroniy, Oshtiyoniy, Jalil Dustxoh kabi ko‘plab olimlar tomonidan tadqiqot markazida bo‘lgan. Ushbu mavzuga o‘zbek avestoshunoslari ham e’tibor qaratganlar. Bunday tadqiqotlar qatorida, jumladan, S. Hasanovning “Avesto” - huquq manbai” maqolasini qayd etishimiz mumkin.

Yuqorida ta’kidlanganidek, “Avesto”da axloqiy va huquqiy me’yorlar diniy dunyoqarash qobig‘ida berilgan. Ushbu kitobda qonun tushunchasi *data* so‘zi orqali ifodalangan. Pahlaviy tilida *dât* shaklida bo‘lgan bu so‘z³³ qadimgi hind tilidagi *dhâman* (qonun, dastur) so‘zi bilan o‘zakdoshdur³⁴. Shuning uchun ham “Avesto”da Dota (Dod) qonun, adliya, insof va adolat, qonun homiysi bo‘lgan iloh nomidir. “Avesto”ning ko‘pgina joylarida uning nomi zikr etilgan o‘rinlarni uchratamiz.

Masalan:

*... Mitra shafqat qilmaydur unga,
Mensimasa agar Mazdani
Va barhayot Avliyolarni,
Yaylovlari hadsiz-hududsiz
Mitrani gar tan olmasa u,
Mensimasa qonun, Rashnuni,*

³³ Pierre Jean de Menasce. Shkand-Gumanik Vicar, texte pazand-pehlevi transcript traduit et commenté. Fribourg. Suisse. 1945. r 2; 271.

³⁴ Табризий Мухамад бин Халаф Бурхоне котееъ. Техрон. Амири Кабир. 1997.–С. 807.

haqiqatni, foniy odamni.

(“Mehr yasht”, 159-band) yoki: “jamiyki bu gunohkorlarning jismiga duruj devi yo‘l tutgandir va haqiqat hakami ularni xor etmishdir. Haqiqat hakami xor etgan kimsalarning boshi Yaratganning oldida egikdir.” Ushbu satrlar “Vendi-dod” ning 16-fargardi 18-bandidan olingan bo‘lib, bunda haqiqat hakami deb tarjima qilingan atoqli ot asliy matnda Doita (Dod)dir.

Bugungi kunda ko‘plab eroniy tillar, jumladan, kurd va afg‘on tillarida dad, fors tilida “dod” shaklida “adolat” ma‘nosini ifodalovchi mazkur so‘z Mazdaparastlik dini, uning hukm va qonunlari, tabiati mazmunida kelgan. Mazkur so‘z, shuningdek, “vidavidota” (“vandidod”) ning tarkibiy qismlaridan biridir. Bundan tashkari, ushbu so‘zga o‘zakdosh dodar so‘zi xolix, xudo degan ma‘noni anglatadi va Axura Mazdaning sifatlaridan biri tarzida qayd etilgan.

Zardo‘shiylik e‘tiqodida qiyomat kunida ro‘y beradigan sinov nomi bo‘lgan “dodiston” atamasida ham ushbu tushuncha mavjudligini ko‘ramiz, Bundan tashqari, Zardo‘shiylik diniy matnlaridan biri ham “Dodistoni diniy” (pahlaviycha “Dotiston dinik”) deb nomlanadi. Pahlaviy tilida yozilib, 28600 so‘zdan iborat bo‘lgan bu kitob muallifi 2-milodiy asrning birinchi yarmida Zardo‘shiytlarning Kirmon va Forsdagi katta mo‘badi Manush Yuvon Yimak (Manuchehr Javon Jam o‘gli)dir. Bu kitobda 92 diniy savolga javob berilgan. Mazkur birikmada “dodiston” so‘zi “hukm, fatvo, ra‘y” ma‘nolarini beradi.

“Avesto”ning “Vandidod” qismi o‘z nomi bilan Zardo‘shiylik qonun-qoidalari majmuidir. “Vandidod” avestoshunos J.Dustxoh ta‘rificha, “vidaivdota” — “devlarni haydovchi yoki halok qiluvchi qonun” deb nomlanuvchi, forsiyda o‘zgargan holda shu tarzda ataluvchi “Avesto” qismlaridan birining nomidir. Ushbu tarkibni

“devlarni halok qiluvchi” deb o‘g‘irishimiz uning asl ma’nosi va mazmuni (borliqdagi ikki kuch -Axura Mazda va Axriman o‘rtasidagi jangu jadal) ifodasiga oydinlik kiritadi.

“Vandidod”da qonunchilikka oid bir necha atamalarni uchratamizki, bugungi kunda qonun kodekslarida o‘z ifodasini topgan holatlarning ayrimlari unda diniy dunyoqarash qobig‘ida aks etgani ko‘rinadi.

Shuningdek, “Avesto”da, hususan, uning “Vandidod” qismida jamoa mulkiga katta e’tibor qaratilgan. “Vandidod”ning 4-fargard 46-bandida o‘qiyimiz: “Ey Spitamon Zardo’sht! Hech kim suv va yonib turgan olov qarshisida gustohlik qilmasin. Hech kim o‘z qo‘shnisidan olgan omonatidan tonib, yolg‘on so‘zlamasin”.

Zardo’shtiylik e’tiqodida jamoa mulki bo‘lgan suv va olovga katta ahamiyat berilgan. Bu hol, ayniqsa, ularning suv ilohasi haqidagi mifologik tasavvurida yaqqol ko‘rinadi. Zardo’shtning “Dev qudratini oshiruvchi vositalar nima?” - mazmunidaga savoliga Axura Mazda quyidagicha javob beradi: “Nodurust bilim o‘rgatuvchi va odamlarni gumroh qiluvchi ashmuxlarning kirdori. Uch yil muttasil belbog‘ bog‘lamagan, goxlarni kuylamagan va suv-ilohasi sha’niga hamdu shukronalar keltirmagan kimsalar.

Ma’lumki, Zardo’shtiylik e’tiqodida murdorni yoqish mumkin bo‘lmaydi. Buni quyidagi parchalarda ko‘rish mumkin;

Ey, olamni yaratgan zot! Ey, haqiqat! Nimanidir qidirib yurgan, yoxud chopib borayotgan, yayov yo suvoriy, yoxud arava haydab ketayotgan mazdaparastlar murdorni olovda pishirayotgan yoxud kuydirayotgan kishilarga duch kelsalar, nima qilmoqlari lozim? Axura Mazda javob berdi: “Ular murdorni olovda kuydirayotganlarni so‘zsiz o‘ldirishlari kerak. Shundan keyin qozonni to‘ntarib, o‘choqni buzib tashlaydilar.”

Bu hol, albatta, Markaziy Osiyo va Eron xalqlarining ko‘p ming yillik tibiiy bilimlari va ularga qat’iy amal qilishlari bilan izohlanadi. Murdor (o‘laksa)ni pishirishdan tiyilgan va tiygan odamlarga esa ma’naviy mukofot va’da qilingan. Buni quyidagi satrlarda ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi: Ey olamni yaratgan Zot! Ey, haqiqat! Murdor yoquvchi olovni Bahrom oloviga aylantirgan kishining joni tanasidan bo‘lgach, oqibati nechuk bo‘ladi? Axura Mazda javob berdi: Uning topgusi oqibati bu moddiy olamda Bahrom oloviga o‘n ming pora olovni keltirib qo‘shgan bilan barobardir.

Ushbu o‘rinda zikr etilgan Bahrom olovi haqida ayrim ma’lumotga ega bo‘lsak, mazkur dasturning kuchini to‘laroq tasavvur qilamiz. Otashi Bahrom yoki ozari Bahrom yetti hil otashkadadan (sosoniylar davri) biri hisoblanib, mahsus bir otashkada nomi emas, balki Eronning ko‘plab shaharlarida Ozari Bahrom qaror topgan edi. Ardasher Bobokon dushman changalidan qutulish uchun Fors qo‘ltig‘iga yetib keladi va u yerda Ardasher otlig‘ qishloq barpo qiladi, dare sohilida o‘nta Ozari Bahrom barpo qiladi. Zardo‘shitiylarning e‘tiqodiga ko‘ra, taqvodorlarning har birida Ozari Bahrom bulmog‘i kerak. Chunki, u shohdir va bir necha shoh bir iqlimga sig‘maydi. Bugungi kunda Ozari Bahromning eng muhimi bundan yetti yuz yil avval bino qilingan Hindistondagi Navsoriy otashgohidir.

Forsiy lug‘atlarda “Bahrom otashkadasi” iborasi hamal Bahrom (Mirrix) doirasida bo‘lgani uchun hamal burjidan kinoya, deb izohlangan.

Otashi Bahrom har birini tayyorlash qiyin va uzoq cho‘ziladigan o‘n olti xil turdagi olovdan tarkib topadi. O‘n olti olovdan har biri marosimlar davomida to‘plangandan keyin yilning oxirgi besh kunining birinchi kuni olovlardan bir otashdonga

soladilar va yangi yilning birinchi kuni uning atrofida diniy qo‘shiqlarni kuyladilar.

Xulosa sifatida ta’kidlash mumkinki, “Avesto” dunyoga kela boshlagan davr Markaziy Osiyo va Eronda davlatchilik allaqachon shakllangan edi va bu hol “Avesto”ning mazmun-mohiyatida o‘z aksini topgan. “Avesto”, S.P.Tolstov ta’kidlaganidek, o‘zining ko‘p qatlamli va murakkabligi bilan e’tiborga loyiq. Unda aks etgan jamiyat va davlat doirasidagi rusum va qonun-qoidalar ma’lum bir tartibda izchil berilmasligi, tabiiydir. Birinchidan biz “Avesto”ning asliy matniga ega emasmiz. Ikkinchidan, hozirgi kunda fanga ma’lum bo‘lgan va jahonning ko‘pgina tillariga (jumladan, o‘zbek tiliga ikki mutarjim M.Ishoqov, A.Mahkam tomonidan) o‘girilgan “Avesto”da qonun-qoidalarning asosiysi “Vandidod”da jamlanganiga ko‘ra, bu tartib asliy matnda saqlangan bo‘lsa kerak, degan xulosa chiqarish mumkin.

“Filologik tadqiqotlar”. Urganch – 2013. (77-80-betlar)

TO THE INTERPRETATION OF “APAM NAPAT” IN “AVESTO”

Apam Napat is a character connected with the worship of water. The scholars translate this name as “a son of water” (M.Boys), “a grandson of water (I.V.Rak and etc). In Yasht the name of Apam Napat is used near the word “water” held sacred as one of the vitally important elements:

We glorify greatness of the head-Apam Napat,

We glorify good water, created by Akhura Mazda and etc.

Apam Napat is ranked in: “Avesto” with akhurs (deities). The place of Apam Napat as a deity of water can be clearly seen in stanza 51-52 of “Zamyae Jasht”, where Zahhak pursues Khvarna and Khvarna hides himself and comes to the owner of fast horses, “a grandson of water”- Apam Napat. For saving Khvarna Apam Napat is honoured with the place among the high deities-akhurs.

The Zoroastrians had an idea that Apam Napat is not only the deity of water element. He is believed to be as the image of a divine drop creating from non-existence a new generation of a human being (Zamyad Yasht stanza 52)

In the author’s opinion of the presentation all the waters in the land including water of Vorukashi in “Avesto-2” are considered to be waters of celestial, cosmic.

Consequently, Apam Napat aslo at the beginning was among celestial deities.

“ “Avesto” va uning insoniyat taraqqiyotidagi o’rni”, “ “Avesta” and its place in the development of humanity”. Toshkent-Urganch-2001. (164-bet)

MUNAJJIM MAZDAK

Badasaft, Zardo’sht va Moniydan keyin Ajam mulki Nasoda mo‘badlar mo‘badi, qozilar qozisi Mazdak ibn Hamdodon birinchi illatli ta’limotni olib kelgan.

Nushirovonning otasi malik Kubod davrida u otashparastlikni yo‘q qilib, yangi ta’limotni yaratishga ahd qilgan. Bunga asos shu ediki, ya’ni u yulduzlarni yaxshi biladigan munajjim edi. U yulduzlar harakatidan chiqargan xulosaga ko‘ra, shu zamonda bir kishi paydo bo‘lib, yangi dinga asos soladi va otashparastlik, buddaparastlik va yaxudiylik dinini botilga chiqaradi. U kishi o‘z ta’limotini odamlar orasiga tarqatadi. Bu ta’limot qiyomatgacha qoladi.

Mazdak, “Bu odam, o‘zim bo‘lsa kerak” deb o‘ylaydi. Va xalqni qanday da’vat qilib, yangi ta’limotni tarqatish yo‘lini qidira boshlaydi. Qarasa, u podshoh oldida katta hurmat va e’tiborga ega bo‘lib, so‘zi o‘tishini yaxshi biladi, hamda malik Kubodning sirlaridan ham xabardor bo‘ladi. Mazdak bundan foydalanib xiyla ishlatishga o‘tadi. Birinchidan Kubodning o‘z amakisi o‘g‘lining xotinini yaxshi ko‘rib qolganligini bilgan Mazdak o‘z mazhabaga “ayollar umumiy bo‘lishi kerak” degan illatli ta’limotni kiritgan, chunki, Kubod buni rad etolmas edi. Bu ta’limotni Mazdakga ham foydasi bor edi, chunki u, Kubodning xotinini sevardi. Mazdak yana bir hiyla ishlatadi. Bunda u olovni so‘zlatishi kerak edi. Shunda Mazdak malik Kubod oldiga borib “men Zardo’sht dinini muholiflarimiz ziyonga keltirganligi va shubha ostiga qo‘yganligidan uni isloh qilish uchun keldim”. “Zand Avesto”ning ma’nosi bunday emas, uning haqiqiy ma’nosini men ochib beraman” — deydi. Malik unga— “sening mo‘jizang nima?” deganida, Mazdak javob qiladi — “sizlar mehrob va qiblaga aylantirgan olovni so‘zga kiritib, allohdan olovga farmon berib, mening payg‘ambarligim haqida guvohlik berishini so‘rayman. Shunda malik va sizlar bilan bo‘lganini buni eshitasizlar” deydi.

Mazdak, yana deydi: — malik va'da bersin va shu bilan mo'badlari buyuklar otashxonaga kelsinlar. Xudo mening duolarim bilan olovni suvga kiritadi.

Albatta, Mazdak ertaroq bir rohibiga bu hiylasiga bajarishini topshirib qo'ygan edi. Bunda u rohib uzoq joydan yer ostidan yo'l qazdiradi va uning oxirini otashxona o'rtasidan chiqaradi. Malik kelishidan bir kun oldin, bir rohibni chaqirtirib deydi: — shu tayyorlangan yer osti yo'lga kirib borgin. Qachon men baland ovoz bilan gapirsam, sen shu yerdan “Eron xudoparastlarining ilojlari Mazdak so'zlariga quloq solishdadir”. deb aytasan.

Malik Kubod o'z odamlari bilan otashxonaga keladilar, Mazdak olovga baland ovoz bilan Zardo'shtga ofarinlar aytadi, shunda olovdan sado eshitiladi. Buni eshitgan Kubod Mazdak ta'limotiga kirishga majbur bo'ladi. Mazdakiylik e'tiqodicha “Zamon payg'ambarlardan xoli bo'lmaydi, ular birin — ketin yuborilib turiladi” deydi. Mazdak Kubod ishonchini oqlagandan keyin, unga keyinroq shunday deydi: — xotinlaringiz ham umumiy bo'lishi kerak, har biringiz qaysi ayolga rag'bat qilsanglar, u bilan birga bo'laveringlar. Rashk va yomonlik dinimizda yo'q. Hech kim rohatu lazzatdan va dunyo shahvatlardan benasib qolmog'i mumkin emas. Orzular va kamronlik eshigi ham hamma uchun ochiqdir. Eng achinarlisi shuki, Mazdak Nushrovonning onasi bilan bo'lishining Kuboddan so'raydi va ruhsat ham oladi. Shunda Nushrovon Mazdakning oyog'iga yiqilib oyog'ini o'pib onasi bilan birga bo'lmasligini so'raydi.

Shuning uchun ham Nushrovon birinchi bo'lib, bu mazhabga qarshi chiqadi. Mazdak Kubodga deydi: “agarda o'g'ling bizning mazhabga kirmasa uni qatl etishingni so'rayman” deydi. Kubod o'g'liga 40 kun muhlat beradi. Nushrovon Kuval shahridagi bir qari va dono mo'badni surishtirib topadi, keyin Kubod oldiga olib keladi. U mo'bad Mazdakning barcha ikr — chikirlarini fosh etadi, ya'ni olov so'zlashi, tenglik va umumiylikni. Shunda Mazdakka mo'bad deydi. “qani ayt-chi donolar donosi, Avestodan olov, havo, tuproq, suv muqaddasdir. Sen ana shu to'rttasini so'zga kiritchi”.

Buni eshitgan Mazdak jim qoladi. Nushravon shunda xiyla ishlatib “men ham bu mazhabga kirdim” deb, uning barcha mazhabidagi ulug‘larini ziyofatga chaqiradi. Nushrovon ularni bir joyga yig‘adi va ziyofatni guruhlarga bo‘lib chiqadi keyin birma — bir ularning boshini yerga va oyoqlarini osmonga qaratib ko‘kragigacha ko‘madi. Mazdak jazolangandan keyin ham, Nushrovonning o‘sha kunlari esiga tushsa Mazdak oyog‘idagi poytavosining hidi burniga kelar edi.

Albatta: ajdodlarimizning muqaddas dini bo‘lmish Zardo‘shiylikda unday illatlar yo‘q bo‘lib, unda faqat “ezgu o‘y, ezgu fikr, ezgu amal” degan ta’limot mavjud bo‘lgan. Mazdak esa o‘z foydasini o‘ylab ya’ni hokimiyat va Kubodning xotiniga erishish uchun bu illatli mazhabni o‘ylab topgan. Bunga shu davrda kelishi kerak bo‘lgan payg‘ambar Muhammad alayhisalomni o‘zim bo‘lsam kerak deb o‘ylagani turtki bo‘lgan, chunki u yulduzlar harakatidan buni oldindan bilgan munajjim edi.

ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

1. *Abu-Rayhon Beruniy. O‘tmish xalqlardan qolgan yodgorliklar.*
2. *Nizomulmuluk “Siyosatnoma” asari.*
3. *Firdavsiyning “Shohnoma” asari.*

“IJTIMOIY FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI” -III.

TOSHKENT-2005.(84-86 betlar.)

(Hammuallif Qurbonov.M)

ABU RAYHON BERUNIY AVESTOSHUNOS SIFATIDA

Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad Beruniy 362 -yili 3 zu-l-hijja oyida Xorazmning qadimiy Kot shahridagi ashroflarning oilasida olamga kelgan. X asrda bu shahar xorazmshoh-afriq'iyalar sulolasining poytaxti (305-995) va O'rta Osiyoning eng yirik savdo markazlaridan biri edi. Afriq'iyalar o'zlarini Siyovush va Kayxusrav avlodidan deb bilardilar.

Ma'lumki, bugungi kunlarda Beruniyning ilohiy fitrat va tabiiy iste'dodi bashariyatning iftixori va qadriyatiga aylangan. Abu Rayhonning favqulodda iste'dodga ega bo'lganini uning ustozlari Abunabr Mansur ibn Arroq birinchilardan bo'lib dark etib, uni qadimiy yunonliklar, arablar, suryoniyalar, ibroniyalar, qalda va pahlaviylarning yaratilgan ilm va kashfiyotlaridan bahramand bo'lishiga hidoyat qiladi. Yosh olim sharq ilmiy tafakkurini egallash bilan arab, hind, yunon, ibroniy va pahlaviy tillarini mukammal o'rgandi. Shu bilan birga, u sug'diy, xorazmiy, fors tilidan ham xabardor bo'lib, zamonasining buyuk qomusiy olimiga aylandi. U falsafa, ilmi nujum, matematika, tibb, jug'rofiya, mineralogiya, massohlik (geodeziya), tarix, etnografiya fanlarini o'zlashtirib, bu sohalar bo'yicha mukammal asarlar yaratdi. I.Yu.Krachkovskiy: "Beruniy qiziqqan sohalarni sanab chiqishdan ko'ra, qiziqmagan sohalarni sanab chiqish osonroqdir", - deganda mutloq, haq edi."

Beruniy fanning turli sohalarini bo'yicha 150 ga yaqin asar yozgan. Biroq, ulardan uchdan ikki qismi bizgacha yetib kelmagan yoki hali topilmagan. Ko'pgina asarlarning faqat nomigina bizga ma'lum. Beruniyning ijtimoiy fanlarga oid asarlaridan faqat "Hindiston"gina saqlangan. Uning mazhablar haqida, ona yurti Xorazm va G'aznaviylarning birinchi hukmdonlariga bag'ishlab yozilgan tarixiy asarlari ham hozirgacha topilganicha yo'q.

Abu Rayhon Beruniyning hayoti va faoliyati o'sha vaqtlarda uning vatanida hukm surayotgan Ziyoriyalar sulolasining

hukmronligi, ayniqsa, Shams ul-maoliy Qobus nomi bilan bog‘liq edi.

Mazkur sulolaning asoschisi Mardovij ibn Ziyor Daylamiy (928-935) sanaladi. U yoshligida Gurgon, Tabariston va Qazvinda hukmronlik qilgan amir Asforning mohir sarkardasi bo‘lgan. Mardovij hokimiyatni qo‘lga kiritgach, o‘ziga yana Ray, Hamadon, Kangovar, Dinovar, Qum, Koton va Isfahonni bo‘ysindiradi. Mardovij barcha bilim va iste’dodini sarflab, ajdodlarining urf-odatlarini, qadimiy Eron shohanshohligi an‘analarini tiklamoqchi bo‘lgan hukmdordir. U bir marta o‘z lashkarini Xuzistonga yuborib, ularga Madoin (Persepol)ni qayta tiklash vazifani yuklab, sasoniylar (226-652) rasmi bo‘yicha tilla taxtga chiqib, zarrin tojni boshiga kiymoqchi bo‘ladi. Mahz Mardovij farmoni bilan Isfahonda Sada bayramini nishonlaydigan bo‘lishdi. Biroq, tez orada Mardovij o‘zining turk qullari tomonidan o‘ldirildi. Taxtga chiqqan uning akasi Zaxir uddavla Abi Mansur Vushmagir (935-967) o‘z shohlik hududlarini Ozarboyjon hisobidan kengaytiradi. Hukmronligining oxirgi yillarida Oli Bo‘ya (Buvayx. 914-1023) hujumiga duch kelib, zaiflashadi. Vushmagir vafotidan so‘ng uning o‘g‘li Besutun (967-976) taxtni egalladi. Keyinchalik taxt kichik o‘g‘li Abul-Hasan Shams ul-maoliy Qobus ibn Vushmagir (967-1012)ga o‘tgach, uning davlati ancha rivojlanadi. Ziyoriylardan chiqqan mazkur shoh, o‘zining olimligi, mutafakkirligi va hattotligi bilan ham tarixda iz qoldirgan. Uning “Kamol ul-balog‘a” nomli arab tilidagi asari ilm ahli orasida o‘z zamonasida shuhrat topgan edi.

Abu Rayhon Beruniy bir muddat avval Rayda, so‘ngra Isfahon, Hamadon, Tabariston va Gurgonda Shams ul-maoliyga yaqin bir vaziyatda faoliyat ko‘rsatgan.

Abu Rayhon Beruniyning birinchi yirik asari “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” (Al-osor al-boqiya anil-kuruni al-holiya) bo‘lib, mazkur asarni Jurjonda muhojirlik vaqtida yoza boshlagan. Bu kitobni 1000 -yili yozib tugatganda Beruniy endi 27 yoshga kirgan edi. Olimning bu asari ham arab tilida yozilgan va u Gurgon amiri Shams ul-maoliy Qobusga bag‘ishlangan edi.

Mazkur asarning manba sifatidagi ahamiyatini E.Zaxau, K. Garbers va I. Fyukk, V.R. Rozen, K.Zalemann, Akbar Donosirish Siyrafiy, M.A.Sale, S.P.Tolsov, A.A. Semenov, A.M.Beleniskiy, I.Yu.Krachkovskiy, V.P.Sheglov, A.B. Xalidov, P.G.Bulgakov, tarjimon A. Rasulyev, I. Abdullayev va boshqalar ta'kidlab o'tgan.

“Osor ul-boqiya” da Abu Rayhon Beruniy “Avesto” va Zardo'sht dini haqida ham to'xtalib o'tgan.

Insoniyat tarixida o'zining ezgu niyat, ezgu so'z va ezgu amal g'oyalari birinchi bo'lib targ'ib qilgan ta'limotlardan biri - bu Zardo'shtiylik hisoblanadi. Ayranam Vaejeh kengliklarida yashayotgan aholi o'rtasida bu g'oyalari targ'ib qilgan payg'ambar o'z kitobi “Avesto” bilan boshqa dinlarni ham paydo bo'lishi va rivojlanib, dunyo diniy-falsafiy ta'limotlarga aylanishlari uchun zamin yaratdi. Aynan, Zardo'shtiylik zamiri va ta'sirida mahalliy, qabilaviy e'tiqodlar milliy hamda dunyo dinlari darajasigacha ko'tarildi.

Zardo'shtiylik va otansharastlik dinida bo'lgan asosiy g'oyalardan sanalmish yakkaxudolik (monoteizm), payg'ambarlik g'oyalari, esxatalogiya - oxirat haqidagi ta'limot. jannat va do'zax haqidagi tasavvurlar, Chinnot ko'prigi (puli Sirot), farishtalar haqidagi tasavvurlar, alqovlar, madhiyalar, duo va ibodatlar g'oyalari, ularning amaliyoti, uslublari, diniy bayramlar, tabiat va turmush tarzi bilan aloqador hamda bayram va tomoshalar keyinchalik ko'p diniy ta'limotlarga o'tib, boshqa shakllarda namoyon bo'la boshlaydi. Ularning barchasi bugungi kunlarda milliy va diniy qadriyat sifatida umuminsoniy qadriyatlarning bir qismini, madaniyatini tashkil etadi.

“Avesto” olimlarga ma'lum bo'lgan davrgacha Zardo'shtiylarning ruhoniylari jasorati va sadoqatlari ila saqlanib keldi. Uning og'zaki va yozma an'analari natijasida birinchilardan bo'lib, Abu Rayhon Beruniy o'zining “Osor ul-boqiya ani-l-kuruni-l-holiya” (Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar) asarida Zardo'sht va “Avesto” haqida ma'lumot berib, dunyoda avestoshunoslikka asos solgan desak, xato bo'lmaydi. Uning fikr va

mulohazalari, mushohada va xulosalari keyinchalik o‘z tasdiqini topgani buning isbotidir.

Beruniyning ilmiy uslubi, xolisligi, bayonining izchilligi va mo‘jazligi, diqqatni o‘ziga jalb etish mahorati, tarixiy voqealarga jiddiy va olimona yondashuvi, har xil rivoyat va ertaklar, cho‘pchaklarga tanqidiy munosabati ibrat oladigan darajada boshqa mualliflardan ajralib turadi. Bugungi kun tarixchilarimizga Beruniyning metodologiyasi va uslubiyatidan foydalanishlarini tavsiya etsa bo‘ladi. Abu Rayhon Beruniy ijod sohasida, ilmiy asar yaratish texnikasi va uslubiyatida ham jahon olimlari orasida hali ham yetakchilik qilib kelmoqda.

Beruniy “Osor ul-boqiya” asarida Zardo‘st va Moniy (mil.276 yil qatl etilgan) ta’limotlariga xayrxohlik va tavajjuh hissi bilan qaraydi. Abu Rayhon davrida hukmron islom g‘oyalari aynan monaviylik va Zardo‘stiylikka qarshi qattiq kurash olib borayotgan bir paytda, xavf va xatardan qo‘rqmay shu ta’limotlarning oshkora himoyasiga chiqqani buyuk olimning jasoratidan darak beradi. Islom mutaassiblari Zardo‘stni bir jodugar sifatida talqin qilayotgan bir vaqtda, Beruniy “Zardo‘st ilm va bilimda yuqori martabaga ega bo‘lgan kishi edi, munajjimlik uning bilimlari oldida arzimaydigan narsa edi” deb yozgan. Boshqa joyda esa Beruniy ro‘yi ro‘yost islom aybnomasiga qarshi chiqib, yozadi: “mahramlar o‘rtasidagi nikohlarni Zardo‘stiylikka nisbat beradilar. Men sipahbud Marzbun ibn Rustamdan eshitdimki, Zardo‘st bu amalni joriy etmagan ekan”, deb xulosa qiladi .

Xuddi shunday, Beruniy Moniy himoyasiga turib, ruhoniylarning Moniy nomiga atalgan yolg‘onlariga qarshi chiqadi. Ruhoniylar Moniy va monaviylikni qoralash uchun shunday bir yolg‘onni o‘ylab chiqqandilarki, har bir monaviy o‘z ixtiyorida bir go‘zal besoqol yigitni olishi mumkin emish. Biroq, Beruniy jur‘at qilib, isbot etishga urinadi va: “Lekin men Moniyning o‘zim voqif bo‘lgan kitoblarida bunday so‘zni uchratmadim, aksincha, uning tutgan yo‘li [u haqda] hikoya qilinganining teskarisidan dalolat beradi” deb yozgan.

Abu Rayhon Beruniy “Avesto” yaratilishini insoniyatning buyuk va nodir muvaffaqiyatlaridan biri deb baholaydi. Bashariyatning aqlu zakovati natijasi bo‘lgan bu mo‘jizani Qutayba ibn Muslim tomonidan yoqib yuborishini Xorazmni yakson qilishi bilan birga, dard va hasrat bilan eslaydi: “Qutayba Xorazm xatini yaxshi biladigan, ularning xabar va rivoyatlarini o‘rgangan va bilimni boshqalarga o‘rgatadigan kishilarni halok etib, butkul yo‘q qilib yuborgan edi. Shuning uchun u [xabar va rivoyatlar] islom davridan keyin, haqiqatni bilib bo‘lmaydigan darajada yashirin qoldi”.

“Podshoh Doro ibn Doro xazinasida [Abistonig] o‘n ikki ming qoramol terisiga tillo bilan bitilgan bir nusxasi bor edi. Iskandar otashxonalarni vayron qilib, ularda xizmat etuvchilarni o‘ldirgan vaqtda uni kuydirib yubordi. Shuning uchun o‘sha vaqtdan beri Abistonig beshdan uchi yoqolib ketdi. Abisto o‘ttiz “nask” edi, majusiylar qo‘lida o‘n ikki nask chamasi qoldi. Biz Qur‘on bo‘laklarini haftiyaklar deganimizdek, nask Abisto bo‘laklaridan har bir bo‘lakning nomidir”.

XI asrdan XVIII asrning o‘rtalarigacha “Avesto” va Zardo‘sh t haqidagi ma‘lumotlar Yunon tarixchilari va faylasuflari bilan birga Beruniyning axboroti ilm olamida ma‘lum bo‘lgan yagona ma‘lumotlar sirasiga kirgan. Biroq Beruniy asari va uning mazmunidan evropoliklar XIX asrning o‘rtalarida xabar topishdi. Lekin shuni ham ta‘kidlash kerakki, bu Beruniyning ilmida birinchilardan bo‘lib, “Avesto” va Zardo‘sh haqidagi tadqiqoti, xulosa va mushohadalarining qimmatini aslo tushirmaydi.

Evropoliklar va ilm ahli Anketel Dyuperronning qilgan zahmati va jasorati natijasida “Avesto” kitobi va Zardo‘sh dinidan yaqindan xabar topdilar. 1771 yildan so‘ng Evropada avestoshunoslik shakllana boshladi. Shu bilan dunyo ahli insoniyatning eng qadimiy tafakkuri manbai bo‘lgan muqaddas kitoblardan biri bo‘lmish “Avesto” (Apastag - bilim, qonun degani) bilan tanishdilar.

XX asrga kelib avestoshunoslik fan sifatida eronshunoslik va sharqshunoslik fanida ham mustahkam o‘rin egalladi. Olimlar bugungi kunlarda Eron va Turon xalqlarining qadimiy diniy-falsafiy tizimi, Zardo‘st va uning davri, “Avesto” va uning mazmuni, tarjimalari bo‘yicha katta ishlarni amalga oshirdilar. XX asrning o‘rtalaridan to 70 yillarining oxirigacha bu fan sohasi Eronda ham katta muvaffaqiyatlarga erishdi.

РЕЗЮМЕ

В статье анализируются научные исследования Абу Райхана Беруни по “Avesto”.

RESUME

In this article the research of Abu Rayhon Beruniy on “Avesto” is analysed. UDK 550.34

“XORAZM MA’MUN AKADEMIYASINING AXBOROTNOMASI.

2008 ¾, (50-53 betlar)

TARIXIY JARAYONLARGA OID MAQOLALAR



X-XII ASR OLIMLARINING IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARGA QO‘SHGAN HISSASI

Xorazmda ilm-ma’rifatga homiylik qilayotgan Xorazmshoh Beruniyning taklifi bilan Gurganchga Sharqning ko‘plab yirik olimlarini yig‘a boshladi. Ular orasida mashhur tabib va faylasuflar, shoirlar, matematik va astronomlar, tarixchi va tilshunos olimlar bor edi.

Abu Sahl Masihiy (977-1011) Jurjonda tug‘ilgan, Bag‘dodda ta’lim olgan. Uning eng mashhur asari Ma’mun ibn Ma’mun kutubxonasi uchun yozilgan “Sharhlar”idir. Shuningdek, “Tibbiyotga doir yuz masala”, “Jon haqida risola”, “Masihiy risolalari to‘plami”, “Tabiat haqida kitob” asarlari ham ushbu alloma qalamiga mansubdir.

O’sha davrda diniy e’tiqod nihoyatda nozik muammo bo‘lgan. Shu sababdan bu borada turli hukmdorlar, katta davlat arboblari o‘rtasida kelishmovchiliklar va nizolar chiqib turgan. Ammo Ma’mun akademiyasining o‘ziga xos xususiyati shu ediki, bu yerda musulmonlardan tashqari o‘zga dinlar vakillari ham ijod qilganlar. Bu hol ilm dargohida baynalmilallik va do‘stlik muhiti hukmron bo‘lganligidan dalolat beradi.

Masihiy ham nasroniy edi. Biroq, u cherkovlarga bormasdan, diniy farzlarni, ibodatni uyida bajargan. Asosiy vaqtini ilmga sarflagan mutafakkir nomlari yuqorida zikr etilgan asarlarni yaratganki, ularning atalishidanoq metodik, tavsiyalar va qo‘llanmalarga xos jihatlari namoyon bo‘ladi.

Masihiy kishilar qanday yashashlari, qanday qilib yetuklikka erishishlari mumkinligi haqida qimmatli fikrlar bildirgan. Insonni jamiyatning ajralmas qismi, deb hisoblagan alloma uning baxt-

saodati, yurt farovonligi uchun har bir kishi jon kuydirishi lozimligini uqtiradi: “Odamlar ichida eng ulug’i jamiyatda tutgan yuqori darajasidan o‘z obro‘si uchun, yaxshi fazilatlaridan xayrli ishlar uchun, jasurlikdan esa shon-shuhrat uchun foydalanganlaridir.”

Abu Sahl Masihiy Ma‘mun akademiyasida o‘ziga xos o‘ringa, ma‘rifiy-axloqiy merosga ega bo‘lgan buyuk allomadir. Uning yuqorida bayon qilingan hikmatlari yoshlarimizning baxtli kelajak qurishdek sharaflı ishlarida yaqin hamroh bo‘lishib, o‘z maqsadlariga erishishda yo‘lchi yulduz bo‘lib xizmat qilishiga shubha yo‘q.

Xorazm Ma‘mun Akademiyasida faoliyat ko‘rsatgan allomalardan biri Ahmad ibn Muhammad as-Sahriy haqida Abu Rayhon Beruniy quyidagilarni yozadi: “Ma‘munshohga Sahriy hamkorlik qilardi. U olim va juda ilmli odam, shuningdek, juda chiroyli va ajoyib did bilan nomalar tuzardi”. O‘sha zamonda Xorazm olimlarini qiziqtirib kelgan ilm doirasining kengligi kishini hayratga soladi. Ular fiqh ilmi, geologiya, grammatika, bayon, nazm nazariyasi, tarix, falsafa, mantiq, tibbiyot, arifmetika, geometriya, astronomiya, musiqa, mexanika, optika, ximiya, astrologiya, fizionomika, so‘zlar izohi, geodeziya, topografiya, o‘lchov va tarozilar hamda aniq, o‘lchov asboblari haqidagi bilimlar, suvning aralashuvi va kimyoga doir fanlar bilan shug‘ullanar, tilsim, ta‘lim-tarbiya, ruhiyot, sehrgarlikka doir bilimlarni o‘rganardilar. Olimlarning hammasi bir-biriga ustoz, bir-biriga shogird edilar.

Ma‘mun akademiyasi allomalari asosan aniq, fanlar va tibbiyot sohalarida ijod qilganlar. Ular orasida atoqli tabib, faylasuf, astronom, tilshunos va axloqshunos Abu-l-Hayr Hammor Hasan ibn Sivor ibn Bobo ibn Bahrom al-Xorazmiy o‘zining sermahsul ijodi bilan alohida ajralib turardi. U Bag‘dodda tug‘ilgan bo‘lib,

Xorazmshoh Ma'mun II Abu-l-Hayr Hammorni Gurganchga chaqirtirib, o'zining shaxsiy tabibi va nadimi qilib tayinlaganidan so'ng, Ibn Sino bilan birga saroyda xizmat qiladi. U 102 yoshida nasroniy dinidan chiqib, islom diniga o'tadi. Turli ilmlarga qiziqqan, ayniqsa falsafa va tibbiyotga oid asarlari bilan mashhur bo'lgan, Abu-l-Hayr Hammorni bekorga “Ikkinchi Hippokrat” deb atamaganlar. U yunon tibbiyotidan yaxshi xabardor bo'lib, bu sohadagi ilmiy yutuqlari bilan butun Sharqqa tanilgan. Hammor ham akademiya ilmiy munozaralarida faol ishtirok etib, katta obro'ga ega bo'lgan. Uning bu yerdagi faoliyati alloma ijodidagi eng sermahsul davr edi.

Mahmud G'aznaviy Xorazmni o'z ta'sir doirasiga o'tkazgach, Hammorni o'zi bilan poytaxtiga olib ketadi. Saroyda Hammor sultonning shaxsiy tabibi vazifasini bajardi, umrining oxirigacha uni davoladi, Sulton allomaga Hammor degan joydan xususiy yer ajratib beradi va uning ismi sharifiga bu nom qo'shib aytiladigan bo'ldi.

Abu-l-Hayr Hammor nafaqat kitob yozish bilan shug'ullangan, balki tarjimonlik ishlarini ham amalga oshirgan. Uning tarjima asarlaridan quyidagilar bizgacha yetib kelgan: “Kitob al-osor al-alviya” (“Oliy ta'sirlar kitobi”), “Kitob al-lubs fi-l-kutub al-arba'a fi-l-mantiq” (“Mantiqqa oid to'rt kitobdagi chalkashliklar haqida kitob”).

Ushbu ilm dargohida ijod qilgan yana bir yirik olim va shoir Abdumalik ibn Muhammad ibn Ismoil as-Saolibiy ai-Naysaburiydir. Abu Mansur as-Saolibiy 961 yilda Nishopurda tug'ilgan, shu yerda boshlang'ich ta'lim olgan. U yoshligidan shaharning ko'pchilik olimu shoirlari suhbatlaridan bahramand bo'lgan. Allomaga amir va shoir Abu-l-Fadl al-Mikoliy homiylik qilgan. Saolibiy savdo ishlari bilan ham shug'ullangan. Shu boisdan u ko'p o'lkalarda bo'lish

imkoniga ega edi. Chunonchi, 992-993 yillari Saolibiy Buxoroga keladi. Bu shaharda ham olimu fozillar davrlarida bo‘lib, ko‘plab do‘stlar orttiradi, mushoiralarda ishtirok etadi. Bir qancha vaqt o‘tgach, alloma Xorazmga-Ma‘mun saroyiga yo‘l oladi. Saolibiy o‘zining Xorazmshoh saroyiga kelishi sabablari, u yerdagi ijodi haqida quyidagilarni yozadi: “Kitobning (“Yatimat ad-daxr” asarining) dastlabki uch bo‘limini tugatgach, zamon (o‘zgardi), hayotim turli to‘siq va baxtsizliklarga duch keldi ... Xorazmshoh Abu-l-Abbos saroyida bo‘lish muallifga (Saolibiyga) ijobiy ta‘sir qildi, amirning fe‘lidan ilohlanib, qo‘lyozmani uning kutubxonasiga loyiq holatga keltirdi.”

Mansur as-Saolibiyga sulton Mahmudning akasi Abu Muzaffar Nasr ibn Sabuktegin ham homiylik qilgan. Alloma 1038-yilda Nishopurda vafot etgan.

Mansur as-Saolibiyning qalamiga mansub asarlar:

1. “Kitob al-iyjoz va al-a’joz” (“Ajoyib va joiz nuqtalar kitobi”) №1848/1 1b-25a betlar, 1227-yilda ko‘chirilgan. Asar hukmdorlar, davlat arboblarning she‘riy va nasriy shakldagi chiroyli nasihat so‘zlaridan iborat.

2. “Kunz al-kuttab” (“Kitoblar xazinasini”) №1848/11, 266-1186 betlar. 1727-yilda ko‘chirilgan. Asar kitoblarga bag‘ishlab yozilgan. Ularga qo‘yiladigan qat‘iy talablarni bajarishni yengillashtirish uchun as-Saolibiy rasmiy hujjatlarda foydalanish mumkin bo‘lgan turli shoirlar asarlaridan parchalarni tizimga solib chiqqan.

3. “Kitob al-muxodara” (“Ma‘ruzalar kitobi”) №1848/II, 1196-1936 betlar. 1727-yilda ko‘chirilgan.

Kitob turli mavzularga oid maqolalar, masallar va nasihatlardan iborat so‘zboshi mazmuniga qaraganda asar Jurjon va Tabariston hukmdori Qobus Vushmagirga bag‘ishlangan.

Ushbu qo‘lyozmalarni tarjima qilish, ular mazmunini keng jamoatchilikka yetkazishimiz lozim. Ana shundagina to‘la ma’noda Prezidentimizning “Bizning yo‘limiz - xolisona yo‘l. O‘z kuchimizga ishonib, o‘z boyligimiz va imkoniyatlarimiz bilan, ming yillik madaniyatimiz va tariximizga, o‘tgan buyuk allomalarimizning ruhi poklariga tayanib ish yuritmoqdamiz”, - degan so‘zlariga o‘zimizning amaliy ulushimizni qo‘shgan bo‘lamiz.

“Ijtimoiy fanlarning dolzarb muammolari”.
Toshkent-2006. (13-15 betlar)

XORAZM YOZMA MANBALARIDA O‘ZBEK DAVLATCHILIGI TARIXI AKSI

O‘zbek tarixnavisligi uzoq o‘tmishga ega. U asrlar mobaynida ajdodlarimiz tomonidan bitilgan va bizgacha yetib kelgan qo‘lyozma asrlarda o‘zining yorqin ifodasini topgan. Ushbu qo‘lyozmalarning mavjudligi mintaqamiz madaniyatining yuksakligi va qadimiyligiga dalildir. Bu qo‘lyozmalar ichida o‘zbek tarixnavisligining o‘ziga xos va, ayni vaqtda, uning tarkibiy qismi bo‘lgan Xorazm tarixnavisligi alohida o‘rin tutadi.

Mustamlakachilik yillarida chop etilgan tarixiy asarlarda xalqimiz o‘tmishi, uning jahon madaniyatiga qo‘shib kelgan hissasi, ayniqsa, davlatchilik tarixi ko‘p jihatlardan atroflicha talqin etilmay kelindi, moziyda xizmat ko‘rsatgan buyuk davlat arboblari kamsitildi, tariximizning yorqin sahifalari chetlab o‘tildi.

Mustaqillik yillarida Vatanimiz tarixini haqqoniy tiklash yo‘lida qator yutuqlar qo‘lga kiritildi. Bu jarayonning yanada muvaffaqiyatli davom etishi uchun dastlabki manbalarni chuqur o‘rganish, ularni mutaxassislar va o‘quvchilar e‘tiboriga havola qilish g‘oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Ana shunday dolzarb vazifalardan biri - o‘zbek tarixnavisligi silsilasiga oid qo‘lyozmalarni tadqiq etish, ular haqida to‘la ma‘lumot beradigan ilmiy asarlar yaratish, ularda aks etgan asrlar mobaynida takomillashib kelgan davlatchiligimiz tarixini ushbu dastlabki manbalar asosida yoritib berishdir.

Xorazm tarixnavislik maktabiga oid qo‘lyozma bitiklar va ularning turli vaqtlarda ko‘chirilgan nusxalari Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining qo‘lyozmalar majmuasida saqlanadi. Ular quyidagilardan iborat: O‘tamish Hojining

“Chingiznoma”, Abulg‘oziyning “Shajarayi turk”, “Shajarayi tarokima”, Ogahiyning “Riyoz ud-davla”, Ogahiyning “Zubdat ut-tavorix”, Ogahiy “Jame ul-voqeati sultoni”, Ogahiy “Gulshani davlat”, Ogahiy “Shohidi iqbol” (bu asarning yagona nusxasi S-Peterburgda saqlanadi), Komyobning “Tavorix ul-havonin”, Bayoniyning “Shajarayi Xorazmshohiy”, Bayoniyning “Tarixi Xorazm”, Komkor ul-ushshoq, “Gulshani saodat”, Jumaniyoz Xorazmiy al-Xivaqiy ibn Boboniyozning “Xorazm tarixi”, Hoji Fanoning “Xorazm tarixi”, Laffasiyning “Xorazm tarixi materiallari”, Bobojon Safarovning “Xorazm xonliklari tarixi”, Bobojon Safarovning “Xorazm tarixi va o‘zindan o‘tgan ulug‘ kishilar”, Boltayev Abdullohning “Xorazm tarixiga oid materiallar”, Otajon Muhammadkarimovning “Xorazm tarixiga oid materiallar”.

Xorazm tarixnavislik maktabiga bevosita aloqador bo‘lgan, turli davrlarda ushbu zaminda bitilgan ana shu qo‘lyozmalar nafaqat mazmun, balki ijro darajasi jihatidan ham bir-biridan katta farq qiladi. Shunga qaramasdan, ularning har qaysi o‘zbek tarixnavisligida o‘ziga xos ahamiyatga ega bo‘lib, davlatchiligimiz tarixiga oid voqealar bayoniga, albatta, qandaydir yangilik kiritadi va o‘ziga xos nuqtai nazarni ifoda etadi.

Xorazm tarixnavislik maktabining o‘zbek davlatchiligi taraqqiyoti bosqichlarini o‘rganishdagi zarurati va yana shu bilan ahamiyatliki, so‘nggi vaqtlarda chet ellarda, hususan, xorijiy sharq mamlakatlarida (masalan, Eronda) nashr etilayotgan Markaziy Osiyo tarixiga oid tadqiqotlarda Vatanimiz tarixi, jumladan Xorazmda tarkib topgan va qadim zamonlardan to rus istilosigacha bo‘lgan davlatchilik tarixi ataylab buzib talqin etilmoqda. Ularning ayrimlarida sovetlar davrida o‘tkazilgan milliy chegaralanishni asos qilgan holda tarixda bu yerda faoliyat ko‘rsatgan davlatlarning o‘zbeklarga taalluqli emasligi haqida uydirmalar olg‘a surilsa,

boshqalarida ular hamma vaqt chet el davlatlari, masalan, Eron mamlakatining bir viloyati sifatida faoliyat ko'rsatib kelgan, degan da'volar ro'kach qilinmoqda. Bunday tarixiy asarlarda turkiy qavmlar faqat keyingi vaqtlarda bu o'lkaga chetdan kelib joylashib qolganlar, degan eski noilmiy da'volar qaytadan ko'tarilib, xalqimizning o'z yurtining tub aholisi ekanligiga shubha uyg'otilmoqda. Davlatchilik tariximizni buzib talqin etishi Xorazmda XVI asrdan XX asrning birinchi choragigacha faoliyat ko'rsatgan Xiva xonligining (Buxoro amirligi va Qo'qon xonligi qatorida) davlatchilik atributlaridan mahrum bo'lgan davlatsimon uyushma edi, degan tushunchalarning hamon turli nashrlarda o'z aksini topib kelayotganida ham namoyon bo'lmoqda.

Bunday qarashlar o'z vaqtida O'rta Osiyoning mustamlakaga aylantirilganligini "oqlash" uchun maydonga tashlangan edi. O'zbek tarixchilari oldida ishonchli va rad etib bo'lmaydigan yozma manbalar asosida ana shu uydirmalarning asossiz va g'araz maqsadlarda qilinayotganligini ilmiy jihatdan isbotlab berishdek muhim vazifa turibdi. Xorazm tarixnavisligi maktabiga taalluqli qo'lyozmalar sahifalarida ajdodlarimiz tomonidan muhrlab ketilgan ma'lumotlar bu yo'lda mutahassislar uchun beqiyos katta ahamiyat kasb etadi.

Xorazm yozma merosi-tarixnavisligi haqida yaratilgan tadqiqotlar, asosan, buyuk tarixchi-adiblar Munis, Ogahiy va Bayoniylar davri, ular yozib qoldirilgan bitiklar bilan cheklanadi. Nazarimizda, bu sohadagi izlanishlarda vorisiylik masalasi chetlab o'tilayotganligi ko'zga tashlanib qolmoqda. Jahonda e'tiborga molik Xiva solnomalari, shubhasiz, Xorazm tarixnavislik maktabining cho'qqisi hisoblanadi. Ammo undan oldin yaratilgan asarlarni ham e'tibordan xorij qilib bo'lmaydi. Gap shundaki, dunyo amaliyotida bo'lganidek, har qanday ilmiy

yo‘nalish quruq joyda, ilmiy ildizga ega bo‘lmasdan turib, o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi. Shuni hisobga olgan holda, biz Xorazmdagi turkiy(eski o‘zbek) tilida vujudga kelgan tarixnavislik maktabiga XVI asrning o‘rtasida yaratilgan O‘tamish hoji Mavlona Muhammad Do‘stning “Chingiznoma” asari asos solgan, deb hisoblaymiz.

Zotan, turkiy (eski o‘zbek) tilda Xorazmda bitilgan ushbu tarixiy asarning vujudga kelishi diyorimizda uzoq muddat ro‘y bergan siyosiy turg‘unsizliklardan keyin navbatdagi mustaqil davlat asoslari qaror topa boshlagan vaqt bilan chambarchas bog‘liqdir. Oddiy bayon uslubida yozilgan ana shu bitikdan so‘ng Abulg‘oziyning mashhur “Shajarayi tarokima” va “Shajarayi turk” asarlari yaratiladi.

Bu tarixiy bitiklar Xorazmdagi turkiy tarixnavislik maktabining birinchi davri hisoblanadi. Yana bir narsani ta’kidlash joizki, yurtimizda vujudga kelgan tarixnavislik maktabining izdoshlari haqida ham hozirgacha maxsus izlanishlar olib borilmagan. Vaholanki, tarixnavislik maktabi bu yerda XX asrning birinchi choragi oxirigacha davom etib, mahalliy tarixchilar o‘zlaridan oldin o‘tgan buyuk allomalarga taqlidan o‘ziga xos qator asarlar yozib qoldirganlar.

Xorazm yozma merosida davlatchilik masalalari to‘g‘risida so‘z ketar ekan, nazarimizda, XVI-XX asrlarda faoliyat ko‘rsatgan turkiy (eski o‘zbek) tarixnavislik maktabining ildizlarini bundan ko‘p asrlar muqaddam ajdodlarimiz yozib qoldirgan bitiklar bilan bog‘liq holda tahlil etish lozim bo‘ladi. Chunki diyorimizdagi dastlabki davlatchilik haqidagi yozma ma’lumotlar bundan qariyb uch ming yil muqaddam yaratilgan “Avesto” va XI asrda qadimiy ma’lumotlar asosida yozilgan. Beruniy asarlarida o‘z aksini topgan. Shuningdek, XIII asrdagi

ko‘plab arabiy va forsiy manbalarda xorazmshohlar imperiyasining vujudga kelishi, buyuk davlat sifatidagi faoliyati, inqirozi sabablari o‘z aksini topgan. Yuzaki qaralganda, til va yozilish davrlari jihatidan turkiy (eski o‘zbek) tilida taraqqiy topgan keyingi tarixnavislik maktabi bilan ular orasida bog‘liqlik yo‘qday ko‘rinadi. Ammo davlatchiligimiz tarixining yozma merosimizdagi tavsifini bu asarlarsiz tasavvur etish qiyin. Chunki bu sohadagi ko‘p ming yillik an‘analar avloddan-avlodga o‘tib kelgan, ular tobora sayqal topib borgan, qadimdan o‘rnatilgan atributlarga amal qilib kelingan.

ADABIYOTLAR:

1. *I.A.Karimov. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. T.; 1998.*
2. *A.Ziyo. O‘zbek davlatchiligi tarixi, T.; “Sharq”. 2000.*

“Ilm sarchashmalari – 2005, 4-son, 66-69-betlar.)

XORAZMSHOHLAR DAVLATIDAGI UNVON VA MANSABLAR

O’rta Osiyo xalqlarining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotida muhim rol o’ynagan Xorazm davlati tarixini ilmiy taqiq etish bugungi kunlarda dolzarb ilmiy yo’nalishdir. Ma’lumki, milodiy ikkinchi ming yillikning boshlarida Xorazm dunyoda qudratli, yengilmas davlat hisoblangan. Xorazm Osiyoning muhim qismlari, Yevropaning sharqiy bo’lagidagi iqtisodiy jihatdan baquvvat hududlarni qamrab olgan buyuk davlat bo’lgan. Manbalarda Xorazmshohlar saroyida turli mansablar haqida qiziqarli ma’lumotlar saqlanib qolgan.

Hukmdorning a’yonlari va mulozimlari –hukmdorlarning a’yonlari va mulozimlari saroyda yashab turgan sulola a’zolari hamda saroy hayotiga oid tashriflarni tashkil etishga safarbar qilingan xizmatchilardan tashkil topgan.

Xonadon a’zolari –turkiy hokimiyat an’anasiga ko’ra, davlat hukmron sulola a’zolarining barchasiga tegishli hisoblangan. Xonadonning bunday yuksak darajasiga muvofiq, sulola a’zolari zamona rasm-rusumlariga ko’ra saroyda eng yuqori mavqeini egallagani tabiiy bir holdir. Hukmdorning onasi, umr yo’ldoshi, farzandlari (shahzodalar) xonadon a’zolari hisoblangan. Bundan tashqari, sultonning aka-ukalari, amaki-jiyanlari ham xonadon mansublari edilar.

Jaloliddinning saroyida bir o’g’li va ukasi G’iyosiddin Pirshohdan boshqa xonadon a’zolaridan hech kim yo’q edi. Zero, u Sind sohilida Chingizxon qo’shinlaridan yengilgan o’sha jangda onasi Oychechak xotun, xotin, bola-chaqalari va haramidagilarning hammasini daryoga tashlatishga amr bergan va ular g’arq bo’lib

ketishgandi. Ular shu tariqa mo'g'ullar qo'lida qiynalib halok bo'lishdan qutulib qolgan edilar. Faqat Jaloliddinning 7-8 yashar o'g'li yog'iy qo'lga tushgan va o'sha zahotiyuq Chingizxonning buyrug'iga ko'ra o'ldirilgan.

Taqdirning achchiq taqozosi bilan Jaloliddin hali taxtga chiqmay turiboq eng yaqin kishilari bo'lgan onasi va farzandlaridan fojiali ravishda ayrilgandi. Shu bilan birga, saltanatning oxirgi davrlarida Jaloliddinning Mengtusshoh ismli o'g'li bo'lgani ham ma'lum.

Binobarin, Jaloliddinning saroyida bu shahzoda va ukasi G'iyosiddindan boshqa xonadonga mansub biror kishi bo'lmagan.

Hojiblar –biz yuqorida aytib o'tganimizdek, hojib saroy marosimlarini tashkil etgan va boshqarib turgan. Xususan, u hukmdorning qabul marosimlari vaqtida mavjud qoidalarga rioya etilishini ta'minlagan. Hukmdor bilan davlatning muhim mansabdorlari o'rtasidagi aloqani ta'minlash ham hojibning zimmasida bo'lgan.

Jaloliddin davrida-ehtimol otasining davridan e'tiboran-hojiblikka saroyga mansub bo'lmagan va turkiy amirlarning avlodi bo'lgan kishilar tayin etilgan. Hojiblar saroy g'ulomlari orasidan tanlab olingani va tayyorlangani e'tiborga olinsa, hojiblik muassasi bu davrda mazmunan o'zgarib, kengaygani ma'lum bo'ladi. Buning natijasi o'laroq, hatto, Jaloliddin uning zamonasigacha hech ko'rilmagan bir ishni amalga oshirdi, ya'ni hojiblar orasidan bir kishini vazir lavozimiga tayinladi. Uning vaziri Sharafulmulk ilgari hojib bo'lgan edi.

Sultonning hojibi Badriddin Inonch fors adabiyotining zukko bilimdoni edi. Jaloliddin davrida eng katta hojibga "xos hojib" yoki "hojibi xos" deyilgan. Hojibi xos hukmdorning qabul marosimlarini tashkil etar va marosim qatnashchilarining o'z mavqeiga mos holda

joy olishlarini ta’min qilar edi. Sultonga keltirilgan hadyalarni elchilardan olib, hukmdorga bitta-bitta sanab ko’rsatish ham xos hojibning vazifalaridan biri edi.

Mahramlar –Jaloliddinning saroyida mahramlari ham bo‘lgan. Ularga “xodimoni xos” ham deyilgan. Mahramlar “malikul xos” unvoniga ega bo‘lganlar. Jaloliddin o‘z mahramlariga turli-tuman muvaqqat vazifalarni topshirib turgan. Masalan, u Hindistondan qaytgach, ukasi G‘iyosiddinni itoat ostiga olish uchun mahramlaridan Adaqni yo‘llagan va ukasini ishontirishga harakat qilgan. Bundan tashqari, sulton mahramlaridan Badriddin va Tojiddinlarni elchilik va “bashorati fatq” vazifasiga tayinlagani haqida ma’lumotlar bor.

Saroy amirlari –saroy tashkilotiga mansub bu amirlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri hukmdorga bo‘ysungan. Saroy amirlari o‘z xizmat lavozimi va unvoniga ko‘ra quyidagicha bo‘lgan:

Ustozdor (yoki ustoz - ud-dor) Xorazmshohlar saroyida xizmatkorlar va g‘ulomlarga bosh bo‘lib, xazinaga tushgan foydadan va soliq tushumlaridan muayyan bir qismini olib, bu mablag‘ni saroy oshxonasi, nonvoyxonalar, sharobxonalar, otxonalar, saroydagi barcha xizmatchilarning sarf-harajatiga ajratgan. Shuningdek, u ushbu mablag‘dan maosh berish va boshqa harajatlar uchun ham foydalangan.

Xorazmshohlar davlatida ustozdorlar xizmat talabi bilan mamlakat boyliklari va xazinaga kirim qiladilar. Mablag‘larning ma’lum qismidan foydalanish huquqiga ega edilar. Keyin bu mablag‘larni nonvoyxona, oshxona, otxona saroy zarurlari uchun ishlatar, evaziga qancha pul ishlatgani haqida ulardan muhr bosilgan tilxat yozdirib olardi. U bunday muhrli tilxatlarni vazirdan, mustavfiydan, mushrif, nozir va ularning noiblaridan ham olar edi. Saroydagi lashkarlar, lashkarboshilarga oid chiqimlar tilxati esa arid

(harbiy devon) tomonidan muhr bilan tasdiqlanardi. Jami bo‘lib yuqori lavozimda xizmat qiluvchi o‘n ikki odamning va ularning noiblarining muhri talab etilardi.

Sultonning birinchi chorlashidayoq ustozdor yetib kelib, sulton topshiriqlarini boshqa xizmatkorlarga yetkazar edi. Sulton Jaloliddin 1223 –yilda Jamoliddin al-Zarrodni ustozdor qilib tayinlab, unga Ixtiyoriddin laqabini bergan.

Amiri ishkor –sulton ovlarini tashkil etuvchi. Hukmdorning ov qurollarini saqlagan va sulton ovga chiqqan paytlari unga hamrohlik qilgan. Ayni zamonda, ov qo‘shin uchun Harbiy mashq ham hisoblangan. Bu ishni tashkil etish, ov o‘tkaziladigan joylarni oldindan ko‘zdan kechirish ham shu amirning vazifasi bo‘lgan Sulton Jaloliddinning shikor amiri Sayfiddin To‘rt Abo edi.

Tashtdor –bu lavozim egasi hukmdor qo‘l yuvganda unga qumg‘on va chilopchin tutgan. Oltindan qilingan bu idishlarning saqlanishi uchun mas’ul bo‘lgan.

Tashtdor –sulton hammomlari, hovuzlarining boshlig‘i. Uning qo‘l ostida bir necha g‘ulom bo‘lgan. Tashtdorlik mansabiga sulton juda ishonchli odamlarini tayinlar edi. Yuqorida tilga olganimiz Anushtagin saljuqiy sulton Malik saroyida xuddi mana shunday tashtdor mavqeiga erishganda, unga mazkur mansabga viloyatda mutanosib keluvchi shixnalik, ya’ni (raisi, qal’a boshlig‘i). Xorazm shixnaligi lavozimi beriladi. Chunki tashtdor xizmati bilan bog‘liq barcha harajatlar Xorazm viloyatidan tushadigan soliqlar bilan qoplanardi. Alouddin Muhammadning tashtdori Ayozi malik (podshoh) darajasiga ko‘tarib, ixtiyoriga 10 ming dan otlashkar bergan. Ayozi yana “Boshlarini tanidan judo qiluvchi va jonlarini oluvchi” (ya’ni, jallod)lik xizmatini ham bergan edilar. Sulton Jaloliddin ham tashtdori Jamoliddin Farruhga malik unvonini bergan, u yana sultonning shaxsiy elchisi vazifasini bajarar edi.

Tashtxona –saroyda tog‘aralar saqlanuvchi xona.

Sharabdor –sulton sharobxonasining boshlig‘i, kuzatuvchisi, Sharobxonada shirin ichimliklarni tayyorlash uchun shakar ham saqlanar edi. Odatda amirlardan biri sharabdor bo‘lib, uning qo‘l ostida bu ishga mohir g‘ulomlari bor edi. Sulton Jaloliddinning sharabdori amir Sa‘diddin Ali edi.

Davatdor (arabcha davat-siyohdon so‘zidan) –sultonlikda yozuv qurollarini tashuvchi odam. Hukmdorning yozuv-chizuv asboblari shay bo‘lishi va saqlanishi uchun javobgar shaxsdir.

Qissador –bir hafta davomida sulton nomiga yozilgan ariza, shikoyatlar va iltimosnomalarni yig‘ib olib, Sultonga yetkazib beruvchiga hamda undan tegishli javoblarni oluvchiga aytilardi. Sulton odatda shikoyat va arizalarni juma oqshomida ko‘rib chiqardi. Xorazmshohlar saroyida qissador eng obro‘li mansablardan biri edi. Zero, hukmdor bilan oddiy xalq o‘rtasida aloqa bog‘lab raiyyat ahvoli va zoridan xabardor qilib turish savobli ishini hamma ham halol bajara olmasligi tabiiy. Sulton Alouddin Muhammadning qissadori Najibiddin Shahrizo‘riy hukmdori hali sulton Sanjar davrida Xurosonda qo‘shin boshlig‘i (sohibul-jaysh) bo‘lgan vaqtidan buyon yonida shu vazifada edi. Bu mansab ancha obro‘li bo‘lib, urushlar bo‘lmagan, tinchlik paytlarida egasiga ko‘p daromad keltirgan. Keyingi ikki mansab egasining amirlik rutbasiga ega bo‘lishi yoxud ega bo‘lmagani haqida manbalarda biron-bir ma‘lumot yo‘q.

Shuningdek, manbalarda **jomador** (liboschi) va **ibriqdor** (hukmdor tahorat olgan vaqtda qo‘liga suv quygan) mansablar to‘g‘risida ham hech qanday ma‘lumot yo‘q. Biroq Xorazmshohlar davlat tashkilotida bu mansablar bo‘lgan. Binobarin, Jaloliddinning a‘yonlari orasida ham bu ikki mansabdor har holda bo‘lgan.

Nozir - moliyaviy ishlar bo'yicha amaldor (Devon an-nozir yoki devoni nozir).

Al-hojiblar –saroylarda odatda sulton yoki shohlarning, umuman hukmdorlarning ishlarini al-hojiblar, erkak odamlar qilishgan. Bu lavozimni Naxichevonda ayol kishi ham bajargan. Tarixda bundan boshqa hojibalik qilgan ayol bo'lmasa kerak.

Choshnigir –sulton sharoblarini tatib ko'ruvchi. U dasturxon yozilganida sulton taomlardan zaharlanmasligi uchun o'zi birinchi bo'lib, tatib ko'rar edi. Sulton Jaloliddinning choshnigiri Sayfiddin To'g'rul edi.

Amil (ko'pligi amilan, ummol) –devonda moliyaviy rahbarlar ichida eng kichik vazifa. Har bir tuman, shahar, aholi yashaydigan maskan (bo'ka), qishloqning soliq yig'ish bo'yicha rahbari bo'lgan.

Mushrif –devonda moliyaviy nazorat ishlarida xizmat qiladigan odamga aytilgan.

Farrosh –sulton o'rin-to'shaklari saqlanadigan farroshxona boshlig'i. Uning ixtiyorida gilamlar, chodirlar, ko'rpa-to'shaklar bo'lardi. Farrosh va maxsus o'rgatilgan g'ulomlar sulton atrofida doimo hozir turar edilar. Sulton Alouddin va Jaloliddinlarning bosh farroshi Mukarrabiddin Muhammad ibn Ibrohim Pahlavon Xorazmiy edi. U davlatning eng obro'li amirlaridan bo'lib, Jaloliddin uni ko'p xursand qilardi.

Farroshxona –sultonga tegishli o'rin, gilam va chodirlar saqlanadigan ombor. Otabek Sa'dning Jaloliddinga yuborgan tuhfalari orasida farroshxona ham bor edi.

Faqihlar-davr an'anasiga muvofiq, sulton saroyida islom huquqi (fiqh) ilmi ustozlari-faqihlar ham ishlaganiga oid ba'zi ma'lumotlar mavjud. Masalan, sulton faqih Najmiddin Xorazmiyni Amidga, faqih Rukniddinni saljuq sultoni Alouddin Qayqubod huzuriga elchi qilib yuborgan. Hukmdor davlat boshlig'i sifatida

juda ko‘p huquqiy masalalar ustida boshqotirgani turgan gap. Bu ikki omil hisobga olinsa, faqihlar ham saroy a‘yonlaridan bo‘lganliklari va huquqiy masalalarda maslahat berish uchun kengashlarda qatnashganliklari muqarrardir.

Munajjimlar –zamona zayliga muvofiq Jaloliddin saroyida munajjimlar ham bo‘lgan. Zotan sulton munajjimlarning so‘zidan chiqmas, ularning romlariga astoydil ishonar edi. Masalan, Isfaxon yaqinida mo‘g‘ullar bilan to‘qnashganlarida munajjimlar sultonni uch kun kutib, to‘rtinchi kuni jang boshlashni tavsiya etdilar. Sulton ham ularning so‘ziga kirib, zafar soatini kutdi, ammo g‘alabani boy berdi.

Mustahdamlar –saroyning umumiy ishlari bilan shug‘ullangan xizmatchilarga muqaddimi chovushon boshchilik qilardi. Uning qo‘l ostida chovushlar va mustahdamlar xizmat qilgan. Binobarin, armiyada chovush unvonli kichik boshliqlar bo‘lganidek, saroyda ham chovushlar xizmat qilgan. Ular safarda sultonga hamrohlik qilganlar, choparlik xizmatini o‘taganlar.

O‘z vazifasini lozim darajada uddalamagan, tanbal mansabdorlar sulton tomonidan jazolangan. Masalan, muqaddimi chovushon Kamoliddin e‘tiborsizlik qilib, ismoiliylarni xizmatga olgani uchun osib o‘ldirilgan.

Mehtari mehtaron-sultonning xos xizmatchilari bo‘lgan muhtarlarning boshlig‘i edi. Sultonning bulardan boshqa xodimlari ham bo‘lgan.

Xorazmshohlar, jumladan, Jaloliddin davrida saroy amirlari hukmdorlar ishongan g‘ulomlar orasidan, ya‘ni ota-bobosi turkiy bo‘lgan qullar orasidan tayinlangan. Bu amirlarning qo‘l ostida yetarli miqdorda askariy quvvatlar mavjud bo‘lib, bu qo‘shinlar bevosita hukmdorning gvardiyasini tashkil etgan.

Bundan tashqari, saroy amirlari orasidan elchilar tayinlangani haqida manbalarda ma'lumotlar ko'p. Masalan, sulton o'z tashtdorini Gurjiston qirolichasi huzuriga elchi qilib yuborgani ma'lum. Saroy amirlarining o'z bayroqlari bo'lgan. Tashtdorning bayrog'iga qo'mg'on, silohdornikiga yoy, jomadornikiga bo'xcha, amiri oxurnikiga taqa, dovotdornikiga esa dovot tasviri tushirilgan edi.

Sulton Alouddin, shuningdek Jaloliddin davrida saroy amirlariga amir va malik rutbalaridan ham yuksakroq bo'lgan "xon" unvoni ham berilgan.

ADABIYOTLAR:

1. *Juvayniy. Tarixi jahongushoy. Leyden-London, 2-jild. 1916. 16-17 betlar.*
2. *Buniyodov Z. Gosudarstvo Xorazmshaxov- Anushteginidov. Moskva, 1986, s. 35.*
3. *Oydin Tonariy. Jaloliddin Xorazmshoh va uning davri. (Turk tilidan Boboxon Muhammad Sharif tarjimasi). Toshkent: Sharq, 1999, 74-bet.*
4. *Azamat Ziyo. Uzbek davlatchiligi tarixi. Toshkent: Sharq. 2000. 143-144-6*

“Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi”.
2009, 3/4-son, (46-50-betlar.)

XORAZMSHOHLAR TARIXIGA OID MANBALAR

Oʻrta Osiyo xalqlarining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotida muhim rol oʻynagan Xorazm davlati tarixini ilmiy tadqiq etish bugungi kunlarda dolzarb ilmiy yoʻnalishdir. Maʼlumki, milodiy ikkinchi ming yillikning boshlarida Xorazm dunyoda qudratli, yengilmas davlat hisoblangan. Xorazm Osiyoning muhim qismlarini, Yevropaning sharqiy boʻlagidagi iqtisodiy jihatdan baquvvat hududlarni qamrab olgan buyuk davlat boʻlgan. Bir tomoni Iroq-u Ajam boʻlsa, ikkinchi tomoni Xitoy, shimoli Rusiya boʻlsa, janubi - Hindistonning yarmi Katta Xorazm hududiga kirgan. Xorazm davlatchilik siyosatining oʻziga xos mustahkam bir istehkomi edi.

Xorazmshohlar davlati faoliyatiga oid materiallar oʻrta asr manbalarida u yoki bu koʻlamda oʻz aksini topgan. Oʻzbekistan Respublikasi FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qoʻlyozmalar fondida Xorazm tarixiga oid oʻrta asrlarda yaratilgan nodir qoʻlyozmalar, jumladan, Ibn al-Asirning (1160-1234) “Al-komil fi-t-tarix” (“Mufassal tarix”) asari Sharq, mamlakatlari xalqlari, shuningdek Oʻrta Osiyo xalqlari tarixini oʻrganishda alohida ahamiyat kasb etadi. Asar 12-jildidan iborat boʻlib, dunyoning “yaratilishi”dan to 1231 –yilga qadar Sharq, mamlakatlarida boʻlib oʻtgan ijtimoiy-siyosiy voqealarni yilma-yil, xronologik tartibda bayon etib beradi. Asarning VII-XII jildlari alohida ahamiyatga ega boʻlib, 924-1231 yillar orasida Sharq mamlakatlarida, xususan, Oʻrta Osiyo va Oʻzbekistonda boʻlib oʻtgan voqealarni oʻz ichiga oladi va asosan qoʻlyozma manbalar, shuningdek, tarixni yaxshi bilgan kishilar bergan axborot hamda

muallifning shaxsiy kuzatuvlari bilan to‘plangan aniq, ma’lumotlar asosida yozilgan.

Asarning ayniqsa mo‘g‘ullar istilosiga bag‘ishlangan XII jildi alohida ahamiyatga ega va O‘rta Osiyo hamda Sharq mamlakatlarning XIII asrning birinchi choragidagi ijtimoiy-siyosiy tarixini o‘rganishda asosiy manba vazifasini o‘taydi.

Shuningdek muallifning “Tarix al-baxir fi-d-daula va al-atabikiya” kitobida Otabeklar davlatini yoritish jarayonida Xorazmshohlar haqida ham qimmatli ma’lumotlar keltiradi.

Yoqut al-Hamaviy (...)ning “Mu’jam al-buldon” (Mamlakatlar qomusi) asari qomusiy harakterga ega bo‘lib, unda O‘rta Osiyo, xususan, Xorazm vohasiga oid qimmatli ma’lumotlar mavjud. Asarda, jumladan, Xorazm geografiyasi va uning mo‘g‘ullar istilosigacha bo‘lgan davri tarixi, madaniy hayoti (taniqli shaxslar, ularning faoliyati) to‘g‘risida hikoya qiluvchi qimmatli ma’lumotlar to‘plangan.

Asardagi Xorazm vohasiga oid ma’lumotlar Xorazmning shahar va qishloqlari, ularning geografik o‘rni, iqlimi, suvlari haqida ma’lumot beradi, Muallifning yana bir asari “Mu’jam al-udabo” (“Adiblar lug‘ati”) asarida esa zamonasiga Qadar yashab, ijod etgan ming nafardan oshiqroq Sharq adib va shoirlarining tarjimai holi va asarlaridan namunalar berilgan. Shular qatorida xorazmlik o‘n to‘qqiz nafar adib va shoirning hayoti hamda ijodiy faoliyatiga alohida to‘xtalib o‘tilgan.

Rashiduddin ibn Fazlulloh, ibn Imoduddavla Abulxayr al-Hamadoniy (1247-1318)ning jahon tarixini o‘z ichiga olgan “Jome ut-tavorix” (“Tarixlar majmuasi”) uning qalamiga mansub asarlar jumlasidandir.

Olimning bizning davrimizgacha to‘la tarzda yetib kelgan birdan-bir asari shu “Jome ut-tavorix” bo‘lib, u o‘rta asr

tarixshunosligining o‘ziga xos noyob asari hisoblanadi. Asar o‘rta asr Sharq tarixchiligida yangi an’anani boshlab bergan asar.

Ma’lumki, Rashiduddindan avval o‘tgan, shuningdek, undan keyingi davrlarda yashab ijod etgan tarixchilarning ko‘pchiligi umumiy tarix deganda faqat musulmon mamlakatlarining tarixini tushunganlar. Rashiduddin esa, ulardan farqli o‘laroq, umumiy tarix deganda, Sharq mamlakatlari bilan bir qatorda, G‘arb mamlakatlari, Xitoy hamda Hindiston tarixini, ham nazarda tutgan Sharq mamlakatlari tarixini jahon tarixining bir qismi deb hisobladi.

Bu asar uch qismdan iborat:

1. Mo‘g‘ullar va ular asos solgan davlatlar (Ulug‘ yurt, ya’ni Mo‘g‘uliston);

Elxoniyalar davlati hamda mug‘ullar asoratiga tushib qolgan mamlakatlar; Shimoliy Xitoy, O‘rta Osiyo va yaqin hamda O‘rta Sharq mamlakatlari xalqlarining mo‘g‘ul istilosigacha bo‘lgan qisqacha tarixi;

2) Sharq mamlakatlari xalqlarining islomiyatdan avvalgi tarixi;

Arab halifaligi va uning tarkibida tashkil topgan davlatlar (Raznaviyalar imperiyasi, Saljuqiylar davlati, Xorazmshohlar davlati va b.); Xitoy, qadimgi yahudiylar, franklar, Rim imperiyasi va Hindiston tarixi;

3) Yer kurrasi hamda yetti islom mamlakatlarining geografik holati haqida ma’lumot beradi.

Asarning ayniqsa, turk-mo‘gul xalqlari tarixini o‘z ichiga olgan qismi Markaziy Osiyo xalqlari tarixini o‘rganishda katta ahamiyatga ega. Asarning O‘rta Osiyo, Eron va Kavkazorti xalqlarining XIII asr boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy hayotiga oid qismlari ham benihoyat qimmatlidir.

Abu Nasr Muhammad ibn Abdu-l-Jabbor Utbiy (taxm. 961-1077 y.y.)ning “Tarixi Yaminiy” (“Yamin ud-davla tarixi”) asari Sabuktagin va Sulton Mahmud davrida Gaznaviylar imperiyasi tarkibiga kirgan Afgʻoniston, Xuroson, Xorazm va Movarounnahrning 975-1021 yillardagi ijtimoiy-siyosiy tarixini bayon etuvchi hamda qoraxoniylarning Movarounnahrni bosib olishi (992-996 yillari) shaklda maʼlumot beradi. “Tarixi Yaminiy” asari benihoya qimmatlidir. Asarda hukmron sinfning maqsad va manfaatlarini himoya qilish bilan birga, toʻxtovsiz davom etayotgan urushlar, zulm, turli-tuman soliqlar tufayli azob chekayotgan mehnatkash xalqlarning ogʻir turmushiga oid maʼlumotlar berilgan.

Shihobiddin Muhammad Nasaviy Oʻrta Osiyo, Oʻzbekistan, Kavkaz, yaqin va Oʻrta Sharq mamlakatlaridan moʻgʻul istilosi davridagi (1220-1231 y.y.) ijtimoiy-siyosiy ahvolidan bahs yurituvchi “Sirat us-sulton Jaloliddin Manguberdi” (“Sulton Jaloliddin Manguberding tarjimai holi”) qimmatli kitob yozib qoldirgan.

“Sirat us-sulton” esdalik tarzida yozilgan asar boʻlib, muqaddima va 108 ta bobdan iborat.

Asarning I-IV boblarida moʻgʻul-tatarlar, Chingizxonning kelib chiqishi, Chingizning xon boʻlib koʻtarilishi va uning Moʻgʻuliston va Shimoliy Xitoyi boʻysundirishi masalalari qisqacha bayon etilgan.

V-XXII boblar Xorazmshoh Alouddin Muhammadning hayoti va faoliyatiga bagʻishlangan.

XXIII bobdan boshlab kitobning to oxirigacha moʻgʻul istilosi va Xorazmshoh Alouddin Muhammad oʻz yurtini sharmandalarcha tashlab qochishi, sulton Jaloliddinning hayoti va uning moʻgʻul istilochilari bilan olib borgan qahramonona kurashi, uning

Ozarbayjon hamda Iroqdagi faoliyati va nihoyat, fojeona halokati hikoya qilinadi.

“Sirat us-sulton”ning ayniqsa 1224-1231 yillar voqealarini o‘z ichiga olgan boblari noyob va muhim ilmiy qimmatga ega, chunki bayon etilgan voqealarning ko‘pchiligida muallifning shaxsiy ishtiroki ko‘rinib turibdi.

Nizomulmulk (Abu Ali al-Hasan ibn Ali ibn Ishoq at-Tusiy) (1063-1072 y.y.) davlatni idora qilish masalalariga bag‘ishlangan “Siyosatnoma”(yoki “Siyar al-muluk” - “Podsholar hayoti”) nomli asari bilan nom qoldirgan. Bu asar 51 bobdan iborat bo‘lib, unda markaziy davlat apparatining tuzilishi va moliyaviy hisob-kitob ishlari, qo‘shinning tuzilishi, yuqori davlat mansablari va ularga tayinlash tartibi, qabul marosimlari va ularni tayyorlash hamda o‘tkazish tartibi, mansabdorlarning faoliyati ustidan nazorat qilish kabi umumdavlat masalalari o‘rtaga qo‘yilgan.

Asarda O‘rta Osiyo va O‘zbekistan tarixi haqida ham muhim va qimmatli ma’lumotlar bor. Somoniylar davrida turk g‘ulomlarining davlatning ijtimoiy-siyosiy hayotida tutgan o‘rni, Turkiston xonlari (Qoraxoniylar) saroyida xizmat qiluvchi xodimlarning maishiy ahvoli, Somoniylar xizmatida bo‘lgan amirlarning unvonlari, Xorazmshoh Oltintosh (1017-1032) bilan Sulton Mahmud G‘aznaviyning vaziri Ahmad ibn Hasan O‘rtasidagi yozishmalar shular jumlasidandir. Asarda, bundan tashqari, karmatlar, botiniylar harakati, Muqanna qo‘zg‘oloni haqida ham ayrim diqqatga sazovor ma’lumotlar mavjud.

Nizomi Aruzi Samarqandiy (XI asrning 90 yillarida tug‘ilgan) “Majma al-g‘arob” (“Ajoyibotlar majmuasi”) yoki “Chor maqola” nomi bilan mashhur bo‘lgan asar muallifidir. Asar 1156 -1157 yillarda yozilgan bo‘lib, to‘rt qismdan iborat: 1) dabirlar (kotiblar) va dabirlik hunari haqida; 2) she’riyat ilmi va shoirning qadr-

qiymati xususida; 3) sayyoralar haqidagi ilm va munajjimlar haqida; 4) tibb (meditsina) ilmi va tabiblarga pand-nasihatlar.

Birinci qismda qoraxitoylar bilan Sulton Sanjar Oʻrtasida 1141 –yilning 9 –sentabrida Samarqand atrofida boʻlgan urush, qoraxitoylar bilan Xorazm, shuningdek Sulton Mahmud Gʻaznaviy bilan Movarounnahr hukmdori Qoraxoniy Bugʻroxon Muhammad (1033-1056 yillar atrofida vafot etgan) Oʻrtasidagi siyosiy munosabatlar, qoraxitoylar istilosi arafasida Buxoro sadrlarining umumiy ahvoli haqida qisqa, lekin qimmatli maʼlumotlar keltirilgan.

Asarning ikkinchi qismida, qoraxoniylar davrida Movarounnahrning adabiy va madaniy hayotiga oid maʼlumotlar bor.

Xullas, bu asar Oʻzbekistonning X-XI asrlardagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotini oʻrganishda maʼlum ahamiyatga ega boʻlgan manbalardan biri hisoblanadi.

Abu Sayd Abdulxay ibn Zahhok ibn Mahmud Gardiziy (XI asr)ning “Zayn ul-axbor” (“Tarixlar bezagi”) asosan qadim zamonlardan islomiyatdan avval oʻtgan qadimgi Eron podsholari davridan to 1041 –yilgacha, yaʼni Gaznaviylardan Sulton Mazdud (1041-1051 y.y.) bilan Sulton Muhammad (1030-1031; ikkinchi marta 1041 y.) oʻrtasida, yaʼni 1041 –yili Dinovarda boʻlgan urushgacha Xurosonda boʻlib oʻtgan voqealar haqida hikoya qiladi. Asarda ayniqsa Xurosonning arab istilosidan 1041 yilgacha boʻlgan tarixi boshqa asarlarga qaraganda kengroq yoritilgan.

Asar rumliklarning madaniyati, turli xalqlarning diniy marosimlari va yil hisoblari, Oʻrta Osiyoning turkiy aholisi va Hindiston haqida degan boblardan iborat.

Gardiziyning ushbu asari Xuroson va O‘rta Osiyoning arablar istilosidan to XI asrning O‘rtalarigacha bo‘lgan siyosiy tarixini o‘rganishda muhim o‘rin tutadi.

Faxriddin Muborakshoh Marvarudiy (XII asr ikkinchi yarmi XIII asr boshlari) o‘zining mashhur “Tarixi Muborakshoh” (“Muborakshoh tarixi”) asarini yozgan.

Asar 136 qism (shajara)dan iborat bo‘lib, unda Muhammad payg‘ambar, xulafayi Roshidin (Abubakr, Umar, Usmon, Ali), ansorlar, muhojir sahobalar, ya’ni Suriya hukmdorlari, Yaman podsholari, johiliyat zamonida g‘assoniylar, ya’ni islomiyatdan avval o‘tgan shoirlar, sahobalar orasidan chiqqan shoirlar, Ajam podsholari (Peshdodiylar, Kayyoniylar, Ashkoniylar, Sosoniylar), Ummaviylar, Abbosiylar, Toxiriylar, Saffoviylar, Somoniylar, G‘aznaviylar va nihoyat G‘uriylar tarixi bayon etilgan.

Asarning biz uchun qimmatli shundaki, unda Turkistonning sarhadlari va Turkistonda ishlab chiqariladigan mol va matolar, ularning horijiy mamlakatlarda etibor qozongan navlari, turk abilalari va urug‘lari, ularning tili va madaniyati (yozuvlari, urf-odatlar) haqida boy daliliy ma’lumotlar keltiriladi.

Abul - Fazl Bayhaqiy (995-1077) “Tarixi Oli Mahmud” (“Sulton Mahmud honadonining tarixi”) , yoki “Jome’ fi tarixi Oli Sabuktakin” (“Sabuktakin honadoni tarixidan hikoyalar majmua’si”) nomli asarlari bilan mashhur tarixi Oli Mahmud asari 30 jildan iborat bo‘lgan. Lekin bizgacha uning kichik bir qismi yetib kelgan xolos. Bu qismlar Sulton Mas’ud (1030-1041) hukmronligi davri tarixini o‘z ichiga olgan va “Tarixi Mas’udiy” nomi bilan ham ma’lum.

“Tarixi Mas’udiy” muallif o‘zi ko‘rgan va ishonchli kishilardan eshitgan ma’lumotlar, shuningdek, hukumat mahkamalarida saqlanayotgan rasmiy hujjatlar asosida yozilgan.

Asar daliliy hujjatlarga boyligi, voqealarning chuqur va atroflicha bayon etilishi va nihoyat, zo‘r badiiy mahorat bilan yozilganligi bilan boshqa tarixiy asarlardan farq qiladi.

Asarda Sulton Mahmud davrida G‘aznaviylar saltanatining ijtimoiy-siyosiy ahvoriga keng o‘rin berilgan. Bundan tashqari asarda Saffoviylar, Somoniylar, Saljuqiylar tarixiga oid muhim ma‘lumotlar ham bor. Ayniqsa, G‘aznaviylar bilan Xorazm, Saljuqiylar hamda Qoraxoniylar davlati O‘rtasida bo‘lgan siyosiy munosabatlar haqida qimmatli ma‘lumotlar ko‘p.

Alouddin Otamalik Juvayniy (1226-1283) Mo‘g‘uliston, O‘rta Osiyo, O‘zbekiston hamda Eronning XIII asrdagi ijtimoiy-siyosiy tarixidan hikoya qiluvchi “Tarixi Jahonkushoy” (“Jahongir (Chingizxon) tarixi”) nomli shoh asari bilan shuhrat topdi. Asar 1260 –yilda yozib tamomlangan.

Asar uch qismdan iborat: 1) Mo‘g‘ullar va ularning Chingizxon (1246-1249) davrigacha, shuningdek, Juchixon, Chig‘atoyxon va avlodlarining tarixi; 2) Xorazmshohlar va Xurosonning mo‘g‘ul hukmdorlari davridagi (1258 –yilgacha) tarixi; 3) Eronning 1256-1258 yillardagi ijtimoiy-siyosiy ahvoli, shuningdek, Ismoililarning diniy-harbiy uyushmasi va Ismoililar davlati (1090-1258 yy.) tarixi.

O‘rta Osiyo va O‘zbekiston tarixi uchun bu asarning I -II qismlari alohida qimmatga ega. Asarning Xorazm va Xorazmshohlar tarixiga oid (II qism), Movarounnahr va Sharqiy Turkiston tarixi, shuningdek, Mo‘g‘uliston haqidagi xabarlar asosan muallifning bu mamlakatlarga qilgan sayohatlari haqida to‘plangan ma‘lumotlar asosida yozilgan.

Xorazm davlatchiligi tarixini o‘rganish tahlil etish muhim ilmiy izlanishlar olib borish davlatchilik tarixini o‘rganish uchun ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega. Bunda Xorazm davlati

hukmdorlari faoliyati, ularning tarixdagi ro‘li va o‘rni, davlatning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy ahvoli, davlat boshqaruvi va boshqa ko‘plab muammolarni hozirgi kun talablari asosida qayta chuqur ilmiy tahlil qilish alohida ahamiyatga molikdir.

“Jamiyat va boshqaruv” -2010. (84-85 betlar)

YOQUT AL-HAMAVIYNING “MU’JAM AL-UDABO” ASARIDAGI XORAZM ADIBLARI

Lavhul Mahfuzda shunday yozilgan ekan, shekilli, Shahobiddin Abu Abdullo Yoqut bin Abdullo ar-Rumiy al-Hamaviy va Bag‘dodiy umri davomida turli shahar va mamlakatlarni kezib, darbadarlikda hayot kechirdi. Ibn Xallikon, Hoji Halifa (Kotib Chalabiy) kabi o‘rta asrlar tarixchilari Yoqut Hamaviyning yoshligidanoq asirga olinib, Bag‘dodga keltirilgani va qul bozorida sotilganidan rivoyat qilishadi. Uni Ibrohim al-Hamaviy degan bir kimsa sotib oladi. Bu odam tijorat bilan shug‘ullanar edi. Ammo savodining yo‘qligi tufayli ishlari uncha yurishmasdi. Shu sababdan u Yoqutning ilm olishiga alohida e‘tibor beradi va keyinchalik o‘zining savdo ishlarini unga ishonib topshiradi. Yoqut tijoratning orqasidan sharqning ko‘p shahar va o‘lkalarini kezib chiqadi. Shunday safarlarning birida (bu voqea 596/1199 yildan keyin sodir bo‘ladi) u xo‘jayinining vafot etganini eshitib qoladi va o‘z yurtiga qaytib, qo‘lidagi omonatni egasining vorislariga qaytarib beradi. Ayni paytda u ozodlikka ham chiqib oladi.

Shu tariqa uning hayotida yangi sahifa boshlanadi. Dastlabki 10-15 yil u yana sharqning ko‘plab shahar va o‘lkalariga sayohat qiladi. U kitob savdosi bilan ham shug‘ullanardi ham tarix, jug‘rofiya, hadis va kalom ilmi kabi ilmlarni chuqur o‘rganib boradi.

Shunday qilib, u 613/1216 -yili yana safarga o'tlanadi va bir necha o'lkalarni kezib chiqqandan so'ng, 1217-1218 yillarda Marvga keladi. Va bu yerda ancha turib qoladi.

Bu davrda Marv Xorazmshohlar davlati tasarrufida edi. Saltanat taxtida esa Muhammad Xorazmshoh farmonbardor edi. Xorazm davlatida hukm surayotgan osoyishtalik, tukin-sochinlik, elining farovonligi, fan va madaniyatning gurkirab rivojlangani va ijod ahli uchun qulay shart-sharoitlar mavjudligi sayyoh Yoqutni bu yurtga butunlay bog'lab qo'yadi. U Marv kutubxonalarini ko'rib, hayratga tushadi va ularning doimiy muhlisiga aylanadi. Shuningdek, mamlakatning tabiiy iqlimi, shahar va qishloqlari, xalqining turmush tarzi, tarixi, adabiyoti va madaniyati bilan yaqindan tanishishga harakat qiladi. Buning uchun u, bir tomondan, Marv kutubxonalaridan samarali foydalanar va eshitgan-ko'rganlari bilan hosil qilgan ilmini yanada mustahkamlab borardi. Hamaviy nomini tarixda qoldirgan, uning olim sifatida fan olamida shon-shuhratini oshirgan "Mu'jam al-udabo" ("Adiblar to'plami") va "Mu'jam al buldon" ("Shaharlar lug'ati") kabi asarlarini yozish fikri ham xuddi shu yerda paydo bo'lgan ersa ajab emas. Yoqutning Markaziy Osiyo shaharlari va viloyatlari haqida yozganlariga asoslanib, uning ilm sohasida bunday yuqori maqomga erishuvida Xorazm davlatining ham xizmati beqiyos bo'lganini e'tirof etish lozimdir, albatta.

Sayyohlik qon-qoniga singib qolgan, bir joyda qo'nim bilmas Yoqut Ibn Xallikonning yozishicha, Mavrdan Nisoga boradi va undan Xorazmga o'tadi. Ammo xuddi shu paytlarda shunday ulug' va qudratli saltanatning osoyishtaligiga tahdid solib, mamlakatning sharqiy sarhadlariga, keyinchalik, ming-minglab tinch aholining yostig'ini quritgan, xalq boshiga bitmas-tugalmas kulfatlar solgan mo'g'ul-tatar bosqini ham yetib kelgan edi. Bu esa Yoqutning

shoshilinch ravishda Xorazmni tashlab chiqishga sabab bo‘ladi va u ko‘zlagan maqsadiga to‘la erisha olmaydi. Masalan, o‘sha davrlarda fan sohasida katta yutuqlarga erishgan Chamg‘iniy, el orasida mashhur bo‘lgan Najmiddin Kubro kabi xorazmlik ulug‘ allomalarning “Adiblar lug‘ati”ga kirmay qolishi sababi ham Yoqutning Xorazmda qisqa vaqt bo‘lganiga dalolatdir. Biroq, shunga qaramay, “Adiblar lug‘ati”da xorazmlik adiblar to‘g‘risida ko‘pgina qimmatli ma‘lumotlar borki, ularning ayrimlari boshqa tarixiy manbalarda uchramaydi.

“Adiblar lug‘ati”da muallif zamonasiga qadar yashab, ijod etgan ming nafardan oshiqrok sharq adib va shoirlarining tarjimai holi va asarlaridan namunalar berilgan. Shular qatorida xorazmlik o‘n to‘qqiz nafar adib va shoirning hayoti hamda ijodiy faoliyatiga alohida to‘xtalib o‘tilgan.

1. Ahmad ibn Muhammad as-Saxriy Abul Fazl.
2. Ahmad ibn Muhammad al-Husayn as-Suhayliy al-Xorazmiy.
3. Muhammad ibn Ahmad Abu Rayhon Beruniy.
4. Ahmad ibn Ibrohim al-Adibiy.
5. Ahmad bin Ali Safariy al-Xorazmiy Abu Fazl kabi adiblar shular jumlasidandir.

To‘plamda yana boshqacha tartibda, ya’ni nomlari bir necha joyda zikr etilgan, ammo alohida tarjimai holi va ijodiy faoliyatiga to‘xtalib o‘tilmagan adiblar ham uchraydi. Masalan, xorazmlik mashhur alloma Abu Bakr Muhammad bin al-Abbos Xorazmiy to‘g‘risidagi ma‘lumotlar asarning ko‘plab sahifalariga sochilib ketgan. Shuningdek, xorazmlik adiblar to‘g‘risidagi ma‘lumotlar murshidi Abu Muhammad Mahmud ibn Arslonning ijodiy faoliyatini ham alohida ta’kidlab o‘tish joiz. Yuqorida keltirilgan xorazmlik adiblar haqidagi ma‘lumotlarning salmoqli qismi marvlik

shu ulug' allomaning sa'y-harakatlari tufayli bizgacha yetib kelgan. Afsuski, Yoqut to'plamda ko'p bora qayd etib o'tgan uning "Xorazm tarixi" asari bizgacha yetib kelmagan. Shuningdek, to'plamda Xorazm adabiy muhiti bilan aloqada bo'lib turgan, sharkning olis-yaqin o'lkalaridagi allomalar to'g'risidagi ham ma'lumotlar uchraydi. Va, nihoyat, "Mu'jam al-buldon"da nomlari zikr etilgan allomalarning (masalan, Nuzkosiy xadis ilmi bo'yicha Yoqutga dars bergan) ayrimlarining "Udabo"ga kirmay qolishidan ham o'rta yerlarda mamlakatimiz, jumladan, Xorazm o'lkasining adabiy muhiti naqadar boy bo'lganligini tasavvur qilish qiyin emas.

Yoqut Hamaviy Muhammad Xorazmshoh, yohud mashhur xalq, qahramoni Jaloliddin Mengburn (manbalarda shunday yozilgan) bilan uchrashib, shaxsan tanishmagan bo'lsa kerak. Aks holda, ayrim manbalarda shoh Jaloliddin ilm ahli, ayniqsa, shoir va adiblar bilan yaqin munosabatla bo'lib, ba'zan o'zi ham she'r yozgani to'g'risida ma'lumotlar uchraydiki, Hamaviyga u bilan suhbatlashishi nasib etganda, albatta, buni ham yozib qoldirgan bo'lardi.

So'zimizning xulosasi shuki, Yoqut al-Hamaviyning mashhur "Mu'jam al-udabo" ("Adiblar to'plami") asari islom dinining Markaziy Osiyoga kirib kelishidan mo'g'ul-tatarlarining Xorazm davlatiga bostirib kirishigacha bo'lgan davrdagi mamlakatimiz madaniyati va tarixiga doyr eng boy va qiziqarli ma'lumotlar berilgan qimmatli manbalardan biri bo'lib hisoblanadi.

ADABIYOTLAR:

1. Ibn Xallikon, "Vafoyot al a'yon", O'zFASHI, 11474 II 210-b, Kotib Chalabiy, "Kashfi zunnun", O'zFASHI, 5978 II, 463-b.
2. "Vafoyot al a'yon", II, 210-b.

3. H-Hikmatullayev, Sh.Shoislomov. *“Yoqut Hamaviy”*, Toshkent, *“Fan”*, 1965, 5-6-betlar.

4. *“Vafoyot al a’yon”*, II, 210-b.

“Ilm sarchashmalari” – 2005, 2-son. (64-66-betlar)

“Ilm sarchashmalari” – 2009, 1-son. (6-10-betlar)

YOQUT AL-HAMAVIY MA’MUN AKADEMIYASI VA UNING OLIMLARI HAQIDA

Xorazmda afrig’iylar, keyinchalik xorazmshohlar davlati hukm surib, uning namoyondalari o‘zining shon-shuhrati, ilm-fan va madaniyat taraqqiyotiga qo‘shgan ulkan hissalar bilan jahonga tanildilar. X-XI asrlarda Markaziy Osiyoda ilm-fan yuqori cho‘qqilarga ko‘tarildi. Shu davrda Xorazm diyorida shakllangan Ma’mun akademiyasida jahon fani xazinasiga mislsiz, olamshumul hissa qo‘shgan Abu Rayhon Beruniy (973-1048), Abu Ali ibn Sino (1980-1937), Abu Mansur as-Saolibiy (981-1038) kabi buyuk allomalar ijod etdilar.

Ma’mun akademiyasida aniq fanlar bilan bir qatorda badiiy adabiyot keng rivojlandi. Ular haqida davlat va ilm-fan tili bo‘lmish arab tilida yozilgan yirik manbalardan biri Yoqut al-Hamaviy qalamiga mansub bo‘lib, u *“Mo‘jam al-udabo”* (*“Adiblar qomusi”*) deb ataladi. Kitobdagi Xorazmlik adiblar to‘g‘risida mavjud qimmatli ma’lumotlarning ko‘plari boshqa tarixiy manbalarda uchramaydi.

Yoqut al-Hamaviy *“Mo‘jam al-udabo”*da o‘z zamonasiga qadar yashab, ijod etgan mingdan ortiqroq sharq adib va shoirlarining tarjimai holi, ularning asarlaridan namunalarni bergan. Olim Ahmad ibn Muhammad as-Sahriy Abul Fazl Muhammad ibn Ahmad, Abu Rayhon Beruniy, Ahmad ibn Ibrohim al-Adibiy, Umar Abu Hafs ibn al-Hasan, Mahmud ibn Umar ibn Ahmad Abul Qosim az-Zamaxshariy kabi o‘n to‘qqiz nafar Xorazmlik adib va shoirning hayoti va ijodiy faoliyatiga alohida to‘xtalib o‘tgan.

Yoqut al-Hamaviyning ayniqsa Abu Rayhon Beruniy haqida bergan ma'lumotlari diqqatiga sazavordir. "Fihrist" nomli o'zi tuzgan asarlari ro'yhatida al-Beruniy yozgan kitoblari nomini keltirsa-da, ammo o'zining she'rlari haqida ma'lumot bermagan. Faqat "Mo'jam al-udabo"da al-Beruniyning arab tilida yozilgan o'ttiz besh bayt, ya'ni yetmish satr she'ri qayd qilinadi. Ular haqida Yoqut: "Bu she'rlar yuksak darajada bo'lmasa ham, Beruniy kabilardan bo'lishi tahsin etilardir", — deb yozgandi. Olimning she'rlari uning kamtarligi, adolatli, ilm ahlini hurmat qiluvchi, ta'lim-tarbiyani ehtirom etuvchi, yolg'on va tilyog'lamachilikka qarshi ayovsiz kurashgan olijanob alloma bo'lganligidan darak beradi. Bu haqda al-Beruniyning quyidagi misralari ham guvohlik beradi: "Mehnat qilmay ulug'likka erishgan kishi farovon, maishat kechiradi, yaxshi kiyadi va rohat soyasida yashaydi-yu, ulug'lik sharafigidan yalong'ochdir".

Yoqut al-Hamaviy Beruniy tarjimai holiga oid boshqa ma'lumotlarni ham berib o'tadi. Xususan, uning Jurjon hokimi Qobus ibn Vashmgir (976-1012), Xorazm amirlari — Ali ibn Ma'mun (997-1009) va Ma'mun ibn Ma'mun (1009-1017), G'aznaviylar sultoni Mahmud kabi hukmdorlar saroyida xizmat qilganligi, ular bilan muloqotlarda odob doirasida bildirgan tanqidiy mulohazalari haqida qimmatli ma'lumotlar bergan.

Yoqut al-Hamaviyning "Mo'jam al-udabo" asari islom dinining Markaziy Osiyoga kirib kelishidan mo'g'ul-tatarlarning Xorazm davlatiga bostirib kirishigacha bo'lgan davrdagi mamlakatimiz madaniyati va tarixiga doir eng boy va qiziqarli ma'lumotlar beradigan qimmatli manbalardan biri bo'lib hisoblanadi. Undagi noyob ma'lumotlar Xorazmshoh Ma'mun akademiyasi olimlarining faoliyatini yanada kengroq o'rganish va ularning merosini targ'ib qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

*"Ma'mun akademiyasi olimlarining ijtimoiy-iqtisodiy
fanlar rivojiga qo'shgan hissasi"*

Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari.

2005- yil 4 iyun. (26-27 betlar)

XORAZMSHOHLAR DAVLATINING MA’MURIY BOSHQARUV TIZIMI

Ma’lumki, milodiy ikkinchi ming yillikning boshlarida Xorazm dunyoda qudratli, yengilmas davlat hisoblangan. Xorazm Osiyoning muhim qismlarini, Yevropaning sharqiy bo‘lagidagi iqtisodiy jihatdan baquvvat hududlarni qamrab olgan buyuk davlat bo‘lgan. Iroq, Xitoy, Shimoliy Rusiya, Hindistonning yarmi o‘sha davrlarda Katta Xorazm hududiga kirgan, Afsuski, shunday qudratli davlat keyinchalik turli sabablar bilan parokanda bo‘lib ketdi. Bu esa yovuz kuchlar huruji ko‘payishiga qulayliklar tug‘dirdi. Shunday qilib, bir tomondan ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy inqiroz, ikkinchi tomondan Chingizxon tajovuzi Xorazmni xarob qildi.

Xorazmshohlar davlati hukumat idorasining eng oliy organi buyuk devon hisoblangan. Vazir, sohibi devoni davlat, sohibi devoni insho, sohibi devoni istifo, sohibi devoni ishraf, sohibi devoni arz — bular buyuk devon a‘zolari bo‘lgan. Buyuk devon — davlat ishlari muhokama etiladigan va qarorlar chiqariladigan kengashdir. Biroq uzil-kesil qarorni sultonning o‘zi chiqargan.

Xorazmshohlar davlatida markaziy davlat idorasining rahbari (al majlisa oliy al-faxriyatoji) — eng yuqori martabali mansabdor bo‘lib, u vazir deb atalgan. Vazir davlat rahbarining birinchi maslahatchisi bo‘lib, u faqat shohning o‘zigagina buysungan. Vazir rasmiy marosimlar, davlatlararo aloqalar, mustamlakalar bilan olib boriladigan muzokaralarda shoh nomidan qatnashar, davlat rahbari va fuqarolar o‘rtasida vositachilik qilar, barcha davlat amaldorlarini mansabga tayinlash va almashtirish, nafaqalar (arzak), moddiy yordamlar (mavajib) joriy etish ishlarini boshqargan hamda xazina

va soliq tizimini nazorat etish, mahalliy vazirlar hisobotini olish kabi qator vazifalarni bajargan.

Vazirlarga sadr, dastur, hojai buzruk degan unvonlar berilgan, ushbu lavozimdagi kishiga maxsus siyohdon (dovot) berilgan u movutdan oʻralgan sallasi (dastor) bilan ajralib turgan. Xorazm shohlarining vazirlari har doim arab-fors mansabdorlari (Xorazm shohlari roʻyxatida turk ismlari topilmaydi) muhitiga mansub kishilar boʻlgan. Vazir arab va fors tillarini puxta oʻzlashtirgan boʻlishi, maʼmuriy ishlardagi layoqati, saroy tartib-qoidalarini bilishi shart hisoblangan, kimning urugʻ-avlodi ekanligi hisobga olinmagan.

“Xoja” unvonini olgan vazirlar umumiy yigʻinlarda shohning oʻng tomonida oʻtirgan. Xorazmshohlarning barcha vazirlari saljuqiylarda boʻlgani singari “Nizom-ul-mulk”(“Davlat tartiblari”) laqabini olishgan. Nizom-ul-mulk unvoniga ega boʻlgan vazir Sulton yonidagi alohida joyni egallagan. Mazkur vazirlar devonxonada qora rangli oʻrindiq(dast)da oʻtirgan va devonxonaga kirgan kishi bilan (hatto u shahzoda boʻlsa ham) joyidan turmasdan salomlashgan. Bunda mansabga hurmat nuqtai nazaridan shunday qilingan. Chunki, vazirning qora rangli oʻrindigʻi taxt oʻrnida qaralgan.

Devonlarga kelsak, ularning faoliyati saljuqiylar davridagi tizimdan deyarli farqlanmagan. Insho yoki tugʻro devoni rasmiy hujjatlar, yozishmalarni tuzish ishlarini bajargan. Moliya ishlari bilan istifo devoni, davlat nazorati tadbirlari bilan ishraf devoni, harbiy masalalar, chunonchi, qoʻshinni qurol-aslaha bilan taʼminlash, qoʻshin qismlarini shaxsiy tarkibini nazorat qilish, harbiylarga ajratilgan yer-suv nazorati, harbiy koʻriklar oʻtkazish kabilar bilan devoni arz yo jaysh shugʻullangan. Yana bir devon boʻlib, u devoni xos deyilgan. Haqiqatan ham bu maxsus devon

hisoblanib, hukmdor sulolaga tegishli yer-suv, mol-mulklarni tasarruf qilish, sulton mamluklariga maosh berish vazifalari bilan mashg‘ul bo‘lgan.

Yuqorida aytib o‘tilganidek, vazirda vazorat muhri va ma’muriyat alomati bo‘lgan oltin dovot saqlangan. Bundan tashqari, vazirning uch dona tug‘i ham bor edi.

Vazirning eng asosiy vazifalaridan biri buyuk devonga rahbarlik qilish bo‘lgan. Buyuk devonda devon a’zolari davlat ishlarini muhokama etgan. Vazir devon a’zolarini birgalikda yoki yakka qabul qilib, davlat ishlari to‘g‘risida ma’lumot, xabarlar olgan, ko‘rsatmalar bergan. Bundan tashqari, vazir davlat ishlari yuzasidan o‘zi bilan birga ishlagan xodimlardan ham maslahatlar olib turgan.

An’anaga ko‘ra, vazirdan keyingi oliy mansab egasi sohibi devon bo‘lgan. Afsuski, bu maqom egasining vazifa va salohiyati to‘g‘risida aniq ma’lumot yo‘q. Aftidan, sohibi devon viloyatlar noiblari va vazirlarining murojaatlarini devonga kiritgan va devon a’zosi sifatida devonga taqdim etilgan masalalarning ahamiyatini oshirgan.

Xorazmshohlar davlatida quyidagi devonlar mavjud bo‘lgan: Devoni insho, devoni istifo, devoni ishraf, devoni arz va devoni nazr.

Devoni insho –davlatning tashqi va ichki ishlari yuzasidan vasiqalar hozirlash, aloqani boshqarib turish bilan shug‘ullangan. Bu devonning boshlig‘iga “munshiy” deyilgan. Shifrlangan maktublarni yozish va o‘qish munshiyning vazifasi hisoblangan. Bundan tashqari. munshiy sultonning maktublarini ham yozib borgan. Munshiy “sohibi devoni insho” deb ham nomlangan.

Devoni istifo –davlatning butun moliyaviy ishlarini yuritgan va boshqarib turgan. Devon boshlig‘iga “sohibi devoni istifo” yoki “mustavofriy” (ya’ni daftardor) deyilgan. Mustavfi —

mamlakatning chekka o'lkalaridagi moliyaviy ishlar rahbari (devon ul-istifo) moliyaviy maslahatchi bo'lgan.

Devoni ishraf –davlat idoralarini taftish qilgan, boshlig'i "sohibi devoni ishraf" yoki "mushrif" deb yuritilgan.

Devoni arz qo'shin boshqaruvi, harbiylarning iqtolari, daromadlari, maoshlari va harbiy anjomlarning qaydi va nazorati bilan shug'ullangan. Bu devonning rahbari "sohibi devoni arz" yoki "ariz" deb nomlangan.

Devoni nazr –moliyaviy masalalar bilan shug'ullangan. Bu mansab to'g'risida yetarli ma'lumot yo'q. Devoni nazrning boshlig'iga "nozir" deyishgan.

Xorazm davlatchiligiga oid manbalarni tahlil etish o'zbek davlatchiligi tarixini o'rganish uchun ham nazariy, ham amaliy ahamiyat kasb etadi. Bunda Xorazm hukmdorlarining faoliyati, tarixdagi ro'li va o'rni, davlatning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy ahvoli, davlat boshqaruvi va boshqa ko'plab muammolarni hozirgi kun talablari asosida qayta ilmiy tahlil qilish alohida e'tiborga molikdir.

“Jamiyat va boshqaruv” – 2010. (84-85-betlar)

XORAZM TURKIY TARIXNAVISLIGIGA OID “CHINGIZNOMA” ASARINING LINGVISTIK TADQIQI

R. Mahmudov, f.f.d.(DSc), k.i.x., Xorazm Ma’mun akademiyasi, Xiva
M.Eshmuradov, f.f.n., Xorazm Ma’mun akademiyasi, Xiva.

Annotatsiya. Ushbu maqolada Xorazm turkiy tarixnavisligiga oid bo‘lgan “Chingiznoma” asari lingvistik nuqtayi nazaridan tahlil qilingan. Undagi davlatchilikka oid ayrim terminlarning mavzuiy guruhlari ajratilgan.

Kalim sўzlar: turkiy tarixnavislik, tarixiy leksika, etimologiya, lingvopoetika, lingvoestetika

Аннотация. В данной статье анализируется с лингвистической точки зрения произведение “Чингизнома”, относящееся к хорезмской тюркской историографии. В нем выделены тематические группы некоторых терминов, связанных с государственностью.

Ключевые слова: турецкая историография, историческая лексика, этимология, лингвopoetika, лингвоestetika

Abstract. This article analyzes from a linguistic point of view the historical work of “Chingiznoma”, related to the Khorezm Turkic historiography. It highlights thematic groups of some terms related to statehood.

Key words: turkish historiography, historical vocabulary, etymology, linguopoetics, linguoesthetics.

Xorazm tarixnavisligi o‘zining ohoriyligi bilan o‘lkamiz tarixnavisligida alohida o‘rin tutadi. Xususan, xonliklar davriga kelib, asosan, solnomalarning turkiy tilda bo‘lishiga e’tibor berilishi, sodda, ravon, xalq tiliga yaqin bo‘lishiga harakat qilish,

Navoiy, Bobur kabi salaflar tarixiy-badiiy uslubini davom ettirishga intilish, Ogahiy tarjimashunoslik maktabi rivoji tufayli fors tarixnavisligi ta’sirining keskin oshishi, tarixiy asarlar leksikasida inglizcha, ruscha-baynalminal o‘zlashmalarning qo‘llana

boshlanishi va boshqa xususiyatlarni bu alohidalikni yuzaga keltirgan omillar qatorida sanashimiz mumkin.

Xorazm turkiy tarixnavisli manbalari juda xilma-xil, rang-barang. Ularni tarixnavis-solnomachilar tomonidan bayon etilgani ham, Xiva xonlari tomonidan bitilganlari ham, ijodkorlar tomonidan bitilgani ham mavjud. Ularning ayrimlari “dasht og‘zaki istoriografiyasi” an‘anasida bitilgan bo‘lsa, ayrimlari xos o‘quvchilarga va xos kishilarga bag‘ishlangan, tili murakkab, arabiy, forsiy o‘zlashmalarga boy, yuksak badiiylik namunasi sifatida baholanishi kuzatiladi.

Leksik nuqtayi nazardan ushbu tarixiy asarlar, solnoma va yodnomalarni mukammal tahlil qilish XVI asrdan XX asr boshigacha bo‘lgan katta bir davrdagi eski o‘zbek adabiy tilining lug‘at boyligini, o‘zlashma va o‘z qatlam birliklarini, so‘zlardagi ma‘no taraqqiyotini, tarixiy-badiiy asarlardagi leksik birliklarning ma‘no qirralarini, ularning tarixiy asar badiiyatini shakllantirishdagi o‘rni va ahamiyatini, asar lingvopoetikasida o‘z qatlam va o‘zlashma qatlamning bajargan funksiyalarini belgilashda muhim ilmiy xulosalarni chiqarishda yordam beradi. Qolaversa, Navoiy va Boburdan keyingi davr eski o‘zbek tilining lug‘atlarini tuzishda mazkur yo‘nalishdagi tadqiqotlar alohida maqomga ega.

Ko‘p hollarda Xorazm turkiy tarixnavisligi dastlabki bo‘g‘ini Abulg‘ozi Bahodirxon bilan bog‘alanadi. Albatta, bu bir jihatdan to‘g‘ri. Chunki ayni Abulg‘ozi Bahodirxon Xorazm xonlari haqida turkiy tildagi dastlabki tarixiy-badiiy asarni bitdi. Shu o‘rinda xorazmlik yana bir ijodkorning turkiy tildagi tarixiy asarini ta‘kidlash zarur. Bu Utemish hoji ibn mavlono Muhammad Do‘stning qalamiga mansub bo‘lgan “Chingiznoma” asaridir. “Chingiznoma” ma‘lumotlari O‘rta asrlardagi Markaziy Osiyo xalqlarining siyosiy, etno-siyosiy va etno-madaniy, xo‘jalik, ijtimoiy

va madaniy hayotining, manbashunosligi va tarixshunosligi muammolarini hal etishda muhim mavqega egadir. Asar Chingizxon va Chingiziyning XIII-XIV asr tarixini yoritishda, Oltin o‘rda xonlaridan Botuxondan to To‘xtamishning taxtga kelishiga qadar voqealarni o‘rganishda hamda shu davr eski o‘zbek tili leksik qatlamini o‘rganishda mazkur manba katta ahamiyatga ega. Shuningdek, Xorazmda hukmronlik qilgan Chingiziy beklar haqida ham muhim ma’lumotlar ushbu asardar o‘rin olgan. Asarning tilshunoslik nuqtayi nazaridan ilmiy qimmati juda katta. Chunki, asar yaratilgan XVI asrning birinchi yarmiga oid eski o‘zbek tilidagi turkiy tarixnavislikka mansub boshqa asar hali topilganicha yo‘q.

Undan keyingi davrlarda yaratilgan Xorazm tarixnavislik maktabiga oid barcha tarixiy, tarixiy-badiiy asarlar, solnomalar, xususan, Munis, Ogahiy, Bayoniy, Komyob va boshqa muarrix va ijodkorlarning yaratgan asarlari lingvistik nuqtayi nazargan tahlil va tadqiq qilinishi, o‘zbek tili tarixiy leksikasi, unga oid birliklarning qimmati, ahamiyati, eski o‘zbek adabiy tilining so‘nggi bosqichidagi til birliklarining o‘ziga xos xususiyatlari, ma’no taraqqiyoti, lingvopoetikasi kabi muhim masalalarga oydinlik kiritishi shubhasizdir. Ana shunday dolzarb muammolarni ma’lum darajada hal qilishga intilish yo‘lida ushbu tadqiqot dunyoga keldi.

Ta’kidlanganidek, Xorazm turkiy tarixnavisligiga oid o‘nlab manbalar mavjud. Ularning lingvistik qimmatini ko‘rsatib berish, ulardagi davlatchilikka oid atamalarining o‘ziga xosliklarini ko‘rsatib berish, o‘zbek tili tarixidagi davlatchilik terminologiyasiga xos birliklarning ko‘lamini aniqlashtirish, ularning tarixiy leksikadagi o‘rnini belgilash, tarixiy, tarixiy-badiiy asarlar, solnomalar badiiyatidagi o‘ziga xos rolini ochib berish, o‘zlashma qatlam birliklarining tarixiy ildizlarini tadqiq qilish, turkiy, arabiy, forsiy qatlam birliklarining mavzuiy-semantik guruhlarini belgilash

ishimizdan ko‘zlangan maqsadlarimizni belgilab beradi. Avvalo, Xorazm turkiy tarixnavisligi tushunchasining mohiyatiga to‘xtalsak. “Xorazm turkiy tarixnavisligi” tushunchasini “Xorazm tarixnavisligi”, “Tarixnavislik” kabi tushunchalaridan farqli ravishda qo‘llashimizdan asosiy maqsad: ayni turkiy til – eski o‘zbek adabiy tilida yaratilgan va ayni Xorazm bilan bog‘liq voqealarni aks ettirgan, Xorazmda yashab, faoliyat yuritgan xon va beklar, amaldorlar va boshqa tarixiy shaxslar haqidagi xorazmli ijodkor, muarrixlar tomonidan bitilgan tarixiy, tarixiy-badiiy asarlar, solnomalarni umumlashtirgan holda “Xorazm turkiy tarixnavisligi” tushunchasi ostida umumlashtirdik. Xorazm turkiy tarixnavisligining boshlang‘ich bo‘g‘ini sifatida Abulg‘ozi Bahodirxonni barcha tilshunos olimlar va tarixchilar tan olganlar. Biz ham shu an‘anaga sodiq qoldik. Ammo dastavval tahlilni “Chingiznoma”dan boshladik. Xorazmda yashagan, uni boshqargan Chingiziylar – shayboniylar haqida turkiy tilda ma‘lumot beruvchi ushbu manbani dastlabkilardan bo‘lib lingvistik nuqtayi nazardan tahlil qilish baxtiga muyassar bo‘lganimiz bizga cheksiz quvonch, zavq va ilmiy ilhom bag‘ishlaydi.

Xorazm vohasi yozma merosida davlatchilik masalalari, uning turli davrdagi ijtimoiy- siyosiy va qisman iqtisodiy, etnik hamda madaniy jarayonlarni o‘rganilib, bu hududda yashovchi xalqlar va qo‘shni davlatlar bilan bo‘lgan munosabatlari, elchilik munosabatlari, Xorazm xonlarining faoliyati, davlat boshqarishi, ularning tarixda tutgan o‘rni, roli, boshqarilish tartibi va boshqa muammolar ilmiy asoslarda qayta ko‘rib chiqilib, tahlil etildi. Bu masalalar qo‘lyozma manbalar, arxiv hujjatlari, ilmiy adabiyotlardan hamda sayyohlar, elchilar asarlaridan, turli kataloglardan [7, 56] foydalangan holda yoritildi. Quyida ana shunday asarlardan biri haqida to‘xtalsak. Xorazmda o‘rta asrlarda birinчилardan bo‘lib

turkiy tilada yozilgan asarlardan biri - O‘temish Hojining “Chingiznoma” asaridir. Mazkur manba haqidagi birlamchi ma’lumotlarni Ye.F. Kal³⁵, V.V. Bartold³⁶, A.Z. Validov³⁷lar bergan. Keyinchalik qozog‘istonlik mashhur olim V.P. Yudin mazkur manba asosida bir nechta maqolalar yozib, asarni rus tiliga tarjima qilib, uning tabdilini va matniga tekstologik izohlar berish bilan e’tirof etgan. Nashr muharriri akademik B. Ahmedov ham unga kirish so‘z yozgan va asar muallifi hamda tadqiqotchisiga yuqori baho bergan. Bugungi kunga qadar mazkur nashr manbashunoslikning yorqin namunasi sifatida xizmat qiladi. V.P. Yudin “Chingiznoma” ma’lumotlarini tadqiqot doirasiga tortib, uning Dashti Qipchoq, Oltin O‘rda, umuman, Qozog‘iston tarixiga doir barcha ma’lumotlaridan foydalangan³⁸. O‘temish Hojining “Chingiznoma”sihozirgi o‘zbek tilida 2009 –yili sharqshunos G‘ulom Karimov tomonidan nashr qilingan³⁹. Biroq aytish lozimki, asarning tili xususiyatlari, muallifning tarixnavislik uslubi

³⁵Каль Е.Ф. Персидские, арабские и тюркские рукописи Туркестанской публичной библиотеки. -Т., 1889.-С. 52.

³⁶Бартольд В.В. Отчет о командировке в Туркестан (летом 1902). // Сочинение, т. VIII. М., 1973.-С. 119-210

³⁷Валидов А.З. Восточные рукописи в Ферганской области // ЗВОРАО. Т.22. Ч. 2. 1915- С320.

³⁸Юдин В.П. Орды Белая, Синяя, Серая, Золотая...// Казахстан, Средняя Азия и Центральная Азия в XVI-XVIII вв, Алма-Ата, 1983. – С. 106-165; Шу муаллиф. Переход власти к племенным биям и неизвестной династии Тукагимуридов в казахских степях в XIV в. (К проблеме восточных письменных источников, степной устной историографии и предистории казахского ханства). / Утемиш-хаджи. Чингизнаме. Факсимиле, перевод транскрипция, текстологические примечания, исследование В.П. Юдина. Подготовила к изданию Ю.Г. Баранова. Комментарии и указатели М.Х. Абусаитовой. Алма-Ата, 1992- С. 57-75. Шу муаллиф. Неизвестная версия гибели Урусхана (из политической истории восточного Дашт-и кипчака XIVв). Ўша жойда - С. 76-82 ва б. Шу муаллиф.. Центральная Азия в XIV-XVIII веках глазами востоковеда. –Алматы: Дайк-Пресс. 2001.-384 с.

³⁹Ўтамиш Хожи ибн Муҳаммад Дўстий. Ўтамиш Хожи тарихи. Нашрга тайёрловчи ва сўзбоши муаллифи Фулом Каримов. -Т.: “Ўзбекистон”, 2009.-48с

tarixnavislik hamda manbashunoslik nuqtai nazaridan tadqiq doirasiga haligacha tortilmagan.

“Chingiznoma” asarining bugungi kunda yagona nusxasi O‘zbekiston FA Aburayhon Beruniy nomidagi SHI №1552/ raqami ostida saqlanadi. Muallifi O‘temish hoji ibn mavlono Muhammad Do‘st bo‘lib, asarda u otasini “Muhammad do‘sti hazrati hoqon” deb ham tanitgan. U zodagonlar oilasiga mansub kishi bo‘lib, Xorazm xonligining asoschilaridan biri Elbarsxon (1512-1525) xizmatida bo‘lgan. Ajdodlari esa XV asrning 80 –yillarida Sirdaryo quyi oqimida ulusi shayboniylardan Yodgorxon ibn Shaybonixon xizmatida bo‘lgan. O‘temish hoji esa Elbars saroyida munshiy yoki kotib vazifasida xizmat qilgani taxmin qilinadi⁴⁰. Asarini u shayboniy Esh Sulton (965/1558 -yili o‘ldirilgan) buyurtmasi bilan XVI asrning birinchi yarmida yozgan.

O‘temish hoji o‘z asarini yozish jarayonida asosan rivoyatlar va xalq og‘zaki ijodidan foydalanib, yana sayyohlar, amaldorlar, xonlar, Sulton G‘oziy xizmatida bo‘lgan Hoji Niyoz va xitoy qabilasidan bo‘lgan Bobo Ali biy bergan ma‘lumotlaridan ham foydalangan. Asardagi ba‘zi voqealar tafsilotini muallif guvoh sifatida tasvir etgan. Manbada keltirilishicha, muallif Xorazm va Oltin O‘rdaning janubiy viloyatlarida, Kaspiy dengizi atroflari, quyi Volgabo‘yida ham bo‘lgan ekan⁴¹.

O‘temish hoji ba‘zi voqealar bayonida manba sifatida Esh Sultonning akasi Do‘st Sulton “daftari” (kitobi)ni ko‘rsatadi⁴². Esh

⁴⁰Утемиш-хаджи. Чингизнаме. Факсимиле, перевод, транскрипция, текстологические примечания, исследование В.П. Юдина. Подготовила к изданию Ю.Г. Баранова. Комментарии и указатели М.Х. Абусаитовой. -Алма-Ата, 1992.

⁴¹ Утемиш-хаджи. Чингизнаме. Факсимиле, перевод, транскрипция, текстологические примечания, исследование В.П. Юдина. Подготовила к изданию Ю.Г. Баранова. Комментарии и указатели М.Х. Абусаитовой. -Алма-Ата, 1992. -С42^b

⁴²Чингизнома. Қўлёзма. ЎзФА ШИ №1552/В. 43^a, 54^b.

Sulton faqatgina bir yil 964-965/1557-1558 Xorazm taxtini boshqargan edi. Do‘st Sulton esa shu yili Xorazmda yuz bergan g‘alayonlar jarayonida halok bo‘lgan.

Muallifning Do‘st Sulton asariga bir necha marta murojaat qilgani, Xorazmda XVI asrning boshlarida allaqachon Chingiziylarning vorislari sifatida shayboniylarning tarixi va ular hokimiyatining legitimatsiyasiga bag‘ishlangan asarlar mavjudligini ko‘rsatadi. Kelajakda Do‘st Sultonning “daftari” topilsa, bu muammo ham hal bo‘lish ehtimoli bor. Asarda Do‘st Sulton “daftari”dan quyidagi ma’lumotlar olingani havola etilgan.

“Ba’zilar ayturlar: “Xulaguxan bu lashkarning ichinda erdi. Bu lashkar bosilg‘anda o‘ldi, hech kishi oning o‘lganidin xabardor bo‘lmadi”. Ammo hazrati Do‘st Sultonning tavorixlarida aytib tururlar: “Bu lashkarki bosilib bordi, g‘ussasindin xasta bo‘lub ikki oydin so‘ng o‘ldi”, deb tururlar. Va Allohu a‘lam”⁴³.

Ko‘rinib turganidek, asar tilini tahlil qilish jarayonida, uning eski o‘zbek adabiy tilida, sodda tilda yaratilganini kuzatish mumkin.

Shaybon Botuning Rus yerlari, Qrim, Yevropaga qilgan yurishlarida (1234-1238, 1238-1240 yillari) faol qatnashgan. Bu haqda O‘temish hoji Rashid ad-dinga⁴⁴ nisbatan kengroq ma’lumot beradi. Rashid ad-din Shaybonning Bukchek va Bo‘ri bilan Qrimga 1238 –yili qilgan yurishida uni Tatqar istehkomini olgani haqida yozgan⁴⁵. O‘temish hoji esa Qrimda Shaybonni Qirq yer degan mustahkam qal’ani qamal qilganini yozib, uni uzoq muddatli qamaldan keyin qo‘lga kiritganini batafsil bayon qiladi. “Chingiznoma” muallifi hatto Shaybonni harbiy hiyla ishlatganini

⁴³Ўша асар. 43^a

⁴⁴Рашид ад-дин. Сборник летописей. Т.2. / Перевод с перс, Ю.П. Верховского. -М.-Л., 1960.-С. 37,39.

⁴⁵Ўша ерда. - С. 39.

yoritadi: "... Qirim viloyatida Qiriq Yeri⁴⁶ tegan xera ofarin berk qal'a bor tururkim, oning berkligi va mazbutliqi olamda mashhur turur. Necha yillar qabab urush soldilar, ola bilmadilar. Oxir hukm qildikim, oxshomdin so'ng tang otquncha har na kim, ovoz qilur, oni bir-biringa urushdurun. Yoki qo'llarig'a olib bir-biriga chaqishtura boshladilar. Va baqir qazanlarini va tabaqlarini va chanaqlarini ura boshladilar. Qolning ichinda bu sadoye va alomate bo'libdiki, yer-ko'k zilzilaga keldi, qulaqlar tondi. Qalqa xaloyiqlari sarosar ang-tang bo'lub xar sari yugurushlar: "Na hol bo'ldi?" teb. Ul oxsham tong otquncha ul sado va ul g'ovg'a tinmadi. Qalqa xaloyiqlari ham yotib uxlamadilar. Yana oxshamki, bo'ldi, bayaqitak yana alomate va g'avg'o qobardilar. To bir hafta-o'n kunga tegri ish-kuchlari bu bo'ldi. Kalka xaloyiqlari uyqusizlikdan xarob bo'lur erdi. Bu g'oyatga tegri –ayturlarkim: "Agar bir ish qilur bo'lsa, qilur edilar. Shoyad bularning bu oylarda va bu kunlarda rasmi va odati bu tariqa bor bulg'ay", - teb, farog'at bo'ldilar. Chun Shaybonxan bildiki, bular farog'at bo'ldilar, lashkarini yig'durdi. Ayturlarki, ul qalqa bir yalan qoyaning ustinda tururlar. Bu axshom g'avg'o va sadoni ko'praq qildi. Qal'aning to'rt yonidin chaqurlar soldi. To tong otguncha bir kishi chiqar saqli yo'l qildilar. Qal'a xaloyiqlari g'avg'o va sado jihatidin mitin ovozin ma'lum qilib xabardor bo'lmadilar. Yo'lak tayyor bo'lg'ach darvozaga urush soldilar. Qalqa xaloyiqlari yugurub darvozaga keldilar. Bir jamiyat bahodurlarni ul yo'lg'a ta'yin qilib tururlar, ul yo'ldin yugurib chiqqach qal'aga o'zini soldilar, taqi qal'ani oldilar. Ul qal'ani ko'rgan ravandalardin so'raduq, hanuz ul yo'ning hududi bor turur tedilar. Ondin so'ng Ulaq viloyati⁴⁷ ustunga yuridilar, ani fath qildi. Ondin so'ng Korol

⁴⁶Хозир Кримда Боғчасарой якинидаги Чуфут калъа харобалари. Уни 1299 йили Нўғай бузиб ташлаган. (М.Э).

⁴⁷Улакут - Валахия ҳам637/1238 йили Шайбон томонидан босиб олинган эди.

viloyati⁴⁸ ustunga yuridi. Koral azim ulug‘ viloyat turur. Oning ko‘p urushlari bo‘ldi. Oqibat fath qilib, Koralni poytaxt qildi. Anda vafot bo‘ldi. Taqi hola Koral podshohining avlodi turur. Shayx Ahmad xon necha yil onda tutqun bo‘lub yana andin salomat chiqib o‘z viloyati Hoji Tarxonga keldi. Ul aytur ekandur: “Bizning o‘zbek taifasinda harki [m] omaqli elki, bo turur, barchasindin anda bor turur. Shaybon xon birla borib anda qolib turarlar”, - ter⁴⁹.

Parchani lingvistik nuqtayi nazardan tadqiq qilish jarayonida ijodkorning turkiy so‘zlardan unimli foydalanib, tashxisni yuzaga keltirganini: yer-ko‘k zilzilaga keldi, qulaqlar tondi; tazodni paydo qilganini: oxshomdin so‘ng tang otquncha va boshqa tasviriy vositalar orqali asar matnining lingvoestetik ta’siri oshirishga intilganini anglash mumkin. Asar tilida arabiy va forsiy o‘zlashmalardan foydalanishga jiddiy e’tibor qaratilgan, ma’lum darajada o‘g‘uz lahjasining ta’siri seziladi.

Shuningdek, ta’kidlash zarurki, “Chingiznoma”da turli sohalaridagi tarixiy harbiy, ijtimoiy-siyosiy, maishiy leksikaga oid birliklarni, termin va istilohlarni ajratish, ularning tarixiy ildizlarini aniqlash, qatlamlarga ajratish, tarixiylik, etnografik, lingvistik nuqtayi nazardan baho berish zarur. Quyida asarda uchraydigan so‘zlarning davlatchilik terminologiyasiga oid ayrim mavzuiy guruhlarini ajratgan holda, misollar keltiramiz. Bulardan davlat boshqaruviga doir unvon va amallardan: podshoh, sulton, hokim, biy, bek, qo‘nalg‘a;

Hududiy ma’muriy bo‘linmalardan: ulus, el, viloyat, yurt, o‘rda, aymoq, tuman;

Harbiy sohaga tegishli istilohlardan: qo‘shun, dorug‘a, nuker, mulozim, undaqchi.

⁴⁸Полякларва венгларнинг ерлари.

⁴⁹Чингизнома. Кўлёзма. ЎзФА ШИ №1552/В. 39⁶.41^а

Etnos va etnik sohasiga tegishli termnilardan: urugʻ/uruq, uygʻur, qiyot, qazoq/qazoqlar, oʻzbek/oʻzbeklar, barin, doʻrman, nayman, buyraq, argʻun.

Ijtimoiy va xoʻjalik hayotiga doiralaridan yasoq va xirojni tilga olish mumkin.

Manbada keltirilganlardan baʼzilarining tavsifini berish mumkin:

Ulus (moʻgʻulcha soʻz) –mamlakat, davlat maʼnosida.

El (moʻgʻul) –qabila, qabilalar ittifoqi, xalq, davlat, mamlakat, oʻlka, diyor, oʻrda, turli qabilalar zodagonlari ittifoqi.

Viloyat (arab) –oʻlka, viloyat, mamlakat.

Yurt (moʻgʻul) –hudud, aslida koʻchmanchilar koʻchib yuradigan maʼmuriy-qabilaviy boʻlinma. Mamlakat maʼnosida ham ishlatiladi.

Oʻrda (moʻgʻul) –yurta soʻzidan (xon yurtasi, saroy yurtasi va x.) kelib chiqqan termin. Keyinchalik hukmdor, xonning saroyi Oʻrdasi sifatida tan olindi.

Aymoq, omak, obak (moʻgʻul) –qabila, qavm, urugʻ va ularning konfederatsiyasi, hududi sifatida talqin qilinadi.

Tuman (moʻgʻul) –mulkdorlarning maʼmuriy boʻlinmasi, oʻn ming nafardan iborat qoʻshinni berib, uni taʼminlaydigan hudud.

Hokim (arab) –hukmdor, mahalliy hukmdorlarning unvonlari.

Biy (turkcha) –turkiy qabilalarning peshvolari. Avvalboshda ularda harbiy vakolatlar va masʼuliyatlar boʻlmagan.

Bek (turkcha) –qabila va urugʻ harbiy dastalarining boshligʻi.

Qoʻnalga (turkcha) –maʼmuriy va harbiy amaldorlarni yoʻl davomida ulov, yotoq, oziq-ovqat va boshqa narsalar bilan taʼminlash majburiyati.

Urug‘/uruq (mo‘g‘ul) –oila, avlod, urug‘. Aymoqdan kichikroq bo‘lgan, ko‘pincha, avlodning bir mashhur oqsoqoli atrofida jipslashgan qon-qarindoshlar.

Uyg‘ur –Sharqiy Turkiston va Yettisuvda shakllangan turkiy xalq. Manba yaratilishi davrida Dashti Qipchoqdagi eng kattaqabiladir.

Qiyot, qiyat –mo‘g‘ul qabilalaridan. Chingizxon va uning vorislari davrida bu qabilaning no‘yonlari va amirlari katta mavqega ega bo‘lganlar. O‘temish hoji ma‘lumotiga qaraganda ulardan Isataybek Qiyot Jo‘jiylarning qo‘shiniga qo‘mondonlik qilib, Oltin O‘rdada hokimiyatni qo‘lga kiritgach, taxtga O‘zbekxonni o‘tqazgan. Uning vorislari Sharqiy Dashti Qipchoqda ba‘zan butunlay hokimiyatni qo‘lga kiritganlar. Isobiy Qiyot Ko‘ragon O‘zbekxonning qizi Itkujud-bekaga uylangan va kuyov-ko‘ragon sifatida mamlakatda katta mavqeni qo‘lga kiritgan edi. Uningavlodlari hatto Berdibekxon vafotidan so‘ng (1359) Sirdaryoda hokimiyatni o‘z qo‘llariga oladilar.

Qazoq/qazoqlar (V.P.Yudin talqinida) bu so‘z mo‘g‘ullar hukmronligi davrida (XIII) paydo bo‘lgan. Avvalboshida “qazoq” bu o‘z davlati, qabilasi, urug‘idan ajralib yurgan kishiga (yokikishilarga) nisbatan aytilgan. Qazoqlik muayyan erkin turmush tarziga nisbatan ham ishlatilgan. Kirey/girey va Jonibek Dasht Qipchoqdan bir katta o‘zbek guruhlarini olib, qazoq bo‘ylab Yettisuvga ketgan. Shu guruhga nisbatan qazoq etnonimi ishlatiladigan bo‘ldi.

Sulton Husayn Boyqaroning rasmiy manbalarida (masalan, “Muizz al-ansob” asarida) uni hokimiyat tepasiga kelishidan oldingi davrini “qazoqlik davri” deb tavsif qilganlar

O‘zbek/o‘zbeklar –”Chingiznoma”dagi davr, ya’ni XIV-XV aserlarda o‘zbek nomi Sharqiy Dashti Qipchoqdagi mahalliy,

turkiylashgan mo'g'ul qabilalariga nisbatan ishlatilgan, etnonim sifatida emas⁵⁰.

Barin/bahrin –manbalarda mazkur qabila nomi bayri, barim, baxrin, bagrin, baarin shaklida ham keladi. Turk-mo'g'ul bo'lgan bu qabila butun Chig'atoy ulusi bo'yicha joylashgan edi. Bahrin eli Mo'g'uliston, Sharqiy Turkiston, Qozog'iston va bugungi O'zbekiston hududlarida yashagan⁵¹.

Do'rman –turk va mo'g'ul qabilalaridan, Chig'atoy va Shaybon uluslarida yashaganlar.

Nayman –turk va mo'g'ul qabilalaridan, Chig'atoy va Shaybon uluslarida yashaganlar.

Buyraq–turk va mo'g'ul qabilalaridan, Chig'atoy va Shaybon uluslarida yashaganlar. Qo'shinlari Shaybon yurishlarida qatnashgan⁵².

Qarluq–turk va mo'g'ul qabilalaridan, Chig'atoy va Shaybon uluslarida yashaganlar. Qo'shinlari Shaybon yurishlarida qatnashgan⁵³.

Arg'un - Temuriy Abu Sayyid (1451-1469) davrida Sirdaryo havzasidan Movarounnahr hududlariga ko'chib kelgan qabila.

Yuqorida ta'kidlangan ma'lumotlardan shuni xulosa qilish mumkinki, “Chingiznoma”ni matnshunoslik, tilshunoslik, tarixiy jug'rofiya, terminologiya nuqtayi nazaridan o'rganilishi istiqbolli ilmiy yo'nalishni tashkil qilishi mumkin. Xususan, lingvistik

⁵⁰Ахмедов Б. Государство кочевых узбеков. М 1965, С. 11-16.

⁵¹Тарихи Рашидий// ЎзФА ЎзФА ШИ. № В 648.-В. 395; Шах Махмуд Чурас. Хроника. Тарих. / Критический текст, перевод, комментарии и указатели О.Ф. Акимушкина. М., 1976. - Лл 74^a, 84^a; Юдин В.П. О родоплеменном составе могулов и Могулистана и Могулии и их этнических связях казакским и другими соседними народами // Изв. АН КазССР, ООН. 1965. Вып. 3. – С. 55. Яна: Чингизнома. - Б. 158. изоҳ 84.

⁵²Чингизнома. Қўлэзма. ЎзФА ШИ №1552/V.38

⁵³Ўша жойда, 38⁶

juhatdan Xorazm tarixnavisligidagi davlatchilik terminologiyasini belgilash, birliklarini aniqlashtirishda manbaning ahamiyati katta. Chunki, biz Xorazm turkiy tarixnavisligini “Shajarai turk”dan boshlashga ko‘nikkanmiz. Ammo garchi Shaybon sulolasi boshqaruvi haqida bo‘lsa-da, turkiy til (eski o‘zbek tili)da yaratilgan mazkur asarni ham biz Xorazm turkiy tarixnavisligiga oid manbalar qatorida sanashimiz mumkin.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ахмедов Б. *Государство кочевых узбеков. М., 1965. – С. 11– 16.*
2. Бартольд В.В. *Отчет о командировке в Туркестан (летом 1902). // Сочинение, т. VIII. М., 1973. – С. 119-*
3. Валидов А.З. *Восточные рукописи в Ферганской области // ЗВОРАО. Т.22. Ч. 2. 1915. – С. 320.*
4. Воҳидов Ш., Эшмурадов М. *Хоразм тарихчилари: Ўтемиш ҳожи, Абулғозий, мунис. Тошкент, 2009. –*
5. Каль Е.Ф. *Персидские, арабские и тюркские рукописи Туркестанской публичной библиотеки. Ташкент, 1889. – С. 52*
6. Рашид ад-дин. *Сборник летописей. Т.2. / Перевод с перс. Ю.П. Верховского. -М.,-Л., 1960. – С. 37,39.*
7. *Собрание Восточных Рукописей ИВ АН Узбекистана (СВР). Т. I-XI. – Т., 1952-1987.*
8. *Тарихи Рашидий.// Ўз ФА ШИ. № В 648. –Б. 395.*
9. *Утемиш-хаджи. Чингиз-наме. Факсимиле, перевод, транскрипция, текстологические примечания, исследование В.П. Юдина. Подготовила к изданию Ю.Г. Баранова. Комментарии и указатели М.Х. Абусаитовой.- Алма-Ата, 1992.*
10. Юдин В.П. *Орды Белая, Синяя, Серая, Золотая...// Казахстан, Средняя Азия и Центральная Азия в XVI- XVIII вв. Алма-Ата, 1983. – С. 106-165*

***“Xorazm ma’mun akademiyasi”. Xiva-2023, 7/4-son.
(207-212-betlar)***

**“TARIXI O‘TEMISH HOJI IBN MAVLONO
MUHAMMAD DO‘ST SULTON” (CHINGIZNOMA)DA
MO‘G‘UL VA TURKIY SULOLALAR TAVSIFI**

Markaziy Osiyoda Chingiziylar sulolasining legitimasiyasi turli shakl va yo‘nalishlarda amalga oshirilgani ma‘lum. Ularning davlat tepasiga kelishlari va uning bardavomligini ushlab turishlari hamda taxtga da‘vogarlarining huquqlarini ta‘minlab berish uchun turli janrdagi asarlar yozildi. Ularning ichida tarixiy asarlar alohida o‘rin egallaydi. Chingizxonning vorislari ham unga o‘xshab o‘z hokimiyatlarini ilohiy, genealogik, elektoral, kuch, tahdid hamda an‘anaviy normalar, huquq va odatlarni saqlash yo‘li bilan legitimligini ta‘minlashga harakat qilganlar. Shunday sulolalardan biri Xorazm va Dashti Qipchoqda hokimiyatni qo‘lga kiritib, uni ushlab turishga harakat qilganlaridan biri Shayboniylar bo‘ladi. Shaybon/Shibon, Sibon Jo‘jining o‘g‘li, Botuxonning akasi bo‘ladi. Botuxon Majoriston (Vengriya) yurishidan so‘ng Shaybonga ulus sifatida Koralni berib, urug‘ va qabilalardan qushchi, nayman, qarluq/qarliq va buyraqlarni beradi. Shaybon avlodlaridagi xonlar Chingiziylarning turli uluslarida hukm surgan yoki bu mamlakatlarning siyosiy hayotida faol qatnashganlar.

O‘rta Osiyoda hukm surgan sulolalar, ularning tarixi va davriga atab yozilgan tarixiy asarlar Temur va temuriylar davriga nisbatan ancha kam yetib kelgan. Xorazmlik muallif tomonidan turkiy tilda Xivada yaratilgan Shayboniylar davriga doir ilk asarlardan biri “Chingiznoma”dir.

“Chingiznoma” asarining bugungi kunda yagona nusxasi Uzbekistan FA Aburayhon Beruniy nomidagi SHI № 1552/V raqami ostida saqlanadi. Muallifi O‘temish hoji ibn mavlono Muhammad

Do‘st bo‘lib, asarda u otasini “Muhammad Do‘st hazrati xoqon” deb ham tanitgan. U zodagonlar oilasiga mansub kishi bo‘lib, Xorazm xonligining asoschilaridan biri Elbarsxon (1512-1525) xizmatida bo‘lgan. Ajdodlari esa XV asrning 80-yillarida Sirdaryo quyi oqimi ulusi bo‘lgan shayboniylardan Yodgorxon ibn Shayboniyxon xizmatida ekanlar. O‘temish hoji esa Elbars saroyida munshiy yoki kotib vazifasida xizmat qilgani taxmin qilinadi. Asarni u shayboniy Esh Sulton (965/1558-yili o‘ldirilgan) buyurtmasi bilan XVI asrning birinchi yarmida yozilgan.

“Chingiznoma” haqida birlamchi ma’lumotlarni E.F. Kal , V.V. Bartold, A.Z. Validov berganlar. Keyinchalik qozog‘istonlik mashhur olim V.P. Yudin mazkur manba asosida bir nechta maqolalar e’lon qilib, asarni rus tiliga tarjima qilib, uning tabdilini va matniga tekstologik izohlar bilan bergan. Nashr muharriri akademik B. Ahmedov ham unga kirish so‘z yozgan va asar, uning muallifi hamda tadqiqotchisiga yuqori baho bergan. Bugungi kunga qadar mazkur nashr manbashunoslikning yorqin namunasi sifatida xizmat qiladi. V.P.Yudin “Chingiznoma” ma’lumotlarini tadqiqot doirasiga tortib, uning Dashti Qipchoq, Oltin O‘rda, umuman Qozog‘iston tarixiga doir barcha ma’lumotlaridan foydalangan. Biroq aytish lozimki, asarning tili, muallifning tarixnavislik usuli va tarixnavislik bilan manbashunoslik yo‘nalishidagi ma’lumotlari tadqiq doirasiga haligacha tortilmagan.

“Chingiznoma”da qimmatli tarixiy ma’lumotlar talaygina. Bulardan Berdibek (758/1357-762/1361) dan keyin Oltin O‘rda hokimligi tepasiga kelgan Shaybon va shayboniylarga tegishlisini misol tariqasida keltirish mumkin (qisman tahrir qilindi - M.E.): “Ejan xon bila Sayin xon mashhur turur. Turali xon qizi zaifasindin tug‘g‘an erdi. Yana o‘n yetti o‘g‘ulkim o‘zga zaifalarindin bo‘lub erdi. Bu Ejan birla Sayin xonlikni bir-birisinga muroat qildilar.

Sayin xon kichik erdi. Og'asi Ejenga aydi: "Otam o'rnig'a ogam sen. Hamon otam turursan. Yot yurtg'a bora turubmiz. Xon bo'lg'il", - tedi. Ejan aydi: "Mening sendin yoshga ulug' ekanim rost. Amma, otamiz seni bisyar suyip erka usturub erdi. Bu choqg'a tagri sening erkalik[in]gni va mahallaringni chekib tururman. Shoyadki xon bulsam burunkitek maxallaringni cheka olmag'ayman. Taqi oramizda urush-advot bo'lg'ay. San -oq xon bo'lg'il. Sening xonliqingg'a man chidarman. Ammo maning xonligimga san chidamassan", - tedi. "Ul tegen ne so'z bo'lur? Yosaqli og'am turganda manga ne oxshar ki xon bo'lg'aymen", - teb og'asig'a ko'p taklif qildi. Qaabul qilmadi ersa, aydi: "Bo'lmasa bir ish qilali. Ulug' bobomiz Chingizxon qoshig'a borali. Man ham so'zimni arz qilayin, siz ham so'zungizni arz qilingiz, Har ne bobomiz yarlig'i bo'lsa oning birla bulali", - tedi ersa, bu so'zni ma'qul ko'rub qabul qildi. Bir onadan tug'gan ikki o'g'ul va o'zga onadin tug'gan o'n yetti o'g'ul barchasi qo'shulub Ulug' xon ko'rinishiga bordilar. Bularki xonning xizmatig'a yettishdilar, xon bularg'a uch o'rga/o'rda soldi. Altun bo'sag'ali oq o'rgani sayin Sayin xonga soldi, bolat bosag'ali bo'z o'rdani Shaybang'a soldi .

Shaybon Botuning Rus yerlari, Qrim, Yevropaga qilgan yurishlarida (1234-1238, 1238-1240 yillari) faol qatnashgan. Bu haqda O'temish Hoji Rashid ad-dinga nisbatan kengroq ma'lumot beradi. Rashid ad-din Shaybonning Bukchek va Bo'ri bilan Qrimga 1238-yili qilgan yurishida uni Tatqar istehkomini olgani haqida yozgan. O'temish Hoji esa Qrimda Shaybonni Qirq er degan mustahkam qal'ani qamal qilganini yozib, uni uzoq muddatda qo'lga kiritganini batafsil bayon qiladi.

"Chingiznoma"da turli sohalardagi tarixiy termin va istilohlar uchraydi. Bulardan davlat boshqaruviga doir unvon va amallar: "podshoh" –sulton, hokim, biy, bek, qo'nalg'a;

Hududiy ma’muriy bo‘linmalar: ulus, el, viloyat, yurt, urda, aymoq, tuman;

Harbiy sohaga tegishli istilohlar: qo‘shun, dorug‘a, nuker, mulozim, undaqchi;

Etnos va etnik sohasiga tegishli terminlar: urug‘/uruq, uyg‘ur, kiyot, qazoq/qazoqlar, o‘zbek/o‘zbeklar, barin, durman, nayman, buyrak, arg‘un;

Ijtimoiy va xo‘jalik hayotga doirlaridan yasoq va xirojni tilga olish mumkin. Manbada keltirilganlardan ba’zilarining tavsifini berish mumkin: Ulus (mo‘gulcha so‘z) - xalq, mamlakat ma’nosida.

El (mo‘g‘ul) - qabila, qabilalar ittifoqi, xalq, davlat, mamlakat, o‘lka, diyor, o‘rda, turli qabilalar zodagonlari ittifoqi. Viloyat (arab) – o‘lka, viloyat, mamlakat.

Yurt (mo‘g‘ul) - hudud, aslida ko‘chmanchilar ko‘chib yuradigan ma’muriy-qabilaviy bo‘linma. Mamlakat ma’nosida ham ishlatiladi.

O‘rda (mo‘g‘ul) - yurta so‘zidan (xon yurtasi, saroy yurtasi va h.) kelib chiqqan termin. Keyinchalik hukmdor, xonning saroyi – o‘rdasi sifatida tan olindi.

Aymoq, omak, obak (mo‘g‘ul) - qabila, qavm, urug‘ va ularning konfederatsiyasi, hududi sifatida talqin qilinadi.

Tuman (mo‘g‘ul) - mulkdorlarning ma’muriy bo‘linmasi, o‘n ming nafardan iborat qo‘shinni berib, uni ta’minlaydigan hudud.

Hokim (arab) - Hukmdor, mahalliy hukmdorlarning unvonlari.

Biy (turkcha) - turkiy qabilalarning peshvolari. Avvalboshda ularda harbiy vakolatlar va mas’uliyatlar bo‘lmagan.

Bek (turkcha) - qabila va urug‘ harbiy dastalarining boshlig‘i.

Qo‘nalg‘a (turkcha) - ma’muriy va harbiy amaldorlarni yil davomida ulov, yotoq, oziq-ovqat va boshqa narsalar bilan ta’minlash majburiyati.

Urugʻ/uruq (moʻgʻul) - oila, avlod, urugʻ. Aymoqdan kichikroq boʻlgan, koʻpincha avlodning bir mashhur oqsoqoli atrofida jipslashgan qon-qarindoshlar.

Uygʻur - Sharqiy Turkiston va Yettisuvda shakllangan turkiy xalq. Manba yaratilishi davrida Dashti Qipchoq dagi eng katta qabila. Shaybonixon bilan Movarounnahrda kelib, keyinchalik Xorazmda oʻrnashib qolganlar.

Qiyot, qiyat – moʻgʻul qabilalaridan. Chingizxon va uning vorislari davrida bu qabilaning noʻyonlari va amirlari katta mavqega ega boʻlganlar. Oʻtemish Hoji maʼlumotiga qaraganda, ulardan Isatoybek Qiyot Joʻjiylarining xos qoʻshiniga qoʻmondonlik qilib, Oltin Oʻrdada hokimiyatni qoʻlga kiritgach, taxtga Oʻzbekxonni oʻtqazgan. Uning vorislari Sharqiy Dashti Qipchoqda baʼzan butunlay hokimiyatni qoʻlga kiritganlar. Isobiy Qiyot Koʻragon Oʻzbekxonning qizi Itkujud-jukaga uylangan edi va kuyov-koʻragon sifatida mamlakatda katta mavqeni qoʻlga kiritgan edi. Uning avlodlari hatto Berdibekxon vafotidan soʻng (1359) Sirdaryoda hokimiyatni oʻz qoʻllariga oldilar.

Qazoq/qozoqlar - (V.P. Yudin talqinida) bu soʻz moʻgʻullar hukmronligi davrida (XIII) paydo boʻlgan. Avvalboshida “qozoq” oʻz davlati, qabilasi, urugʻidan ajralib yurgan kishiga (yoki kishilarga) nisbatan aytilgan. Qazoqlik muayyan erkin turmush tarziga nisbatan ham ishlatilgan, Kirey/girey va Jonibek Dashti Qipchoq dan bir katta oʻzbek guruhlarini olib, qazoq boʻlib Yettisuvga ketgan. Shu guruhga nisbatan qozoq etnonimi ishlatiladigan boʻldi .

“Chingiznoma” asarida Oʻrta Osiyo xalqlari, jumladan, Oʻzbekistan tarixiga oid maʼlumotlarini quyidagi guruhlariga boʻlish mumkin:

1) Shaybon va shayboniylar nasablari, ular o‘rtasidagi oilaviy munosabatidir;

2) O‘troq va ko‘chmanchi aholining davlat va ijtimoiy tuzumlariga doir ma’lumot;

3) O‘rta Osiyoga kelib o‘rnashgan ko‘chmanchi qabila va elatlarning tarixi, ularning yangi konfederasiyalar tuzishdagi o‘rni;

4) Jo‘ji xonadoniga doir, chig‘atoy nasabi va shajarasiga oid materiallar;

5) Shayboniylarning Dashti Qipchoq va Oltin O‘rdaga yurishi va boshqa davlatlar bilan o‘rnatilgan munosabatlari haqidagi ma’lumotlar;

6) Ko‘chmanchilar hokimiyatining sakralizasiya masalalariga doir materiallar;

7) Yaso va yusun, tuzuk, to‘ra huquqining joriy qilinishi;

8) Ko‘manchilar an‘anasiga asoslangan davlat-ma‘muriy apparati va boshqaruvining shakllanishi;

9) mo‘g‘ul qabilalarining turkiy aholi o‘rtasidagi assimilyatsiya masalasiga doir ma’lumot;

10) Chingiziylar hokimiyatining bosib olingan hududlarida legitimasiya masalalariga doir kuzatuvlar;

11) Chingiziylar va shayboniylar davrida joriy qilingan va amalda bo‘lgan unvon va mansablar, ularning darajalari haqidagi ma’lumotlar;

12). Chingiz avlodlari davridagi harbiy tarixiga, askariya va harbiy ishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar.

“Chingiznoma” ma’lumotlari O‘rta asrlardagi Markaziy Osiyo xalqlarining siyosiy, etnosiyosiy va etnomadaniy, xo‘jalik, ijtimoiy va madaniy hayoti muammolarini hal etishda muhim mavqega egadir. Asar Chingizxon va Chingiziylarning XIII-XIV asr tarixini yoritishda, Oltin O‘rda xonlaridan Botuxondan to To‘xtamishning

taxtga kelishiga qadar voqealarni o‘rganishda katta ahamiyatga ega. Ushbu manbani matnshunoslik, tilshunoslik, tarixiy jug‘rofiya, terminologiya jihatlardan o‘rganilishi istiqbolli ilmiy yo‘nalishni tashkil qilishni alohida ta’kidlamoq zarur.

“Ilm sarchashmalari” – 2009. 3 –son. (26-30-betlar).

**“TARIXI O‘TEMISH HOJI IBN MAVLONO
MUHAMMAD DO‘ST SULTON” (CHINGIZNOMA)DA
MO‘G‘UL VA TURKIY SULOLALAR TAVSIFI**

Markaziy Osiyoda Chingiziylar sulolasining legitimasiyasi turli shakl va yo‘nalishlarda amalga oshirilgani ma’lum. Ularning davlat tepasiga kelishlari va uning bardavomligini ushlab turishlari hamda taxtga da’vogarlarning huquqlarini ta’minlab berish uchun turli janrdagi asarlar yozildi. Ularning ichida tarixiy asarlar alohida o‘rin egallaydi. Chingizxonning vorislari ham unga o‘xshab o‘z hokimiyatlarini ilohiy, genealogik, elektoral, kuch, tahdid hamda an’anaviy normalar, huquq va odatlarni saqlash yo‘li bilan legitimligini ta’minlashga harakat qilganlar. Shunday sulolalardan biri Xorazm va Dashti Qipchoqda hokimiyatni qo‘lga kiritib, uni ushlab turishga harakat qilganlaridan biri Shayboniylar bo‘ladi. Shaybon/Shibon, Sibon Jo‘jining o‘g‘li, Botuxonning akasi bo‘ladi. Botuxon Majoriston (Vengriya) yurishidan so‘ng Shaybonga ulus sifatida Koralni berib, urug‘ va qabilalardan qushchi, nayman, qarluq/qarliq va buyraqlarni beradi. Shaybon avlodlaridagi xonlar Chingiziylarning turli uluslarida hukm surgan yoki bu mamlakatlarning siyosiy hayotida faol qatnashganlar.

O‘rta Osiyoda hukm surgan sulolalar, ularning tarixi va davriga atab yozilgan tarixiy asarlar Temur va temuriylar davriga nisbatan ancha kam yetib kelgan. Xorazmlik muallif tomonidan turkiy tilda Xivada yaratilgan Shayboniylar davriga doir ilk asarlardan biri “Chingiznoma”dir.

“Chingiznoma” asarining bugungi kunda yagona nusxasi Uzbekistan FA Aburayhon Beruniy nomidagi SHI № 1552/V raqami ostida saqlanadi. Muallifi O‘temish hoji ibn mavlono Muhammad Do‘st bo‘lib, asarda u otasini “Muhammad Do‘st hazrati xoqon” deb ham tanitgan. U zodagonlar oilasiga mansub kishi bo‘lib, Xorazm xonligining asoschilaridan biri Elbarsxon (1512-1525) xizmatida bo‘lgan. Ajdodlari esa XV asrning 80-yillarida Sirdaryo quyi oqimi ulusi bo‘lgan shayboniylardan Yodgorxon ibn Shayboniyxon xizmatida ekanlar. O‘temish hoji esa Elbars saroyida munshiy yoki kotib vazifasida xizmat qilgani taxmin qilinadi. Asarni u shayboniy Esh Sulton (965/1558-yili o‘ldirilgan) buyurtmasi bilan XVI asrning birinchi yarmida yozilgan.

“Chingiznoma” haqida birlamchi ma’lumotlarni E.F. Kal , V.V. Bartold, A.Z. Validov berganlar. Keyinchalik qozog‘istonlik mashhur olim V.P. Yudin mazkur manba asosida bir nechta maqolalar e’lon qilib, asarni rus tiliga tarjima qilib, uning tabdilini va matniga tekstologik izohlar bilan bergan. Nashr muharriri akademik B. Ahmedov ham unga kirish so‘z yozgan va asar, uning muallifi hamda tadqiqotchisiga yuqori baho bergan. Bugungi kunga qadar mazkur nashr manbashunoslikning yorqin namunasi sifatida xizmat qiladi. V.P.Yudin “Chingiznoma” ma’lumotlarini tadqiqot doirasiga tortib, uning Dashti Qipchoq, Oltin O‘rda, umuman Qozog‘iston tarixiga doir barcha ma’lumotlaridan foydalangan . Biroq aytish lozimki, asarning tili, muallifning tarixnavislik usuli va

tarixnavislik bilan manbashunoslik yoʻnalishidagi maʼlumotlari tadqiq doirasiga haligacha tortilmagan.

“Chingiznoma”da qimmatli tarixiy maʼlumotlar talaygina. Bulardan Berdibek (758/1357-762/1361) dan keyin Oltin Oʻrda hokimligi tepasiga kelgan Shaybon va shayboniylarga tegishlisini misol tariqasida keltirish mumkin (qisman tahrir qilindi - M.E.): “Ejan xon bila Sayin xon mashhur turur. Turali xon qizi zaifasindin tugʻgʻan erdi. Yana oʻn yetti oʻgʻulkim oʻzga zaifalarindin boʻlub erdi. Bu Ejan birla Sayin xonlikni bir-birisinga muroat qildilar. Sayin xon kichik erdi. Ogʻasi Ejenga aydi: “Otam oʻrnigʻa ogam sen. Hamon otam turursan. Yot yurtgʻa bora turubmiz. Xon boʻlgʻil”, - tedi. Ejan aydi: “Mening sendin yoshga ulugʻ ekanim rost. Amma, otamiz seni bisyar suyip erka oʻsturub erdi. Bu choqgʻa tagri sening erkalik[in]gni va mahallaringni chekib tururman. Shoyadki xon bulsam burunkitek mahallaringni cheka olmagʻayman. Taqi oramizda urush-adovat boʻlgʻay. San-oq xon boʻlgʻil. Sening xonliqinggʻa man chidarman. Ammo maning xonligimga san chidamassan”, - tedi. “Ul tegen ne soʻz boʻlur? Yosaqli ogʻam turganda manga ne oxshar ki xon boʻlgʻaymen”, - teb ogʻasigʻa koʻp taklif qildi. Qabul qilmadi ersa, aydi: “Boʻlmasa bir ish qilali. Ulugʻ bobomiz Chingizxon qoshigʻa borali. Man ham soʻzimni arz qilayin, siz ham soʻzungizni arz qilingiz, Har ne bobomiz yarligʻi boʻlsa oning birla bulali”, - tedi ersa, bu soʻzni maʼqul koʻrub qabul qildi. Bir onadan tugʻgʻan ikki oʻgʻul va oʻzga onadin tugʻgʻan oʻn yetti oʻgʻul barchasi qoʻshulub Ulugʻ xon koʻrinishiga bordilar. Bularki xonning xizmatigʻa yettishdilar, xon bulargʻa uch oʻrga/oʻrda soldi. Altun boʻsagʻali oq oʻrgani sayin Sayin xonga soldi, bolat bosagʻali boʻz oʻrdani Shaybangʻa soldi .

Shaybon Botuning Rus yerlari, Qrim, Yevropaga qilgan yurishlarida (1234-1238, 1238-1240 yillari) faol qatnashgan. Bu

haqda O‘temish Hoji Rashid ad-dinga nisbatan kengroq ma’lumot beradi. Rashid ad-din Shaybonning Bukchek va Bo‘ri bilan Qrimga 1238-yili qilgan yurishida uni Tatqar istehkomini olgani haqida yozgan. O‘temish Hoji esa Qrimda Shaybonni Qirq er degan mustahkam qal’ani qamal qilganini yozib, uni uzoq muddatda qo‘lga kiritganini batafsil bayon qiladi.

“Chingiznoma”da turli sohalardagi tarixiy termin va istilohlar uchraydi. Bulardan davlat boshqaruviga doir unvon va amallar: podshoh, sulton, hokim, biy, bek, qo‘nalg‘a;

Hududiy ma’muriy bo‘linmalar: ulus, el, viloyat, yurt, o‘rda, aymoq, tuman;

Harbiy sohaga tegishli istilohlar: qo‘shun, dorug‘a, nuker, mulozim, undaqchi

Etnos va etnik sohasiga tegishli terminlar: urug‘/uruq, uyg‘ur, qiyot, qazoq/qazoqlar, o‘zbek/o‘zbeklar, barin, do‘rman, nayman, buyraq, arg‘un.

Ijtimoiy va xo‘jalik hayotga doirlaridan yasoq va xirojni tilga olish mumkin. Manbada keltirilganlardan ba’zilarining tavsifini berish mumkin: Ulus (mo‘gulcha so‘z) - xalq, mamlakat ma’nosida.

El (mo‘g‘ul) - qabila, qabilalar ittifoqi, xalq, davlat, mamlakat, o‘lka, diyor, o‘rda, turli qabilalar zodagonlari ittifoqi. Viloyat (arab) – o‘lka, viloyat, mamlakat.

Yurt (mo‘g‘ul) - hudud, aslida ko‘chmanchilar ko‘chib yuradigan ma’muriy-qabilaviy bo‘linma. Mamlakat ma’nosida ham ishlatiladi.

O‘rda (mo‘g‘ul) - yurtta so‘zidan (xon yurtasi, saroy yurtasi va h.) kelib chiqqan termin. Keyinchalik hukmdor, xonning saroyi – o‘rdasi sifatida tan olindi.

Aymoq, omak, obak (mo‘g‘ul) - qabila, qavm, urug‘ va ularning konfederatsiyasi, hududi sifatida talqin qilinadi.

Tuman (mo'g'ul) - mulkdorlarning ma'muriy bo'linmasi, o'n ming nafardan iborat qo'shinni berib, uni ta'minlaydigan hudud.

Hokim (arab) - Hukmdor, mahalliy hukmdorlarning unvonlari.

Biy (turkcha) - turkiy qabilalarning peshvolari. Avvalboshda ularda harbiy vakolatlar va mas'uliyatlar bo'lmagan.

Bek (turkcha) - qabila va urug' harbiy dastalarining boshlig'i.

Qo'nalg'a (turkcha) - ma'muriy va harbiy amaldorlarni yil davomida ulov, yotoq, oziq-ovqat va boshqa narsalar bilan ta'minlash majburiyati

Urug'/uruq (mo'g'ul) - oila, avlod, urug'. Aymoqdan kichikroq bo'lgan, ko'pincha avlodning bir mashhur oqsoqoli atrofida jipslashgan qon-qarindoshlar.

Uyg'ur - Sharqiy Turkiston va Yettisuvda shakllangan turkiy xalq. Manba yaratilishi davrida Dashti Qipchoq dagi eng katta qabila. Shaybonixon bilan Movarounnahrda kelib, keyinchalik Xorazmda o'rnashib qolganlar.

Qiyot, qiyat – mo'g'ul qabilalaridan. Chingizxon va uning vorislari davrida bu qabilaning no'yonlari va amirlari katta mavqega ega bo'lganlar. O'temish Hoji ma'lumotiga qaraganda, ulardan Isatoybek Qiyot Jo'jiylarining xos qo'shiniga qo'mondonlik qilib, Oltin O'rdada hokimiyatni qo'lga kiritgach, taxtga Uzbekxonni o'tqazgan. Uning vorislari Sharkiy Dashti Qipchoqda ba'zan butunlay hokimiyatni qo'lga kiritganlar. Isobiy Qiyot Ko'ragon O'zbekxonning qizi Itkujud-jukaga uylangan edi va kuyov-ko'ragon sifatida mamlakatda katta mavqeni qo'lga kiritgan edi. Uning avlodlari hatto Berdibekxon vafotidan so'ng (1359) Sirdaryoda hokimiyatni o'z qo'llariga oldilar .

Qazoq/qozoqlar - (V.P. Yudin talqinida) bu so'z mo'g'ullar hukmronligi davrida (XIII) paydo bo'lgan. Avvalboshida "qozoq" o'z davlati, qabilasi, urug'idan ajralib yurgan kishiga (yoki

kishilarga) nisbatan aytilgan. Qazoqlik muayyan erkin turmush tarziga nisbatan ham ishlatilgan, Kirey/girey va Jonibek Dashti Qipchoq dan bir katta o‘zbek guruhlarini olib, qazoq bo‘lib Yettisuvga ketgan. Shu guruhga nisbatan qozoq etnonimi ishlatiladigan bo‘ldi .

“Chingiznoma” asarida O‘rta Osiyo xalqlari, jumladan, O‘zbekistan tarixiga oid ma’lumotlarini quyidagi guruhlarga bo‘lish mumkin:

1) Shaybon va shayboniylar nasablari, ular o‘rtasidagi oilaviy munosabatidir;

2) o‘troq va ko‘chmanchi aholining davlat va ijtimoiy tuzumlariga doir ma’lumot;

3) O‘rta Osiyoga kelib o‘rnashgan ko‘chmanchi qabila va elatlarning tarixi, ularning yangi konfederasiyalar tuzishdagi o‘rni;

4) Jo‘ji xonadoniga doir, chig‘atoy nasabi va shajarasiga oid materiallar;

5) Shayboniylarning Dashti Qipchoq va Oltin O‘rdaga yurishi va boshqa davlatlar bilan o‘rnatilgan munosabatlari haqidagi ma’lumotlar;

6) Ko‘chmanchilar hokimiyatining sakralizasiya masalalariga doir materiallar;

7) yaso va yusun, tuzuk, to‘ra huquqining joriy qilinishi;

8) ko‘chmanchilar an‘anasiga asoslangan davlat-ma’muriy apparati va boshqaruvining shakllanishi;

9) mo‘g‘ul qabilalarining turkiy aholi o‘rtasidagi assimilyatsiya masalasiga doir ma’lumot;

10) Chingiziylar hokimiyatining bosib olingan hududlarida legitimasiya masalalariga doir kuzatuvlar;

11) Chingiziylar va shayboniylar davrida joriy qilingan va amalda bo'lgan unvon va mansablar, ularning darajalari haqidagi ma'lumotlar;

12) Chingiz avlodlari davridagi harbiy tarixiga, askariya va harbiy ishi to'g'risidagi ma'lumotlar.

“Chingiznoma” ma'lumotlari O'rta asrlardagi Markaziy Osiyo xalqlarining siyosiy, etnosiyosiy va etnomadaniy, xo'jalik, ijtimoiy va madaniy hayoti muammolarini hal etishda muhim mavqega egadir. Asar Chingizxon va Chingiziylarning XIII-XIV asr tarixini yoritishda, Oltin O'rda xonlaridan Botuxondan to To'xtamishning taxtga kelishiga qadar voqealarni o'rganishda katta ahamiyatga ega. Ushbu manbani matnshunoslik, tilshunoslik, tarixiy jug'rofiya, terminologiya jihatlardan o'rganilishi istiqbolli ilmiy yo'nalishni tashkil qilishni alohida ta'kidlamoq zarur.

“Ilm sarchashmalari”. 2009/3 son. (26-30-betlar).

MUHAMMAD AMINXON DAVRIDA XIVA-BUXORO DIPLOMATIK MUNOSABATLARIGA DOIR

XIX asr, jumladan, Muhammad Aminxon (1846-1855 yillar) xonlik qilgan vaqt nisbatan yaqin o‘tmish bo‘lsa ham, bu davrdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat, Xiva xonligining har jahbdagi siyosatini birlamchi manbalar asosida o‘rganish masalasi hali ham o‘z yechimini to‘la topgan emas. Biz quyida masalaning muayyan bir jihati - Muhammad Aminxon davrida Xiva-Buxoro diplomatik munosabatlarga e’tibor qaratmoqchimiz.

Munis va Ogahiy tomonidan yaratilgan Xivaning Rossiya istilosiga qadar bo‘lgan tarixini mukammal aks ettiruvchi asarlar guvohlik berishicha, Markaziy Osiyo xonliklarida o‘zaro munosabat havas qilarli darajada do‘stona va hamjihat emas edi. Mazkur asarlarda ham, Buxoro tarixining o‘sha davrlarini aks ettiruvchi boshqa tarixiy asarlar (jumladan, Ahmad Donishning “Navodir-ul-vaqoe” va “Tarixcha” asarlari)da ham ikki birodar va qo‘shni mamlakatning bir-biriga uyushtirgan yuzlab chapovulu tatovullarining bayonini o‘qiyimiz va ularning pirovard natijasi Rossiya bosqinida ikkala davlatning ham achchiq mag‘lubiyati ekanini his qilamiz. Lekin ikkala davlat o‘rtasida diplomatik munosabatlar muntazam olib borilgani ko‘plab munozarali masalalarning diplomatik yo‘l bilan hal qilishga harakat qilinganidan dalolat beradi. Aks holda vaziyat bo‘lib o‘tganidan ham daxshatli tus olishi tabiiy edi. Muhammad Aminxon o‘zining o‘n yilga yaqin xonlik faoliyatida buni yaxshi anglagan va Buxoro amirligi bilan mumkin qadar diplomatik munosabatlar muntazamligiga intilgan.

Rahimqulixon vafotidan sal oldin Buxoroga Rahmatullo halifa elchi qilib yuborilgan bo‘lib, u xonning vafotidan keyin qaytib keladi. Tarixiy asarlarda xonlarning bir-birlariga elchilar vositasida yo‘llagan xatlarining matnini ham, mazmun-mundarijasini ham keltirish urf bo‘lmagan. Biz Respublika Markaziy Arxividan Buxoro amiri Nasrulloxonning Rahimqulixonga yo‘llagan javobini topishga muvaffaq bo‘ldik. Maktub fors tilida yozilgan bo‘lib (Buxoro amirligida devonxonona fors-tojik tilida ish ko‘rgan), quyida uning tarjimasini keltiramiz:

Muhtaram Raximqulixon!

Oliyoh, yuksak maqomli, amorat va ayolat panohi, izzatu yuksaklik qo‘lida bo‘lgan, hukumat va manzilatdan ogoh, loyiqlik yo‘lboshchi jalolat va ulug‘lik maqomida saromat va peshqadam [Rahimqulixon]ga hayrli so‘zlar adosidin so‘ng zamir xotirlariga ma‘lum bulsunkim, alhamdulillah, ahvollar tinchlik va xurramlik bilan kechmokda. Malollik va ko‘ngilsizliklar yo‘q. So‘ngra yashirin qolmasinkim, kenagas [urug‘i] haddidan oshmoqda edi, shuning uchun ot solib, unga tanbeh berib qo‘ydik. Yakkabog‘ hamda ularning ba‘zi yurtlarini o‘zimizning qahrli tasarrufimizga oldik. O‘zlarining noto‘g‘ri ishlaridan nadomatda va pushaymon bo‘ldilar. Mehribonlik yuzasidan va sahovat yuzidan jarima (tovon)larini avf qilib, poytaxt Buxoroga qaytdik.

Fotihaxonlik uchun yuborilgan fazlu jang peshvolari Mullo Rahmonberdi mudarris va Rahmatullo mahramni xursandlik va hamjihatlik bilan qabul qildik. Fotiha va duo qildilar. Biz ham ko‘p xursand bo‘ldik. Mazkur ikkoviga aytib yuborgan so‘zlarimizni eshitdik va bizdan ham har ne so‘zimiz bo‘lsa, tingladilar. Amorat va fazliyat ahlidan Husaynixon biy va Mullo Sayyid Olimni hamroh qilib yubordik. Tokim, duoi fotiha o‘qib, Siz janoblaringizning

suhbatu salomatliklarini ko‘rib kelgaylar. Assalomu alaykum. Jamodiu-s-soniy oyida yozildi, 1261 .

Maktubda ko‘rsatilgan 1261 –hijriy sana 1846 –yilga muvofiq keladi. Rahimqulixon esa ushbu maktubni olgach sakkiz oy keyin - 1262 –yil safar oyining uchi (shamsiy taqvim bo‘yicha davlning o‘n beshi)da mamlakatning Shimoliy hududi bo‘lgan Akbar qal‘a yonida vafot etadi. Demakki, Rahimqulixon vafotidan keyin qaytib kelgan Rahmatullo xalifa ayni shu elchilarga yana hamrohlik bilan Buxoroga yuborilgan. Chunki, xonlarning barcha siyosiy masalalarni maktubda bayon qilavermaganlarini ushbu rasmiy yozishma ham tasdiqlab turibdi.

Muhammad Aminxonning Buxoroga yo‘llagan birinchi elchisi Ollohberdi So‘fi bo‘lib, u o‘sha davrda urf bo‘lgan rasmiy taomilga ko‘ra, “og‘osi (Rahimqulixon 1843-1846 y.y.) xoni magfirato-sorning vafoti ixbori va o‘zining Xorazmshohlik avrangiga julusi izhori uchun” (Ogahiy⁵⁴) yuboriladi. Muhammad Aminxon yo‘llagan elchilar taxminan ikki oydan keyin qaytib kelishadi. Ogahiy bu haqda yozadi: “rabi’u-s-soniy oyining o‘n uchida yakshanba kuni Gulbonbog‘ qariyasidagi havlisig‘akim, hazrati a’lo hoqoni getiysitoni mag‘furning vafotining fotihaxonlig‘i va hazrati a’lo xoqoni getiysitonning julusi humoyuni muborakbodligi uchun qo‘shub yuborg‘an ikki elchisi kelib, ostonbo‘sliq sharafin topti”⁵⁵. Buxorodan kelgan elchilarga bu safar Bekish xalifa qo‘shib yuboriladi⁵⁶.

⁵⁴ *جامع الوقعات سلطانی* ЎзРФА Шарқшунослик институти. Инв № ЎзРФА Шарқшунослик институти. Инв № 9786. S.30(a).

⁵⁵ *جامع الوقعات سلطانی* ЎзРФА Шарқшунослик институти. Инв № ЎзРФА Шарқшунослик институти. Инв № 9786. С.45 (б), 46 (а).

⁵⁶ *جامع الوقعات سلطانی* ЎзРФА Шарқшунослик институти. Инв № ЎзРФА Шарқшунослик институти. Инв № 9786. 46 (а).

Yuqorida ta'kidlanganidek, Buxoro va Xiva o'rtasida hamisha biror ziddiyatli masala bor edi. Jumladan, bir yildan (1263 - 1847 yil) keyin Buxorodan kelgan elchiga Muhammad Aminxon elchi qo'shmay yuboradi. Buning sababini Ogahiy bayon qilmasa ham, xonning Marv (Mari)ga safari deb izohlash o'rinli. Chunki, Marv Buxoro amirligi va Xiva xonligi o'rtasida keskin ziddiyatlarga sabab bo'lgan hududlardan biri edi. Lekin ko'p o'tmay Buxoro bilan diplomatik munosabatlar bir maromda davom etadi. Jumladan, "Jome' ul voqe'oti sultoniy"da o'qiyimiz: "Mazkur bo'lg'on oy (1264 yilning shavvoli -M.E.) yigirma ikkisida Rahmatulloboy Qorako'z kim, Buxoroga siforat rasmi bila borib erdi, ... amir Nasrulloning qo'shg'on elchisi Subhonquli Mirohur bila kelib, amiri Buxoroning ittixodmandlik mazmuni bila topshurg'on muhabbatnomasin, yiborgan tuhfalari bila kelturub, suddai xalofat mulozimlarining nazari akvari peshgog'idin o'tkardilar". Ushbu maktub ham Xiva xonlari arxivida saqlangan bo'lib unda, jumladan, shunday deyiladi: "... so'ngra yashirin qolmasinkim, sadoqatli Rahmatullo mahramdan yuborgan maktubingiz yetib keldi. Uning mazmun-mundarijasini anglab tingladik. Mazkur mahramga ruxsat berar ekanmiz, aqida va jang ahlidan Bek miroxurni mahram qilib yubordik. Boshqa neki so'z bo'lsa, shul ikkoviga ta'yin qilib yubordik, borib aytgaylar. So'zlarimiz ayni sidqdur. Yana assalomu alaykum. 1264". Asarda yozilishicha, xuddi shu vaqtda Muhammad Aminxon Shukrullo Og'o va Qilichjonboyni o'z elchilari sifatida Rossiyaga ham jo'natadi. (Shu betda.) Ogahiy keltirgan ma'lumotlarga ko'ra keyinchalik Muhammad Aminxon Buxoroga 1264 -yilda Ollohberdi So'fini, keyinchalik Yaqubboy Xonaqohiy kabi elchilarini jo'natadi.

Ko'rinadiki, Buxoro va Xiva o'rtasida diplomatik munosabatlarni olib borishda xonning amri bilan Rahmatullo

Qaroko‘z, Oллоhberdi So‘fi, Bekish halifalar faol ishtirok etishgan. Biz yuqorida Muhammad Aminxon davrida Buxoro bilan olib borilgan diplomatik munosabatlar masalasigagina to‘xtaldik. Ikkala davlatning bu davrdagi xaqqoniy munosabatlarini ikki mamlakatning o‘sha davr voqealari bayon qilingan tarixiy asarlarni qiyoslash, qolaversa, arxiv materillarini sinchiklab o‘rganish asnosida ko‘rsatish imkoni bor.

“Ilm sarchashmalari”. 2008, 2-son.(34-36-betlar)

OLLOQULIXONNING ROSSIYA BILAN DIPLOMATIK MUNOSABATLARI

Olloqulixon faoliyatiga doir Xiva xonligi solnomalari ham, Rossiya diplomatik missiyasi qaydlari ham uning Rossiya bilan munosabatlarni teng huquqlilik asosida amalga oshirishga harakat qilgani, lekin xonlik – har jihatdan (harbiy-texnik, hamkorlik va h.k.) bunday salohiyatga ega bo‘lmagani bois, mamlakat zimmasiga og‘ir shartlarni olmaslikka va diplomatik vositalardan, mumkin qadar, foydalanishga harakat qilganini ayni paytda, Rossiya tomonidan katta xavfni oqilona sezgan shunday qaltis vaziyatda Buxoroga qarshi harbiy harakati o‘zbek xonliklari o‘rtasida o‘zaro noahillikning yorqin bir namunasi, shu yili Buxoro amirligining Qo‘qon xonligiga hujumi natijasida tug‘ilgan hadik samarasi edi.

S.V. Jukovskiy , N.A.Xalfin tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, 1836 ---yilda Orenburg garnizoni boshlig‘i general-ad’yutant Perovskiy tomonidan Rossiya hukumati Olloqulixon oldiga xonlikda asirlikda bo‘lgan Rossiya fuqarolarini ozod qilish, Rus savdogarlariga sharoit yaratib berish, qirg‘iz qaysaqlarning ichki

ishlariga aralashmaslik kabi qat'iy talablarni qo'yadi. Ushbu muhim tarixiy voqea tafsiloti Ogahiyning "Riyoz ud-davla" asarida o'z aksini topgan. Jumladan, "Riyoz ud-davla"ning "Xorazm mamolikidagi o'ruslarning bandalik qaydidin qutilmog'i va O'rus diyorida tujjorning tutsoqdin chiqib shodkom bo'lmogi" bobida quyidagicha yozilgan: Chun Rusiya xalqi Xorazm karvoninkim taxminan ming kishi bor erdi, tutsoq qildilar, tokim Xorazm mamlakatidagi o'ruslar bilan muboe'a va ma'voza qilg'oylar. Bu maqsad bila karvon ahlin mutlaqilinson qilmay, ko'p muxlat muhosara qilib saqladilar. Oqibat hazrati shahanshoi jannatjoygoh karami zotiy va muruvvati jibilliy muqtazosi bila ravo ko'rmadiykim, muncha musulmon amvoli bepoyon va oxshomi bekaron bila kofir xayliga dastgiru zor va asir bo'lub, baliyat qaydida qolgay. Lojaram Xorazm diyorida'gi o'z ixtiyori bila ketmakka tolib bo'lg'on o'ruslarni jam etib, fazoyilmaob, kamolot intisob, fakohatnishon, Otajon oxundni elchilikka ta'yin etdi va Muhammadsharif no'g'oyni qayddin chiqarib, shohona sarupoylar kiydurub, Otajon oxundg'a qo'shub va o'ruslarni dog'i topshurub mazkur yil, jumodussoniy oyining to'rtida dushanba kuni ruxsat berdi va Inglisdin elchi bo'lub kelgan shaxs bir sohibkim, O'rus yurtig'a borurg'a mayl ko'rguzub, ijozat tilab erdi, ani ham hamul elchilarga hamroh qilib yibordi. Qorli yuzboshini dog'i alarg'a qo'shti, tokim Tengizg'a borguncha o'ruslar ahvolidin xabardor bo'lub, uchonga kirguzub qaytgay. Chun ma'murlar farmoni vojibul-iz'on mujibi bila ko'p muddat qat'i masofat qilib, Tengiz (Orol dengizi) kanorig'a etushdilar. Qorli yuzboshi o'ruslarni va elchilarni o'z nazarida uchonga solib qaytdi va elchilar tengizdin' o'tub, necha kunlar qat'i manozil qilib, O'rus usarolari bila o'rus viloyatig'a doxil bo'ldilar. Darhol O'rus podshohining arkoni davlati podshohdin javob olib, karvon ahliga ruxsat berib, barcha

amvol va ashyolari bila Xorazmi erambazm sori uzatdilar. Elchilarni podshoh xizmatiga eltmaq uchun elchixonai dilkushog‘a tushurub, e‘zoz va ikrom ko‘rguzdilar. Karvon xalqikim, O‘rus yurtidin chiqtilar, qayddin qutulgan qush masallik janohi iste’jol bila biyoboni bepoyon va marohili farovonni qat’ qilib, ramazoni muborak oyining yigirmasida, shanba kuni Xivaq shahriga doxil va ahli avlodining muloqot muonakasig‘a vosil bo‘ldilar “.

Oloqulixon Rossiya tomonidan qo‘yilgan talablarni bajarmagan bo‘lishiga qaramay, mamlakatning iqtisodiy ahvolini ko‘zda tutib, Rossiya bilan munosabatlarni bir maromga solish maqsadida 1837-yilda xonlik tasarrufida bo‘lgan 25 nafar rus asirini ozod qiladi va hadyalar bilan vataniga jo‘natadi. Xiva xonligida ishlab chiqariladigan mahsulotlarning qo‘shni mamlakatlar-Buxoro, Qo‘qon, Eronda ham mavjudligi, bu mahsulotlarning aksariyati ularning o‘zida ishlab chiqarilishi Xiva xonining Rossiya bilan munosabatlarini yaxshilashini taqozo qilardi.

Tarixiy asarlardagi bu boradagi ma’lumotlarning ahamiyati shundaki, O‘rta Osiyo xonliklarida bunday vaziyat yuzaga kelishiga sabablardan ayrimlarini ular vositasida aniqlaymiz. Jumladan, Ogahiy Rossiya bilan munosabatlar bu tarzda murakkab tus olishining sabablaridan biri sifatida xonliklar o‘rtasida o‘zaro noahilliklar ekanini ham ko‘zdan qochirmaydi. Misol tariqasida Rossiya tomonidan Xorazm savdo karvonining tutib qolinishi, ikkala mamlakat o‘rtasida munosabatlarning yomonlashuviga, ma’lum darajada, Buxoro amiri Nasrulloxonning xatti-harakatlari bois bo‘lganini yozadi. Ogahiy Prokofiy Nikiforov boshchiligidagi elchilarning Xivaga kelishini quyidagicha yoritadi: “Ma’lum bo‘lsunkim, fazoyilmaob, donish intisob Otajon oxundkim, O‘rus viloyatiga elchilikka ketib erdi, bu yil rajab oyining uchida shanba kuni O‘rus poytaxti Fetirburx podshohi impirotur binni Nikuloy

Povluyichning elchisi Prikufiy Andriich binni Nikikirusining hamrohlig'i bila kelib, oston sharafga musharraf bo'ldilar va O'rus podshohining do'stlig' va yakjihatlik bobida yiborgan ahdomasin va tansuqot va peshkashlarin nazari anvor peshgohidin o'tkarib, altofi podshohona va a'tofi xisravona bila bahramand bo'ldilar “.

Ogahiyda Olloqulixon va P.Nikiforov muzokarasining tafsiloti mmagai. N.A.Xalfin Rossiyaning O'rta Osiyo xonliklarini bosib olish tarixi yoritilgan manbalarga asoslanib yozishicha, Olloqulixon P.Nikiforovni 1841-yil 11 va13-avgustlarda qabul qiladi. Bu muzokaralar davomida xonni qiziqtirgan masalalar, asosan, Rus-Xitoy va Angliya-Afg'oniston munosabatlari haqida bo'ladi. Muzokaralar natijasida xon takliflarini tamoman rad ham qilmaydi, qabul qilish haqida ham bir to'xtamini bayon qilmaydi. Rossiya va Xiva xonliklari o'rtasida vositachi vazifasini bajarishi mo'ljallangan Rossiya armiyasining poruchigi islom diniga e'tiqod qiluvchi Aitov (Xayitov)ning Xiva xonligida muqim qolish taklifiga xonning ma'lum bir javob bermasligi Rossiya takliflarini ma'qullamasligidan dalolat berar edi. Olloqulixon sentabr kuni ov va inisi Rahimqulixonni ko'rish uchun u hokimlik qilayotgan Hazoraspga ketadi. U bu safarga rus elchisini ham taklif qiladi. Pekin elchi kasalligi bois bu safarda ishtirok etmaydi. Bu safardan bir oydan keyin qaytib kelgan xon ikki kundan keyin rus elchisi bilan yana muzokara olib boradi va elchilarga 1841-yil yil 26-oktabr kuni javob beriladi. Olloqulixon P.Nikiforovga o'zining elchilari sifatida Vaysniyozboy va Eshboy (rus manbalarda Vaisbay Niyazov, Ishbay Babaev)ni hamroh qilib yuboradi. Kapitan Prokofiy Nikiforov missiyasi Rossiyaning O'rta Osiyo xonliklarini istilo qilish rejasining tarkibiy qismi sanaladi. N.A.Xalfin bu voqeani 1912-yilda nashr qilingan “Rossiyaning Turkiston o'lkasini bosib olishi tarixi uchun materiallar majmuasi”da qayd etilganini yozadi.

P.Nikiforov Rossiya poytaxtiga yetib bormaydi, 1842-yil 13-yanvarda vafot etadi. Uning ishini polkovnik G.A.Danilevskiy davom ettiradi. 1842-yilning marti oxirlarida Peterburgga yetib kelgan Xiva elchilari 5-aprel kuni qabul qilinadi. Xonning rasmiy maktubida Rossiya tomonidan qilingan takliflarning ayrimlariga to‘la javob olmagan bo‘lsa Rossiya tomonidan G.A.Danilevskiy boshchiligida yangi elchilar yuboriladi. 1842-yil 1-avgustda yo‘lga tushgan G.A.Danilevskiy 17-sentabr kuni Toshhovuzga yetib keladi. 1842 yilning oktabri. oxirida Buxoro amirligi bilan bo‘lgan jangdan qaytgan Olloqulixon G.A.Danilevskiy bilan muzokara boshlaydi. Lekin bu orada xon og‘ir hastalanadi va 23-noyabr kuni vafot etadi. Xullas, Olloqulixon tomonidan diplomatik vositalar bilan rad qilinib kelayotgan ahdnomaga 1842-yil 27-dekabr kuni Rahimqulixon tomonidan imzo chekiladi.

Rezyume

Maqolada Ollaqulixonning Rossiya bn diplomatic munosabatlari tadqiq qilinadi.

Резюме

В статье рассматриваются дипломатические отношения Аллакулихана с Россией.

Resume

The article examines the diplomatic relations of Allaqulikhan with Russia.

“Ilm sarchashmalari”-2009, 6-son. (15-18-betlar).

HISTORY OF KHOREZM STATEHOOD IN ANTIQUE SOURCES

ABSTRACT:

This article reveals the issue of coverage of the history of Khorezm statehood in ancient sources and the issue of new views and approaches to this problem. The issue of the emergence of the first statehood in the Khorezm region was not sufficiently reflected in ancient sources. Because the data in them are taken from a third source, during the comparative analysis with the results of archaeological research, they do not correspond to each other.

In the works of Greek historians, the reports about the people called "Khorasmians" should be studied in two periods or stages (this feature is not sufficiently analyzed in the historical literature). The first period mil. aw. It belongs to the end of the VI century - the middle of the V century and is connected with the data of Skilak, Hecate and Herodotus. The second period belongs to the period of creation of the works of the last Greco-Roman historians (1st century BC -2nd century AD). The content of these works, the description of historical events often repeats the information of Hecate, Herodotus, Ctesias, and is based on the reports of the authors of the time of Alexander the Great.

The data of Skilak, Hecate, and Herodotus reflect the characteristics of the territorial boundaries formed in Central Asia during the reigns of the ancient Persian kings Cyrus II and Darius I. According to written sources, the Khorasmians lived in a valley "surrounded on all sides by mountains," the Khorasmians, the Girkans, the Parthians, the Sarans, and the Tamaneys.

By the time of Alexander the Great's march, the boundaries of the territorial distribution of the population in Central Asia would change considerably. In the works of Strabo, Curtius Rufus, and Arrian, the Khorasmians are described as a people living in the Lower Amudarya region. **KEYWORDS:**Sources of Antiquity, Messages of Herodotus, Skylak, Hecatee, Achaemenids, Massagets, Saks, Lefantina, Greek-Roman Historians.

INTRODUCTION:

According to archaeological research, BC By the VII-VI centuries in the territory of the Southern Aral Sea various ethnic groups -nomadic, semi-settled, settled tribes. They are mentioned in ancient Persian texts and in the writings of Greek historians.

M BC From 549 to 548, the ancient Persians, led by King Cyrus II, conquered Parthia and Girkany. According to the Greek

historian Herodotus, the plans of Cyrus H's occupation were “Babylon, the Bactrian people, the Saxons, and the Egyptians. Cyrus was about to attack these nations. M BC Between 545 and 540, Cyrus II invaded Margiana, Bactria, and Soghd.

M BC Between 519 and 512, the Greek Skilak (from Kariandi in Asia Minor) commissioned King Darius I, sailing across the Indian River and reaching Egypt through the Arabian and Red Seas.

The story of Silk's journey is described in Herodotus' History Book (455-445 BCE): “Most of Asia was known to Darius. The king intended to find out the location of the Indian River into the sea (since it is the only river with crocodiles besides the Nile).

For this purpose, Darius sent a number of his faithful men. Among them was Skilac of Caravan. They started sailing across the river from Kaspatira in Paktia.”

According to Hecatei, Skilak crosses the Mediterranean through the Caspian Gate and into the land of Khorezmians (Khorezm). The description of this path is repeated “in the lands of the Parthians and the Khorezmians, to the Bactrian”, even in the Greek historian Arrian (90/95-175 BC) in his work “Anabolic Alexander.”

According to Skilak, Hecatee wrote that the Khorezmians settled between Parthia and Bactria, east of the first province, and the west, and said that the Khorezmians lived east of the feathers. Hecatee reports on the place and nature of the Khorezmian people. This issue and the problems of historiography are covered in detail in Ivankov's article.

According to the available information, the Khorezmian plains and mountains “grow wild trees, thorns, thistles, thorns.” The flora of the Khorezmian lands appears to have been precipitated by the forests and forests in the river oasis.

Completing the stories of Hecattius, Herodotus writes about the Khorezmian economy: “In the winter, God gives them rain, like other people, and in the summer they plant watermelons and sesame seeds”, and use the Akes river. Herodotus illuminates the Khorezmian people as the people of the valley.

Based on these data, in the early twentieth century, the scientific question of the early territorial dispersal (ie the first homeland) of the Khorezmites was put forward and subsequently became controversial.

Herodotus refers to the Khorezmians two more times in his work, one of which relates to the description of Darius I's satraps. “The Parthians, the Khorezmites, the Sogdians and the Aryans paid 300 talents. This is the sixteenth

country. In the second place, historian King Xerxes describes the Khorezms as warriors in the army: “The Parthians, the Khorezms, the Sogdians, the Gandarians, and the Dadikans began their military campaign with the weapons of Bactrianism. Their leaders are: Artaboz son of Farnak; The Sadducees were Azan son of Artei.

The Achaemenids epitomize the Khorezm province as a province of Persia. Ancient Persian texts were widely studied by scholars and served as a basis for the study of various historical issues. In the inscription on the statue of Darius I found in Suza in 1972, the king's proclamation reads: blue-turquoise used on earth - from Khorezm.

In the ancient city of Persepol, engraved carvings on the palace walls of King Darius I and Xerxes present scenes of tribal tribes of different peoples representing the Achaean rulers. The

seventeenth group is the Khorezmian people, who are described as carrying daggers, war boots, bracelets and horses.

The nomadic tribes inhabited the Iberian and Upper Uzboy regions. They are called massagets and saks in written sources. The meaning of the ethnonym “Massagets” is not clear. Translations of this word in the literature

- “fishermen,” “great guards,” “great goats” - are not based on sound evidence.

In Herodotus's work, massagets are widely described in comparison with other ancient tribes and tribes of Central Asia.

Written data on massagets have been specially analyzed by IV Pyankov.

The following aspects of the history of massagets are important in Herodotus' History:

- General characteristics of massagets;
- Description of the Araks River, its islands and the people inhabiting them;
- Characteristics of the population living in the area of the Araks River, its network and mud;
- Image of the Caspian Sea;
- The plane on which the massagets reside, their description of their lifestyle, clothes, weapons and food;
- Information on Massagets' funeral customs and beliefs.

It is evident that Herodotus sought to illuminate the material culture, lifestyle and traditions of the massagets. Greek geographer and historian Strabon (64 CE - 24 CE) used Herodotus' data to supplement them with further evidence.

Herodotus begins his story: “These massagets are said to be brave and innumerable. They are located in the east, in the direction

of the sunrise, opposite the Hedges, on the other side of the Araks. Some thought they were Scythians.”

Strabon's stories are somewhat different: “People living on islands that have no arable land eat roots, eat wild fruits, and drink juice squeezed out of them.”

According to Herodotus, the massagets lived in the vast plains in the direction of the sunrise east of the Caspian Sea. Strabon describes the geographical location of the massagets as follows: “Some of the inhabitants of the Caspian Sea are referred to as Sakak and others as massagets.” Herodotus's basic information on the history of the Massagets is devoted to the description of Cyrus' campaign against the Massagets, the political relations between Cyrus II and Tumaris, the nomadic and ancient Persian battle led by Tumaris.

There is a variety of information in the works of Greek historians and ancient Persian writings on the nomadic cattle, tribes and steppes of Central Asia, including the Lower Syrdarya and Lower Amudarya steppes. These include the Dara I king of Persia against the Saka-Tigrahaha tribes, the Saxons' subordination to the Persian state and the payment of a special tribute, the participation of nomadic warriors in the Aramaic army, their armor and some other information.

MBC In the fifth century, the ancient Persian kings founded military fortifications in the Achaemenid state. Saks and Khorezmans served there with representatives of various nationalities. The following sources are also mentioned in Khorezm.

- In two Aramaic documents found in archaeological excavations in Sacchar, Egypt. They are involved in the operation of a shipbuilding workshop based in Memphis;

- In the Aramaic papyrus found in Elephantine (Egypt) (mentioned Dargoman son of Harshin of Khorezm);
- Mil BC In the four Babylonian documents of 505;
- Inscriptions in the Persian, Akkadian and Elam languages in the Persian monastery in Persepol (mid-4th century BC).

BC in Elephantine BC The papyrus document, dated 464, contains the following information: “Darshoman, son of Harshin of Khorezm, said this to Maxsey, a Jew from the army of Artaban, in the castle of Elephantina, in Variyzata.” According to written sources, the Khorezmian Artakt has been appointed head of the city of Sest, Asia Minor, on the Strait of Dardanella.

The next record of Khorezmians dates back to the Alexander of Macedonia. Alexander's contemporaries and participants in the Greek-Macedonian marches wrote political and cultural events that they had seen in Ptolemy Lag, Clitarh, and Aristobul in the East. These daily works have not been reached before, but various parts of them have been used by Greek-Roman historians (Diodorus, Strabon, Pompeii Trog, Quint Curtius Ruf, Arrian).

Khorezmian historians in the writings of Macedonian historians referring to the Khorezmian people as follows: Curtius Ruth notes that Bactrian satrap Bess opposed Alexander, referring to Klitich; Strabon, using Aristobulus data, sheds light on the Khorezmites as a component of the massagets; In Arrian's story the story of the arrival of Alexander of Persia to King Alexander of the Khorezm is based on the reports of Aristobul.

According to the literature available, the information about the Khorezmites can be extended by the Greek historian Ktesy.

In the Persia's work of Ktesi, the Khorezmian people are mentioned, and their territory is said to be “between the Parthians

and the Bactrians.” It is well known that this approach was first applied to Horezmians in Hecatey's work.

Ktesiy writes that the Khorami were conquered by the Persian king Cyrus and freed them from paying tribute such as Bactrians, Parthians, and Karmanians.

Analyzed written sources refer to the ancient times of Khorezm history and provide an opportunity to study important events. Although existing data have been reviewed by researchers of different generations, the possibilities for using them as sources and exploring new issues are not limited. Comparative analysis and comparative analysis of the results of recent discoveries in written sources and archaeological data are of particular importance.

REFERENCE:

1) Dandamaev M.A. *Politicheskaya istoriya Axemenidskoy derjavy*. - M.: Nauka, 1985. -C. 19.

2) Herodotus. *History*. V devyati knigax / Translation in primech. CA.Stratanovskogo -L.: Nauka, 1972. - Kn. 1,131.

3) Dandamaev M.A. *Politicheskaya istoriya...* S. 28.

4) Pyankov I.V. *Khorezm in antichnoy pismennoy traditsii // Khorezm and Muhammad al-Khorezmi*. - Dushanbe: Donish, 1983. - p. 38 Herodotus. I, 44.

5) Pyankov I.V. *Xorezm in antichnoy pismennoy traditsii...* C. 38.

6) Pyankov I.V. *Khorasmii Gekateya Miletskogo*

// VDI. - M., 1972. № 2. - p. 3-21. Herodotus.

III. 117

**(NOVATEUR PUBLICATION'S, Journal N X, A.Multidisciplinary Peer Reviewed journal, Volume 6, Issue 7, July 2020, ISSN:2581-4230, JIF: 5.765)
(PAGE NO 30-33)**

MUNIS VA OGAHIYNING “FIRDAVS UL-IQBOL” ASARI

Ma’lumki mo‘g‘ullar davridan boshlab Xorazmda adabiy turk tili shakllana boshladi. O‘zbeklar hukmronligi davrida esa O‘rta Osiyo davlatlaridan faqat Xorazmda barcha davlat ishlari va adabiy jarayon turk-o‘zbek tilida olib borilgan. Bunga Xorazm tarixnavisligi yoki solnomanavisligi yaqqol misol bo‘laoladi. Xorazm davlatida barcha tarixiy asarlar turk tilida olib borilgan bir vaqtda Buxoroda barcha ijod namunalari fors-tojik tilida edi. Quqon xonligida ham asosiy manbalar fors-tojik tilida ba’zi asarlar esa turk-o‘zbek tilida yaratilgani ma’lum.

Xorazmda chig‘atoy-turk tilida yaratilgan birinchi tarixiy asarlardan bu O‘temish hojining “Chingiznoma-tarixi Do‘st Sulton” ekanini yuqorida ta’kidlagan edik. Lekin uning nusxalari Xorazmda tarqalmaganidan, uning mavjudligidan hatto Abulg‘oziy xabarsiz bo‘lgan. Aniqrog‘i bu asar Xorazmda uncha ma’lum bo‘lmagani aniq faktdir. Undan yana bir nusxasi Zakiy Validiy Tuton kutubxonasida bo‘lganini Yu. Bretel ta’kidlab o‘tgan.

Xorazm tarixnavislik maktabiga Abulg‘oziy Bahodirxon o‘zining “Shajara”lari bilan asos solgani ham ilmda asoslangan. Munis Sherg‘ozi xon davrida (1126-1140/1714-1727) Mavlono Sayyid Muhammad oxund tamonidan yozilgan “Gulshani iqbol” (Iqbol/baxt gulshani) asarini tilga oladi va bu asar buxoroliklarning qo‘liga tushib, ularning hasadlari natijasi o‘laroq, yoqolib ketgan deydi. Bu asar ham chig‘atoy tilida yozilganini Yu. Bregel taxmin qiladi.

XVIII asr davomida Xorazm zaminida markaziy hokimiyat zaifligidan, o‘zbek urug‘ va qabilalarining o‘zaro nizolari,

o‘zbeklarning turkmanlar bilan urushlari mamlakatni anarxiya holatiga olib kelgan edi. Bu vaziyat esa mahalliy tarixni yoritish uchun imkon bermagani aniq.

XVIII asrning oxirlariga kelib vaziyat ancha o‘zgaradi. Qo‘ng‘irot sulolasidan chiqqan inoqlar va xonlar (XIX asrning boshlaridan) hamda o‘zbeklarning gegemon qabilalarining biy va beklari asta-sekinlik bilan o‘troqlashuv jarayoniga tortildilar. Ular o‘zlarining oldingi ajdodlaridan farqli ravishda tarixga alohida ahamiyat beradigan bo‘ldilar. Ular qo‘lga kiritilgan mavqe va maqomlarini endi legitimatsiyalash (qonuniylashtirish) vositalarini qidirib, uning eng qulayi tarixnavislik ekanini tushundilar. Bu esa Xorazmdagi madaniy hayotning jonlanishi, yangi kuch va manfaatlarning keng hududlarda ildiz otib, uni mustahkamlashidan darak berardi.

XIX asrda ham Xorazmda chig‘atoy tilida ijod qilayotgan shoir va mutafakkirlar ko‘pchilikni tashkil qilgan. Qo‘ng‘irot sulolasining rasmiy tarixchilaridan biri Munis edi. Uning to‘liq ismi Shermuhammad mirob ibn amir Ivazbiy ibn Eshimbiy Mirob ibn Hasanquli atoliq ibn Oraz Muhammad bakavul ibn Davlatbiy ibn Keray biy ibn Muhammadjon so‘fi biy yuz bo‘lib, o‘z so‘zlariga qaraganda “it yilidan keyin kelgan qo‘y yilida, navro‘z kuni, payshanba tongida” olamga kelgan ekan. Munis asarida keltirilgan barcha ma‘lumotlar shuni ko‘rsatadiki, u 19 safar (payshanba kuni shu kunga to‘g‘ri keladi) 1192/19 mart 1778 -yili Xivadagi Qiyot qishlog‘ida tug‘ilgan. Munis o‘zbeklarning yuz qabilasiga mansub ekani uning shajarasidan ma‘lum. Uning ajdodlaridan biri Jiyan biy Anushaxon davrida (1074-1098/1663-1687) miroblik amali yoki mansabiga loyiq bo‘lgan. Keyinchilik uning avlodlari ham shu unvonga sazovor bo‘lgani ma‘lum. Hatto Munisning akasi Muhammad Niyoz ham otasi Ivaz Mirobdan so‘ng 1221/1800 -yili

miroblik unvoniga ko‘tarilgan”. Munis asarida biz uning boshqa ajdodlari qatorida onasi tarafidan bo‘lgan qarindoshlarini ham tilga olganini bilishimiz mumkin. Uning onasi naymanlardan bo‘lib, Xo‘jaylida yashagan ekan.

Munis o‘z ustozlaridan Sayyid Eshonxo‘ja (u Xivada Munis bilan qo‘shni ham bo‘lgan) va Sayyid Muzaffarxo‘ja mutavalliyni tilga oladi. Bundan Munisning yaxshi ta‘lim olib, fors va arab tillarini o‘rgangani, she‘r va tarixnavislikka layoqatli bo‘lib tarbiya olganini bilish mumkin. Munisning birinchi she‘ri, ya‘ni “Firdavs ul-iqbol”ga kiritilgan masnaviysini 1216/1802 -yili Avaz inoq davrida yozgan. Munisning birinchi devoni esa 1219/1804 -yili “Munis al-ushshoq” nomi bilan tuzilgani ma‘lum. Munis juda vaqtli saroy xizmatiga jalb qilinadi va u avval xonzoda Muhammadrahimbek xizmatida bo‘lgan. Otasiga o‘xshab mirob sifatida u xon va xonzodaning harbiy yurishlari va ovlarida hamrohlik qilgan. Biroq saroy xizmati va valiahdga yaqinligi uning va oilasining moddiy ahvolini yaxshilashga olib kelmagan.

Yuqori tabaqalarga yaqin bo‘lishiga qaramasdan bu ijodkor ancha moddiy aziyat ham chekkani ham ma‘lum bo‘ladi. U uylanishi vaqtida boy do‘stlaridan besh-o‘n tanga qarz olmoqchi bo‘ladi. Lekin ular Munisga bir qora pul ham berishmadi. Oxir u Muhammadrahimbekdan 100 ashrafiy qarz oladi. Munis bu qarzdan tezroq qutulishini Xudodan so‘rab murojaat qilganini asaridi keltiradi. Munis “Firdavs ul-iqbol” asarini Eltuzarxon buyrug‘i asosida yozar ekan, o‘z navbatida Muhammadrahimga ham nadim bo‘lib undan ham moddiy yordam va haq olib turgan, shu bilan oilasini boqib umrguzaronlik qilgan.

16-jumada al-avval 1221/31 iyul 1806 -yili Munis akasi Muhammadniyoz mirob haloqatidan so‘ng (u xon Eltuzar bilan birga suvda cho‘kkan edi) miroblik mansabiga ko‘tarildi. Bu

mansabga uni 20 rabi us-soniy 1221/6 iyul 1806-yili taxtga ko'tarilgan yangi xon Muhammadrahim tainlangan. Munis vafotigacha shu mansabda bo'lib, qolgan 32 o'zbek qabillalaridan tainlangan amaldor bilan xon huzurida bo'lgan. Aslida mirob - suv va sug'orish tizimini nazorat etuvchi amaldor sifatida faoliyat ko'rsatishi lozim edi. Biroq Munis ma'lumotlariga qaraganda, Xorazmda mirob ko'pincha xon yurishlari va ovlarida doim uni hamrohlik qilib yurgan ahli uzangilardan biriga aylangani ma'lum.

Munis o'z zamonasida juda ham iste'dodli shaxslardan edi. Buni uning-atrofidagilari ham tan olgan. 1220/1805 -yili o'rtalarida Eltuzar unga o'z sulolasi tarixini yozishni buyuradi. Munis o'zining tarixiy asarini "Firdavs ul-iqbol" (Baxt jannati) deb nomladi. Eltuzar vafotidan so'ng u yozishni to'xtatadi va Muhammadrahimxon I buyrug'i bilan uni yana davom etadi. Keyingi tanaffus 1234/1819 yili o'rtalarida boshlandi. Muhammadrahim I Munisdan turk tiliga Mirxondining "Ravzat us-safo" asarining tarjimasini buyuradi. Munis mazkur asarning birinchi daftarini, ikkinchi daftarining bir qismini Badr urushigacha tarjima qilishga ulgurdi. 1240/1825 Muhammadrahim I vafot etadi. Yangi xon Oллоhquli ham unga tarjimani tugatishini buyuradi. Munis tarjimonlikka shunday berilib ketadiki, "Firdavs ul-iqbol" asarini davom ettirishga ulgurmadi (asardagi voqealar 21 safar 1227/5 mart 1812 yilgacha berilgandi xolos).

Hijriy 1244 yilining oxirlari/1829 -yili iyunida Munis xolera epidemiyasi natijasida vafot etadi. U Oллоhquli qo'shini bilan Xuroson yurushida qatnashib undan qaytayotganda Lutfobod shahri yaqinida shu kasallikka chalindi va yo'lda halok bo'ldi. "Firdavs ul-iqbol" va "Ravzat us-safo" asarining tarjimasi notamom qoladi. Munis ishlarini uning shogirdi va jiyani (ukasining o'g'li) Ogahiy - Muhammadrizo ibn Erniyoz bek davom etadi. Ogahiy shanba kuni

10 zu-l-qa’da 1224/ 16 dekabr 1809 -yili olamga kelgandi. Bu haqda Munisning o‘zi Xo‘jaylida xasta bo‘lib yotganida jiyani Muhammadrizo tug‘ilganini xabar bergan. Ogahiyning ijodi va faoliyati haqida quyiroqda ma’lumot beriladi.

Ogahiy “Firdavs ul-iqbol” asarini 1255/1839-40 yili yozib tugatadi.

“Firdavs ul-iqbol” asarining muqaddimasida Munis Eltuzarni otasidan so‘ng 1218 -yili 26 zu-l-qa’da oyi/1804 -yili martida inoq bo‘lgani va tez orada 23 sha‘bon 1219 (26 noyabr 1804) qo‘g‘irchoq Chingiziy xonni taxtdan tushirib, o‘zi xon masnabiga o‘tirganini yozadi . Eltuzar 17 -rabbi us-soniy 1221/3 iyul 1806 -yilgacha xonlik qilgan. Munis, fikrimizcha, Eltuzar rasman taxtga o‘tirganidan so‘ng tarixiy asar yozish buyrug‘ini Eltuzardan olgan bo‘lishi mumkin. “Firdavs ul-iqbol”dan tashqari Munisning devoni “Ta’viz ul-oshiqin” nomi bilan Sayyid Muhammad davrida (1272-1281/1856-1864) tuzilganini Ogahiy xabar beradi.

Munis tarjimon sifatida samarali ijod qilgan olimdir. U Xorazmda birinchi bo‘lib fors tilidan o‘zbek tiliga tarjimonlik maktabiga asos soldi. Uning ishlarini Ogahiy davom etirib bu maktab saviyasini yana yuqoriga qo‘taribgina qolmay, eng sermahsul ijod qilgan tarjimonga ham aylandi. Ogahiy jami 20 ga yaqin asarlarni fors tilidan tarjima etgan. Ular orasida sharq mutafakkirlari, olim va adiblarining mashhur asarlari mavjud.

Shunday qilib, Shermuhammad Munisning tarixiy asari “Firdavs ul-iqbol” qadim zamonlardan boshlab, 1825 -yilgacha Xorazmda sodir bo‘lgan tarixiy voqealarni o‘z ichiga oladi. Munis bu asarini Sharq tarixchilarining an’anasiga muvofiq hamd va na’t bilan boshlagan. So‘ngra o‘z hayoti va asarning yozilish tarixi haqida qisqacha ma’lumot berib, bevosita Xorazm tarixini yozishga kirishgan. Bu asar muqaddima, besh bob va xotimadan iborat.

Ammo Munis bu asarini yozib tamomlay olmagan (hijriy 1244/1829 u vafot etgan). U qadim zamonlardan boshlab, Muhammad Rahimxon I hukmronligining 7-yili (1813)gacha bo‘lgan voqealarni yozishga ulgurgan xolos. Shu joyidan boshlab asarning chala qolgan qismini Ogahiy (1809-1874) davom ettirgan. 1813 yil voqealarini bayon etish bilan uzilib qolgan “Firdavs ul-iqbol” asarini shu joydan boshlab Xorazmda sodir bo‘lgan voqealarni yozish bilan to‘ldirgan.

“Firdavs ul-iqbol” asarining tarix ilmidagi ahamiyati shundaki, unda Xorazmning qadim davridan boshlab, Muhammad Rahimxon I (1806-1825 yy.) davrigacha bo‘lgan siyosiy tarixi xronologik tartibda bayon etiladi. Munis qadim zamonlardan boshlab Abulg‘ozixon davrigacha Xorazmda bo‘lgan voqealarni bayon etarkan, Abulg‘ozi davridagi Xiva va Buxoro xonliklarining o‘zaro munosabatlariga ham to‘xtalib o‘tgan. Shuningdek, asarda XVIII asr va XIX asrning birinchi choragi, ya’ni Qo‘ng‘irot sulolasi vakillarining Muhammadamin inoq (1755-1790), Avaz inoq (1806-1825)larning Xorazmda hukmronlik qilgan yillaridagi tarixiy voqealar bayon qilingan, iqtisodiy va ijtimoiy hayotga doir ayrim ma’lumotlar ham bergan.

Munis asarida Eltuzarning birinchi to‘rtta g‘alabasini bayon qiladi. Bular qaroqalpoqlarga qarshi yurish; yovmutlarning mag‘lubiyati, Xo‘ja eli mudofaa devorini buzib tashlashi; Qo‘ng‘irotni bosib olinishi. Bulardan avvalgi ikkitasi Eltuzar xon bo‘lmasdan oldin sodir bo‘lgan. Keyingi ikkitasi Eltuzar xon ko‘tarilganda voqe’ bo‘lgan. Xonning Qo‘ng‘irotni qamal qilishi 1 rabi’ al-avval 1220/ 28 iyun 1805 yilida boshlanib, 17 rabi’ ussoniy/28 iyun 1805 -yili xon istehkomni olgani bilan tugagan. Shu voqeadan so‘ng Munis xon huzuriga chaqiriladi va yana bir marotaba Eltuzar tarixini yoritish uchun oxirgi buyruqni oladi.

Eltuzarni buxoroliklar bilan urush qilib, fojiaiy halok bo‘lishiga qadar (3 iyul 1806) Munis bir yildan sal ko‘proq muddatda Sherg‘ozi davri (1125/1713)gacha bo‘lgan tarixni yozgandi. Keiyn tanaffus uzoq vaqt (muddati madid) davom etadi. Keyin Muhammadrahimxon (bir bazm chog‘ida) unga ishni davom ettirishi va uning hukmronlik davrini ham yozishni buyuradi.

Munis Eltuzarxondan oldingi hukmronlardan Eshmuhammad biy va Muhammadamin inoq davrlarini yozish uchun 1807 yil o‘rtalaridan yozishni davom ettirib, ancha vaqti va sa’y-harakatlarini sarflaydi. Muhammadrahimning yettinchi yili bayoniga kelganda (uning keltirilgan oxirgi sana 21 safar 1227/5 mart 1812dir) birdan Munis Muhammadrahimdan “Ravzat us-safo” tarjimasini uchun buyruq olib qayta “Firdavs ul-iqbol” yozishga kirishmadi. Yuqorida aytganidek “Firdavs ul-iqbol”ni Ogahiy yozib tugatgan va undagi voqealar bayoni 1825 yilgacha berilgan. Ogahiy Munis qo‘lyozmasi (avroqi parishon - tarqoq varaqlar; bu avroqi parishon ajzo - a’zolari tarqoq varaqlar)ni 20 yildan keyin qayta tartibga keltirib, uni 1258/1242 yili tamom qiladi.

Munis avval boshida asarini “Iqbolnoma” deb nom bermoqchi edi. Keyin uni “Firdavs ul-iqbol”ga almashtiradi. “Chunkim, u (asar) firdavsi jinnondek xon iqboli bilan muzayyan bo‘ldi va “Firdavs ul-iqbol”ga musammiy bo‘ldi” degan u.

Asar “bismilloh”dan so‘ng “Oliymakon sultonlarning dabdabai hashmati va garduntavon xoqonlarning kavkabai davlati aliyul-atloqning qullug‘i bila intizom toparkim...”) boshlanib, keyin “muqaddima” (“ba’zi maxsusoti a’loxoqoniy zikridakim osori iqboli sohibqironiy erdi” degan jumla bilan boshlangan), beshta bob va xotimadan iborat. Shunda birinchi bobda Odam atodan Nuh payg‘ambar avlodigacha bo‘lgan hodisalar zikri; ikkinchi bobda Yofasdan qo‘ng‘irot shu’basigacha bo‘lgan mo‘g‘ul hukmdorlar

zikri; uchinchi bobda Quralas (Chingiziylar to Abulg‘ozi ibn Yodgorgacha) davrida sodir bo‘lgan hodisalar zikri; to‘rtinchida qo‘ng‘irot Eltuzarxonning ota-bobolari va beshinchi bobda Eltuzarxonning tug‘ilishidan boshlab, bu asarning yozilib tamom bo‘lgunga qadar davr; xotimada avliyolar, ulamo, amirlar, beklar, shoir va donishmandlar, hunarmandlar va boshqalar haqida yozmoqchi bo‘lgan.

Munis Eltuzar davri (beshinchi bob)ni ikki faslga bo‘lmoqchi bo‘ladi. Birida Eltuzar, ikkinchisida Muhammadrahim davrini bayon qilmoqchi bo‘ladi. Xotimani Munis yozib ulgurmasi.

Asarning boblari istoriografik nuqtai-nazari va hajm jihatidan (avtografi va nusxalarida) bir xil emas. Boshidagi ikki bob kompiyativ ahamiyat kasb etgan va avtografda 23 varaqdan iborat. Uchinchi bobdagi Chingiziylar davri uch qismga bo‘lingan va uning uchinchi qismi Xorazm Arabshohiylari davrini qamrab olib, Abulg‘oziy vafoti bilan tamom bo‘lgan va juda ham originaldir. To‘rtinchi bob oldingi uchta bobdan ham ko‘p - qariyb 80 varaqni tashkil qiladi. Beshinchi bob ham matnning 3 / 4 QISMI tashqil qilib asl ma’lumotlardan iborat. Yuriy Bregelning xulosasiga ko‘ra “Firdavs ul-iqbol”ning 7/8 qismi o‘ta original va qimmatli ma’lumotlar bilan to‘ladir.

“Firdavs ul-iqbol” o‘z strukturasi bo‘yicha sulolaviy tarixnavsilik (yoki mahalliy va sulolaviy tarix kombinatsiyasi)ning namunasidir. Fors tarixnavsiligidan yaxshi xabardor bo‘lgan Munis forsiy istoriografiyasining asosiy bo‘g‘inini tashkil qilgan bu istoriosofik usuldan yaxshi foydalandi. Yu. Bregel Munisni “Firdavs ul-iqbol” yaratilishida hech qanday individualizmi yo‘q, bu asar Abulg‘oziy va mumkinki “Ravzat us-safo” asari ta’sirida yozilgandir degani mohiyatan xatodir. Birinchidan, sulolaviy tarixnavislik faqat fors tarixshunosligiga xos emas. U janr yoki

uslub jihatidan barcha tarixiy tafakkurga xos metoddir. Ikkinchidan, Munis o‘zidan oldingi tarixchilar asarlari yoki ijod g‘oyalaridan foydalanishi bu uning ijodkorligidan darak beradi. Uchinchidan, Munis sharq tarixnavislik an‘analarini yangi hudud va xalq sulolaga tadbiiq etgan muarrixdir. Va nihoyat, Munis o‘z asarlarini Abulg‘oziy asarlaridan farqli o‘laroq juda murakkab, jimjimali, musajja’ nasrda, o‘qimishli shaxslar va yuqori tabaqa namoyandalari uchun yozishga harakat qilgan. Bu yerda uni fors yoki arab tarixnavislik uslublariga takdid qilgan desa bo‘ladi. Lekin bu yerda ham u turkiy/o‘zbek tilining imkoniyatlarini yana bir marta ko‘rsatishga harakat qilgani ma’lum.

Abulg‘oziy va Mirxondning asari Munis asarining birinchi va ikkinchi boblari hamda uchinchi bobining ikkita qismi uchun manba sifatida xizmat qilgan (asarda ulardan to‘rt marta “Ravzat us-safo”ga va ikki marta “Shajarayi turk”ka havola bor). Keyingi boblarini Munis “Firdavs ul-iqbol”da safaviylar davri tarixnavisligi va Nodirshoh davri istoriografiyasiga tayanib yozgan.

Munis asarida Muhammadamin inoq, Avaz inoq va Eltuzar xon davrlaridagi asosiy voqealari alohida nomlanish bilan qat’iy xronologik tarzda berilgan. Muhammadrahim davri esa uning julusidan boshlanadi va yilma-yil bayon qilinib, asarning yarmidan ko‘prog‘ini tashkil qilgan (avtografdagi 242a-611a varaqlar). Shunda Munisning Abulg‘ozi vafotigacha bo‘lgan tarixi boshqa manbalar asosida yozilgani (komplyativ qismi) ma’lum bo‘ldi, qolgan kattaroq qismi esa, ta’kidlaganidek original qismini tashkil qiladi. Munis avtografidagi qayd va ishoralar, ilova, hoshiya va sharhlar uni muallif sifatida o‘z manbalari ma’lumotlarini tekshirganidan dalolat beradi. Munisning qo‘lyozmasida uni manbalari qatorida Mir Alisher Navoiyning “Tarixi anbiyo”si, “Tarix Ja’fariy”, Sa’libiyning “Arais (al-majolis fi qisas al-anbiyo)”,

“Nizom ut-tavorix”, Tabariy asari, “Tarix”i Hofizi Abro‘y, Hukamo tarixi” Shaxrazuriyniki) Tarixi Muqaddasiy, “Zafarnoma” muqaddimasi tilga olinadi. Biroq bu asarlar nomi “Ravzat us-safo” matni bilan birga “Firdavs ul-iqbol”ga ko‘chganini Yu. Bregel ham ta’kidlaydi. Lekin Munisning o‘zi manbasining manbasi ham uning asari matniga o‘tganini alohida ta’kidlamagan.

Munis asarining uchinchi bobida “Zafarnoma” Muqaddimasiga, “Zafarnoma”ga, “Mirsod al-ibod (min al-mabda’ ilal ma’od)”, bir marta “Tarixi olamoroyi Abbosiy”ga, ikki joyda Hasan Rumluning “Ahsan ut-tavorix” ini tilga oladi.

Munis asaridagi ko‘p porchalar va voqealar bayonini anonim manbalari va informatorlariga havola etib “rivoyat qilurlar”, “muarrixlar andoq ayturlarkim”, “muallif bir nusxada ko‘rgankim”, “boshqa so‘zga qaraganda” va b. so‘zlar bilan kifoyalangan. Ba’zi joylardagi bunday so‘zlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri uning manbasining aynan ko‘chirmasi bo‘lsa, ba’zi holatlarda Munis ma’lumoti boshqa manbalardan olingani taxmin qilinadi. Bunday nomi bilan tilga olinmagan Munisning manbalaridan biri Hamdulloh Qazviniyning “Tarixi go‘zida”si ekanini Yu. Bregel ham aniqlagan.

Munis o‘z davri tarixi bayoniga yaqinlashgan sari yozma manbalarning yo‘qligidan nihoyat aziyat chekkanini asarida ta’kidlab o‘tadi. Uning shikoyati Eltuzar davridan oldingi tarixga tegishlidir. Munis Xorazm mulkida hukmronlik qilgan Chingiziylar tarixini Abulg‘oziy ibn Arabxondan keyin birov yozmaganini, Eshmuhammadbiy va Muhammadamin inoq g‘alabalarining hech bir joyda qayd etilmaganini afsus bilan ta’kidlaydi. Va “bu rokimi bebizoat” (o‘zini tilga olib) u iste’dodi madadi ila o‘sha davr voqea va hodisotlarni izlab, ularning aniqligiga ishonib, yozib olganini aytadi. Lekin u ko‘pgina voqealarga doir ma’lumotlar to‘plana olmay ancha vaqt asarini yozolmaganini ham aytgan.

Munis qidiruvlari va izlanishlari qanday natijalarga olib kelganini yozmaydi. Biroq shu davr manbalari qatorida, ayniqsa qo‘ng‘irotlar davriga oid uni “Tarixi olamoroyi Abbosiy” va Hasani Rumlu asarlaridan foydalanganini ko‘rish mumkin. Bu asarlardan oldin olingan ma‘lumotlar Munis tamonidan qayta ishlangan va guldirilganini uning avtografidagi ilovalaridan ko‘rish mumkin. Shu ilovalar va hoshiyalardan Munis bir qancha boshqa manbalardan ham ma‘lumot olganini bilinib olish mumkin.

Munisning ba‘zi ma‘lumotlariga undan oldin yozilgan boshqa asarlarda ham duch kelish mumkin va ulardan Munis foydalangan degan xulosaga kelsa bo‘ladi. Bular qatorida zikr etilgan “Ravzat us-safo” va “Shajarayi turk”dan tashqari “Tarixi Banokatiy”, “Jomi ut-tavorix”, “Zafarnoma”, Tarixi jahonkushoyi Nodiriy”ni tilga olish mumkin. Ularning ba‘zilarini Munis o‘z avtografining hoshiya va ilovalarida ham ko‘rsatgan.

Munis boshqa muarrixlardan farqli o‘laroq (Abulg‘oziy va O‘temish hojiga o‘xshab) xalq og‘zaki ijodidan, V.Yudin ta‘biri bilan aytganda “dasht istoriografiya”si an‘analaridan keng foydalangan. Bu yerda uning axborotchilari ko‘p holatlarda anonim, ba‘zi holatlarda esa aniq nomlari bilan qayd qilingan. Masalan, u Arangxon davriga (1099-1105/1688-1694) doir ba‘zi voqealarni sayyid Isomiddinxo‘ja Sayyid Muhammadpanohxo‘ja o‘g‘lidan eshitganini yozadi. Shu davrga oid yana uning bobolaridan biri bo‘lgan Jiyanbiy Mirob nomi ham tilga olinadi.

Sherg‘ozixonning Xurosonga yurishi tafsilotlarini Munis bobokaloni Eshimbiy Mirobning eronlik quli og‘zidan bolaligi paytida eshitganini yozgan. 1165/1751-52 yilida Xo‘rozbekni o‘ldirilishini esa “sadoqatli kishilardan” eshitganini ta‘kidlaydi. Temurg‘ozixon o‘ldirilishini Munis o‘sha davrda yashagan bir odamdan eshitganini aytadi (o‘sha joyda. - B.72). Avazbek ibn

Eshmuhammad biyning haj tafsiloti va uning Nodirshoh davrida (boshqa yana 19 nafar zodagonlar bilan) o'ldirilgani Muhammadrahimxon tilidan bayon qilinadi. Munis bu tafsilotlarni Muhammadrahimning bekligi vaqtida eshitgan ekan. Muhammad inoq nomi bilan bog'liq ba'zi voqealar Munisning otasi Ivaz Mirob nomidan beriladi.

“Firdavs ul-iqbol” asarining beshinchi bobida Munis tarixiy voqealarni ancha erkin va mufassal bayon qilishga harakat qilgan. Bu tabiiy, chunki bu davr tarixining guvohi va faol ishtirokchisi Munisning o'zi bo'lgan. Munis o'zi ishtirok etgan voqealarning birinchi sanasi sifatida 1216 yilining zu-l-qa'da /1802 martini tilga oladi. Shu bobning ko'pgina qismlari voqea ishtirokchilari nomidan yozilgan. Bunday holat asarning olti joyida, ya'ni guvohlar tilidan olingan ma'lumot (ular yozma bo'lishi ham mumkin edi) sifatida ko'rsatilgan. Biroq bobning mazmunidan muallifning guvoh axborotchilari bundan-da ancha ko'pligini bilib olish mumkin. Munis o'z asarining mazkur bobini arxiv hujjatlari asosida yozilgani ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Zero u xon va uning qo'shini bilan ko'p joylarda bo'lgani bilan, ba'zi joylarda sodir bo'lgan voqealarni shaxsan ko'rmagan edi. Shunda u boshqa ishtirokchilarning hisobotlari, esdalik va nomalaridan foydalangan. Munis asarining uch joyida hujjatlardan ham nusxalar bergan. Bundan tashqari Munisning o'z kundaligi bo'lishi ham mumkinligini Yu. Bregel taxmin qiladi. Bu xulosa esa, fikrimizcha juda to'g'ridir. Aks holda bir necha yillardan so'ng (1713-1812 yillar voqealari 1807-1819 yillar davomida yozilgan, bir joyda esa 1215/1800 yili voqeasini bayon qilib Munis” buni endi 1224 -yili bildik” deb ta'kidlaydi) voqealarni kundan-kunga (ba'zan muayyan kunning aniq vaqtini ko'rsatib) yozishni imkoni bo'lmas edi.

Munis ishini davom etgan Ogahiy yozma manbalardan foydalanishi imkoniyati ko‘proq bo‘lgan. Ayniqsa u xon arxivi materiallaridan keng foydalanganini “Firdavs ul-iqbol”dan tashqari boshqa tarixiy asarlaridan ham ko‘rish mumkin. Lekin shuni ta’kidlash lozimki, Ogahiy 1812-1825 yillarni guvoh sifatida yozilishi mumkin bo‘lmagan. 1809 -yili olamga kelgan Ogahiy Muhammadrahimxon davrida xali juda yosh edi (uchdan 16 yoshga kirgan u). Ogahiy Muhammadrahimxon vafotidan 15 yil o‘tgach amakisining ishini davom ettirish uchun kirishgani ma’lum. Ogahiy asosan yozma manbalardan foydalanib, og‘zaki ma’lumotlarni (bu haqda faqat bitta joyda eslatilgan) qiyinchilik “taraddular bila” qo‘lga kiritganini ta’kidlagan. Bundan tashqari Ogahiy Munisdan qolib ketgan boshqa yozma manbalardan ham foydalanishi mumkinligini taxmin qilsa bo‘ladi. Ogahiy “Firdavs ul-iqbol”da keltirilgan hujjatlaridan taka urig‘iga berilgan ikkita yorliq, qozoqlar boshlig‘idan kelgan noma, Afg‘oniston va Saraxsdan kelgan xatlarning qisqa mazmuni, Buxoro yurishida ishtirok etgan boshliqlarning ro‘yxati, Muhammadrahimxon va amir Haydar o‘rtalaridagi mukotabalarining qisqa mazmuni, xonning Buxorodagi xitoy - qipchoqlariga yuborilgan xati, amir Haydar (qalabakiy-?) nomasining matni va boshqalarni ajratish mumkin.

Ogahiy Munisga nisbatan ba’zi yurishlarni juz’iyotlari bilan batafsil bayon qilgan. Lekin ajoibi shundaki, ba’zi ahamiyatsiz lahzalar mufassal bayon qilgani bilan, ba’zi ahamiyati katta bo‘lgan harbiy yurishlar faqat eslatib o‘tiladi xolos. Munis va Ogahiy tarix asarlarining bir xususiyati ularda keltirilgan voqealar sanalarining aniqligidir. Bu esa O‘rta Osiyo istoriografiyasida alohida ahamiyatga ega ekanligiga dalil bo‘la oladi. Ularning sanalari hisobini hijriy yili va oylarida, arab va eroniy oylar nomi bilan, turkiy muchal orqali, hafta nomlari,

namozlar vaqti bilan, xalq, taqvimi (navro‘z, navro‘zi Xorazmshohiy, navro‘zi sultoni), zodiak - burjlar ramzalari va h. bilan berishadi.

Asarda she‘riy bezak (stixodekor) ham juda kuchli berilgan. Munis jami 2915 misra‘dan iborat 683 she‘riy porcha beradi. Ogahiy esa 514 misra‘dan iborat 84 she‘riy porchalarni kiritgan. She‘riy porchalar Mullo Sayyidoyi Buxoriy, Nizomiy, Sa‘diy, Firdavsiy, Mirzo Nozim Hiraviy va oltitasi noma‘lum shoirlarga tegishli. Asarda Munis va Ogahiyning ham tarix, masnaviy va qasidalari bor (21 ta fors tilidagi xronogrammadan 16 tasi Munisnikidir).

Evropada “Firdavs ul-iqbol” mualliflari Munis va Ogahiy haqidagi birinchi ma‘lumotni H.Vamberi bergan. Biroq uning ma‘lumotlari biroz chalkash ekanini Yu. Bretel ko‘rsatadi. H.Vamberi 1863 -yili Xivada bo‘lganida Munis vafot etgan edi. Ogahiy ham Vamberi bilan uchrashmagani aniq. H.Vamberi xivaliklardan olingan ma‘lumotlarni yig‘ib olib, Munisga nisbat berilgan juda bir zaif she‘rni nemischa tarjimasini bilan keltirgan” . Shu axborotida H.Vamberi Munis va Ogahiy tarixiy asarlaridan xabardor ekanini bildirib, yaqin kelajakda ularning adabiy merosidan namunalar tarjima etishni rejalashtirayotganini aytgan.

Keyingi ma‘lumot Aleksandr Kunga tegishli. 1873 -yili Xiva xoni saroyining talan-torojida ishtirok etgan A.Kun (asli kelib chiqishi nemis-olmoniy, O‘rta Osiyoda Iskandar to‘ra nomi bilan o‘zini tanishtirishni xush ko‘rgan sharqshunos) 300 jild qo‘lyozma kitoblar orasida Munis va Ogahiy kitoblarini ham olgan. U zudlik bilan “Turkestanskie vedomosti”da shu haqda axborot berib, Munis asarining oxirgi bobi mazmuni va Ogahiy asarlari haqida ma‘lumot bergan. 5 -dekabr 1873 -yili A.Kun Rossiya jug‘rofiy jamiyatida

ham ma’ruza qilib Munis va Ogahiyning xronikalari haqida ma’lumot bergani ma’lum.

N.I. Veselovskiy “Очерк историка-географических сведения о Хивинском ханстве с древних времен до настоящего” asarida (Spb., 1877) A.Kun ma’lumotidan foydalanib, Munis va Ogahiy asarlari bilan tanishaolmadi, chunki ular hali ham A.Kunning qo’lida bo’lgan edi. Lekin N.I.Veselovskiy A. Amirxanyans (quyiroqqa qarang)ga yozgan xatida Munis va Ogahiy tamonidan yozilgan asarlarga “unchalik ahamiyatga ega emas” deb baho bergan. H.H.Hovart (N.N. Howort) ham 1880 -yili o’z asarida A.Kun ixtiyoridagi Xiva solnomalarini eslatib o’tgan.

Xon saroyidan olingan 300 jild qo’lyozmalarning ba’zilari Peterburgdagi Osiyo muzeyiga berildi. Biroq A.Kun o’z vafotigacha (1888 yili) Munis va Ogahiy asarlarini o’zida saqlagan. 1890 -yili uning vorislari kitoblarni Osiyo muzeyiga sotishadi. G.Zaleman esa A.Kun kolleksiyasini tavsiflaganida Munis va Ogahiy asarlari haqida ham ma’lumot beradi. Shu vaqtning o’zida pastor A.Amirxanyans “Firdavs ul-iqbol” asarini o’rganib, mufassal tafsifini bergan. Uning bu tavsifi “Записки пастора Авр. Амирханянца об “Истории Хивы” asari hozir Sankt-Peterburgda saqlanadi.

Ruhoniy Avraam Amirxanyans “Firdavs ul-iqbol” asariga juda professional tarixchi va manbashunos sifatida baho berib quyidagi xulosalarni bergan (Q. Munirov tarjimasida beriladi): Munis Abulg’oziy Bahodirxonning tarixiy asarlarini davom ettirgan;

- Abulg’oziy o’z asarida maqsadiga muvofiq kelmagani bois tushirib qoldirilgan voqealarni to’ldiradi. Munisning asarida biz Abulg’ozixon hukmronlik qilgan davrdan ilgarigi hamda u xonlik qilgan davrda bo’lgan, lekin Abulg’ozixon tomonidan keltirilmagan voqealar haqidagi ma’lumotlarni uchratamiz;

- Xorazmda katta mansabga ega bo'lgan kishilarning hayoti haqida ma'lumot beradi;

- Qumli sahrolar, Orol dengizi, Amudaryoning dastlabki oqimi va Hojimaxon xonlik qilgan davrda uning o'zgartirilishi haqida qiziq geografik ma'lumotlar ketiriladi. Shuningdek, shohobod arig'i, band sulton haqida ham ma'lumotlar mavjud;

- Asardagi ma'lumotlar faktlar asosida yozilgan bo'lib, aniq xronologik tartibda ega;

- Muallif o'z asarini yozishda og'zaki va yozma materiallarni diqqat bilan to'plagan;

- Asar sof klassik ilmiy tilda yozilgan;

- Kitobda keltirilgan voqealar bir-biri bilan yaxshi bog'langan.

A. Amirxanyans o'z davrining mashhur sharqshunoslari prof. Berezin, baron Demezov, akademik Fren va Ilinskiylar "...chig'atoy tilida yozilgan manbalarni bostirishda qo'llarida shunday bir mukammal qo'lyozma asar bo'lsa edi, o'zlarini baxtli hisoblagan bo'lur edilar",- deb xulosa qilgan.

Munis va Ogahiy asarlarini V.V.Bartold ham jiddiy o'rgangan va "Munisshunoslikka" asos solgan. Akademik V.V. Bartold barcha asarlarida Xiva xronikalaridan yetarli darajada foydalanib ularga yuqori baho beradi. U hatto 1914-1917 yillar davomida "Firdavs ul-iqbol" asari matnini ham tahrir etib nashrga tayyorlagani ma'lum. V.V.Bartold 1929-yili esa uning chop etilishi yaqinligini ham xabar qilgan edi. Biroq uning rejalari amalga oshmaganidan xabarimiz bor.

Keyinchalik P.P. Ivanov, A.L. Borovkov, 3. Aksakov, Ya. G'ulomov, Q. Munirov Munis va Ogahiy asarlaridan o'z tadqiqotlarida keng foydalanganlar.

Turkiyalik olimlar Nesip Asim (1909) va Abdulqodir Inan (1933) sobiq SSSRdagi Munis va uning asari haqidagi ishlardan xabarsiz xolda maqolalar yozganlar.

“Firdavs ul-iqbol” asaridan parchalar 1969-yili Qozoqistonda nashr etilgan “Материалы по истории казахских ханств XV-XVIII веков” (Almata, 1969) kitobiga (tarjimon N.N.Mingulov) ham kirgan (560-567 betlar).

Mazkur asar manbashunosligida Q. Munirovning asarlari hamda “Firdavs ul-iqbol”ning ilmiy - tanqidiy matnini tayyorlab, ingliz tiliga izohlar va ko‘rsatgichlari bilan chop etgan Yu. Bregelning xizmati beqiyosdir. Biroq shuni ham afsus bilan ta’kidlash kerakki, “Firdavs ul-iqbol” o‘zbek tiliga to‘liq chop etilmagan. Shu asarning asl egasi bo‘lgan o‘zbek(istonlik) tarixchilar, mutaxassislar va keng kitobxonlar ommasini haligacha undan foydalanish imkoniyatidan mahrumlar.

Munis va Ogahiy tomonidan bitilgan “Firdavs ul-iqbol” asarining to‘qqizta nusxasi mavjud bo‘lib, bu nusxalar asosan Rossiya FA Sharq qo‘lyozmalari instituti (sobiq Rossiya FA Sharqshunoslik instituti Spb. bo‘limi)da 571 (590^a), E6 VIII, raqamlar ostida, O‘zbekistan FA Sharqshunoslik instituti fondida 5364/1, 821/1, 9979, 5071, 7422, 275/1 raqamlari ostida hamda Xelsinki da saqlanadi.

Asarning Sankt-Peterburgda saqlanadigan nusxalaridan 571 (590^a) raqamdagisi mahalliy O‘rta Osiyo qog‘oziga, ko‘ra siyohda nasta’liq xatida ko‘chirilgan. Sarlavhalar esa qizil siyohda yozilgan. Nusxa Munis va Ogahiyning avtografidir.

Quvomiddin Munirovning mazkur nusxa mualliflar avtografi emas, balki bir necha kotiblar tomonidan ko‘chirilgan, degan taxminiga bizningcha asos yo‘qdek ko‘rinadi. Nusxaning ochiq qolgan varaqlari ko‘p (269ab, 270a’6, 190a’6, 291a, 439a>b, 440a’6,

442a varaqlar). 442 -varaqlarning 6-betidan boshlab Munis vafotidan soʻng, Ogahiy tomonidan yozilgan qismi boshlanadi. Nusxa namlikdan zarar koʻrgan. Asarda hoshiyalar koʻp koʻzga tashlanadi. Ushbu nusxa 613 varaqdan iborat. Oʻlchami 14,5x24,5 sm”.

Mazkur fondda saqlanayotgan E 6-1 (5900V) raqamidagi ikkinchi nusxa xati qora siyoh bilan Oʻrta Osiyo qogʻoziga koʻchirilgan, sarlavhalari qizil siyohda boʻlib, matn ham qizil ramka ichiga olingan. Asarni koʻchiruvchi esa Mullo Nur Niyoz xalifa ibn mulla Muhammadniyoz xatib boʻlib, u 1856-57 yillarda koʻchirilgan. Nusxa yaxshi saqlangan boʻlsa ham, uning 150 ta varagʻi namda qolganligi seziladi. Asarning hajmi 263 varaq, oʻlchami 27x48 sm .

Oʻzbekiston FA Sharqshunoslik institutida saqlanayotgan “Firdavs ul-iqbol” asarining nusxalari esa quyidagi kodikologik xususiyatlarga ega. 5364/1 raqamli nusxa nastaʼliq xatida, qora siyoh bilan koʻchirilgan. Asar boblari va baʼzi ajratilgan soʻzlar qizil siyohda koʻchirilgan. Muqovasi charmdan ishlangan boʻlib, bu Xorazm muqovasozligiga xos. Nusxa Mulla Muhammadrizo ibn Muhammadkarim devon tomonidan 27-sentyabr 1904-yilda Muhammad Rahimxon II Feruz buyrugʻiga koʻra koʻchirilgan. Asar 244 varaqdan iborat. Oʻlchami 29x43 sm.

Shu xazinadagi ikkinchi nusxa (821/1) toʻliq holda saqlangan. Nastaʼliq xatida qora siyoh bilan koʻchirilgan. Boblar va alohida ajratilgan soʻzlar qizil siyohda berilgan. Matn 25 satrdan iborat boʻlib, nusxa 259 varaqni tashkil etadi. Oʻlchovi esa 26,5x43,5. Uni Mulla Muhammadrizo ibn Muhammadkarim devon 1297/1879-/80 yili koʻchirgan. “Firdavs ul-iqbol” asarining mazkur xazinada yana toʻrtta nusxasi mavjud .

“Firdavs ul-iqbol” asari manba sifatida quyidagi mavzu va muammolarni yoritishda katta ahamiyatga ega. Bular:

1) Xorazmda hukmronlik qilgan shayboniylar nasablari, ular o‘rtasidagi oilaviy munosabatlar;

2) o‘troq va ko‘chmanchi aholining davlat va ijtimoiy tuzumlariga doir ma’lumot;

3) O‘rta Osiyoga kelib o‘rnashgan ko‘chmanchi qabila va elatlarning tarixi, ularning yangi konfederatsiyalar tuzishdagi o‘rni;

4) O‘lkadagi etnik va etnosiyosiy jarayonlarni yoritish;

5) Xorazm shayboniylari keyinchalik qo‘ng‘irotlarning Eron, Orol bo‘ylari, Dasht-i Qipchoq va Buxoro bilan aloqalari, yurish va urushlari haqida aniq ma’lumotlar;

6) ko‘chmanchilar hokimiyatining sakralizatsiya masalalariga doir materiallar;

7) Avval ko‘chmanchilar keyinchalik o‘troq aholi an‘anasiga asoslangan markaziy davlat-ma‘muriy apparati va boshqaruvining shakllanishi, uning sinkretik mohiyati;

8) ko‘chmanchi turk va mo‘g‘ul qabilalarining turkiy aholi o‘rtasidagi assimilyatsiya va o‘troqlashuvi masalasiga doir ma’lumot.

9) Xorazm shayboniylari va qo‘ng‘irot sulolasi hokimiyatni bosib olgan hududlarida hukmronlik legitimatsiyasi masalalariga doir kuzatuvlar.

10) Xorazm shayboniylari, arabshohlar (Abulg‘oziy) davrida joriy qilingan va amalda bo‘lgan unvon va mansablar, ularning darajalari haqidagi ma’lumotlar.

11) Qo‘ng‘irotlar davridagi harbiy ish tarixi, askariya va harbiy ishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar.

12) Asarni manba sifatida Xorazm tarixnavsiligini baho berish uchun ahamiyati.

13) Munis (va Ogahiy) tarixnavisligi va ijodiy faoliyatini baho berishda asarning istoriggrafik mohiyati va struktural chegaralarining ahamiyati.

*“Markaziy Osiyo tarixi: manbashunoslik va tarixshunoslik izlanishlari” ilmiy-amaliy anjumani materiallari ilmiy to‘plami.
Toshkent-2009.(131-154 betlar)*

KOMYOBNING “TAVORIX UL-XAVONIN” ASARI HAQIDA

Sayid Homid to‘ra ibn Sayid Muhammadxon to‘ra Komyobdan bizga bitta she‘riy devon, Xorazm tarixiga oid “Tavorix ul-xavonin”, “Muntaxab ul-voqeot” kabi tarixiy asarlari yetib kelgan. Bular ichida uning “Tavorix ul-xavonin” asari Xiva tarixnavisligidagi kemtik o‘rinlarini to‘ldira olishi bilan qimmatli.

“Tavorix ul-xavonin”ning uchta qo‘lyozmasi 3730/I, 7717 va 853/III raqamlari ostida O‘zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti xazinasida saqlanmoqda. 3730/I raqamli qo‘lyozma avtograf nusxa hisoblanadi. 7717 raqamli qo‘lyozma 1897 -yili domla Ro‘zmuhammad tomonidan avtograf asosida Xorazmda ko‘chirilgan. 853/III raqamli qo‘lyozmasi esa asarning mukammal bo‘lmagan nusxasidir.

Sayid Homid to‘raning qayd qilishicha, asarni yozishga kirishishdan avval Xiva xonlari tarixiga oid asar yozish niyati borligini Muhammadrahimxonga bildiradi. Xon bu fikrini quvvatlagan va o‘z davrigacha bo‘lgan tarixiy voqealarni Shermuhammad Munis va Muhammadrizo Ogahiylar yozganligi, u

mazkur mualliflarning asarlariga kirmay qolgan voqealar bayonini qalamga olishi lozimligini aytadi. Komyob asarda zikr qilishicha, buyurilgan tarzda asar yozish va kerakli o‘rinlardan foydalanish uchun Ogahiyning kitoblarini har qancha qidirsam ham topa olmaydi. Shunday bo‘lsa-da, o‘zi to‘plagan materiallar asosida kitobni yozishga kirishgan kirishgan .

Muallifning ta’kidlashicha, “Tavorix ul-xavonin”ning bir qismi ikki bor qayta yozilgan. Dastlabki yozilgan qoralama nusxa ancha mukammal bo‘lib, uni bir kishi o‘qib berish uchun oladi va qaytarmaydi. Shu bilan kitobning birinchi qoralama varianti izsiz yo‘qoladi. Komyob keyinchalik iloji boricha birinchi yozganlarini tiklashga harakat qiladi. Birinchi yozilgan nusxa yo‘qolganligiga qaramasdan asarning ikkinchi qoralamasi ham qimmatli tarixiy faktlarga boy asar holda yuzaga kelgan (B, 25).

“Tavorix ul-xavonin”ning o‘ziga xos bo‘lgan qismi beshinchi bob va muallifning o‘zi haqida yozgan faslidir. Bu qismda Xivada qo‘ng‘irotlarning xumkronligi boshlanishidan, to ruslar tomonidan xonlikning zabt etilishigacha bo‘lgan davr xususida so‘z yuritiladi.

Komyob, shubhasiz, o‘z davrining farzandi va xonning eng yaqin birodaridir. Shu bois ham u Xiva qo‘shinlarining xonlik hududini kengaytirish, hokimiyat uchun olib borgan xarbiy yurishlari xususida yozar ekan, ularni afsonaviy, yengilmas kurashchilar qilib tasvirlaydi. Bu harakatlarga nisbatan tabiiy ravishda muallifning xayrixoxligi sezilib turadi. Ayni chog‘da u sariq, yamut, taka, alieli, chandir singari turkman urug‘larini bo‘ysundirish uchun olib borilgan urushlarning “zo‘ran va qahran” kechganligini ham qayd qilib o‘tgan.(B, 9)

“Tavorix al-xavonin”da xonlikdagi tasavvuf shayxlarining turmush tarzi, ularning odob-axloqi va suluk qoidalari yuzasidan berilgan ma’lumotlar ham qimmatlidir. Komyob o‘sha davr tasavvuf

pirлари namoyandalaridan Umar eshon, Sodiq eshon, Yusufxon eshon, Ibodulloh eshon (Chotko‘frukli), Islomxo‘ja eshon (Qatag‘ondan), o‘zbekyopli Siddiq maxzum, Sayyid Abdulloh, hazoraspli Muhammadsharif, g‘oziobodlik Ulug‘jon eshon, uning o‘g‘li Bobojon maxzum hazorasplik Boqir eshon, qozi Abdurahim eshon va Muhammadsolih eshonlarni tilga olgan(B 99-1-8).

Komyob asarida keltirilgan muhim ba‘zi bir voqealarni ajratib o‘tamiz:

Muhammadamin inoq Buxorodan qaytib kelib, Xorazm mamlakatini qo‘li ostiga kirgizib, “xon va umaro va o‘zga qal‘alarning hokimining azlu mansabi” ni qo‘lga olgani, ammo “o‘tgan abo va ajdodining ravish yo‘sinidin tajovuz qilmay, otin inoq qo‘yub, qazoqdog‘i to‘ralaridinkim, Chingiziya avlodlaridur, olardin birin kelturub, otin xon qo‘yar erdi. Oxiri umri tekru xonin qatlg‘a etkurub, amirlik otin xonliqg‘a intiqol etkurdi”;

Eltuzar Muhammad Bahodirxon ismi bilan Xorazmshohlik masnadiga o‘lturgani;

Elga saranjom berib, askariy lashkar tartib qilgani;

Davlat timsoli sifatida o‘zi uchun bir tug‘ yasatgani (qubbasi ming misqollik oltindan, shuqqasi la‘lu yoqut javohiroti va olmosdan):

To‘rt baydoq uzattirib, kubbalarini ming misqol kumushdan oro berib, to‘rt to‘ba umarosining shavkatini ko‘tarib, Xorazmda alohida hukumat yurutmak istagani, markaziy hukumat (podsholikka) bo‘yun qo‘ymaganni bo‘ynin kesmak tilagani (bu yo‘lda Bekpo‘lod otaliq arkka chaqirilib qatl qilindi);(B, 27-28)

Eltuzarning imrali, chovador, yavmutga nisbatan olib borilgan siyosati (yavmutning o‘n sakkiz ming uylik jamoasining migratsiya va remigratsiyasi, ya‘ni ularning turkman oralariga keyin Eronga borib, qaytib Xorazmga qaytganlari haqidagi ma‘lumot);

Xiva va Buxoro o‘rtasidagi urushlar (Qutluqmurodxonning asir tushishi, Eltuzarning halokati, uning ukalari Hasanmurodbek, Abdukarimbek, Abdurahimbek ibn Fozilbek va Vali atoliqning o‘limlari);

Muhammadrahimxonning oti “oyqi sichg‘on iniga ketib surunub ketgani” va “tojik umarosidin” ikki kishisi qo‘liga asir tushib, keyin qutulib qochgani;

Xivaga kelgach, umarolar va Fozilbek, Shohniyoz otaliq Muhammadrahimni xonlikka ko‘tarmoqchi bo‘lganida, u qabul qilmay yana “Abulg‘ozixonni qozoqdin kediturub xon qilib, o‘zi inoqlik mansabida qolgani”, biroq Qutluqmurod Buxoro tutqunidan ozod bo‘lgach, bir-ikki oydan so‘ng xonlik taxtiga ko‘tarilgani;

Xonga qarshi Qo‘ng‘irotda To‘ra so‘fi, amakilari Muhammadmurodbek, Muhammadrizobek va Eshmuhammadbekning chiqishlari, ular o‘rtasidagi toj va taxt uchun kurash, ularni xon tomonidan qatlga yetkazilishi (101-109 var.);

Muhammadrahimxonning sariq, solur, taka, yavmut, qarodoshli, ali-eli qabilalarni, qazoq va qaroqalpoqiya jamoasin “tahti farmoniga kiyurgani”;

Muhammadrahimxon davrida Ko‘hna Urganchning qayta obod bo‘lgani, “Hiloliy qal’asi, Toshhavuz shahri, Qilichboy mavzesi, Maynoq baldasi”ning obod va ma‘mur bo‘lgani, Oqmasjid kentiga suv chiqarilgani;

Oллоhqulixon davrida Oqdarbanliklarni Xorazmga ko‘chirilgani, jamshidiya jamoasini ham ko‘chirtirgani;

Abdullohbek Qutlug‘murod inoq o‘g‘lining va besh yarim oydan keyin Qutlug‘murod ibn Ibodillohning Ya‘qub mehtar sa‘yi bila xon bo‘lganlari (129a);

Besh oy o‘tgandan so‘ng (1270 14 jumod as-soniy/1854 14 mart) Qutluqmurodxon, Ibrohim devonbegi, Ya‘qub mehtarning

yavmutlar qo‘lida halok bo‘lishlari, Sayyid Muhammadning xon bo‘lishi, yavmutlarning qirg‘ini;

Sayyid Muhammad Bahodirxon tomonidan vazifa va unvonlarga aka-ukalari va qarindoshlari, qabila peshvolaridan tayinlanishi (shunda akasi Sayyid Mahmud to‘raga amir ul-umaroliq va Hazorasp hokimligi berildi; Eltuzar inoq, Bog‘ibekbek beklarbegi, Hasanmurodbek qo‘shbegi, ya’ni vazir, Muhammadrizobek otaliq, Sulton Mahmud to‘ra ibn Ollohqulixon biylik mansabi tegdi);

Sayyid Muhammad Bahodirxon davridagi turkmanlar, Zorliqxon va Muhammad Panohga qarshi kurashlarning tafsilotlari, ruslar bilan birinchi to‘qnashuv bayoni;

Sayyid Muhammad Bahodirxonni Soniy “Feruz” davridagi siyosiy voqealar, Xiva istilosi va Rossiya imperiyasi mustamlakachilik davri (172^b varag‘idan boshlanadi);

“Xorazmda Rossiya istilosiga qadar taka turkmanlari Erondin o‘g‘irlab kelturub sotgan tug‘malari 58500 (ellik sakkiz ming besh yuz) nafar erkan. Shundan 22500 (yigirma ikki ming besh yuzi) Xorazmdin ketmakni ixtiyor qilmay, yerli va suvli bo‘lub qolganlar. O‘z ixtiyori bo‘yincha 36000 (o‘ttiz olti ming)nafari Kaufman Xiva xoni xat yozib Eron shohiga mulla Husaynni bosh etib yuborilgan. Yo‘lda yavmut chafovlurub, bir o‘zini xarob etib, qolg‘onlari mulla Husayn maktubini olib borib Eronda shohga topshirg‘oni...”(189 var)

*Professor Hamid Sulaymon nomidagi Respublika yosh manbashunos
va matnshunoslarining ilmiy anjuman materiallari.
Toshkent-2023.(4-8 betlar)*

MANSUR AS—SAOLIBIY VA UNING ADABIY QARASHLARI

Xorazm Ma'mun akademiyasida ijod qilgan yirik olim va shoir Abdumalik ibn Muhammad ibn Ismoil as— Saolibiy an-Naysaburiydir. Abu Mansur as-Saolibiy 961 –yilda Nishopurda tug‘ilgan, shu yerda boshlang‘ich ta’lim olgan. U yoshligidan shaharning ko‘pchilik olimu shoirlari suhbatlaridan bahramand bo‘lgan. Allomaga amir va shoir Abu-l-Fadl al-Mikoliy homiylik qilgan. Saolibiy savdo ishlari bilan ham shug‘ullangan. Shu boisdan u ko‘p o‘lkalarda bo‘lish imkoniga ega edi. Chunonchi, 992—993 yillari Saolibiy Buxoroga keladi. Bu shaharda ham olimu fozillar davralarida bo‘lib, ko‘plab do‘stlar orttiradi, mushoiralarda ishtirok etadi. Bir qancha vaqt o‘tgach, alloma Xorazmga-Ma'mun saroyiga yo‘l oladi. Saolibiy o‘zining Xorazmshoh saroyiga kelishi sabablari, u yerdagi ijodi haqida quyidagilarni yozadi: “Kitobning (“Yatimat ad-dahr” asarining) dastlabki uch bo‘limini tugatgach, zamon (o‘zgardi), hayotim turli to‘siq va baxtsizliklarga duch keldi ... Xorazmshoh Abu-l-Abbos saroyida bo‘lish muallifga (Saolibiyga) ijobiy ta’sir qildi, amirning fe’lidan ilohlanib, qo‘lyozmani uning kutubxonasiga loyiq holatga keltirdi” .

Saolibiyga sulton Mahmudning otasi Abu Muzaffar Nasr ibn Sabuktegin ham homiylik qilgan. Alloma 1038 yilda Nishopurda vafot etgan.

Saolibiyning qalamiga mansub asarlar:

“Kitob al-iyjoz va al-a’joz” (“Ajoyib va joiz nuqtalar kitobi”) №1848/1 1b-25a betlar, 1227 –yilda ko‘chirilgan. Asar hukmdorlar, davlat arboblarning she’riy va nasriy shakldagi chiroyli nasihat so‘zlaridan iborat.

“Kunz al—kuttab” (“Kitoblar xazinası”) №1848/11, 266-1186 betlar. 1727 yilda qo‘chirilgan. Asar kotiblarga bag‘ishlab yozilgan. Ularga qo‘yiladigan qat‘iy talablarni bajarishni yengillashtirish uchun as—Saolibiy rasmiy hujjatlarda foydalanish mumkin bo‘lgan turli shoirlar asarlaridan parchalarni tizimga solib chiqqan.

“Kitob al—muxodara” (“Ma‘ruzalar kitobi”) №1848/111, 1196-1936 betlar. 1727 –yilda qo‘chirilgan.

Kitob turli mavzularga oid maqolalar, masallar va nasihatlardan iborat. So‘zboshi mazmuniga qaraganda asar Jurjon va Tabariston hukmdori Qobus Vashmgirga bag‘ishlangan.

Ushbu qo‘lyozmalarni tarjima qilish, ular mazmunini keng jamoatchilikka yetkazishimiz lozim. Ana shundagina to‘la ma’noda Prezidentimizning “Bizning yo‘limiz -xolisona yo‘l. O‘z kuchimizga ishonib, o‘z boyligimiz va imkoniyatlarimiz bilan, ming yillik madaniyatimiz va tariximizga, o‘tgan buyuk allomalarimizning ruhi poklariga tayanib ish yuritmoqdamiz”, — degan so‘zlariga o‘zimizning amaliy ulushimizni qo‘shgan bo‘lamiz.

***“Xorazm ma‘mun akademiyasi: tarixi, buguni va kelajagi”
mavzusidagi ilmiy konferensiya materiallari.
XIVA-2005. (59-60 betlar)***

RUS ISTILOSİ ARAFASIDA XIVADA TA’LİM (arxiv hujjatlari asosida)

Xorazm o‘zining uzoq o‘tmishi davomida hamisha ilm-fan, ma’rifat maskani bo‘lishdek oliy maqomini saqlab qolgan va murakkab tarixiy sharoitda ham shunga intilgan. Rus istilosi arafasida xonlikdagi ta’lim-tarbiya ishlari, unda faoliyat ko‘rsatgan madrasalar, shuningdek, siyosiy hamda ma’naviy hayotda katta ahamiyat kasb etgan masjidlar borasida faktik materiallarga ega bo‘lish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Chunki xonliklar davri shonli o‘zbek tarixida ma’naviy-marifiy taraqqiyot bir muncha oqsagan, siyosiy iqtisodiy, ma’naviy hayotda qator parokandaliklar yuzaga kelgan davr hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy arxivi materiallari bilan tanishish jarayonida ana shunday murakkab davrda ham Xiva xonligida ta’lim-tarbiya ishlariga katta e’tibor qaratilganini guvohi bo‘lamiz.

Biz tanishgan arxiv materialtarining birida Xiva xonligidagi 1916 – 1917-yillarda faoliyat ko‘rsatgan madrasalar ro‘yxati berilgan bo‘lib, unga quyidagiga izoh berilgan: “Bu ro‘yxat Xiva mamlakatini Rusiya olmasdan burun ham so‘ngra Muhammad Rahimxon Soniy davrida Xiva va ham uning atrofidagi Madrasa va mudarrislar, imom va muazzinlari, farrosh va sartaroshlari, suvchi va talabalar sonining Xiva o‘lka muzeyxonasidagi asl nusxasidir, deb o‘lka muzeyxonasi direktori Halim Umarov”.(1)

Ushbu arxiv hujjatni ma’lum tartibga solgan holda ulardan birini quyidagi jadval asosida ko‘rsatish mumkin:

Madrasa, mudarrislar, imom, muazzin, suvchi, farrosh va sartarosh.

Afsuski, ushbu hujjat ham rus istilosi arafasida Xiva va uning atrofidagi madrasalar haqida mukammal ma'lumot berolmaydi, to'g'rirog'i, bu ma'lumotlar to'la saqlanmagan.

Ma'lumki, xonliklarda ham aholini ro'yxatga olish ishlari amalga oshirilgan bo'lib, ular masjid qavmlariga ko'ra xatga olingan, ya'ni har bir oila va uning a'zolari o'zlari mansub bo'lgan (qatnab namoz o'qiydigan va bolalari boshlang'ich ta'lim oladigan) masjid ro'yxatiga kiritilgan. Shuning uchun ham xonlikdagi faoliyat olib borgan masjidlarning birida Xiva va uning atrofida roppa-rosa to'qsonta masjid ro'yxati berilgan (2).

Masjid va madrasalarga ajratilgan vaqflar, ularning aniq faoliyat olib borishi har jihatdan muhimligi e'tiborga olinib, bu ishlarga nihoyatda katta mas'uliyat bilan qaralgan. Shuning uchun ham o'sha yillari amalga oshirilgan vaqf ishlariga oid hisobot ancha mukammal tarzda ishlangan bo'lib, 334 sahifani tashkil qiladi (3). Ana shu hujjatdan misol tariqasida quyidagilarni keltirib o'tamiz: "Oqibat ma'sud hazratimiz Pahlavon Mahmud alayhi-rohma hazratimizdin bo'lgan vaqf: ul jumladin bir kishida uch ming dagi bir yuz tanob yerga egadur. Xonqa baldasining kunbotarida, Urganch baldasining qibla-kunchiqarida, Shohobod arnasining qiblasida sharqan Xalifa Hudoyquli hazratlarining vaqfi, shimolan arnai mazkur, ya'ni Avazxon va Shermuhammad va Mahmudjon va Hoji Qurbon va Muhammad Sharif bo'yoqchi va Ollabergan va Boboxon, g'arbdan O'tar Qozi Muso Eshon, ba'zi Muhammad Amin xo'ja va Ahmadjon va Sayyidmurod va Qalandarxo'ja yerlari, ba'zi Jonxurus bobo alayhi-rohma vaqfi, ba'zi G'aybi jamoasi yerlari, januban G'aybi mulki, ba'zi Olloniyoz va Rahimberdi. Bu maxdud ichida Otajonning yigirma tanob yeri va Abulqodir Eshonning ellik tanob yeri mustag'niydur. Ijora har tanobiga bir yarim botmon g'alla"(4).

Birgina Pahlavon Mahmud madrasaning uch ming bir yuz tanob yerga ega ekanligi o‘sha davr uchun qay darajada moddiy ahamiyat kasb etishini aniq, tasavvur qilishimiz uchun Xiva xoni Muhammad Aminxon o‘zining Ko‘hna Urganchdagi yerlaridan yetmish besh tanobini ikki yuz tilloga askar harajatlari uchun sotgani bilan qiyoslasak, masjid va madrasalarning moddiy ahvoriga o‘ta jiddiy e’tibor qaratilganining guvohi bo‘lamiz (5).

Xiva xonligining rus bosqini arafasidagi ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy ahvolini o‘rganar ekanmiz, bu borada undagi ma’naviy va ma’rifiy hayot qanday kechganini tahdil qilishdan chetlanib o‘tolmaymiz. Buning uchun ham birlamchi manba sifatida arxiv hujjatlariga e’tibor qaratib, ularni sinchiklab o‘rganish zarurdir. Shuningdek Xiva xonligining bu davrdagi vaziyatini arxiv hujjatlari asosida tadqiq qilib, boshqa o‘zbek davlatlari -Buxoro amirligi va Qo‘qon xonliklaridagi ayni shu vaziyat bilan taqqoslash ham muhim ilmiy ahamiyatga ega. Ana shu va boshqa jihatlarni e’tiborga olib, bu boradagi izlanishlarni davom ettirish va tadqiqot ishlarini keng yo‘lga qo‘yish, ularni ilmiy jamoatchilikka yetkazish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

ADABIYOTLAR

1. *O‘zbekiston Respublikasi Markaziy arxivi. Fond № I-125, OP № 1, ISH № 596, varaq № 9.*
2. *O‘zbekiston Respublikasi Markaziy arxivi. Fond № I-125, OP № 1, ISH № 479, varaq № 1-7.*
3. *O‘zbekiston Respublikasi Markaziy arxivi. Fond № I-125, OP № 1, ISH № 485, varaq № 1-334.*
4. *O‘zbekiston Respublikasi Markaziy arxivi. Fond № I-125, OP № 1, ISH № 4485, varaq № 331.*
5. *O‘zbekiston Respublikasi Markaziy arxivi. Fond № I-125, OP № 1, ISH № 559, varaq № 4.*

“Ilm sarchashmalari”. 4-2006. (16-18-betlar)

XORAZM TARIXINI O‘RGANISHDA MUHIM MANBA

Annotatsiya: ushbu maqolada Munis va Ogahiyning “Firdavs ul-iqbol” asari va uning Xorazm tarixini o‘rganishdagi muhim o‘rni haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Mirxond, Ravzat us-safo, Abulg‘ozi, Eltuzarxon, H. Vamberi, A. Kun.

Аннотация: в статье рассматривается произведения Муниса и Агахи “Фирдавс ул-икбол” и его важное значения в истории изучения Хорезма.

Ключевые слова: Мирхонд, Равзат ус-сафо, Абулгози, Элтузархон, Х. Вамбери, А. Кун.

Annotation: In this article deals The work “Firdavs al-Iqbal” by Munis and Agahy it’s role in the study of the history of Khorezm.

Key words: Mirxond, Ravzat us-safo, Abulgozi, Eltuzarxon, H. Vamberi, A. Kun.

Xorazm – eng qadimiy madaniyat markazlaridan biridir. Dunyo fani rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan olimlar, tarixnavis allomalar yetishgan bu zaminda xonlar hukm surgan davrlarda milliy tarixnavislik maktabi shakllandi. Ular tomonidan yaratilgan asarlarda xonlar tarixini yoritish barobarida bu o‘lka xalqlari xayoti, xonlikdagi madaniy-iqtisodiy, siyosiy ahvol haqida qimmatli ma’lumotlar berilgan. Olimlar va tarixchilartomonidan Xorazm tarixini o‘rganish borasida ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada ko‘plab ilmiy monografik asarlar yaratildi. Shu bilan birga, hali qator qo‘lyozma asarlar borki, Xorazm tarixini yoritishda ularni o‘rganish, ularda keltirilgan daliliy malumotlardan to‘liq foydalanish va nashr qilish zarurdir. XIX asrda yashab ijod etgan atoqli o‘zbek shoirlari va mashhur tarixnavislaridan Shermuhammad Munis va Muhammadrizo Ogahiy Xorazm tarixini yozish bilan bir katorda shu sohada ma’lum maktab ham yaratdilar.

Ularning “Firdavs ul-iqbol” asari Xiva xonligi tarixini yoritishga bag‘ishlangan muhim asarlardan biridir.

Munis o‘z zamonasida juda ham iste’dodli shaxslardan edi. Buni uning atrofida qilari ham tan olgan. 1805-yili o‘rtalarida Eltuzar unga o‘z sulolasi tarixini yozishni buyuradi. Munis o‘zining tarixiy asarini “Firdavs ul-iqbol” (Baxt jannati) deb nomladi. Eltuzar vafotidan so‘ng u yozishni to‘xtatadi va Muhammadrahimxon I buyrug‘i bilan uni yana davom ettiradi. Keyingi tanaffus 1819-yili o‘rtalarida boshlandi. Muhammadrahim I Munisga Mirxondning “Ravzat us-safo” asarini turk tiliga tarjima qilishni buyuradi. Munis mazkur asarning birinchi daftari, ikkinchi daftarining bir qismini (Badr urushigacha) tarjima qilishga ulgurdi. 1825-yilda Muhammadrahim I vafot etadi. Yangi xon Olohquli ham unga tarjimani tugatishini buyuradi. Munis tarjimonlikka shunday berilib ketadiki, “Firdavs ul-iqbol” asarini davom ettirishga ulgurmadi (asardagi voqealar 1812-yil5-martgacha berilgandi, xolos).

1829-yilning iyunida Munis xolera epidemiyasi natijasida vafot etadi. U Olohqulixon qo‘shini bilan Xuroson yurushida qatnashib, undan qaytayotganda Lutfobod shahri yaqinida shu kasallikka chalindi va yo‘lda halok bo‘ldi. “Firdavs ul-iqbol” va “Ravzat us-safo” asarining tarjimasi notamom qoladi. Munis ishlarini uning shogirdi va jiyani (ukasining o‘g‘li) Ogahiy – Muhammadrizo ibn Erniyozbek davom ettiradi. Ogahiy shanba kuni 1809-yili 16-dekabr olamga kelgandi.

Shermuhammad Munisning tarixiy asari “Firdavs ul-iqbol” qadim zamonlardan boshlab, 1825-yilgacha Xorazmda sodir bo‘lgan tarixiy voqealarni o‘z ichiga oladi. Munis bu asarini Sharq tarixchilarining an‘anasiga muvofiq hamd bilan boshlagan. So‘ngra o‘z hayoti va asarning yozilish tarixi haqida qisqacha ma‘lumot berib, bevosita Xorazm tarixini yozishga kirishgan. Ammo Munis bu asarini yozib tamomlay olmagan (1829-yilda vafot etgan). U qadim zamonlardan boshlab Muhammadrahimxon I hukmron-

ligining 7-yili (1813-yilgacha) gacha bo‘lgan voqealarni yozishga ulgurgan, xolos. Shu joyidan boshlab asarning chala qolgan qismini Ogahiy (1809-1874) davom ettirgan. U 1813-yil voqealarini bayon etish bilan uzilib qolgan “Firdavs ul-iqbol” asarini shu joydan boshlab Xorazmda sodir bo‘lgan voqealarni yozish bilan to‘ldirgan.

“Firdavs ul-iqbol” asarining tarix ilmidagi ahamiyati shundaki, unda Xorazmning qadim davridan boshlab, Muhammadrahimxon I (1806-1825) davrigacha bo‘lgan siyosiy tarixi xronologik tartibda bayon etiladi. Munis qadim zamonlardan boshlab Abulg‘ozixon davrigacha Xorazmda bo‘lgan voqealarni bayon etarkan, Abulg‘ozi davridagi Xiva va Buxoro xonliklarining o‘zaro munosabatlariga ham to‘xtalib o‘tgan. Shuningdek, XVIII asr va XIX asrning birinchi choragi, ya’ni Qo‘ng‘irot sulolasi vakillarining Muhammadamin inoq (1755-1790), Avaz inoq (1806-1825)larning Xorazmda hukmronlik qilgan yillaridagi tarixiy voqealar bayon qilingan, iqtisodiy va ijtimoiy hayotga doir ayrim ma’lumotlar ham berilgan.

Munis asarida Eltuzarning birinchi to‘rtta g‘alabasini bayon qiladi. Bular: qaroqalpoqlarga qarshi yurish; yovmutlarning mag‘lubiyati, Xo‘ja eli mudofaa devorining buzib tashlanishi; Qo‘ng‘irotning bosib olinishi. Asar muqaddima, beshta bob va xotimadan iborat. Birinchi bobda Odam atodan Nuh payg‘ambar avlodigacha bo‘lgan hodisalar zikri; ikkinchi bobda Yofasdan qo‘ng‘irot sho‘basigacha bo‘lgan mo‘g‘ul hukmdorlar zikri; uchinchi bobda Quralas (Chingiziylardan to Abulg‘ozi ibn Yodgorgacha) davrida sodir bo‘lgan hodisalar zikri; to‘rtinchida qo‘ng‘irot Eltuzarxonning ota-bobolari haqida va beshinchi bobda Eltuzarxonning tug‘ilishidan boshlab to asarning yozilib tamom bo‘lguniga qadar bo‘lgan davr; xotimada avliyolar, ulamo, amirlar,

beklar, shoir va donishmandlar, hunarmandlar va boshqalar haqida yozmoqchi bo‘lgan.

Munis Eltuzar davri (beshinchi bob)ni ikki faslga bo‘lmoqchi bo‘ladi. Birida Eltuzar, ikkinchisida Muhammadrahimxon davrini bayon qilmoqchi bo‘ladi. Xotimani Munis yozib ulgurmaydi.

Abulg‘oziy va Mirxondning asari Munis asarining birinchi, ikkinchi, uchinchi bobining ikkita qismi uchun manba sifatida xizmat qilgan (asarda ulardan to‘rt marta “Ravzat us-safo”ga va ikki marta “Shajarayi turk”ka havola bor). Keyingi boblarini Munis “Firdavs ul-iqbol”da safaviylar davri tarixnavisligi va Nodirshoh davri istoriografiyasiga tayanib yozgan⁵⁷.

Munis asarida Muhammadamin inoq, Avaz inoq va Eltuzar xon davrlaridagi asosiy voqealar alohida nomlanish bilan qat’iy xronologik tarzda berilgan. Muhammadrahim davri esa uning julusidan boshlanadi va yilma-yil bayon qilinib, asarning yarmidan ko‘prog‘ini tashkil qilgan (avtografdagi 242^a-611^a varaqlar). Shunda Munisning Abulg‘ozi vafotigacha bo‘lgan tarixi boshqa manbalar asosida yozilgani ma’lum bo‘ldi, qolgan kattaroq qismi esa ta’kidlaganidek, original qismini tashkil qiladi. Munis o‘z davri tarixi bayoniga yaqinlashgan sari yozma manbalarning yo‘qligidan nihoyat aziyat chekkanini asarida ta’kidlab o‘tadi. Uning shikoyati Eltuzar davridan oldingi tarixga tegishlidir. Munis Xorazmda hukmronlik qilgan Chingiziylar tarixini Abulg‘oziy ibn Arabxondan keyin biron yozmaganini, Eshmuhammadbiy va Muhammadamin inoq g‘alabalarining hech bir joyda qayd etilmaganini afsus bilan ta’kidlaydi va “bu roqimi bebizot” (o‘zini tilga olib) o‘z iste’dodi madadi ila o‘sha davr voqea va hodisotlarni izlab, ularning

⁵⁷ Munis safaviylar davriga oid manbalardan “Ahsan at-tavorix” va “Tarixi olamoroyi Abbosiy” dan foydalangani ma’lum bo‘ladi – M.E..

aniqligiga ishonib, yozib olgan”ini aytadi. Lekin u ko‘pgina voqealarga doir ma‘lumotlar to‘plana olmay ancha vaqt asarini yozolmaganini ham aytib utadi. Biroq u qo‘ng‘irotlar davriga oid “Tarixi olamoroyi Abbosiy” va Hasani Rumlu asarlaridan foydalanganini ko‘rish mumkin. Bu asarlardan oldin olingan ma‘lumotlar Munis tomonidan qayta ishlangan va to‘ldirilganini uning avtografidagi ilovalaridan ko‘rish mumkin⁵⁸. Shu ilovalar va hoshiyalardan Munis bir qancha boshqa manbalardan ham ma‘lumot olganini bilinib olish mumkin⁵⁹.

Munis boshqa muarrixlardan farqli o‘laroq (Abulg‘oziy va O‘tamish Hojiga o‘xshab) xalq og‘zaki ijodidan, V.Yudin ta‘biri bilan aytganda “dasht istoriografiya”si an‘analaridan keng foydalangan. Bu yerda uning axborotchilari ko‘p holatlarda anonim, ba‘zi holatlarda esa aniq nomlari bilan qayd qilingan. Masalan, u Arangxon davriga (1688-1694) doir ba‘zi voqealarni Sayyid Isomiddinxo‘ja Sayyid Muhammadpanohxo‘ja o‘g‘lidan eshitganini yozadi⁶⁰. Muhammad inoq nomi bilan bog‘liq ba‘zi voqealar Munisning otasi Ivaz Mirob nomidan beriladi.

“Firdavs ul-iqbol” asarining beshinchi bobida Munis tarixiy voqealarni ancha erkin va mufassal bayon qilishga harakat qilgan. Bu tabiiy, chunki bu davr tarixining guvohi va faol ishtirokchisi Munisning o‘zi bo‘lgan. Munis o‘zi ishtirok etgan voqealarning birinchi sanasi sifatida 1802-martini tilga oladi. Shu bobning ko‘pgina qismlari voqea ishtirokchilari nomidan yozilgan. Bunday holat asarning olti joyida, ya‘ni guvohlar tilidan olingan ma‘lumot (ular yozma bo‘lishi ham mumkin edi) sifatida ko‘rsatilgan. Biroq

⁵⁸Munis avtografining 47^b, 57^a varaqlaridagi izohlar bundan dalolat beradi.

⁵⁹Ular haqida Yu. Bregelham ma‘lumot bergan. Qarang: Shir Muhammad Mirab Munis fnd Myhammad Riza Agahi. Firdavs al-iqbal: History of Khorezm. – B. XXXIV va keyingilari.

⁶⁰ Munis. Firdavs ul-iqbol. – B.51.

bobning mazmunidan muallifning guvoh axborotchilari bundan-da ancha ko‘pligini bilib olish mumkin. Munis o‘z asarining mazkur bobini arxiv hujjatlari asosida yozilgani ham yaqqol ko‘zga tashlanadi. Zero, u xon va uning qo‘shini bilan ko‘p joylarda bo‘lgani bilan, ba’zi joylarda sodir bo‘lgan voqealarni shaxsan ko‘rmagan edi. Shunda u boshqa ishtirokchilarining hisobotlari, esdalik va nomalaridan foydalangan. Munis asarining uch joyida hujjatlardan ham nusxalar bergan. Bundan tashqari, Munisning o‘z kundaligi bo‘lishi ham mumkinligini Y. Bregel taxmin qiladi.

Munis ishini davom ettirgan Ogahiyning yozma manbalardan foydalanish imkoniyati ko‘proq bo‘lgan. Ayniqsa, u xon arxivi materiallaridan keng foydalanganini “Firdavs ul-iqbol”dan tashqari, boshqa tarixiy asarlarida ham ko‘rish mumkin.

Munis va Ogahiy tarixiy asarlarining asosiy xususiyati ularda keltirilgan voqealar sanalarining aniqligidir. Bu esa O‘rta Osiyo tarixnavisligida bu asarning alohida ahamiyatga ega ekanligidan darak beradi.

Asarda she’riy bezaklar ham keng berilgan. Munis jami 2915 misradan iborat 683 she’riy parcha beradi. Ogahiy esa 514 misradan iborat 84 she’riy parchalarni kiritgan. She’riy parchalar Mullo Sayyidoyi Buxoriy, Nizomiy, Sa’diy, Firdavsiy kabi shoirlarga tegishlidir. Shuningdek asarda Munis va Ogahiyning masnaviy va qasidalari ham bor.

Yevropada “Firdavs ul-iqbol” mualliflari Munis va Ogahiy haqidagi birinchi ma’lumotni H.Vamberi bergan⁶¹. Biroq uning ma’lumotlari biroz chalkash ekanini Y.Bregel ko‘rsatadi. H.Vamberi 1863-yili Xivada kelganda Munis vafot etgan edi. Ogahiy ham Vamberi bilan uchramagani aniq. H.Vamberi xivaliklardan olingan

⁶¹Vamberi A. Puteshestviye po Sredney Azii. Spb., 1865.

ma'lumotlarni yig'ib olib, Munisga nisbat berilgan juda bir zaif she'rni nemischa tarjimasini bilan keltirgan. Shu axborotida H.Vamberi Munis va Ogahiy tarixiy asarlaridan xabardor ekanini bildirib, yaqin kelajakda ularning adabiy merosidan namunalar tarjima etishni rejalashtirayotganini aytgan.

Keyingi ma'lumot Aleksandr Kunga tegishli. 1873-yili Xiva xoni saroyining talan-torojida ishtirok etgan A.Kun 300 jild qo'lyozma kitoblar orasida Munis va Ogahiy kitoblarini ham olgan. U zudlik bilan "Turkestanskiye vedomosti"da shu haqda axborot berib, Munis asarining oxirgi bobi mazmuni va Ogahiy asarlari haqida ma'lumot bergan⁶². 5-dekabr 1873-yili A.Kun Rossiya jug'rofiy jamiyatida ham ma'ruza qilib Munis va Ogahiyning xronikalari haqida ma'lumot bergani ma'lum.

Munis va Ogahiy tomonidan bitilgan "Firdavs ul-iqbol" asarining to'qqizta nusxasi mavjud bo'lib, bu nusxalar asosan Rossiya FA Sharq qo'lyozmalari institutida 571^a (590^{0a}), Y6 VIII, raqamlar ostida, O'zbekiston FA Sharqshunoslik instituti fondida 5364/1, 821/1, 9979, 5071, 7422, 275/1 raqamlari ostida hamda Xelsinki⁶³ saqlanadi.

Munis va Ogahiyning "Firdavs ul-iqbol" asarida Xiva xonligining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotini o'rganishda qimmatli ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, xonlikning siyosiy tarixi juda mufassal berilgan. Bu asar Xorazm tarixini o'rganishda muhim manba hisoblanadi.

"Инновация ва тараққиёт" журнали, 2023 йил 5-6 сонлар.

⁶²Kun A. Zametki o Xivinskom xanstve. // Turkestanskiye vedomosti. 1873. – № 40. – S. 158.

⁶³ Xelsinki⁶³ dagi nusxa haqida qarang: Halèn H. Handbook of Oriental collection in Finland: Manuscripts, xylographs, inscriptions, and Russian minority literature. London–Malmö, 1979. – P. 100.

XORAZM TURKIY TARIXNAVISLIGIGA OID MANBALARIDA DAVLAT BOSHQARUVCHISI TUSHUNCHASINI IFODALOVCHI AYRIM ATAMALAR TADQIQI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Xorazm turkiy tarixnavisligiga oid manbalar leksikasida uchraydigan davlat boshqaruvchisi tushunchasin ifodalovchi ayrim atamalarining ma’no semantic tahlili amalga oshirilgan. Ular qatnashgan birikmalarining o‘ziga xosliklari aniqlangan.*

Kalitso‘zlar: *turkiy tarixnavislik, tarixiy leksika, etimologiya, davlatchilik terminologiyasi, tarixiy manba*

Аннотация: *В данной статье проводится семантический анализ значения некоторых терминов, выражающих понятие государственного управленца, встречающихся в лексике источников, относящихся к турецкой историографии Хорезма. Определены особенности словосочетаний, в которых они участвовали.*

Ключевые слова: *турецкая историография, историческая лексика, этимология, государственная терминология, исторический источник.*

Abstract: *This article provides a semantic analysis of the meaning of some terms expressing the concept of a public manager found in the vocabulary of sources related to the Turkish historiography of Khorezm. The features of the phrases in which they participated are determined.*

Key words: *Turkish historiography, historical vocabulary, etymology, state terminology, historical source.*

Xorazm turkiy tarixnavisligiga oid manbalarda turli mavzuga doir davlatchilik atamalarini uchratishimiz mumkin. Ularning mavzuiy-semantik guruhlarini ajratish, har bir mavzuiy guruhga xos bo‘lgan so‘zlarni aniqlash hamda ularning o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish, etimologik, tarkibiy jihatdan o‘rganish, ularning qaysi til lug‘at qatlamiga oid ekanligini aniqlashtirish bugungi kunda tilning tarixiy qatlamini o‘rganish va leksikologiya rivoji uchun

muhim ilmiy xulosalar chiqarishga ko‘mak beradi. Shu nuqtayi nazardan, biz quyida Xorazm turkiy tarixnavisligiga oid manbalardagi davlat boshqaruvchisi tushunchasi bilan bog‘liq bo‘lgan ayrim atamalarning semantik tahlillarini, ular qatnashgan izofiy birikmalar, ushbu atamalar asosida yasalgan yasama so‘zlarni tahlil qilamiz.

Xusrav. Shoh, tojdor, podshoh so‘zlariga sinonim tarzida eski o‘zbek adabiy tilida keng qo‘llangan. Xususan, badiiy adabiyotda *xusrav* podshoh so‘ziga sinonim tarzda hamda Eron podshohi *Xusrav Parviz kabi hukmdor, badavlat shoh* ma’nosida qo‘llangan. Eski o‘zbek adabiy tiliga fors tili orqali kirib kelgan o‘zlashma davlatchilik termini hisoblanadi. Navoiy asarlarida va Navoiydan keyingi davr turkiy adabiyotda Navoiy ta’sirida *mutakabbir, mol dunyoga berilgan, xudbin, ishq-muhabbatda soxta* ma’nosini ifodalagan holda ham qo‘llangan. Xorazm turkiy tarixnavisligiga oid manbalarda *xusrav* so‘zi, asosan, *shoh, badavlat shoh* ma’nolarida istifoda etiladi hamda *xusravona, xusravoniy, xusraviy* kabi soda yasama so‘zlarning, *xusravi zarrinkuloh* – tillodan kuloh kiygan podshoh, *xusravi anjumsipoh* – yulduzlarday hisobsiz lashkarga ega podshoh, *xusravi mag‘fur* – gunohlari kechirilgan, marhum podshoh, *xusravi g‘oziy* – g‘azot qiluvchi, urushlarda go‘lib bo‘lgan podshoh, *xusravi mulkgir* – mulk, mamlakatlarni fath qiluvchi, egallovchi podshoh, *xusravi komkor* – nasibali, iqbolli, sarafroz podshoh, *xusravi sulaymonmakon* – makoni, maqomi Sulaymon (a.s.) kabi yuksak bo‘lgan podshoh, *xusravi ofoq* – ufqlar podshohi (yetti iqlim podshohi), *xusravi makramatdastgoh* – karam qilishni o‘ziga kasb qilib olgan podshoh, *xusravi anjumlivoyi zarrinin* – zarrin yulduzlarni bayrog‘iga qadagan podshoh, *xusravi jahon* – jahon podshohi, *xusravi olam* – olam podshohi kabi o‘nlab izofiy birikmalar hosil bo‘lishida ishtirok etgan:

*Shahekim qadridur raf’atda mehri osmon yonglig’,
Eruru kishvarsitonlig’ ichra Temur Ko’ragon yonglig’.
Quyosh davrida ko’b sohibqironni ko’rmish ammo, yo’q
Biri Sayid Muhammad – xusravi sohibqiron yonglig’⁶⁴.*

Shuningdek, xusrav asosida hosil qilingan *xusravona* davlatchilik termini ham Xorazm turkiy tarixnavisligiga oid manbalarda juda faol qo‘llangan.

Sulton. Eski o‘zbek tiliga arab tili orqali kirib kelgan davlatchilik termini. Arab tili orqali kirib kelgan o‘zlashma so‘z ya’ni muarrab. Arabiy siniq ko‘pligi *salotin*. Demak, ushbu so‘zni arab tili qonun-qoidalariga bo‘ysundirilgan muarrablar qatorida sanashimiz mumkin. Oliy hukmdor, podshoh, musulmon davlatlarida amir, xon, shohlar unvoni. Ko‘chma ma’noda o‘zgalar ichida eng oldingisi, sarasi, shohi⁶⁵. Ushbu so‘z hozirgi o‘zbek adabiy tilida asosan arab mamlakatlari boshqaruvchisi ma’nosida qo‘llanmoqda: xususan Ummon sultoni, Maskat sultoni, Bruney sultoni kabi. Eski o‘zbek adabiy tilida juda faol qo‘llangan. Chunki X asrda musulmon mamlakatlari boshqaruvchisi *sulton* deyilgan. Keyinchalik saljuqiy hukmdorlardan boshlab arab xalifaligidan mustaqil davlatlar hukmdorlari ushbu unvoni olgan. Mo‘g‘ul imperiyasi inqirozidan so‘ng podshohlik qilmagan chingiziylar *sulton* deb yuritilgan⁶⁶. Xususan, Xorazm turkiy tarixnavisligiga oid manbalarda *sulton* quyidagi ma’nolarda istifoda etilgan:

- 1) Muayyan istilohiy mazmun – o‘zini chingiziylardan hisoblovchi ko‘chmanchi xonlar ma’nosida: *“chingziya xonadonining*

⁶⁴Комёб. Таворих ал-хавонин. 142^a вар.

⁶⁵Ўзбек тилининг изоҳли луғати. IV том. –Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 2008. –В. 585.

⁶⁶Чориев З. Тарих атамаларининг қисқача луғати. – Тошкент: Шарқ, 1999. – Б. 54.

*podshohi pafe'ul-makoni shavkatu izzatnishon sulton Temurxon..."*⁶⁷.

2) Xon so'zining ma'nodoshi sifatida: "*Ul hazratning valodati lozimu-sh-sharofati jaddi buzurgvori sultoni firdavsmakon Muhammad Rahim Bahodirxonning...*"⁶⁸

3) Valiahdga nisbatan ham qo'llanish holatlari kuzatiladi⁶⁹:

*Shahzodai Rahmonquli sulton
Nomi maymuni o'st dar xotam*⁷⁰.

Mazkur davlatchilik termini Xorazm turkiy tarixnavisligiga oid manbalarda *sultoniy*, *sultonlig'* kabi soda yasama so'zlarning yasalishida asos vazifasini o'tagan bo'lsa, *sultoni mabrur* – barcha uchun yaxshi, suyuqli bo'lgan sulton, *sultoni shahriro'z* – shaharlarni yorituvchi sulton, *sultoni olam* – olam dunyo sultoni, *sultoni zarrinalam* – zarrin bayroqli sulton, *sultoni sohibqiron* – qiron sohibi bo'lgan sulton, *sultoni mag'fur* – gunohlari kechirilgan, marhum sulton, *sultoni jamjoh* – Jamshid boyligiga ega bo'lgan sulton, *sultoni mag'firatnishon* – gunohlari mag'firat qilingan (marhum) sulton, *bandi sulton* – sulton to'g'oni, *bandi, sultoni karamparvar* – karam qilishni suyuqli sulton, *sultoni firdavsmakon* – makoni firdavs bo'lgan (marhum) sulton, *sultoni g'ufroonishon* – gunohlari kechirilgan sulton, *sultoni jannatmakon* – makoni jannat bo'lgan (marhum) sulton, *sultoni behishtnishon* – jannatliy bo'lgan

⁶⁷Мухаммад Ризо Эрнийезбек ўгли Огаҳий. Асарлар. IV жилд. Рийзу-д-давла. Нашрга тайёрловчи А.Ўрозбоев. – Тошкент. Шарқ, 2020. – Б.. 48.

⁶⁸Мухаммад Ризо Эрнийезбек ўгли Огаҳий. Асарлар. III жилд. Зубдату-т-таворих. Нашрга тайёрловчи ва изоҳлар муаллифи Н.Жабборов. – Тошкент. Шарқ, 2019. – Б. 38.

⁶⁹Ўрозбоев А. Огаҳий тарихий асарлари лексикаси. Филол. фан. док. (DSc) дис. – Тошкент, 2018. –Б. 38.

⁷⁰Мухаммад Ризо Эрнийезбек ўгли Огаҳий. Асарлар. III жилд. Зубдату-т-таворих. Нашрга тайёрловчи ва изоҳлар муаллифи Н.Жабборов. – Тошкент. Шарқ, 2019. – Б. 61.

sulton, *sultoni sulaymonmakon* –makoni, maqomi Sulaymon (a.s.) kabi yuksak bo‘lgan sulton, *sultoni mamoliksiton* – barcha mamlakatlar yurtlar sultoni, *sultoni volotabor* – avlod-u ajdodlari ulug‘ bo‘lgan sulton kabi o‘nlab forsiy izofalarning hosil bo‘lishida muhim qism sifatida ishtirok qilgan bo‘lsa, *sulton us-salotin* – sultonlarning sultoni, *sulton ibn us-sulton* – sultonning farzandi bo‘lgan sulton, *sulton ul-orifin* – oriflarning sultoni kabi ko‘plab arabiy izofalarning yuzaga kelishiga asos vazifasini o‘tagan. Keltirib o‘tilgani kabi bir qancha arabiy va forsiy izofiy birikmalar, sodda yasama so‘zlar, sulton+fe‘l tipidagi ko‘plab qo‘shma fe‘llarning hosil bo‘lishida mazkur davlatchilik atamasining faol qo‘llanganini e‘tiborga olsak, Xorazm turkiy tarixnavisligiga oid manbalarda *sulton* davlat boshlig‘i ma’nosidagi arab tili orqali o‘zlashgan davlatchilik terminining faol qo‘llangani haqida xulosa qilishimiz mumkin. Ushbu termin Xorazm turkiy tarixnavisligiga oid manbalarning nasriy qismida ham, poetik bezaklarda ham asosan davlat boshlig‘i ma’nosida yoki xon so‘zining sinonimi sifatida so‘z takrorini oldini olishda, qolaversa, tavzi’, tanosub, ishtiyoq, sa’j kabi badiiy-tasviriy vositalarini hosil qilishda ushbu davlatchilik termining o‘rni va ahamiyati katta.

Xadiv (xadev, xidev). Ushbu davlatchilik termini eski o‘zbek adabiy tiliga fors tilidan o‘zlashgan va dastlab *yakka*, *yagona*, *sohib*, *ega* kabi ma’nolarni ifodalagan. Keyinchalik ushbu so‘z ham podshoh so‘ziga sinonim holatda qo‘llana boshlangan. Alisher Navoiy asarlarida ham ushbu davlatchilik termining xadiv yoki xidev shaklida ayni davlat boshlig‘i, podshoh, ega, xo‘jayin ma’nolarida qo‘llanishini kuzatamiz:

Bu so‘zlar degach shohi kishvarxidev,

Ulus chektilar ko‘kka yaksar g‘irev⁷¹.

Xorazm turkiy tarixnavisligiga oid manbalarda mazkur davlatchilik terminining faol tarzda qo‘llanganini kuzatdik: Muhammadjon ibn Mavlomberdi uydachikim, bag‘oyat dalder va mutahhavir yigit erdi va faqirg‘a qarobat va qaynotalig‘ nisbati bor erdi, hazrat xadivi komkorning farmoni qazojarayoni bila ba‘zi dilovarlarni otashandozlig‘g‘a targ‘ibu tahrir qilur erdi⁷².

Ayniqsa, ushbu davlatchilik termini she‘riy bezaklarda turli ma‘no-mazmun ifodalagan holda, rang-barang funksiyalarni bajarga holda qo‘llanishini kuzatishimiz mumkin:

Shahi purdil-u hukmroni jahon,
Xadivi falakqadru sohibqiron⁷³.

Ushbu terminning *xidevi jahonbon* – jahon ustidan nazorat qiluvchi podshoh, *xidevi jahongir* – jahonni egallagan podshoh, *xidevi komkor* - nasibali, iqqolli, sarafroz podshoh, *xidevi behamol* – tengsiz, barchadan ustun podshoh, *xidevi guhartoj* – gavhar tojli podshoh, *xidevi asr* – asr (zamona)ning tengsiz podshohi, *xidevi zafartoj* – yurushlarda, janglarda zafar quchuvchi (zafartojli) podshoh, *xidevi do‘stnavoz* – do‘stlari ko‘p bo‘lgan (ko‘p do‘st orttiruvchi) podshoh, *xidevi beahmol* – yuksiz podshoh, *xidevi jahon* – jahon podshohi, *xidevi falakjanob* – falakdek yuqori darajali, martabasi ulug‘, qudratli podshoh, *xidevi xurshidmaknat* – quyoshdek abadiy, kuchli, qudratli podshoh, *xidevi komravo* – maqsadiga yetishgan, barcha narsadan xabardor podshoh, *xidevi mohchehra* – oyday yorug‘, go‘zal yuzli podshoh, *xidevi*

⁷¹ Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. XI том. Т. Фан. 1992. –Б. 546.

⁷² Шермухаммад Авазбий мироб ўғли Мунис, Муҳаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огахий. Асарлар. II жилд. 1-китоб. Фирдавсу-л-иқбол. Нашрга тайёрловчи И.Бекчонов, Н.Полвонов. – Тошкент. Шарқ. 2019. – Б. 300.

⁷³ Муҳаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огахий. Асарлар. IV жилд. Риезу-д-давла. Нашрга тайёрловчи А.Ўрозбоев. – Тошкент. Шарқ. 2020. – Б. 248^b.

garduntavon – har ishga qodir podshoh, *xidevi iskandarnishon* – Iskandar kabi dunyoni egallagan, qudratli podshoh, *xidevi maullomakon* – oliy makonli, baland martabali podshoh, *xidevi mag‘firatkuloh* – kechirimli bo‘lishni odat qilgan podshoh, *xidevi purtadbir* – har ishning tadbirini biladigan, dono podshoh, *xidevi jamiqtidor* – barcha xislatlarni o‘zida jamlagan, iqtidorli podshoh kabi o‘nlab forsiy izofalarning yuzaga kelishida ayni *xidev* davlatchilk termini asos vazifasini o‘tagan.

Voliy (voli). Hokim, hokimiyat vakili ma’nosini anglatuvchi ushbu davlatchilik termini eski o‘zbek tiliga arab tilidan o‘zlashgan. Arab tilidagi **وَلِيٌّ** (valiyya) fe’lining *egalik qilmoq* ma’nosi asosida hosil qilingan ism. Eski o‘zbek tilida *viloyat hukmdori* yoki *podshoh* so‘ziga sinonim holda qo‘llangan. Xorazm turkiy tarixnavisligiga oid manbalarda, asosan, quyidagi ma’nolarda istifoda etiladi:

1) ma’lum bir qo‘rg‘on boshqaruvchisi: Va ul manzili saodatshomilda Yo‘lo‘tan qo‘rg‘onining voliyi maslahatdoni idqoyin va ixloskamin Muhammadaminbek solur xalqining mashohir va maorifi bila istiqbolg‘a chiqib, ostoni falaknishon turobbo‘slig‘i davlatig‘a istis‘od topib, o‘z hollarig‘a loyiq tuhfa va peshkash o‘tkardilar⁷⁴;

2) ma’lum shahar boshqaruvchisi: ... Saripul voliysi Mahmduxon va Shohimardon xoni Shujo‘iddinxon va Balx hukmroni eshon O‘rog‘ va Andxu nigahboni Shoh Valixong‘a rikobi

⁷⁴Мухаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огахий. Асарлар. III жилд. Зубдату-т-таворих. Нашрга тайёрловчи ва изоҳлар муаллифи Н.Жабборов. – Тошкент. Шарқ. 2019. – Б. 396^a.

humoyun mulozimi jonsiporlaridin sur'atnishon, xizmatlav'amon Bobo yamutni irsol qildi⁷⁵;

3) ma'lum viloyat boshqaruvchisi: Yakshanba kuni oyning o'n to'qquzida Marv voliysi amir Nosiriddin Din Nosir to'radinkim, Shohmurod valini'amining ikkinchi o'g'li va Mir Haydarning inisdur, rasul kelib, itoat arizadoshtin arzg'a yetkurdi⁷⁶;

4) ma'lum urug' boshqaruvchisi: Chahorshanba kuni Qipchoq hikimi Yaxshiliq biy va Qangli voliysi O'roziq biyni og'o-inilari bila tashorifi inoyatidin sarafroz iqlib, rikobi muovadatg'a muborak qadamin qo'yub, Gurlan jonibig'a inoni otifatin ma'tuf etti⁷⁷;

2) yurt, mamlakat boshlig'i, hukmdor, podshoh so'ziga ma'nodosh holda qo'llangan: Qutlug' Murodxon vafotining ifhomi va ba'zi badi' voqealar vuqu'i payg'omig'a mush'ir muhabbatnoma topshurub, Xo'qand diyorining voliysi voloshoni Xudoyorxon'ga irsol qildi⁷⁸.

Mazkur davlatchilik termini garchi yuqoridagi sanab o'tilganlar kabi izofiy birikmalar hosil qilishda o'ta faol bo'lmasada, ammo Xorazm turkiy tarixnavisligiga oid manbalarda bir necha izofiy birikmalarni aniqlashga muvaffaq bo'ldik. Chunonchi, *voliyi maslahatdon* – hududni boshqarishda xonga maslahat beruvchi, kichik hududni boshqaruvchi shaxs, *voliyi viloyat* – viloyat boshqaruvchisi, *voliyi mazkur* – zikr qilingan boshqaruvchi, *voliyi*

⁷⁵Мухаммад Ризо Эрнийезбек ўгли Огаҳий. Асарлар. III жилд. Зубдату-т-таворих. Нашрга тайёрловчи ва изоҳлар муаллифи Н.Жабборов. – Тошкент. Шарқ. 2019. – Б. 400^a.

⁷⁶ShirMuhammad MirabMunis and Muhammad RizaAgahi. Firdavs al-iqbal: History of Khorezm / Edited by Yuri Bregel. T.J.Brill. – Leiden–New York–Kobenhavn–Koln, 1988. –P. 351.

⁷⁷Мухаммад Ризо Эрнийезбек ўгли Огаҳий. Асарлар. VII жилд. Шоҳиду-л-иқбол. Нашрга тайёрловчи Н.Шодмонов. – Тошкент. Шарқ. 2019. – Б. 37.

⁷⁸Мухаммад Ризо Эрнийезбек ўгли Огаҳий. Асарлар. VI жилд. Гулшани давлат. Нашрга тайёрловчи А.Ўрозбоев. – Тошкент. Шарқ. 2019. – Б. 49.

hukmron – kichik hududda hukmron bo‘lgan boshqaruvchi, voliy, *voliyi din* – din himoyachisi bo‘lgan hukmdor, *voliyi Buxoro* – Buxoro hukmdori, *voliyi bilistiqlol* – mustaqil bo‘lgan boshqaruvchi kabi fosriy izofalar shular jumlasidandir.

Shahriyor. Eski o‘zbek adabiy tiliga fors tilidan o‘zlashgan davlatchilik termini. Mumtoz adabiyot namunalari asosan podshoh so‘ziga sinonim holda qo‘llangan. Xususan, mazkur davlatchilik termini Alisher Navoiy asarlarida asosan, *buyuk podshoh*⁷⁹ ma’nosida istifoda etilgan:

Tugatgach so‘zin dedi: “Ey shahriyor,
Ki bo‘lsun sanga doimo baxt yor!”⁸⁰

Xorazm turkiy tarixnavisligiga oid manbalarda ham podshoh, ulug‘ xoqon ma’nosida istifoda etilgan: Hazrati shahriyori karamshiorning iltifoti shohonasi oning inisi Bobo Udaychining holig‘a shomil bo‘lib, biylik mansabi bila aqroni ashbohi orasida sarafrozlig‘ topdi⁸¹.

Ushbu davlatchilik termini ham *shahriyorlig‘* sodda yasama so‘zi yasalishiga asos bo‘lgan hamda Xorazm turkiy tarixnavisligiga oid manbalarda ayrim forsiy izofalarning yuzaga kelishida ishtirok qilgan: *shahriyori zuliqtidor* – o‘ta iqtidorli podshoh, *shahriyori shijoatshior* – shijoatli bo‘lishni shior qilib olgan podshoh, *shahriyori pokizaguhar* – asl zotli, nasli ulug‘ bo‘lgan podshoh, *shahriyori oqil* – oqil podshoh, *shahriyori shijoatosor* – o‘ta shijoatli podshoh, *shahriyori asann* – yaxshi xulqli, yaxshilik qilishni shior qilib olgan podshoh, *shahriyori murassa* – mukammal, kamchiliksiz podshoh, *shahriyori jannatmakon* – makoni jannatda

⁷⁹Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Фан. Том III. Т.: 1984. –Б. 517.

⁸⁰Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. XI том. Т. Фан. 1992. –Б. 546.

⁸¹Муҳаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огаҳий. Асарлар. V жилд. Жомеъу-л-воқеоти султоний. Нашрга тайёрловчи И.Исмоилов. – Тошкент. Шарқ. 2019. – Б. 80.

bo'lgan (marhum) podshoh, *shahriyori falakmiqdor* – falakdek yuksak, buyuk, ulug' podshoh, *shahriyori qadriqtidor* – buyuk iqtidor egasi bo'lgan podshoh, *shahriyori falak* – osmon podshohi (Xorazm turkiy tarixnavisligiga oid ayrim manbalarda ayrim hollarda podshoh quyoshga qiyoslanib shunday ta'riflanadi), *shahriyori jamjanob* – Jamshid podshohdek yuqori martabali podshoh, *shahriyori mulk-u davlat* – mulk, mamlakat va davlatning podshohi, *shahriyori iskandarshavkat* – Iskandarday shavkatli, nomdor podshoh, *shahriyori xovar* – Sharq mamlakatlari podshohi, *shahriyori sohibixtiyor* – ixtiyor egasi bo'lgan podshoh kabi izofiy birikmalar shular jumlasidan.

Xalifa.O'rinbosar, noib. Eski o'zbek tili va hozirgi o'zbek adabiy tilida ushbu davlatchilik terminining quyidagi ma'nolari mavjudligini ta'kidlash joiz: 1) musulmonlar jamoasi va musulmon davlatining diniy, ayni bir paytda dunyoviy boshlig'i; ruhoniylar hukmdori; payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning vorisi, Allohning yerdagi noibi; 2) Buxoro xonligida: shariat aqidalarining bajarilishini tekshirib turuvchi mansabdor shaxs⁸². Xorazm turkiy tarixnavisligiga oid manbalarda ushbu so'z a) Allohning yerdagi noibi ma'nosida: *Hakimekim, hikmati komilasi bila maloyikayi muqarrabinning xalifayi sohibizzatin ibo-u nafaronlig' jihatidin*⁸³; b) mamlakat, imperiya boshqaruvchisi, hukmdori ma'nosida: ... *ittifoq bila mashvarat qilib, andoq maslahat ko'rdilarkim, bir kishini saforati rasmiy bila yiborib, Xorazm podshohi va Rum xalifasidin madad va ko'mak tilagaylar*⁸⁴; c) shariat hukmlariga qat'iy rioya

⁸²Ўзбек тилининг изоҳли луғати. IV том. –Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 2008. –Б. 379.

⁸³Муҳаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огахий. Асарлар. IV жилд. Риёзу-д-давла. Нашрга тайёрловчи А.Ўрозбоев. – Тошкент. Шарқ. 2020. – Б.. 17.

⁸⁴Муҳаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огахий. Асарлар. VII жилд. Шоҳиду-л-иқбол. Нашрга тайёрловчи Н.Шодмонов. – Тошкент. Шарқ. 2019. – Б. 38-39.

qiluvchi hukmdor (xon ta’rifida) ma’nosida: ...*xalifatu-z-zamon, sultoni sohibqiron al-muayad, bi inoyat al-malik al-mannon Abu-l-Muzaffar va-l-Mansur Muhammad Rahim Bahodirxon...*⁸⁵ d) xon tomonidan maxsus topshiriq olgan vakil, elchi ma’nosida: *Va hamul kun qadimiy xizmatkorlardin ixlosnishon Mirzoxon xalifani Hirot viloyatining voliyi voloshoni shoh Komrong’akim...*⁸⁶; e) yordamchi ma’nosida: *Abdurrahmon eshonkim, hazrati shayxu-l-islomi shahidning xalifa va noyibi manobi erdt*⁸⁷ qo‘llanishini kuzatdik.

Mazkur davlatchilik termini ham Xorazm turkiy tarixnavisligiga oid manbalarda *xalifalik, xilofat, dorulxalifa* kabi sodda va qo‘shma yasama davlatchilik terminlarining yasalishida hamda bir qancha forsiy izofalar hosil qilinishida asosiy ahamiyat kasb etadi. Xususan, *xalifayi sohibizzat* – izzat sohibi bo‘lgan podshoh, xalifa, *xalifayi zamon* – zamona podshohi, xalifasi, *xalifayi mazkur* – zikr qilingan xalifa, *xalifayi barhaq* – haqiqatgo‘y va doimo haqiqat tarafdori bo‘lgan xalifa, podshoh kabi forsiy izofalar hosil qilinishida; *xalifat ur-rahmon* – rahimli zot bo‘lgan Yaratganning xalifasi, *xalifat uz-zamon* – zamona xalifasi, podshohi, *xalifat ud-davron* – davr xalifasi, podshohi kabi arabiy izofalarning yuzaga kelishida mazkur davlatchilik termini asos vazifasini o‘tagan.

Yuqoridagi tahlillardan xulosa qilish mumkinki, Xorazm turkiy tarixnavisligiga oid manbalarda davlat boshlig‘i ma’nosini anglatuvchi ko‘plab atamalar uchraydi. Ularning har biri tarixiy asar

⁸⁵Шермухаммад Авазбий мироб ўғли Мунис, Муҳаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огахий. Асарлар. II жилд. 1-китоб. Фирдавсу-л-икбол. Нашрга тайёрловчи И.Бекчонов, Н.Полвонов. – Тошкент. Шарқ. 2019. – Б. 195.

⁸⁶Муҳаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огахий. Асарлар. III жилд. Зубдату-т-таворих. Нашрга тайёрловчи ва изоҳлар муаллифи Н.Жабборов. – Тошкент. Шарқ. 2019. – Б. 66-67.

⁸⁷Муҳаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огахий. Асарлар. IV жилд. Риёзу-д-давла. Нашрга тайёрловчи А.Ўрозбоев. – Тошкент. Шарқ. 2020. – Б.. 149.

lugʻat qatlamida asosiy ahamiyat kasb etuvchi davlat boshligʻi maʼnosini anglatuvchi terminlardir. Xorazm turkiy tarixnavisligiga oid manbalar tilini tahlil qilish jarayonida shunga amin boʻlish mumkinki, mazkur semanttik guruhdagi terminlar koʻplab yasama soʻzlarni hosil qilishda, qolaversa, bir qancha forsiy va arabiy izofiy birikmalarni yuzaga keltirishda asos vazifasini oʻtaydi. Manbalarning nasriy qismida ham, sheʼriy bezklarda ham davlat boshligʻi tushunchasini ifodalovchi terminlar juda faol qoʻllanadi va koʻplab badiiyy-tasviriy vositalarning yuzaga chiqishida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Shir Muhammad Mirab Munis and Muhammad Riza Agahi. Firdavs al-iqbal: History of Khorezm / Edited by Yuri Bregel. T.J.Brill. – Leiden–New York–Kobenhavn–Koln, 1988. –P. 351.
2. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Фан. Том III. Т.: 1984. –Б. 517.
3. Алишер Навоий. Муқамал асарлар тўплами. XI том. Т. Фан. 1992. – Б. 546.
4. Комёб. Таворих ал-хавонин. 142^a вар.
5. Муҳаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огаҳий. Асарлар. III жилд. Зубдату-т-таворих. Нашрга тайёрловчи ва изоҳлар муаллифи Н.Жабборов. – Тошкент. Шарқ. 2019. – Б. 38.
6. Муҳаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огаҳий. Асарлар. IV жилд. Риёзу-давлат. Нашрга тайёрловчи А.Ўрозбоев. – Тошкент. Шарқ. 2020. – Б. 48.
7. Муҳаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огаҳий. Асарлар. V жилд. Жомеъ ул-воқеоти султоний. Нашрга тайёрловчи И.Исмоилов. – Тошкент. Шарқ. 2019. – Б. 80.
8. Муҳаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огаҳий. Асарлар. VI жилд. Гулшани давлат. Нашрга тайёрловчи А.Ўрозбоев. – Тошкент. Шарқ. 2019. – Б. 49.

9. Муҳаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огаҳий. Асарлар. VII жилд. Шоҳиду-л-икбол. Нашрга тайёрловчи Н.Шодмонов. – Тошкент. Шарқ, 2019. – Б. 37.
10. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. IV том. –Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 2008. –В. 585.
11. Ўразбоев А. Огаҳий тарихий асарлари лексикаси. Филол. фан. док. (DSc) дис. – Тошкент, 2018. –Б. 38.
12. Чориев З. Тарих атамаларининг қисқача луғати. – Тошкент: Шарқ, 1999. – Б. 54.
13. Шермуҳаммад Авазбий мироб ўғли Мунис, Муҳаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огаҳий. Асарлар. II жилд. 1-китоб. Фирдавсу-л-икбол. Нашрга тайёрловчи И.Бекчонов, Н.Полвонов. – Тошкент. Шарқ, 2019. – Б. 300.

“Tamaddun nuri”. 2024 -yil. Aprel.

TILSHUNOSLIKKA OID MASALALAR



XI-XII ASRLARDA XORAZMDA TILSHUNOSLIK

XI-XII asrlarda Xorazm ilm-fan, adabiyot va madaniyatda yuksalish davrini boshidan kechirgan. Bu davrda dunyoviy fanlar va tilshunoslik rivojlangan bo‘lib, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Abdulloh Xorazmiy, Abu Nasr Iroq va Mahmud Az-Zamaxshariy kabi mutafakkirlarning ilm-fan sohasida qo‘lga kiritgan ulkan yutuqlari jahon ilmi ahli tomonidan allaqachon tan olingan.

Xorazmlik allomalar bu davrda tilshunoslik va lug‘atshunoslik sohasida hatto arablarni ham ortda qoldirib ketdi. O‘rta Osiyoda bungacha va bundan keyin ham mazkur sohalar bu darajada rivojlanmagan edi. Bu allomalar orasida yorqin siymolardan biri Abu-l-Qosim az-Zamaxshariy edi, albatta u o‘z vaqtida toza e‘tiqodi va yuksak aql-zakovati tufayli “Jorulloh” (Allohning qo‘shnisi) degan ulug‘ laqab -unvonga sazovor bo‘lgan. Ba’zi ilmiy tadqiqotlarga ko‘ra uning 56 ta asari aniqlangan va ulardan anchasi bizgacha yetib kelgan bo‘lib, nashr etilganlari ham talaygina.

Bu davrda Xorazmda az-Zamaxshariydan boshqa quyidagi tilshunos olimlar yashab ijod etgan.

1. Ali ibn Muhammad ibn Ali Ahmad ibn Mirvon. Tilshunos Zamaxshariyning shogirdi.

2. Ali ibn Iroq as-Sinnoriy. Mufasssir va tilshunos. U Zamaxshariy bilan bitta ustoz Abu Ali al-Hasan Naysaburiydan ta’lim olgan.

3. Muhammad ibn Abu-l-Qosim Boyjuk Abu-l-Fazl al-Baqqoliy. Tilshunos va adib. Zamaxshariyning shogirdi.

4. Nosir ibn Abdusayid ibn Ali Abu-l-Fath al-Mutarriziy 538 – yil rajab oyida (1144-y fevral) Xorazmda tug‘ulgan. U Zamaxshariyning ilm va e‘tiqoddagi ishlarini davom ettirganligi sababli, “Zamaxshariyning o‘rinbosari” nomini oladi.

5. Yusuf Ibn Abu Bakr as-Sakkokiy 554-1159-yili Xorazmda tug‘ilgan. Tilshunos va adib.

Al-Qosim ibn al-Husayin Abu Muhammad al-Xorazmiy, U turli fanlarda ijod etgan Zamaxshariydan keying eng sermahsul ijodkordir. Uning ayrim asarlari bugungacha yetib kelgan.

“IX-XIII-asrlarda Sharqning ilmiy va madaniy rivojlanishida Xorazm Ma'mun akademiasining roli” mavzusidagi Respublika ilmiy seminari ma'ruzalarining tezislari. Toshkent-2002. (38-39-betlar)

XORAZMIY TILIGA DOIR TARIXIY VA ILMIY MANBALAR XUSUSIDA

Xorazm nafaqat Markaziy Osiyo, balki butun dunyo tamadduniga katta hissa qo'shgan zamin. Shuning uchun ko'plab lingvistik va ashyoviy dalillarga asoslangan holda nemis sharqshunosi J.Markuart Airyanevayejo-eroniylarning asl vatani, “Avesto” yaratilgan zamin, degan g'oyani ilgari suradi. (1) Xorazmliklar asrlar davomida o'z an'analarini saqlab kelganlar.

Xorazm nomi “Avesto”da Xvarizet va Behustun yodnomalarida (qadimgi forsiy matnlarida) Huvarazmish shaklida uchraydi.(2)

Xorazmiy tili hozirgi kunda o'lik til hisoblanib, Hind-Evropa tillar oilasining sharqiy shohobchasiga mansub bo'lgan. XX asrning birinchi yarmida Xorazmda olib borilgan arxeologik ekspeditsiyalar natijasida xorazmiy tiliga oid muhim manbalar qo'lga kiritilgan. Ana shu manbalar asosida atoqli sharqshunos A.Freymaning qator ilmiy ishlari yuzaga keldi.(3)

Xorazmiy tilining lug'at tarkibi, fonetik xususiyatlari, qadimgi xorazmliklarning urf-odat va e'tiqodi masalariga oydinlik kiritishda alloma Abu Rayhon Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asari ham katta ahamiyatga ega. Beruniy mazkur kitobida oy, kun va oy manzillari (burj)larining xorazmiycha nomini keltiradi.(4)

Keyinchalik islom fiqhiga oid bir kitobning xorazmiy tilidagi nusxasi Istambuldan topildi (Bu haqda turk olimi Zakiy Validiy qator ilmiy tadqiqotlar olib borgay - M.E.).

Xorazmiy tilining lug‘at tarkibini o‘rganish orqali bugungi kunda ham xorazmiy tilidan qolgan ko‘plab so‘zlarning Xorazm shevalari leksikasida saqlanib qolayotganini ko‘rish mumkin. Chunki xorazmiy tili bugungi fors tili (hozirgi fors tili tarixiy taraqqiyotining uchinchi bosqichi bo‘lib, bu etap IX asrdan shakllangani va leksik-grammatik jihatdan takomil topganini e‘tiborga olishimiz kerak-M.E.) va Xorazmiy tillari ayni bir shohobchaga mansub bo‘lmasa ham, ularning lug‘at tarkibi bir-biriga yaqin ekanligini quyidagi jadvalda ham ko‘rish mumkin: (Ushbu jadvalni tuzishda doktor Muhammad Mu‘inning “Eroniy tillar va lahjalar” maqolasidan foydalandik).(5)

| № | Xorazmiycha | Hozirgi fors | Tarjimasi yoki izohi |
|----------|--------------------|---------------------|-----------------------------------|
| 1 | Urdusht | Urzibehisht | Oy nomi, teologik termin |
| 2 | Xaruzod | Xurzod | Oy nomi, teologik termin |
| 3 | Jiri | Tir | Oy nomi, Tishtr (teologik termin) |
| 4 | Axshrvari | Shahrivar | Oy nomi |
| 5 | Ispandarmaji | Isfaidarmuz | Diniy atama |
| 6 | Axir | Xo‘r | “emoq” fe‘lidan o‘zak |
| 7 | Moh | Moh | Oy |
| 8 | Usruf | Surush | Yulduz nomi |
| 9 | Rashn | Rashn | Iloh nomi |
| 10 | Rom | Rom | Iloh nomi |
| 11 | Voz (“3” ishora) | Bod, shamol | Iloh nomi |
| 12 | Asmon | Osmon | iloh nomi |
| 13 | Dini | Din | Iloh nomi |
| 14 | G‘ush | Gush | Quloq |

Xorazmiy tilidagi manbalarni tadqiq, qilish, uni lingvistik jihatdan o'rganish nafaqat tilshunoslik uchun, balki tarix fani uchun ham muhim ma'lumot beradi. Masalan, yuqoridagi jadvalda aks etgan teonimlar qadimgi xorazmiylarning diniy e'tiqodlari borasida birmuncha mufassal tasavvur beradi. Bugungi kunda Xorazm folklorida mavjud tabiat kul'tlari bilan bog'liq aytimlar ildizini boshqa biror xalq yoki etnik guruh ta'siri deb emas, ayni asliyat-xorazmiylar e'tiqodidan saqlanib qolgan g'oya, urflarning turkiy tildagi ifodasi, deb baholash to'g'ri bo'ladi. Jumladan, shamol chaqirish yoki to'xtatish chog'idagi aytimlar *bod (xorazmcha voz)* ilohasi nomi bilan bog'lansa, yomg'ir marosimlari *jiri* ilohasiga borib taqaladi.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek davlatchiligi tarixi bilan shug'ullanish jarayonida xorazmiy tili materiallaridan unumli foydalanish ko'plab boy faktlar taqdim etadi.

ADABIYOTLAR:

1. J. Marquart, *Eranshahr, Berlin. 1901.p.155.*
2. *Encychopédie de L'Islam. Paris. 1913-1938. (Ushbu ensiklopediyada "Xorazm" maqolasi Bartold tomonidan yozilgan)*
3. Фрейма А.А. *Согдо-хорезмский диалектологические отношения-СВ, 1947, №4, Хорезмский язык. Материалы и исследования, М.-Л., 1951.*
4. Abu Rayhon Beruniy. *Osorul-boqiya ani-l-quruni-l-xoliya. Zaxau nashri. Leypsig. 1932, 45, 23, 64, 73, 83, 95-betlar.*
5. *Burxon-I qote. "Amiri Kabir" nashriyoti. Tehron, 1997, 1-tom, 23-bet.*

“Филологические исследования”, XI ТОМ.
Ургенч-2006ю (47-49 стр)

ПИСЬМЕННОЕ НАСЛЕДИЕ ХОРЕЗМА КАК ВАЖНЫЙ ИСТОЧНИК В УЗБЕКСКОЙ ГОСУДАРСТВЕННОСТИ

Узбекское письменное наследие уходит своими корнями в глубокую древность. Оно создавалось нашими предками в течение многих веков и получило свое наглядное отображение в большинстве сохранившихся до настоящего времени рукописных произведений. Наличие данных рукописей свидетельствует о величии и древности культуры нашего края.

Значительную часть нашего древнего письменного наследия составляют исторические надписи и письма. Среди них особое место занимает Хорезмская историографическая школа, которая представляет собой своеобразную и весьма важную структурную часть узбекской школы историографии в целом.

Рукописные экземпляры и их созданные в разное время варианты, имеющие отношение к историографической школе Хорезма, в настоящее время хранятся в отделе рукописей Института востоковедения имени Абу-Рейхана Беруни. В их числе можно отметить следующие: Утемиш-хаджи “Чингизнаме” (1), Абулгази “Родословное древо тюрков” (2), Абулгази “Родословное древо туркмен” (3), Мунис и Агахи “Риёз уд-давлат” (4), Агахи “Зубдат ут-таворих” (5), Агахи “Жамеъ ул-вокеати султони” (6), Агахи “Гулшани давлат” (7), Агахи “Шоҳиди иқбол” (8, единственный экземпляр данного произведения хранится в Санкт-Петербурге), Камёб “Таворих ул-хавонин” (9), Баяни “Родословная Хорезмшахов” (10), Баяни “История Хорезма” (11), Хаджи Фано “История Хорезма” (12), Лаффаси “Материалы по истории Хорезма” (13), Бабажан Сафаров “История ханств Хорезма” (14), Бабажан Сафаров “История Хорезма и его великие деятели” (15), Абдуллах Балтаев “Материалы по истории Хорезма” (16), Атаджан

Мухаммадкаримов “Материалы по истории Хорезма” (17), Бекчан Рах-манов “Озоднаме” (18) и др. Данные рукописи, созданные в нашем регионе в различное время и имеющие непосредственное отношение к историографической школе Хорезма, в то же время значительно отличаются друг от друга не только по содержанию, но и с точки зрения своего исполнения. Несмотря на данное обстоятельство, каждая из них играет важную роль в узбекской историографии, вносит что-то новое в изложение событий, касающихся истории нашего государства и отражают своеобразную точку зрения.

Говоря о вопросах государственности в письменном наследии Хорезма, истоки узбекской историографической школы следует анализировать в тесной связи с письменами наших древних предков, создававшимися на протяжении многих веков. Поскольку письменные сведения о ранней государственности в нашем регионе нашли отражение в созданной почти три тысячи лет тому назад “Авесте” и написанных в XI веке на основе древних сведений произведениях Беруни. Во многих арабских и персидских источниках XIII века говорится о возникновении империи Хорезмшахов, ее деятельности в качестве великого государства, освещаются причины ее падения. На первый взгляд, с точки зрения языка и времени написания, отсутствует всякая связь между ними и получившей дальнейшее развитие на тюркском (староузбекском) языке историографической школой. Однако историю узбекской государственности невозможно представить без данных про-изведений нашего письменного наследия. Многолетние традиции в данной области, переходя от по-коления к поколению, постепенно совершенствовались и служили своеобразным атрибутом, которому все беспрекословно следовали в своей деятельности. Изучая “Авесту”, мы убеждаемся, что получившие в ней свое выражение и касающиеся нашей древней государственности установления и в настоящее время не утратили своей

актуальности. В I книге отмечается необходимость соблюдения населем страны при взаимном общении таких ценностей, как свобода, равенство и патриотизм, подчеркивается, что основным содержанием жизни зороастрийцев должны быть: доброе дело, доброе слово и добрая мысль. Основным долгом человека считается, прежде всего, справедливый образ жизни. Надо помогать добру в борьбе со злом: не обманывать, выполнять обещанное, творить только добрые дела.

На наш взгляд, к священной книге зороастрийцев “Авесте” следует подходить в качестве уникального древнего памятника письменности, внесшего большой вклад в дело формирования основ узбекской государственности, и анализ содержащихся в нем суждений об атрибутах государственности является одной из важных задач, стоящих перед современными исследователями.

Ранние письменные сведения о древних государствах, возникших на территории Хорезма, содержатся и в трудах Абу-Рейхана Беруни, в особенности в его лучшем произведении – “Осор ул-бокия”. Данное произведение написано тысячу лет тому назад. Приведенные в нем заключения о нашей государственности, несомненно, основаны на древнейших источниках. Это объясняется тем, что все труды Беруни основаны на надежных источниках. Исходя из этого можно предположить, что его сведения о ранних тюркских государствах на земле Хорезма основаны на древних хорезмийских письменах. Как пишет автор: “Хорезмийцы ведут свою историю со времен заселения Хорезма, это произошло за девятьсот восемьдесят лет до Искандера” (19). Таким образом, согласно сведениям Беруни, государственность в Хорезме заложена 3300 лет тому назад.

Историческое развитие узбекской государственности на основе древних традиций, его своеобразные стороны получили свое отражение также и в написанных на арабском и персидском языках источниках, касающихся государства

Хорезмшахов-ануштегинидов (1097-1231), отделившегося от империи сельджукидов. В этой связи можно отметить такие произведения, как “Жизненный путь Жало-ладдина Мангуберди” Шахабиддина ан-Насави (20), “Табакоти Носири” Минхож Сирожа (21), “Чиигизхан” Мухаммада Ахмеда Танохи (22) и др. На страницах этих источников приводятся ценные сведения о структурных особенностях империи Хорезмшахов, ее внутренней политике, системе управления, военной мощи, системе налогообложения, внешних связях.

Особое место в историографии Хорезма занимают труды хивинского хана Абулгази Бахадурхана “Родословное древо тюрков” и “Родословное древо туркмен”. Абулгази свое произведение написал на доступном народном языке.

В “Родословном древе туркмен” автор говорит о племенной структуре огузского и туркменского народов, касается вопросов их исторического этногенеза, подробно остановившись на “туркменской политике” Хивинского ханства, подчеркивает необходимость установления добрых отношений между узбекским и туркменским народами. С точки зрения истории нашей государственности, важное значение приобретает второе произведение - “Родословное древо тюрков”. Абулгази, начиная работу над своей книгой, сначала самым внимательным образом изучил написанные до него на разных языках источники и весьма плодотворно задействовал их в исследовании. Как отмечает сам автор, при написании очень ценных для нас оригинальных частей “Родословного древа тюрков” (8-9 главы) он широко использовал свои собственные суждения и сведения, полученные из других источников. В данном произведении дается определение многим историческим событиям, приводятся этнографические сведения, говорится о вопросах общественно-экономического характера. Данные труды Абулгази внесли свою достойную лепту в дело объективного освещения истории узбекской

государственности, осветили немало “белых пятен” в спорных вопросах исторического развития.

К концу XVIII века политическая обстановка в Хорезме изменилась к лучшему. Изменение полити-ко-экономической ситуации в стране привело к закономерным положительным сдвигам и в ее культурной жизни.

Наряду с литературой, искусством и архитектурой усилился интерес и к историографии. Пришедшие к власти представители кунградской династии стремились доказать “законность” своих притязаний на трон не только своим современникам, но и последующим поколениям, и в этой связи все события, связанные с их правлением, попытались запечатлеть на страницах истории. В результате в Хорезме больших успехов добивается историографическая школа на тюркском (староузбекском) языке. Следует отметить, что данный период был самым плодотворным в ее развитии. В данный промежуток времени осуществляли свою деятельность великие ученые-историографы Мунис, Агахи и Баяни. Их исторические труды по праву занимают достойное место в ряду самых ярких образцов узбекской историографии.

Разумеется, в рамках одной статьи невозможно осветить все грани данного важного вопроса. Однако и вышеуказанное свидетельствует о том, что письменное наследие историографии Хорезма имеет существенное значение в разработке истории узбекской государственности, уточнении отдельных спорных моментов, разоблачении имеющихся в данной области ложных стереотипов.

Объективное изучение письменных источников, созданных с древних времен до советского периода и, непосредственно касающихся истории нашей государственности, введение их в научный обиход считается одной из актуальных задач, стоящих перед нашими специалистами.

ЛИТЕРАТУРА:

1. Сектор рукописей Института востоковедения им. Абу-Рейхана Беруни АН РУз, инв. № 1552/у.
2. Там же, инв. № 851.
3. Там же, инв. № 1223.
4. Там же, инв. № 5364/1.
5. Там же, инв. № 5364/Ш.
6. Там же, инв. № 9786.
7. Там же, инв. № 7572.
8. Санкт-Петербургский отдел Института востоковедения АН России, инв. № С 572.
9. Сектор рукописей Института востоковедения им. Абу-Рейхана Беруни АН РУз, инв. № 7717.
10. Там же, инв. № 2057.
11. Там же, инв. № 7421.
12. Там же, инв. № 270.
13. Там же, инв. № 12581.
14. Там же, инв. № 11117.
15. Там же, инв. № 7700.
16. Там же, инв. № 9320.
17. Там же, инв. № 11664.
18. Там же, инв. № 8956.
19. Абу-Рейхан Беруни. Избранное. Т. 1. Ташкент. 1968. с. 71.
20. Ан-Насави. Жизнеописание сул-тана Джалалэддина Манкбурни. Пер. с араб. З.М.Бунятова. Баку. 1973.
21. Минхож Сирож. Табакоти Носири. Кабул. 1343 г.х.
22. Мухаммад Ахмед Панохи. Чин-гизхан. Тегеран. 1373 г.х.

SUMMARY

This article says about the history of development of Uzbek State in the writlen monuments of Khorazm.

**“Вестник. Каракалпакского отделения академии наук
Республики Узбекистан. Нукус-2006”. (92-93-стр).**

**ABULG‘OZI BAHODIRXON TARIXIY ASARLARINING
LINGVISTIK TADQIQI**

Annotasiya. Ushbu maqolada Xorazm turkiy tarixnavisligiga oid bo‘lgan Abulg‘ozi Bahodirxonning “Shajarai turk” va “Shajarai tarokima” asarlari lingvistik nuqtai nazaridan tahlil qilingan. Har ikki asar leksikasiga oid so‘zlarning lingvistik tahlil yo‘nalishlari ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: turkiy tarixnavislik, tarixiy leksika, etimologiya, lingvopoetika, davlatchilik terminologiyasi.

Аннотация. В данной статье анализируются с лингвистической точки зрения произведения “Шаджараи тюрк” и “Шаджараи тарокима” Абулгози Баходирхана, относящиеся к хорезмской тюркской историографии. Разработаны направления лингвистического анализа слов, относящихся к лексике обоих произведений.

Ключевые слова: турецкая историография, историческая лексика, этимология, лингвопоэтика, государственная терминология.

Abstract. This article analyzes from a linguistic point of view the works “Shajaray Turk” and “Shajaray Tarokima” by Abulgozi Bahodirkhan, related to the Khorezm Turkic historiography. Directions for the linguistic analysis of words related to the vocabulary of both works have been developed.

Key words: Turkish historiography, historical vocabulary, etymology, linguo-poetics, state terminology.

Abulg‘ozi Bahodirxon Xorazm tarixida muhim o‘rin tutuvchi xonlardan birisidir. Ayni xon zamonidan boshlab davlat hujjatlari turkiy tilga o‘tkazila boshlandi. Uning Xorazm tarixiga oid “Shajarayi tarokima” va “Shajarayi turk” asarlari nafaqat o‘zining tarixiy qimmatini balki, lingvistik, etnografik, badiiy, mifologik qimmatini bilan ham alohida ajralib turadi. Abulg‘ozi Bahodirxonning tabobatga oid asar ham yozganligi ma‘lum. Ushbu asar ham til, tibbiyot, adabiyot nuqtai nazaridan tadqiq qilinishi ijodkor haqidagi yangi va fan uchun muhim ma‘lumotlarni taqdim qilishi shubhasiz.

Abulg‘ozi Bahodirxonning “Shajarayi tarokima” va “Shajarayi turk” asarlarini bugungi kungacha Sharq mamlakatlari bir necha tillarga tarjima qilib bir necha bor nashrlarini amalga oshirdilar. Ushbu asarlar ustida bir qancha ilmiy ishlar olib borildi. Tarixiy voqealar bayoni, adabiy-badiiy qimmatini o‘z bahosini topdi. Xorazm turkiy tarixnavisligida dastlabki manba sifatida e’tirof etib kelindi. Biz quyida ushbu ikki asarning eski o‘zbek tili leksikasini

o'rganishdagi o'rni va ahamiyati, undagi davlatchilikka oid terminlar, ayrim o'zlashma so'zlarning davr davlatchilik terminologiyasidagi funksiyalari masalalarini yoritishga harakat qildik. "Shajarayi tarokima" (1658-1661 yillar orasida yozilgan deb taxmin qilinadi) turkiy qabilalarning, xususan, turkman qabilalarining kelib chiqishi haqida qimmatli ma'lumot beradi. Abulg'ozixonning ikkinchi asari "Shajarayi turk" nomi bilan mashhur. Mazkur asarning asosiy qismi 1663-1664 yillarda yozilgan. Unda Xorazm XVI-XVII asrning birinchi yarmidagi ijtimoiy-siyosiy tarixi bayon etiladi.

Ushbu ma'lumotlardan xulosa qilib biz har ikki asar ham XVII asrda yaratilganligini va shu davr eski o'zbek tilining o'ziga xosligini namoyon qiluvchi eng muhim manba ekanligini ta'kidlashimiz joiz.

Har ikki asar lingvistik tadqiqini amalga oshirish jarayonida quyidagi masalalarga alohida urg'u bermoq lozim:

Asar leksikasida o'zlashmalar qatlami, uning o'ziga xos xususiyatlari, o'zlashmalarning asar badiiyatidagi o'rni va ahamiyati, o'zlashmalar ko'lami, tarkibiy tahlili, qaysi til lug'at qatlamiga mansub ekanligi. Ushbu tahlillardan o'zbek tili tarixiga oid quyidagi muhim ilmiy xulosalarga kelishimiz mumkin: eng avvalo, "Shajarai turk" va "Shajarai tarokima" asarlarida arabiy va forsiy qatlamga oid til birliklarining ko'lami aniqlashadi, o'zlashmalarning har ikki asar leksikasidagi o'ziga xos xususiyatlariga oid muhim ilimiy faktlar to'planadi, chunonchi, o'zlashmaning tarixiy asar badiiyatidagi o'rni va ahamiyati yoritiladi. Bu borada, ayniqsa o'zlashma so'zlarning badiiy-tasviriy vositalar - nasriy matnda she'riy san'atlar yuzaga kelishidagi o'rni va bu orqali asarning estetik ta'siridagi vazifasi ochib beriladi. O'zlashmaning asar leksikasida qo'llanish sabablari yoritiladi. Bu orqali Abulg'oz Bahodirxonning Sharq mumtoz tarixnavisligi an'analariga amal qilish prinsiplari oydinlashadi. Arabiy yoki forsiy qatlamga oid birliklarning genetik tahlili orqali ijodkorning so'z

qo‘llash mahorati va tilshunos sifatidagi qiyofasi, o‘zlashma qatlamga munosabati aniqlashadi.

Ikkinchi navbatda, har ikki asar leksikasiga oid birliklarning asar badiiy-estetik ta’sirini oshirishdagi o‘rni va ahamiyati yoritilishi zarur. Bu orqali tilshinoslik uchun quyidagi muhim ilmiy xulosalarga kelish mumkin. Abulg‘ozixonning so‘z qo‘llash mahorati, nozik ma’no qirralari orqali muhim ilmiy ma’lumotni yetkazish qudrati, omonim, sinonim, antonim, polisemantik so‘zlarning asar lingvopoetikasida bajargan funksiyalarini keng tahlil qilinishi tufayli lingvopoetika va lingvoestetikaga oid muhim faktlarni qo‘lga kiritish mumkin. Biz Sharq mumtoz adabiyotiga mansub she’riy va nasriy asarlarning lingvopoetikasini tahlil qilish bilan birga, Sharq mumtoz tarixnavisligiga oid manbalarni ham lingvopoetik va lingvoestetik nuqtai nazardan tadqiq qilishimiz zarur. Bu umumiy xulosalar chiqarishimizga sabab bo‘ladi. Chunki davr tarixnavisligiga oid manbalar ko‘p hollarda adabiy ijodkorlar tomonidan yaratilgan yoki tarixnavis tomonidan yaratilsa-da, asarning badiiyatiga juda kuchli urg‘u berilgan hamda she’riy parchalar bilan bezatilgan. Bu jihat ushbu asarlarni bemalol lingvistik, lingvopoetik, lingvoestetik tomondan tahlil qilish mumkinligini ko‘rsatadi.

Uchinchidan, har ikki asar leksikasidagi turkiy qatlamga oid birliklarning o‘ziga xosliklarini aniqlash, turkiy qatlam ko‘lamini belgilash, ularning asar badiiy, ilmiy maqsadini belgilashdagi o‘rni, g‘oyasini ochib berishdagi ahamiyati, turkiy qatlam birliklarining genetik tahlili, qadimgi va eski turkiy til leksikasi bilan bog‘liqligi, morfologik va sintaktik tomonlari, fonetik jihatlari, davr eski o‘zbek adabiy tilidagi funksiyalari, o‘rni va ahamiyati, ma’no ko‘lami, hozirgi o‘zbek adabiy tiliga nisbatan tahlil va talqinlari, ma’no kengayishi va ma’no torayishi, fonetik qobig‘i kabi taraqqiyoti masalalar yoritilishi zarur. Mazkur tahlillar til taraqqiyotiga oid nazariyalarni aniqlashtirishga, turkiy til birliklarining ma’no taraqqiyotiga oid xulosalarni yoritishga, qadimgi va eski turkiy til hamda eski o‘zbek adabiy tili va hozirgi o‘zbek adabiy tili

birliklarining munosabatlari, mavjudlik va iste'moldan chiqish sabab hamda omillari, qonuniyatlarini oydinlashtirishga sabab bo'ladi.

To'rtinchidan, bevosita mavzu bilan aloqador holatda o'z va o'zlashma qatlam birliklaridan davlatchilikka oid terminlarni ajratish, ularning mavzuiy guruhlarini belgilash, genetik tahlillarini amalga oshirish, asar leksikasida tutgan o'rni va funksiyalarini belgilash, terminlarning qaysi lug'aviy qatlamga mansubligini aniqlash, ular anglatgan tushunchalarning davr ijtimoiy-siyosiy hayotida tutgan o'rnini belgilash, qisqa izohli lug'atini tuzish. Bu tahlillar tarix, etnografiya, siyosatshunoslik, tilshunoslik, lug'atshunoslik, madaniyatshunoslik fanlarininig tegishli tarmoqlari rivojida muhim ahamiyatga ega bo'lgan ilmiy ma'lumotlarni taqdim etishi shubhasiz.

Beshinchidan, har ikki tarixiy asar leksikasiga oid birliklarni mavzuiy-semantik guruhlariga ajratish, bu orqali "Shajarai turk" va "Shajarai tarokima" asarlari leksikasiga oid birliklarning har bir guruhiga mansub so'zlar ko'lami aniqlashadi, izohli yoki statistik lug'atini tuzish imkoni yaratiladi, davr tarixi, madaniyati, etnografiyasi, ijtimoiy-siyosiy hayoti va boshqa sohalarga oid muhim ma'lumotlar jamlanadi.

Oltinchidan, asarda keltirilgan toponimlar, etnonim, antroponim, gidronim va boshqa onomasiologik birliklarga berilgan muhim lingvistik izohlarni mukammal o'rganish. Bu orqali biz leksikologiyaning muhim tarmog'i hisoblanmish etimologiyaga mansub muhim ilmiy faktlarni qo'lga kiritishimiz mumkin. Shuningdek, asarda ayrim so'zlarga berilgan bugungi kunda ham ilmiy etimologiya deb qaralib kelinayotgan izohlarga ilmiy tanqidiy yondashuv zarur. Bu orqali biz so'zning chin ma'nodagi ilmiy faktlar bilan isbotlangan etimologiyasiga yetib borishimiz mumkin. Aks holda xalqona etimologiya bilan ilmiy etimologiya qorishib ketishi ehtimoli mavjud.

Ushbu keltirilgan lingvistik tadqiqot yo'nalishlari hali biz ushbu o'rinda sanab o'tganlarimiz. Agar har ikki tarixiy asarning

mukammal lingvistik tadqiqi amalga oshirilsa, aminmizki, boshqa ko‘pgina yo‘nalishlarda muhim yangiliklarni qo‘lga kiritish mumkin. Qolaversa, sanab o‘tilgan ushbu tadqiqot yo‘nalishlarini Xorazm tarixnavisligiga oid barcha asarlarga tatbiq qilish mumkin. Shuningdek, mumtoz adabiyotimizga mansub har qanday ushbu yo‘nalishlarda tahlil qilinsa, o‘zbek tili tarixiga doir qimmatli ma’lumotlar jamlanishi, o‘zbek tili tarixiga oid yaratiladigan izohli lug‘atlar mukammal ko‘rinish olishi shubhasiz.

Quyida keltirilgan yo‘nalishlar doirasida Abulg‘ozi Bahodirxonning “Shajarai turk” va “Shajarai tarokima” asarlarini tahlil qilib ko‘ramiz.

Har ikki asarni o‘qish jarayonida amin bo‘lamizki, muarrix imkoni boricha turkiy til imkoniyatlaridan foydalanishga, uning ma’no jilolarini namoyon qilishiga intilgan: “Tuyga kelgan ulug‘ va kichik barcha o‘g‘lonning bu so‘ziga tong qoldilar. Taqi aytdilar, bu o‘g‘lonning o‘zi otini aytatur, mundin yaxshi ot bo‘lurmu teb, otini O‘g‘uz qo‘ydilar. Taqi aytdilarkim, bir yashar o‘g‘lonning mundoq so‘zlaganini hech zamonda hech kim eshitgan va ko‘rgan yo‘q turur teb, ani irim etib aytdilar kim bu uzoq umrli va ulug‘ davlatli va uchi uzag‘an va yoni yoyilgan bo‘lg‘usi turur, tedilar”. Parchadan ma’lum bo‘ladiki, asar leksikasida turkiy so‘zlar asosiy ahamiyat kasb etadi. Parchada faqat bir-ikki o‘rindagina arabiy va forsiy o‘zlashma uchraydi, xolos.

Ammo har ikki asar tilida arabiy va forsiy o‘zlashmalar ham salmoqli o‘rin tutishini nazardan chetda qoldirmaslik zarur. Sharq tarixnavislik an‘analariga ko‘ra tarixiy asarlar hamd va na’t bilan boshlanishi zarurligi barchamizga ma’lum. Asarning ayni shu qismida, shuningdek, xon, ma’lum amal yoki unvon egasiga maqtov, ta’rif qismlarida ham arabiy, forsiy o‘zlashmalar ko‘p qo‘llanishi haqida ilmiy tadqiqotlarda alohida ta’kidlar mavjud (3, 26).

Xususan, asarda o‘qiymiz: “Bu faqirga, xudoy taolo inoyat qilib ko‘p nimarsa bergan turur. Xususan, uch hunar bergan turur. Avval, sipohigarlikning qonuni va yo‘sunikim nechuk otlanmoq va

yurumak va yovg'a yosoq yasamoq, ko'p birlan yuruganda nechuk qilmoq, oz birlan yuruganda nechuk qilmoq, do'stg'a dushmanga nechuk so'zlashmak. Ikkinchi, masnaviyyot va qasoid va g'azaliyot va muqatta'ot va ruboiyot va barcha ash'orni fahmlamaklik, arabiy va forsiy va turkiy lug'atlarning ma'nosini bilmaklik. Uchinchi, Odam ahlindin to bu damgacha Arabistonda, Eron va Turonda va Mug'ulistonda o'tgan podshohlarning otlari va umrlarining va saltanatlarining kam yoki ziyodin bilmaklik"(1, 8-9). Parchadagi faqir, Xudoy taolo, hunar, do'st, dushman, masnaviyyot, qasoid, g'azaliyot, musatta'ot, ruboiyot, ash'or, Odam, ahd, podshoh, umr, saltanat, kam, ziyod o'zlashmalarini sanaydigan bo'lsak, asarda ushbu ikki til orqali turkiy tilga kirib kelgan so'zlarning ham ahamiyati va salmog'i katta ekanligini anglashiladi. Albatta, ushbu o'zlashmalar asar matnida ma'lum funksiyalarni bajarishga xoslantirilgan. Parchada ular, matnning estetik ta'sirini oshirish bilan birgalikda tazod: faqir - Xudoy taolo, do'st - dushman, kam - ziyod; tanosub: masnaviyyot, qasoid, g'azaliyot, musatta'ot, ruboiyot, ash'or, podshoh, saltanat kabi tasviriy vositalar yuzaga kelishiga xizmat qildirilmoqda.

Asar leksikasiga oid so'zlarning mavzuiy-semantik guruhlarini ajratish davr etnografiyasiga oid muhim ma'lumotlarni jamlash imkonini taqdim qiladi. Chunonchi, quyidagi parchaga e'tibor qarataylik: "[Arab Muhammadxon bo'lgandin (1602 -yili) olti oydin so'ng Qo'sh yoyiq tegandi yurugan o'rusning qozoqindin ming kishi saratonning avvalgi kuni g'ofil kelib, Urganchning qal'asina kirdi. Shaharda ra'iyatdin o'zga kishi yo'q edi. Xonning o'rdu va sipoh xalqi Amu suvining labinda erdilar... [Urus qozoqi] Urganchda ra'iyatdin ming kishini o'lturdi va ming qiz birlan juvonne oldi. Ming arabaga yaxshi mollardin yukladi. Bo'z va buyog'li va palos va to'n va to'shak-yastuk mundag' nimarsalarning barchasini o'tga yoqdi. Bularni saranjom qilguncha yetti kun bo'ldi. Andin so'ng Urganchdin chiqib daryo labiga yurudu..."(1, 160).

Keltirilgan parchadagi so'zlarni mavzuiy-semantik guruhlariga ajratsak: **davlatchilik terminlari:** xon, qal'a, shahar, ra'iyat, o'rd, u,

sipoh, xalq, maishiy leksika: mol, araba, bo‘z, buyog‘li (rangli matolar), palos, tun, tushak, yastuq; **etnonimlar**: o‘rus, qozoq; **toponimlar**: Qo‘sh yoyiq, Urganch; gidronimlar: Amu, suv, daryo va boshqalar. Ushbu guruhlarga mansub har birlikning o‘ziga xos qo‘llanish sabablari, matnda bajargan funksiyasi, so‘zning qaysi lug‘at qatlamiga mansubligi, kelib chiqish tarixi (etimologiyasi), fonetik, morfologik, semantik taraqqiyoti - mazkur masalalarga oydinlik kiritish bizning tadqiqotlarimizning asosiy maqsadidir.

Asarda keltirilgan etnografiya va tilshunoslikning tutashgan nuqtasi bo‘lmish etnonimlar, ularning kelib chiqish tarixi, nomlanish sabablari (biz bugun nominatsiya prinsipi, nomlash tamoyili deya tahlil qilayotgan masalalarimizga Zahiriddin Muhammad Bobur, Abulg‘ozi Bahodirxon, Ogahiy kabi tarixiy, tarixiy-badiiy yoki memuar asar yaratgan ajdodlarimiz o‘z davridayoq chuqur ilmiy xulosalar vositasida aniq faktlarni bizga qoldirganlari tahsinga sazovordir), alohida keltirib o‘tadi, ya‘ni turk-mo‘g‘ul qabilalari, xususan, ular nomlarining ma‘nosi haqidagi ma‘lumotlar, o‘zbeklar, sartlar hamda turkman urug‘lari (sariq, yovmut, qizil ayoq, ersari kabi) haqidagi ma‘lumotlar ham tilshunoslik uchun o‘ta muhimdir. Jumladan, u turkiy qabilalarga kiruvchi va turk nomi bilan ataluvchi qabilalar quyidagi katta 5 avlod (bo‘g‘in)ni tashkil qiladi degan. Bular: uyg‘ur, qang‘li/qangli, qipchoq, qalach, qarluq qabilalari. So‘ngra u boshqa turkiy qabila va urug‘lar haqida to‘xtab o‘tadi: 1. Tekrin yoki mekrin. 2. Qirg‘izlar. 3. Kem-kemchutlar. 4. O‘rmonkat. 5. Nukuzlar. 6. Tatarlar. 7. Oyrat/uyrat. 8. To‘rg‘ovut. 9. Ko‘ri. 10. To‘las. 11. Bulg‘ochin. 12. Kermuchin. 13. Tulengut. 14. O‘rasut. 15. Kusutmay. 16. Nayman. 17. Kerayit. 18. O‘ngut. 19. Turg‘oq. Ajoyibi shundaki, Abulg‘oziy bu etnonimlarning ba‘zilarini etimologiyasi bilan beradi (2,32).

Undan tashqari asarda keltirilgan etnonimlardan boshqa orlot/arlat, og‘or, olayunotli, o‘qli, aymoq, boshqird, bayot, tot, totar, temirli, turumchi, turk, turkman, taka, turbotli, tevachi, jobi, jomachi, cho‘bichoq, cho‘boni, chig‘atoy, cho‘ni, xizir eli, xurosonli, xalaj, dukar, soiq, solur, surxi/surqi, soqar, saljuk,

sultonli, savroqi, sovchili, qo‘rg‘oli, qo‘rqin, qorlik, qipchoq, koratoshli, qalmoq, qirg‘iz, chiroyli, qutlar, lola, mo‘g‘ul, mang‘it, nayman, mo‘ndi, yozir, yag‘mo, yovmut, yurti kabi o‘nlab etnonimlar uchraydiki, ular ustida ham tadqiqot olib borish xalqimiz tarixi, o‘zbek tili tarixiga oid muhim ilmiy xulosalar chiqarishimizga sabab bo‘lishi shubhasiz.

Xulosa qilib aytganda, Xorazm tarixnavisligi maktabining asoschisi tom ma‘noda Abulg‘oziy Bahodirxon hisoblanadi. Uning asarlarida dasht og‘zaki istoriografiyasidan keng foydalanilgan. Shu bilan birga, Abulg‘oziy o‘z asarlarida fors istoriografiyasi va umuman, Sharq tarixnavisligi an‘analaridan unumli foydalana olgan. U Xorazm vohasida turkiy (chag‘atoy) tilida islom istoriografiyasi doirasida turkiy xalqlarning paydo bo‘lishi, ularning islomlashuvi jarayonlari va zamonasida dolzarblik ahamiyat kasb etgan ko‘p mavzu va muammolarga ahamiyat bergan. Uning har ikki tarixiy asarlari tili, lug‘at tarkibi, o‘z va o‘zlashma qatlam, so‘zlarning mavzuiy-semantik guruhlar va ularga oid birliklarni ajratish, so‘zlarning qaysi lug‘at qatlamiga oid ekanligini belgilash, genetik hamda komponent tahlillarini amalga oshirish o‘zbek tili tarixi, xalqimiz tarixi, madaniyati va boshqa sohalar rivojida muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. *Abulg‘oziy. Shajarayi turk. Nashrga tayyorlovchilar Q.Munirov, Q.Yo‘ldoshev. T. Cho‘lpon. - B. 8 - 9.*
2. *Doniyorov X. O‘zbek xalqining Shajara va Shevalari. -B. 35.*
3. *Mahmudov R. Ogahiy tarixiy asarlarida o‘zlashmalar. Filol. fan. doktori diss. Toshkent. 2022. -B. 26.4.*
4. *Самойлович А.Н. Одни из списков “Родословного древа тюркменского” Абульгази-хана // ДАН-В. 1927. - С. 39-42.*
5. *Собрание восточных Рукописей АН Республики Узбекистон (СБР), 152-154.*

**“Xorazm Ma‘mun akademiyasi axborotnomasi”. Xiva -
2023, 8/4 -son. (188-192 -betlar)**

РУКОПИСНЫЕ ИСТОЧНИКИ, СОЗДАННЫЕ В ХОРЕЗМЕ

Среди них особое место занимает Хорезмская историографическая школа, которая представляет собой своеобразную и весьма важную структурную часть узбекской школы историографии в целом.

Рукописные экземпляры и их созданные в разное время варианты, имеющие отношение к историографической школе Хорезма, в настоящее время хранятся в отделе рукописей Института востоковедения имени Абу-Рейхана Беруни. В их числе можно отметить следующие: Утемиш-хаджи “Чингизнаме” (1), Абулгази “Родословное древо тюрков” (2), Абулгази “Родословное древо туркмен” (3), Мунис и Агахи “Риёз уд-давла” (4), Агахи “Зубдат ут-таворих” (5), Агахи “Жамеъ ул-вокеати султони” (6), Агахи “Гулшани давлат” (7), Агахи “Шохиди икбол” (8, единственный экземпляр данного произведения хранится в Санкт-Петербурге), Камёб “Таворихул-хавонин” (9), Баяни “Родословная Хорезмшахов” (10), Баяни “История Хорезма” (11), Хаджи Фано “История Хорезма” (12), Лаффаси “Материалы по истории Хорезма” (13), Бабажан Сафаров “История ханств Хорезма” (14), Бабажан Сафаров “История Хорезма и его великие деятели” (15), Абдуллах Балтаев “Материалы по истории Хорезма” (16), Атаджан Мухаммадкаримов “Материалы по истории Хорезма” (17), Бекчан Рахманов “Озоднаме” (18) и др. Данные рукописи, созданные в нашем регионе в различное время и имеющие непосредственное отношение к историографической школе Хорезма, в то же время значительно отличаются друг от друга не только по содержанию, но и с точки зрения своего исполнения. Несмотря на данное обстоятельство, каждая из них играет важную роль в узбекской историографии, вносит что-то

новое в изложение событий, касающихся истории нашего государства и отражают своеобразную точку зрения.

Говоря о вопросах государственности в письменном наследии Хорезма, истоки узбекской историографической школы следует анализировать в тесной связи с письменами наших древних предков, создававшимися на протяжении многих веков. Поскольку письменные сведения о ранней государственности в нашем регионе нашли отражение в созданной почти три тысячи лет тому назад “Авесте” и написанных в XI веке на основе древних сведений произведениях Беруни. Во многих арабских и персидских источниках XIII века говорится о возникновении империи Хорезмшахов, ее деятельности в качестве великого государства, освещаются причины ее падения. На первый взгляд, с точки зрения языка и времени написания, отсутствует всякая связь между ними и получившей дальнейшее развитие на тюркском (староузбекском) языке историографической школой. Однако историю узбекской государственности невозможно представить без данных произведений нашего письменного наследия. Многолетние традиции в данной области, переходя от поколения к поколению, постепенно усовершенствовались и служили своеобразным атри-бутом, которому все беспрекословно следовали в своей деятельности. Изучая “Авесту”, мы убеждаемся, что получившие в ней свое выражение и касающиеся нашей древней государственности установления и в настоящее время не утратили своей актуальности. В книге отмечается необходимость соблюдения населением страны при взаимном общении таких ценностей, как свобода, равенство и патриотизм, подчеркивается, что основным содержанием жизни зороастрийцев должны быть: доброе дело, доброе слово и добрая мысль. Основным долгом человека считается, прежде всего, справедливый образ жизни. Надо помогать добру в борьбе со злом: не обманывать, выполнять обещанное, творить только добрые дела.

На наш взгляд, к священной книге зороастрийцев “Авесте” следует подходить в качестве уникального древнего памятника письменности, внесшего большой вклад в дело формирования основ узбекской государственности, и анализ содержащихся в нем суждений об атрибутах государственности является одной из важных задач, стоящих перед современными исследователями.

Ранние письменные сведения о древних государствах, возникших на территории Хорезма, содержатся и в трудах Абу-Рейхана Беруни, в особенности в его лучшем произведении — “Осор ул-бокия”. Данное произведение написано тысячу лет тому назад. Приведенные в нем заключения о нашей государственности, несомненно, основаны на древнейших источниках. Это объясняется тем, что все труды Беруни основаны на надежных источниках. Исходя из этого можно предположить, что его сведения о ранних тюркских государствах на земле Хорезма основаны на древних хорезмийских письменах. Как пишет автор: “Хорезмийцы ведут свою историю со времен заселения Хорезма, это произошло за девятьсот восемьдесят лет до Искандера” (19). Таким образом, согласно сведениям Беруни, государственность в Хорезме заложена 3300 лет тому назад.

Историческое развитие узбекской государственности на основе древних традиций, его своеобразные стороны получили своё отражение также и в написанных на арабском и персидском языках источниках, касающихся государства Хорезмшахов ануштегинидов (1097—1231), отделившегося от империи сельджукидов. В этой связи можно отметить такие произведения, как “Жизненный путь Жа-лоладдина Мангуберди” Шахабиддина ан-Насави (20), “Табакоти Носири” Минхож Сирожа (21), “Чингизхан” Мухаммада Ахмеда Панохи (22) и др. На страницах этих источников приводятся ценные сведения о структурных особенностях империи Хорезмшахов,

ее внутренней политике, системе управления, военной мощи, системе налогообложения, внешних связях.

Особое место в историографии Хорезма занимают труды хивинского хана Абулгази Бахадурхана “Родословное древо тюрков” и “Родословное древо туркмен”. Абулгази свое произведение написал на доступном народном языке.

В “Родословном древе туркмен” автор говорит о племенной структуре огузского и туркменского народов, касается вопросов их исторического этногенеза, подробно остановившись на “туркменской политике” Хивинского ханства, подчеркивает необходимость установления добрых отношений между узбекским и туркменским народами. С точки зрения истории нашей государственности,

Литература:

важное значение приобретает второе произведение — “Родословное древо тюрков”. Абулгази, начиная работу над своей книгой, сначала самым внимательным образом изучил написанные до него на разных языках источники и весьма плодотворно задействовал их в исследовании. Как отмечает сам автор, при написании очень ценных для нас оригинальных частей “Родословного древа тюрков” (8—9 главы) он широко использовал свои собственные суждения и сведения, полученные из других источников. В данном произведении дается определение многим историческим событиям, приводятся этнографические сведения, говорится о вопросах общественно-экономического характера. Данные труды Абулгази внесли свою достойную лепту в дело объективного освещения истории узбекской государственности, осветили немало “белых пятен” в спорных вопросах исторического развития.

К концу XVIII века политическая обстановка в Хорезме изменилась к лучшему. Изменение политико-экономической ситуации в стране привело к закономерным положительным сдвигам и в ее культурной жизни.

Наряду с литературой, искусством и архитектурой усилился интерес и к историографии. Пришедшие к власти представители кунградской династии стремились доказать, “законность” своих притязаний на трон не только своим современникам, но и последующим поколениям, и в этой связи все события, связанные с их правлением, попытались запечатлеть на страницах истории. В результате в Хорезме больших успехов добивается историографическая школа на тюркском (староузбекском) языке. Следует отметить, что данный период был самым плодотворным в ее развитии. В данный промежуток времени осуществляли свою деятельность великие ученые-историографы Мунис, Агахи и Баяни. Их исторические труды по праву занимают достойное место в ряду самых ярких образцов узбекской историографии.

Разумеется, в рамках одной статьи невозможно осветить все грани данного важного вопроса. Однако и вышеуказанное свидетельствует о том, что письменное наследие историографии Хорезма имеет существенное значение в разработке истории узбекской государственности, уточнении отдельных спорных моментов, разоблачении имеющихся в данной области ложных стереотипов.

Объективное изучение письменных источников, созданных с древних времен до советского периода и непосредственно касающихся истории нашей государственности, введение их в научный обиход считается одной из актуальных задач, стоящих перед нашими специалистами.

ЛИТЕРАТУРА:

1. *Сектор рукописей Института востоковедения им. Абу-Рейхана Беруни АН РУз, инв. № 1552/у.*
2. *Там же, инв. № 851.*
3. *Там же, инв. № 1223.*
4. *Там же, инв. № 5364/1.*
Народное творчество “учёный” 29
5. *Там же, инв. № 5364/III*
6. *Там же, инв. № 9786.*

7. Там же, инв. № 7572.
8. Санкт-Петербургский отдел Института востоковедения АН России, инв. № С 572.
9. Сектор рукописей Института востоковедения им. Абу-Рейхана Беруни АН РУз, инв. № 7717.
10. Там же, инв. №2057,
11. Там же, инв. № 7421.
12. Там же, инв. №270.
13. Там же, инв. № 12581.
14. Там же, инв. № 11117.
15. Там же, инв. № 7700.
16. Там же, инв. №9320.
17. Там же, инв. № 11664.
18. Там же, инв. № 8956.
19. Абу-Рейхан Беруни. Избранное. Т. 1. Ташкент. 1968. с.71.
20. Ан-Насави. Жизнеописание султана Джалалэддина Манкбурни. Пер. с араб. З.М. Буниятова. Баку, 1973.
21. Минхож Сирож. Табакоти Носири. Кабул. 1343 г. х.
22. Мухаммад Ахмед Панохи. Чингизхан. Тегеран. 1373 г. х.

**“Xorazm ma’mun akademiyasi axborotnomasi”
Xiva-2023, 8/4 –son. (188-192 betlar)**

FORS TILI HIROT LAHJASINING BA’ZI XUSUSIYATLARI HAQIDA

Qadimiy Hirot Temuriylar davlatining poytaxtlaridan biri bo‘lganligi, ko‘plab aziz bobolarimiz qatorida Alisher Navoiyning ham vatani bo‘lganligi va boshqa sabablarga ko‘ra har bir o‘zbek uchun qadrlidir.

Hirot nomi “Avesto”da ham zikr etilgan qadimiy shahardir. “Avesto”da u Xaraeva shaklida qayd etilgan. Qadimgi Yunon manbalarida esa Aryo tarzida tilga olingan. Bu shaharning Xiri nomi ham mashhurdir. Alisher Navoiy va Bobur kabi ajdodlarimiz asarlarida Hirot nomini aksariyat shu shaklda uchratamiz.

Mutaxassislar fikricha, Hirot lahjasi fors tilining asliyligi, sofliigi, jozibasini juda yaxshi saqlagan. Ushbu makolada eronlik olim, Firdavsiy nomidagi Mashhad universiteti o‘qituvchisi Muhammad Osaf Fikratning “Hirot forsiysi” (“Xirotning so‘zlashuv tili”) kitobi (1) va 1987-1988 yillar davomida Afg‘onistonda qilgan xizmat safarimiz davomida to‘plagan ba’zi ma’lumotlarga asoslanib, Hirot lahjasi va bugungi fors adabiy tili o‘rtasidagi ba’zi fonetik farqlar xususida gapirishga harakat qildik.

Fors adabiy tili va Hirot lahjasida unlilar talaffuzida ko‘plab farqlarni uchratishimiz mumkin. Masalan, fors tilida so‘z oxirida “hoy-e xavvaz” “e” tarzida talaffuz qilinsa, Hirot lahjasida “a” deb (xuddi o‘zbek tilidagi kabi) talaffuz qilinadi.

O‘zbek tilida

xona

basta (yopiq,)

joda (katta yo‘l)

jala

Forsiy adabiy tilida

xone baste jodde jole

Hirot lahjasida

xona

basta

joda

jola

Oxirgi soʻz (jala)dagi “J” aslida sirgʻaluvchidir.

Fors tilidagi kuyi keng unli “O” Hirot lahjasida nisbatan qisqaroq, xuddi oʻzbek adabiy tilidagi kabi talaffuz qilinadi. Bugungi fors adabiy tilida “I” deb choʻziq talaffuz qilinuvchi “yo-ye” majhul Hirot adabiy tilida klassik formada, yaʼni dariycha “e” (choʻziq) tarzda aytiladi. Masalan, ser (tuk), sel (sel), ter (ter), sheva (odat) va hakazo.

“Vov” harfi bugungi fors tilida baʼzi oʻzagi bir boʻgʻinli soʻzlardan tashqari kam sonli soʻzlardan boshqa hollarda choʻziq “u” tarzida talaffuz qilinsa, Hirot lahjasida koʻpincha “u” (oʻzbekcha “oʻsha” soʻzidagi kabi, nisbatan choʻziq) aytiladi.

Masalan: shoʻr, goʻr, zoʻr, xoʻsha {boshqoq} va hokazo.

Shuningdek, Hirot lahjasida bugungi fors tilining asos dialekti Tehron shevasiga oʻxshash jihatlari yoʻq emas. Hususan, koʻpincha soʻz oʻrtasida “o” unlisi “u” unlisiga oʻtadi.

Masalan,

| Tehron shevasida | Hirot shevasida | Tarjimasi |
|-------------------------|------------------------|------------------|
| Osmun | Osmun | Osmon |
| Juvun | Juvun | yosh |
| Bemun | Bimun | qol! |

Lekin jon, jahon, lom, gulom kabi soʻzlar aslicha talaffuz qilinadi.

Undoshlarda koʻzga tashlanadigan asosiy farqlarni quyidagicha koʻrsatish mumkin:

| № | Oʻzgarish | | |
|----------|-------------|-----------------|-----------|
| | Fors tilida | Hirot lahjasida | Tarjimasi |
| 1 x —► Q | Oʻstexon | Ustiqon | Suyak |
| 2 D —► t | Masjed | Machit | Masjid |
| 3 D —► Y | Pedar | Piyar | Ota |

4R —► L Divol, barg Devol, barg Devor, yaproq, barg

Tovush tushishi hodisasini quyidagi sxemada kuzatishimiz mumkin

№ Tushib qoluvchi tovush

| | Fors tilida | Hirod tilida | Tarjiması |
|----|--------------------|---------------------|------------------|
| 1Y | Miyon | Mos | Oro, o‘rta |
| 2T | Most, rost | Mos, ros | Qatiq, o‘ng |
| 3B | Jorub | Jopu | Supurgi |
| 4H | Maxr, mo‘xr, rox | Mar, Mur, ro | Maxr, muhr, yo‘l |

Agar Hirod lahjasidagi ayrim so‘zlar Xorazm shevasidagi forsiy o‘zlashmalar talaffuzi bilan qiyoslasak, ba’zi o‘xshashliklar yoki bir hillikni kuzatishimiz mumkin:

| Forsiy adabiy tilida | Hirod lahjasida | Xorazm shevalarida | O‘zbek adabiy tilida |
|-----------------------------|------------------------|---------------------------|-----------------------------|
| Go‘fl | qulf | qulf | kulf |
| Kafsh | kuvish | kuvish | kavush |
| Go‘voh, | guvo | guvo | guvoh |
| Go‘noh | guno | guno | gunoh |

Bunlay misollarii ko‘plab keltirish mumkin.

Xulosa qilib aytganda. Hirod lahjasini qiyosan o‘rganish quyidagi ilmiy ahamiyatlarga ega:

- Alisher Navoiy asarlari (turkiy va forsiydagi) tilini chuqurroq o‘zlashtirish;

- Xorazm shevalari tilini o‘zlashmalar va substrat qatlamga ajratish va boshqalar.

ADABIYOTLAR:

1. Fikrat Muhammad Osaf. Forsiy hiraviy. Mashhad, -1997.

2. Hasanov Botirbek. Navoiy asarlari uchun qisqacha lug‘at. Toshkent. -1993.

“Filologik tadqiqotlar”. Urganch – 2004. (61-63-betlar)

FORS TILI LEKSIKASINING YEVROPA TILLARI LEKSIKASI QIYOSIGA OID

Tilshunoslikda tillarning qarindoshligini aniqlashda leksik-grammatik qurilishga nisbatan ikkinchi darajali hisoblansa ham, qarindosh tillar orasida leksik yaqinlik uzok davr va geografik masofaga qaramasdan saqlanib qolishi shubhasiz. Jumladan, hind - yevropa tillari oilasining eron guruhiga mansub fors tili leksikasida shu oilaning roman va german guruhiga mansub Yevropa tillari leksik fondida mavjud bo'lgan so'zlarga tarixan o'zakdosh deyish mumkin bo'lgan so'zlarni ko'plab uchratish mumkin. Taniqli tadqiqotchilar, olimlar bunga juda ko'plab misollarni keltirganlar.

Agar fors va pahlavny tillarilshi fonetik farqlar, ma'no va shakl ko'chish qonuniyatlariga etibor qaratsak, bunday misollar hamda asoslar miqdori yanada ko'paygan. Biz ushbu misollarni keltirishda eronlik filolog doktor Mir Jalaliddin Kazzoziyning "Shohnoma" sharhiga oid "Qadimiy obida" (Nomai boston) kitobdan, shuningdek, doktor Muhammad Muinning etimologik izohlaridan keng foydalandik.

Misol uchun "nom" so'zi umumoriy (hind-yevropa) so'zi bo'lib, "Avesto"da "nom", pahlaviy va forsiyda "nom" shaklini olgan. Bu so'zlar fransuz tilida nom, nemis tilida Name, ingliz tilida name, ispan tilida nombre tarzida qo'llaniladi. Lekin, noma so'zi va afiksoidi ushbu so'zga "a" qo'shimchasini qo'shish bilan yasalgan. Bizning fikrimizcha, rus tilidagi imya so'zi ham ushbu, o'zakka borib taqaladi. Chunki, "imya" dagi "ya" rus tiliga xos jins ko'rsatkichidir. Buni yuniy so'zidagi "iy" qo'shimchasiga qiyoslab ham dalillash mumkin. Zero, fors tilida hozirgi "javon" (yosh, navqiron, yigit) so'zi pahlaviy "yuvon" yoki "yuon" tarzida bo'lgan. Chunki $y > j$ yoki $j < y$ fonetik hodisasi keng tarqalgan bo'lib, jumladan, o'zbek tilida ham bor. Ushbu o'zak yosh, navquron ma'nosida ingliz tilida young shakliga ega. Xuddi shuningdek fors tilidagi "no'u" inglizcha "new", "noviy" so'zlari shu tariqa talqin

qilish mumkin. Ehtimol, ruslardagi mashhur Ivan ismi ham aslida juvon (yuon) - yosh, navqiron soʻzlari bilan aloqador boʻlsa kerak. Ivan ismi izohi haqida qarang: Владимир Даль, Толковый словарь живого великорусского языка, - II. И-О. Издание книгопродавца – типографа М.О. Волфа, С.Пб.1881 с.5.

Ob (suv) soʻzi va uning maʼno qirralari, ob komponentli soʻzlar haqida koʻplab tadqiqotlar qilingan. Jumladan, Z.Doʻsimov. T.Yoʻldoshev kabi olimlar tadqiqoti shular jumlasidandir. Doktor Kazzoziy ob soʻzini fransuzcha “eau”, ispancha “agua” soʻzlari bilan bir oʻzak deb hisoblaydi.

Shuningdek, yulduz maʼnosidagi sitora soʻzi ham hind - yevropa tillari uchun umumiydir. Pahlaviy tilida starag va, star shaklidagi bu soʻz ingliz tilida star, nemischada stern, ispanchada estrella, fransuzchada etoile tarzida qoʻllanadi. Fors tilidagi mard (pahlaviy tilida mart) ingliz tilidagi man (erkak kishi) soʻzi bilan bogʻliqligi ayon. Shuningdek xalq, odamlar, el maʼnosidagi mardum soʻzi oʻzbek tiliga ham oʻzlashgan. Bu soʻz omonimlar sirasiga ham kirib, koʻz qorachigʻi degan maʼnosiga ham ega. Misol uchun Navoiyning mashhur:

*Qora koʻzim, kelu mardimligʻ emdi fan qilgʻil,
Koʻzum qarosida mardum kibi vatan qilgʻil –*

baytda har ikkala maʼno ham qoʻllanilgan. Mazkur soʻz izofiy birikmada ahl, fuqaro, degan maʼnoni ham anglatadi. Masalan, buni Muqimiyning quyidagi baytida ham kuzatamiz:

*Mulki Hindu Marvdin kelsam topardim eʻtibor,
Shul erur aybim Muqumiy Mardumi Fargonaman.*

Mardum soʻzi tarixan qoʻshma soʻz boʻlib, mart (kishi) va + toʻxm (urugʻ) zurriyot soʻzlaridan tashkil topgan va pahlaviy tilida martum (ikki “T” ixchamlashib) shaklini olgan. Demakki, mart soʻzi umuman inson zoti maʼnosini ham anglatgan.

Xulosa oʻrnida aytish mumkinki, fors tili leksikasi va Yevropa tillari leksik fondini qiyoslash orqali koʻplab uxshashlik, umumiyliklar topish mumkin.

ADABIYOTLAR:

1. *Doktor Kazsoziy Mir Jaloladdin “Qadimiy obida” (Nomai boston) Firdavsiy “Shohnoma” siga sharhlar. 1-tom. Tehron, 1379 hij.- qam.*
2. *Tabriziy Shamsiddin Muhammad bin Xalaf, Burxon-i kote, “Amir Kabir”, Tehron, 1997 yil.*
3. *Qadimiy obida 168 — bet.*
4. *O’sha manba 188 - bet.*
5. *O’sha manba 193 - bet.*
6. *O’sha manba 195 - bet.*

*“Filologik tadqiqotlar”. Toshkent – 2004.
47-48-betlar*

**ARAB-FORS ALIFBOSIDA “ALIF” HARFINING
QO‘LLANISHI HAQIDA**

Arab-fors alifbosining birinchi harfi “alif” o‘zining turli xususiyatlari va vazifalariga ko‘ra fors tilida o‘ziga xos o‘rin tutadi. Ushbu har arab-fors alifbosidagi faqat unlisini ifodalaydigan yagona harfdir. Chunki, unli ifodalovchi qolgan ikkita harf (“yo” va “vov”) ayni paytda undoshlar ifodasi uchun ham xizmat qiladi.

Alif fors alifbosining birinchi harfi bo‘lib, abjad hisobidagi son qiymati birga teng.

So‘z oxirida “alif” (“o”) urg‘g‘usiz “o” ifodalagan holatda chaqirish ma’nosini, nido mazmunini ifodalaydi. Masalan, hasano, ey, hasan. “Alif-i nido” fors she’riyatida ko‘p qo‘llanganini ko‘rishimiz mumkin.

Masalan,

Karimo, bu baxshoy bar hol-i mo,

Ki, hastim asir-i kamand-i havo.

(Shayx Sa’diy).

Mazmuni: Ey Karim Alloh, bizning holimga rahm qil, zero, xoy-u havas to‘rining asirimiz.

“Alif”ning bu vazifasini, to‘g‘rirog‘i, “alif-i nido”ni mumtoz o‘zbek she‘riyatida ham kuzatamiz. Masalan,

*Iloho, podshoho, kirdigoro,
Sanga ochuq nihonu oshkoro. (1)*

Hozirgi fors tilida “o” (maddli alif) “og‘o” – janob so‘zining qisqa formasini ifodalaydi. Masalan, O Hasan – Janob Hasan.

Bundan tashqari “omadan”- kelmoq fe‘lining hozirgi zamon negizi ham faqat “o” (maddli alif) shaklidir. (2)

Fors tilida “alif”ning quyidagi vazifalari keng qo‘llaniladi:

Klassik fors tilida ma‘noni kuchaytirish va hissiyotni yorqinroq ifodalash uchun so‘z o‘rtasida “a” (“fatha” harakati) o‘rnida ishlatiladi va “o” deb o‘qiladi.

Masalan, jahonofarin bar tu rahmat qo‘nat (ko‘nad” o‘rnida), ya‘ni xudo senga rahmat qilsin.

“Alif” harfi so‘z oxirida ham bir necha vazifani bajaradi:

1. “Alif-i nido”.
2. Duo mazmunini ifodalovchi “alif” (“o”).

Masalan,

*Hich kas bar joy-i u nanishinado,
Ruz-i shodi dushmanash kam binado.*

(Hech kim uning o‘rniga o‘tirmagay, dushmanining xo‘ram kunlari kam bo‘lgay).

“Alif”ning bu vazifasi o‘zbek tilidagi forsiy o‘zlashmalardan “mabodo” so‘zida ko‘rinadi. Ushbu so‘zning o‘zagi “bod” “budan” – bo‘lmoq fe‘lining hozirgi zamon negizi, ayni paytda buyruq shaklidir. Demak, “bod” aynan bo‘lsin degan ma‘noni ifodalaydi.

Bu hol o‘zbek tilidagi ham o‘zlashgan “muborakbod” (muborak bo‘lsin) so‘zidan ham ko‘rinadi. “Mabodo”dagi “ma” buyruq maylining inkor shaklini hosil qilishda “na” yuklamasining ekvivalenti hisoblanadi hamda kuchli inkorni ifodalaydi. Demakki, “mabodo”ning lug‘aviy ma‘nosi “hech bo‘lmasin, hech bo‘lmagay” ekan. Shuning uchun ham ushbu so‘zni hamma vaqt ham “agar” bog‘lovchisi o‘rnida qo‘llash to‘g‘ri bo‘lmaydi.

Misol uchun, “mabodo uchrashmasak, mendan rozi bo‘l” gapida o‘rinli, “mabodo tez qaytsam, senga yaxshi sovg‘a keltiraman” gapida mantiqqa zid qo‘l qo‘llangan.

3. “o” fors tilida hozirgi zamon fe‘l negizi oxiriga qo‘shilib, Hozirgi zamon sifatdoshi yasovchi qo‘shimchalardan biridir. O‘zbek tilida bu tilda yasalgan o‘nlab forsiy o‘zlashmalarni uchratamiz. Masalan, “Shayboniynoma”da o‘qiymiz:

Hamd angakim, ko‘zim etti bino.

Hand angakim, tilim etti go‘yo.

Ushbu baytdagi “bino” va “go‘yo” so‘zlarining yasalishi quydagicha bo‘ladi.

Bino (“i” cho‘ziq): didan- ko‘rmoq, hozirgi zamon negizi “go” hozirgi zamon sifatdoshi qo‘shimchasi, “bino” ko‘ruvchi.

Go‘yo: go‘fton-aytmoq, demoq, hozirgi zamon sifatdoshi qo‘shimchasi. Ikki unli bir joyda kelgani bois fors tili fonetik xususiyatiga ko‘ra orada til o‘rta “y” undoshi orttiriladi. Go‘yo – gapiruvchi. Demak, bulbuligo‘yo so‘zi aynan gapiruvchi bulbul degan ma‘noni berar ekan.

O‘zbek tilidagi “dono”, “ravo” kabi forsiy o‘zlashmalar ham xuddi shu tarzda hosil bo‘lgan.

4. “Alif” so‘z oxirida sifat yasovchi qo‘shimcha vazifasini ham bajarishi mumkin. “Zeb” va “zebo” so‘zlarining o‘zakdoshligi, “alif”ning yasovchi qo‘shimchaligini hisobga olib, Navoiy quyidagi baytida betakror harfiy san‘at yaratgan:

Malohat birla tuzdung sarvqadlar qomatin, ya‘ni

Ki, mundoq zeb birla ul “alif”ni aylading zebo. (4)

Xulosa qilib aytganda, “alif” harfi o‘zining ko‘p funksiyaliligi va boshqa xususiyatlari bilan alohida diqqat talab qilar ekan.

ADABIYOTLAR:

1. *Alisher Navoiy. MAT.20 tomlik. 3-tom, -T:1988, 28-bet.*
2. *Persidsko-russkiy slovar. Tom 1. M.: 1983, c.31.*
3. *Shayboniynoma. Nashrga tayyorlovchi nasrullo Davron.T:1961,19-bet.*
4. *A.Navoiy. MAT. 20 tomlik. 3-tom. - T:1988, 26-bet.*

“Filologik tadqiqotlar”. (72-74 betlar)

FORS TILI LEKSIKASIDAGI BA’ZI TURKIY SO‘ZLAR XUSUSIDA

Turkiy va fors tillarining bir - biriga ta’siri juda uzoq ildizga ega. O‘zbek tilidagi forsiy o‘zlashmalar olimlarimiz tomonidan atroflicha tadqiq qilingan. Shuningdek fors tilida ham o‘zbekcha (turkiy) bo‘lgan ko‘plab so‘zlar mavjud. Bu so‘zlarning o‘zlashishi har ikkala xalqning doimiy iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, madaniy aloqalari natijasidir. Mashhur “Farhangi forsiy” muallifi doktor Muhammad Mu’iyn bu haqda “turkiy sulolalar (g‘aznaviylar, saljuqiylar, xorazmshohlar, elxoniyalar)ning yurishlari va turk sipohlarining Eronning shahar, qishloq va qasabalarida o‘rnashishi hamda qo‘ni -qo‘shnichilik natijasida turkiy tildan forsiyga bir qancha so‘zlar o‘zlashgan, jumladan, ota, otabek, etsiz, o‘toq, bug‘ro, bildirchin, bek, begim, tosh, to‘ploq, choriq, chaxmoq, xotun, sinjoq, to‘g‘on, qaychi, qarovul, qurbon (qo‘mandon), qanjuna, quloch, gilam, yotoq, yurga, yazak, yunja kabi” deb yozadi. Doktor Muhammad Mu’iyn bu fikrlarini Muhammad Xusayn bin Xalaf Tabriziyning “Burhoni qote” lug‘atiga yozgan so‘z boshisida ham ta’kidlaydi va lug‘atda uchragan turkiy so‘zlarni etimologik jihatdan tahlil qilib boradi.

Yana bir mashhur lug‘at - G‘iyosiddin Muhammad ibn Jaloliddin Rampuriyning “G‘iyosul - lug‘at” (1827- yilda yozib tugatilgan) asarida ham ko‘plab turkiy so‘zlarga o‘rin berilgan. “G‘iyosul - lug‘at” asosan fors tojik nazmu nasri leksik fondini qamrab oladi. O‘sha davr rasxmiga ko‘ra ma’no va shakl jihatidan tushinilishi qiyin bo‘lgan so‘zlarning qaysi tilga (forsiy, arabiy, yunoncha, turkiy, hindiy va boshqa) taalluqliligi ko‘rsatiladi.

Biz quyida mazkur lug‘atda izohlangan fors tilining tarixiy leksikasidan o‘rin olgan bir necha turkiy so‘zni misol tariqasida keltirib o‘tamiz:

YUZBOSHI - yuz kishi (askar) boshlig‘i, turkiy so‘z.

YUNT YIL - ot yili. “Risolayi turkiy”dan olindi.

YURISH - dushmanga qarshi otlanmoq, safar, ko'chmoq ma'nosida.

YILG'OR - dushman favji (otryadi) ustiga tashlanmoq ma'nosida. Aslida ilg'or bo'lgan.

YAZAK - qarovul ham deb ataluvchi lashkarning bosh qismi. O'sha qism askarlarining barchasi otliq bo'lib, dushman otryadlaridan xabardor bo'lish maqsadida o'z qo'shinidan oldin harakat qiladi. Hindistonda uni itlova deydilar.

YAROSH - kelishish, musolaha, turokiy tildan.

YARLIQ - podshoh farmoni, turkiy tildan.

YAROQ - sipoh (qo'shin) qurollari, jumladan, qilich, qalqon, o'q, yoy va boshqalar. Shuningdek, boshqa narsalarda ham ishlatiladigan asbob - uskunalar ham yaroq deyiladi. (567-6).

YATOQ - pospon, qarovul. "Bahori Ajam", "Kashful - lug'ot", "Burhoni qote", "Farhangi Rashidiy" dan, (566-6).

YURT - manzil, makon. "Risolayi turkiy" dan yozildi. (566-6). YARG'U - siyosat, qo'rqituv ma'nosida. (567-b).

Mazkur so'zning mashhur forsiygo'y Shayx Sa'diy Sheroziy ijodida ham qo'llanganini ko'rishimiz mumkin:

Sa'diy, digar bor az vatan azmi safar kardi charo?

Az dasti on turki xito yarg'u ba hoqon mebaram.

(Sa'diy, nega yana o'z vataningdan muhojirlik ixtiyor etding? O'sha xito turki dastidan xoqonga yarg'u (arz)eltaman.)

YOBU - yuk tortuvchi ot. (566-6).

Yobu turkiy qavmlardan birining ham nomidir. Har ikkala ma'nodagi yobu so'zi o'zaro omonimlik hosil qiladi, Ushbu shakldosh so'zlardan foydalanib yozilgan Muhammad Shayboniyxonning quyidagi tuyug'i mashhurdir:

Sug'd ichinda o'ltururlar yobular, Yobularning mingan oti yobular. Yobularning ilgidin el tinmadi, Yobular qolsun bu yerda yo bular.

YOG'IY - dushman va bo'ysunmagan ma'nosida.

YOY - turkiyda o'q otuvchi kamon ma'nosida.

Ko‘rinadiki, biz ushbu lug‘atning faqat bir harfi - “yo” misolida fors tilidagi turkiy so‘zlarni ko‘rib chiqdik. Shuningdek, etmish (etib kelgan), etirish (etirmoq) kabi turkiy so‘zlar mavjud ekanligiga ushbu lug‘at guvohlik beradi. Lug‘atning qolgan qismlaridan ham juda ko‘plab turkiy so‘zlarni topish mumkinki, ularning ko‘pchiligi bugungi fors tilida ham aktiv iste’molda hisoblanadi.

ADABIYOTLAR:

1. Doktor Muhammad Muiyn, *Farhangi forsiy, Tehron, 2001. “Amiri Kabir” nashriyoti. 6 jildlik, 1-jild, 36-6.*
2. Muhammad Husayn bin Xalaf Tabriziy, *Burhoni qote’, Tehron, 1997 y. “Amiri Kabir” nashriyoti. 5 jildlik. Nashrga tayyorlovchi va etimologik izohlar muallifi doktor Muhammad Mu’iyin.*
3. G‘iyosiddin Muhammad ibn Jalolidsin Rampuriy, *G‘iyosul –lug‘ot. Lakhnau, 1886 y.*
4. Zaboniy adabiiy hozirai tojik, *leksika, fonetika va morfologiya, Dushanbe. “Irfon”, -s.1973.sah.73.*
5. Hasanco‘ja Nisoriy. *Muzakkiri ahhob, Forschada tarjima qilgan va izohlar muallifi Ismoil Bekchon. T.A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 1992-yil.11-bet.*

Rezyumi

Ushbu maqolada fors tili leksikasidagi ba’zi turkiy so‘zlarning leksik va semantik xususiyatlari yoritiladiva ularning ma’nolari izohlanadi.

РЕЗИОМЕ

В статье освещаются лексические и семантические свойства отдельных тюркизмов в персидском языке и даются комментарии к их значениям.

RESUME

In this article is given lexical and semantical tipes some turkishn in percien language and is commented their importance.

***“Ilm sarchashmalari”. Urganch davlat universiteti.
4-son. (103-105 betlar)***

FORS TILI LEKSIKASINING YEVROPA TILLARI LEKSIKASI QIYOSIGA OID

Tilshunoslikda tillarning qarindoshligini aniqlashda leksikogrammatik qurilishga nisbatan ikkinchi darajali hisoblansa ham, qarindosh tillar orasida leksik yaqinlik uzoq davr va geografik masofaga qaramasdan saqlanib qolishi shubhasiz. Jumladan, hind-evropa tillari oilasining eron guruhiga mansub Evropa tillari leksik fondida mavjud bo‘lgan so‘zlarga tarixan o‘zakdosh deyish mumkin bo‘lgan so‘zlarni ko‘plab uchratish mumkin. Taniqli tadqiqotchilar, olimlar bunga juda ko‘plab misollarni keltirganlar.

Agar fors va pahlaviy tillaridagi fonetik farqlar, ma‘no va shakl ko‘chish qonuniyatlariga e‘tibor qaratsak, bunday misollar hamda asoslar miqdori yanada ko‘payadi. Biz ushbu misollarni keltirishda eronlik filolog doktor Mir Jaloliddin Kazzoziyning “Shohnoma” sharhiga oid “Qadimiy obida” (Nomai boston) kitobdan, shuningdek, doktor Muhammad Mu‘inning etimologik izohlaridan keng foydalandik.

Misol uchun “nom” so‘zi umumoriy (hind-evropa) so‘zi bo‘lib, “Avesto”da “nom”, pahlaviy va forsiyda “nom” shaklini olgan. Bu so‘zlar fransuz tilida nom, nemis tilida *Name*, ingliz tilida *name*, ispan tilida *nombre* tarzida qo‘llaniladi. Lekin, noma so‘zi va afiksoidi ushbu so‘zga “a” qo‘shimchasini qo‘shish bilan yasalgan. Bizning fikrimizcha, rus tilidagi imya so‘zi ham ushbu, o‘zakka borib taqaladi. Chunki, “Imya”dagi “ya” rus tiliga xos jins ko‘rsatkichidir. Buni yunon so‘zidagi “-ый” qo‘shimchasiga qiyoslab ham dalillash mumkin. Zero, fors tilida hozirgi “javon” (yosh, navqiron, yigit) so‘zi pahlaviy “yuvon” yoki “yuon” tarzida bo‘lgan. Chunki $y > j$ yoki $j < y$ fonetik hodisasi keng tarqalgan bo‘lib, jumladan, o‘zbek tilida ham bor. Ushbu o‘zak yosh, navqiron ma‘nosida ingliz tilida young shakliga ega. Xuddi shuningdek, fors tilidagi nou inglizcha new, noviy so‘zlari shu tariqa talqin qilish mumkin. Ehtimol, ruslardagi mashhur Ivan ismi ham aslida juvon

(yuon) – yosh, navqiron so‘zlari bilan aloqador bo‘lsa kerak. Ivan ismi izohi haqida qarang: Vladimir Dal, Tolkoviyy ...

Ob (suv) so‘zi va uning ma’no qirralari, ob komponentli so‘zlar haqida ko‘plab tadqiqotlar qilingan. Jumladan, Z.Do‘simov, T.Yoldoshev kabi olimlar tadqiqoti shular jumlasidandir. Doktor Kazzoziy ob so‘zini fransuzcha eau, ispancha agua so‘zlari bilan bir o‘zak deb hisoblaydi.

Shuningdek, yulduz ma’nosidagi sitora so‘zi ham hind – evropa tillari uchun umumiydir. Pahlaviy tilida starag va star shaklidagi bu so‘z ingliz tilida star, nemischada stern, ispanchada Estrella, fransuzchada etoile tarzida qo‘llanadi. Fors tilidagi mard (pahlaviy tilida mart) ingliz tilidagi man (erkak kishi) so‘zi bilan bog‘liqligi ayon. Shuningdek xalq, odamlar, el ma’nosidagi mardum so‘zi o‘zbek tiliga ham o‘zlashgan. Misol uchun Navoiyning mashhur:

Qora ko‘zim, kelu mardimlig‘ emdi fan qilg‘il,

Ko‘zim qarosida mardum kibi vatan qilg‘il

Baytda har ikkala ma’no ham qo‘llanilgan. Mazkur so‘z izofiy birikmada ahl, fuqaro degan ma’noni ham anglatadi. Masalan, buni Muqimiyning quyidagi baytida ham kuzatamiz:

Mulki Hindu Marvdin kelsam topardim e’tibor;

Shul erur aybim Muqumiy Mardumi Fargonaman.

Mardum so‘zi tarixan qo‘shma so‘z bo‘lib, mart (kishi) va + to‘xm (urug‘) zurriyot so‘zlaridan tashkil topgan va pahlaviy tilida martum (ikki “T” ixchamlashib) shaklini olgan. Demakki, mart so‘zi umuman inson zoti ma’nosini ham anglatgan.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, fors tili leksikasi va Evropa tillari leksik fondini qiyoslash orqali ko‘plab o‘xshashlik, umumiyliklar topish mumkin.

ADABIYOTLAR:

1. Doktor Kazzoziy Mir Jaloliddin *“Qadimiy obida”* (Nomai boston), Firdavsiy *“Shohnoma”* siga sharhlar. 1-tom. Tehron, 1379 hij.-qam.

2. *Tabriziy Shamsiddin Muhammad bin Xalaf, Burhon-i qote, "Amir Kabir", Tehron, 1997-yil.*
3. *Qadimiy obida 168-bet.*
4. *O'sha manba 188-bet.*
5. *O'sha manba 193-bet.*
6. *O'sha manba 195-bet.*

"Filologik tadqiqotlar" (maqolalar to'plami)
Toshkent-2004. (47-48 betlar)

BERUNIY – ETNOLINGVIST

Rahimov S., Eshmuradov M. – Urganch davlat universiteti

Beruniy merosini o'rganish katta mas'uliyat va salohiyat talab etadi.

Beruniy merosini A.M.Belenitskiy, I.Yu. Krachkovskiy, P.G.Bulgakov, S.P.Tolstov, B.A.Rozenfeld, V.V.Bartold, V.R.Rozen, I.Abdullayev, I.Mo'minov, A.Ahmedov va boshqa ko'plab olimlar o'rgandilar.

"Osor-al-boqiya" 1957-yilda M.A.Sale tomonidan rus tiliga tarjima qilingan. Bu tarjimaga S.P.Tolstov va B.P.Sheglovlar so'z boshi yozgan.

Beruniy asarlarini arab tilida o'zbek tiliga filologiya fanlari nomzodi marhum Abdufattoh Rasulov tarjima qilgani ilmiy jamoatchilikka ma'lum va o'z davrida yuksak qadrlangan.(1)

Beruniy tilshunos sifatida ham buyuk xizmatlar sohibidir. Jumladan, tillarning turlicha bo'lishiga sabab, odamlarning guruhlariga ajralib ketishi, ularning har birida turli xohishlarni ifodalash uchun zarur bo'lgan so'zlarga ehtiyoj tug'ilishini o'z davrida ta'kidlagan edi.

Taniqli arabshunos I.Abdullayev "Osor-al-boqiya" ("Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar")ga yozgan so'z boshisida Beruniyning turli xalqlar tarixi, madaniyati va tillarini o'rganganligi,

jumladan, yaxudiy, yunon, fors, arab, so‘g‘di, qibtiy va boshqa tillarni mukammal o‘rganganligini qayd etib o‘tadi.(1)

Beruniy dastlab, juda ko‘p tillarni bilganligi bilan zamonasidan ancha ilgari ketgan olim edi. Qolaversa, etnograf sifatida (G‘arb va Sharq xalqlari tillarini bilgani uchun) ko‘plab millat va xalqlarining tarixi va urf-odatlarini puxta o‘rgangan. Hatto “Hindiston” asarida Beruniyning qadimgi Sanskrit tilini maxsus o‘rganish natijasida dunyoga kelgan va katta shuhrat qozongan eng noyob asarlaridan biridir.

Beruniy merosi I.Krachkovskiy ta’kidlaganidek, barcha fanlarning asosi bo‘lgani holda barcha soha mutaxassislari uchun tadqiqot ob’ekti bo‘ladigan ilm ummonidir.

Fikrimizning isboti uchun Beruniyning o‘z so‘zlariga murojaat etamiz: Suriyaliklar nabatliklar bo‘lib, Savod (savod-qadimgi Bobilning arabcha nomlaridan biri bo‘lib, arabiynavis mualliflar asarlarida ko‘pincha Iroq nomi bilan yuritadilar. Nabatliklar-qadimgi arab qabilalari) aholisidirlar, holbuki, Iroq Savodi “Suriston” ham deb yuritiladi...

Shu joyda Beruniy nabatliklarning oy nomlarini keltiradi. Yana davom etib: “Bu oylar mashhur bo‘lib ketib, hatto musulmonlar ham bularni ishlatib, dala ishlariga tegishli vaqtlarini shu oy nomlari bilan belgilaydilar. Ular “qadim” so‘zini “avval” deb, “xroy”ni “oxir” deb arabchalashtirdilar, “ayar” so‘zining (y harfi) oxiriga “alif” orttirdilar, u “ayor” bo‘ldi. Chunki bu kalimadagi “y” harfi maddasiz va alifsiz talaffuz etilsa, arab tilida yomon va uyatsiz ma’no chiqadi: Beruniy arablarning (hozirda barcha musulmonlar qo‘llanadigan – S.R) oy nomlarini ham keltiradi: 1. Muharram. 2. Safar. 3. Rabbiul-Avval. 4. Rabbal-oxir. 5. Jumodo-al-u’lo. 6. Jumado-al-oxira. 7. Rajab. 8. Sha’bon. 9. Ramazon. 10. Shavvol. 11. Zulqa’da. 12. Zulhijja.

Bu oy nomlari barcha musulmon mamlakatlarida shariat hukmlarini amalga oshirish uchun qo‘llaniladigan qamariy yil-oy nomlaridir.

Beruniy yuqoridagi oy nomlarining qadimgi nomlarini ham keltirib, ularning anglatadigan ma'nolari xususida maxsus to'xtalib, birma-bir izohlab bergan:

Mu'tamir- kalimasi shu yil olib keladigan hukmlarning har biriga bo'ysunuvchi (shaxs) ma'nosini bildiradi.

Nojir esa "najr"dan olingan, bu-qattiq issiq demakdir.

Xavvon "hiyonat" (so'zining) "fa'ol" vaznidagi shaklidir. O'sha oylarga dastlab nom berilayotganda (tasodifan) bu ma'nolar mos kelib qolgan.

Suon ham "siyonat"ning fu'ol shaklidir.

Zabbo bu – "ulug' va og'ir falokat" demakdir. Bu oyda ko'p urush va og'irchiliklar bo'lganidan unga bunday nom berilgan.

Boid esa urushdan kelib chiqqan, bu haqda bunday misol ham joriy bo'lgan: "jumodo va rajab oylari o'rtasida ajoyib voqealar yuz bergan".

Al-asamm, arablar bu oyda urushsiz tinch yashab va qurol-yarog' tovushi eshitilmas edi.

Vogil esa "chaqirilmagan holda ichkilik ichishga kelgan kishi" ma'nosini bildiradi. Arablar (avvallari) ramazon oyida ko'p ichkilik ichardilar, chunki undan keyin xaj oylari kelar edi.

Notil – "ichkilik o'lchovi" demakdir. Arablar bunda haddan tashqari ko'p ichib, shu o'lchovni ko'p ishlatganlaridan oy shunday atalgan.

Odil esa "adl"dan olingandir. Bu oy xaj oylaridan biridir. Arablar bunda notil oyida qiladigan ishlarini qilmaganliklari uchun shunday atalgan.

Ranna nomining berilishiga sabab, bu oyda qubonlik qilish vaqti yaqinlashgani uchun mollar nola qilardi.

Burak deb atashga sabab – tuyalar qurbonlik uchun so'yiladigan joyga keltirganda cho'ktirilishdan olingan. (1)

Ushbu keltirilgan oy nomlari qadimgi arablarning rasm-rusumlari, bayramlari va boshqa e'tiqodiy ininchlari bilan bog'liq holda yuzaga kelganligini Beruniy ham etnograf, ham tilshunos sifatida etimologik aspektda tahlil etib bergan.

Beruniy arab tilini ona tilidek bilgani barobarida forsiy tilni ham puxta egallagani shabhasiz. Shu bois eronliklarning tarixi, etnografiyasi, adaboyotidan yaxshi xabardor bo‘lgan.

“Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”ida eronliklar hayitlari xususida maxsus bob bo‘lib, oy va kun nomlarining kelib chiqish sabablari, Navro‘z va uning go‘zallik bayrami ekanligi xususida juda ko‘plab rivoyat va tarixiy hujjatlar keltiriladi.

Endi biz quyida eronliklar yil hisobi, oy nomlarining ma‘nolari Beruniy tomonidan qanday sharhlangani va ularga berilgan izohlar qanday bo‘lganini keltiramiz.

Beruniy yozadi: “eronliklar to‘rt faslni oylar orqali bilar edilar: farvardin moh – yoz boshi, tir moh- kuz boshi, mehr moh – qish boshi, diy moh – bahor boshi edi”. (1)

Farvardin moh. Bu oyning birinchi kuni Navro‘zdir, uning forsha nomi ham shu ma‘noni taqozo etadi.(1)

Shuningdek, Navro‘zning podshoh Jamshid nomi bilan bog‘liq dalillari keltiriladi. Eronda shu oy nomi bilan bog‘liq kishi ismlari ham bor. M: Navro‘z – erlar ismi, Farvardin – ayollar ismi.

Yana Beruniyning o‘zidan davom qildiramiz:

“Urdibixisht moh. Bu oyning uchinchi kuni ro‘za urdibixisht moh hayit kuni bo‘lib, bu kun ikki nomning muvofiq kelgani sababli urdibixishtagon deb ataladi. Buning ma‘nosi: “Sadoqat, yaxshiliklardir”. Ba‘zilarning aytishicha, “balki (sadoqat) yaxshilikning nihoyasidir”.

Urdibixisht – olov va nur farishtasi bu ikki farishtaga mansub. Xudo bu ikki farishtani (o‘t va nur) ishiga, dorilar va ovqatlar bilan illat ham kasalliklarni ketkazishga, rostni yolg‘ondan, haqni nohaqdan, Abistoda hujjat deb bayon etilgan qasamlar bilan ajratishga vakil qilgan”.

Beruniy har bir keltirilgan misolni muqaddas kitoblardan dalil keltirish bilan isbotlab, izohlab shubhaga o‘rin qolmaydigan darajada asoslab beradi.

Yana davom etamiz: “Xurdod moh. Bu oyning oltinchi kuni ro‘za xurdod bo‘lib, hayit kunidir. Bu nomning ma‘nosi: “Xalq barqarorligi” demakdir.

Tirmoh. Buning oltinchi kuni – xurdod – hayit bo‘lib, “Jashni naylufar” deb ataladi, bu hayit hali yangi. Bu oyning o‘n uchunchi kuni – ro‘za tir – hayit bo‘lib, ikki nomning muvofiq kelgani sababli uni “trigon” deb ataydilar. Bu oy nomining tirmoq deb nomlanishiga sabab qilib, Beruniy Afrosiyob bilan bog‘liq o‘q – yoydan o‘q otish marosimini dalil qilib keltirgan. (1)

“Murdod moh”. Bu oyning yettinchi kuni – ro‘za Murdod “Murdodagon” deb ataladigan hayit kuni bo‘lib, “Murdodagon”ning ma‘nosi: “Maxluqotning o‘lmay va yo‘q bo‘lmay abadiy davom etishi” demakdir.

Murdod dunyoni saqlashga, ovqatlarni va asli ochiq, yomon holat, kasalliklarni ketkazuvchi o‘simlik bo‘lgan dorilarni barpo etishga vakil etilgan farishtadir. Yana xudo bilimdonroq.(1)

Shaxrivor moh. Bu oyning to‘rtinchi kuni, ya‘ni ro‘zi shaxrivor ikki nomning muvofiq kelgani sababli shaxrivorgon deb ataladigan hayitdir. Ma‘nosi: “urug‘ “ va “muhabbat”. Shaxrivor – yetti qimmatbaho narsaga, ya‘ni turli san‘atlarga, dunyo va dunyo ahlining borligiga vosita bo‘luvchi oltin, kumush va boshqa metallarga vakil qilingan farishta. (1)

Mehrmoh. Buning birinchi kuni – xurmuz ro‘z o‘n oltinchi kuni, ya‘ni ro‘zi mehr shani ulug‘ hayitdir. U “Mehrjon” nomi bilan mashhur va nomi oy nomiga muvofiq. Bu so‘zning tafsiri “jon sevgisi” demakdir, ba‘zilarning aytishicha, “mehr – quyosh nomi, quyosh shu kun olamga zoxir bo‘lib, bayram uning nomi bilan atalgan.

Obon moh, ya‘ni ro‘zi obon moh ikki nomning muvofiq kelgani sababli “obongon” deb ataladigan hayitdir. Shu kuni Zavv ibn Taxmosp podshoh bo‘lib, anhorlarni qazish va tuzatishga buyurdi.

Ozar moh. Buning birinchi kuni, ya‘ni xurmuzd kuni – “ko‘saning minishi” bo‘ladi.

Eronda (bir ko’sa kishi) yirtilgan ishton va eskirgan liboslar kiyib, o’zini xunuk ahvolda solib, eshakka minib yurardi.

Day moh. Bu “xur moh” deb ham ataladi. Buning birinchi kuni “xurram ro’z” deyilib, bu va shu oy xudo nomi, ya’ni “xur – muzd” bilan atalgan. Buning ma’nosi: “donishmand podshoh va yaratuvchi aql egasi” demakdir. Bu kun goho “navad ruz” deb ham atalib, hayit qilinadi, chunki bu bilan Navro’z orasi to’qson kundir.

Baxman moh. “Baxmonjona” deb ataladigan hayitdir. Bu (nom) odamlarning hayoti uchun kundalik ehtiyojlarida foydalanish uchun zarur bo’lgan chorva mollariga vakil qilingan farishtaning ismidir.

Isfandarmuz moh. Buning ma’nosi “aql” va “mulohaza” demakdir. “Isfandarmuz” yerga hamda soliha, nomusli, yaxshi ishlar qiluvchi va eriga muhabbatli xotinga vakil qilingan farishtadir.

Ushbu qayd etganlarimiz – oy nomlari bilan bog’liq juda tarixiy – etnografik voqea – xodisalar haqida Beruniy ko’plab materiallar keltirgan.

Bu nomlarning har biri bir farishtaning nomi bilan bog’liqligini dalil keltirar ekan. Beruniy diniy bilimlar borasida ham benazir ekanligini ayon etadi.

Ming yillik moziy asrlar qa’rida mash’al bo’lib, ilm ahlining (jamiki insoniyatning) yo’lini munavvar qilib turgan ustoz Beruniy o’zining salohiyatini va qudrati bilan inson va uning tafakkuri naqadar kuchli va tuganmas ilohiy quvvat manbai ekanligini isbotlab berganlar.

“Geodeziya” asarida Beruniy barcha fanlarga ta’rif berib o’tadi. Ayniqsa, mantiq va til ilmi xususida quydagilarni bayon etadi:

“Insonda ilmga intilish (xususiyati bo’lganidan u o’zidan g’oyib narsalarni bilishga qattiq tirishdi.

Inson nutqqa ega bo’lgani va o’zining muholiflari bilan dunyoviy va oxirat ishlari haqida baxs – munozara yuritganligi sababli o’z so’zlarida “Mezon”ga muhtoj bo’ladi.

Zeroki, bu bilan muboxasalarda soʻzlardan tuzilgan sillogizm – (qiyoslash)larning kishini adashtiruvchi yolgʻoni ham, haqiqatni ochuvchi rosti ham ayon qilingan. Inson shu “Mezon”ni topdi. Uni mantiq deyiladi”.

Beruniy til ilmi-grammatika xususida toʻxtalar ekan, uning bevosita ilmi mantiq va aruz bilan aloqadorligi, ularning bir-birini toʻldiruvchi va biri-ikkinchisidan ayro emasligini taʼkidlab: “Mantiqni bilmasdan, undan nafratlanib, uni ajablanarli atamalar bilan ataydigan kishi naqadar taajjublanarlidir! Agrar u gap bilan bogʻlanib keladigan naxv (grammatika), aruz (sheʼriyat vazni) va mantiqni mutolaa qilganida edi, soʻz, zotan, nasr va nazmga ajralishini bilgan boʻlardi. Naxv nasrda (yaʼni grammatika oddiy matnda – S.R) aruz nazmda aytilgan soʻzning meʼyorini oʻlchovchi va xatosini tuzatuvchi aniq ikkita mezon boʻlib qoldi, lekin naxv bular ikkisining umumiyrogʻidir, chunki u nasrni ham, nazmni ham birgalikda oʻz ichiga qamrab oladi”.(2)

Shuningdek, Beruniy til ilmining ijtimoiy ahamiyatini koʻrsatish uchun qurʼondan dalillar ham keltiradi.

Arab va fors tillarining qurʼon va sheʼriyat tillari ekanligini ham koʻplab misollar orqali isbot etgan.

Umuman, Beruniy, inson kamoloti va uning yuksalish jarayonida mantiq, grammatika va sheʼriyatning ahamiyatini koʻrsatar ekan, inson tafakkurining ilohiyligini isbotlab beradi.

Beruniy insonga taʼrif berar ekan, oʻzi aynan, shu taʼrifning jonli dalli ekanligini oʻz asarlari misolida yaqqol namoyish etadi. Beruniy merosi yana necha asrlar kelgusi avlodlarga ham tafakkur mashʼali boʻlib, yoʻl koʻrsatib turadi.

ADABIYOTLAR:

1. Beruniy. *Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar.T.*,1968.
2. Beruniy. *Geodeziya.Tanlangan asarlar.T.*, Fan,1982.

“ABU RAYHON BERUNIY – BUYUK QOMUSIY OLIM”
Mavzusidagi Abu Rayhon Beruniy tavalludining 1030 yilligiga
bagʻishlangan ilmiy maqolalar toʻplami Xiva – 2003,
(49-55 betlari).

О ХУДОЖЕСТВЕННОМ ТВОРЧЕСТВЕ СУЛЕЙМАНА БАКИРГАНИ

В последние годы, благодаря независимости мы становимся свидетелями того, что возрождается история народа и страны, культурные ценности, становится трепетным отношением к богатому научному и художественному наследию. Этот богатый потенциал народа требует освещения с научной точки зрения, выявления настоящих хозяев и их представление требует тщательного анализа.

В этом отношении обращение к творчеству С.Бакиргани является естественным, так как он обогатил своими бесценными творениями сокровищницу хорезмской культуры.

Актуальным сейчас является непосредственное изучение, анализ жизни, научного и литературного наследия С.Бакиргани, его широко масштабного мировоззрения и многогранного творчества.

Сулейман Бакиргани был учеником известного всему миру восточного мыслителя и деятеля науки и поэзии Ходжи Ахмеда Яссави.

Наряду с изучением религии ислам, шариата и священной книги Коран, он старался освоить нюансы и секреты поэзии.

Все это он почеркнул из душевного источника своего учителя А.Яссави.

И в учении, и в поэзии он был продолжателем традиций А.Яссави.

Согласно философскому учению С.Бакиргани мир – это зеркало, в котором душа созерцает любя только себя. Луч исходящий от первичной силы отображается в этом зеркале, то есть в материальном мире все живое, сущее и звери от частиц солнца; земля, вселенная освещается этим лучом, при помощи этого луча движется и развивается в определенном расцвете.

Поэты воспевая подро́зумевали божий образ, а материальный мир за чашу или бокал.

Шавк шароби етилиб мани килди хароб,
Мухаббатнинг ути бирла багрим кабоб.
Дийдорини рузи килса изим Ваххоб,
Доруссалом саройига киргум келур.

В поэзии поэта акцентированы жизнедеятельность человека, способность творить и создавать, его достижения и достоинства, считая все это силой любви.

Аллох ёди ошиklarдин холи булмас,
Хакикат эр бу дунёга майл килмас,
Хайрон булиб бу дунёни кузга олмас,
Мен таки бу дунёни куйгум келур.

Поскольку, в суфизме считается что есть жизненность смерти, мертвости жизни, на его основе оживания в нравственно-духовной жизни, в самолюбивом мире. Это понимается под значением каперетка.

Именно это качество в описании автора находит своё объяснение.

В течении многих лет творчество поэта неправильно истолковывалось, и всячески осквернялось.

Религиозная мифология и суфийская философия призывает посмотреть другим взглядом на произведения С.Бакиргани, их переносное значение нужно трактовать в другом направлении. Изучая произведения, поэта мы становимся свидетелями того, что идеи, философские модели о жизни воплощены в религиозные символы (маликул мавж, Джабраил, Ибн Аббас, Али...).

Действительно, жизнь у человека не вечная. Прожив ту жизнь, которая отмерена богом, переступает с брэнной в вечную.

Наряду с описанием последних минут великих апостопов, поэт ведёт разговоры о загробной жизни, даёт разъяснение о том, что жизнь там зависит от того, по каким принципам жил в бренном мире.

Знакомясь с поэтическим творчеством Бакиргани, мы удостоверяемся, что оно сильно влияет на чувства читателя.

В творчестве С. Бакиргани очень много строк о вере, убеждении, терпении.

Проанализировать, рассмотреть их, предоставить нашему народу является одной из наших главных задач.

***(ЎЗБЕКИСТОН ФАНЛАР АКАДЕМИЯСИ ҚОРАҚАЛПОҚИСТОН
БЎЛИМИ, СУЛАЙМОН БАҚИРҒАНИЙНИНГ ТУҒИЛГАНИГА 880 ЙИЛ
“СУЛАЙМОН БАҚИРҒАНИЙ ВА УНИНГ ДАВРИ”
РЕСПУБЛИКАНИНГ ИЛМИЙ-ТЕОРИЯЛИҚ КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ, 63-64-СТР) НУКУС- КОНФИРАТ-2002.***

Military-administrative Posts and Ranks in the khanate of Khiva during the Reign of Kungirof Dynasty (2nd half of the XIX th century and the beginning of the XX th century)

History embodies the profit of unique society in the period of profits collision. Time, the creator of human profit, is the author and heir of the chain of uncountable development and decline.

Researching special features of long century development of Uzbek government is one of the important issues of contemporary history.

The research being conducted now has not been separate research so far. Only little information was given by authors who worked on the history of the khanate of Khiva. These are the facts regarding the fields of castle, administrative-re-gional, military, religious posts and ranks.

Speaking about understanding rank bearers duties, administrative terminologies translations and comments as A. A. Syemyonov and M. Yo ldashhev showed correctly, was a barrier for historians and orientalist [I, p. 1848].

The works written by scholars and travelers about government system, ranks and positions, duties have a great role.

For example, the works and booklets of L.F. Kostenko, L. Soboloyev, M. I. Ivanin, N. N. Muravyov, G. I. Danilovskiy, L. Vamberi, V.V Bortold, A. A. Syemyonov, P.Rlvanov, M. Yo ldashhev, castle historians Ogahiy and Bayoniy and also scientific member of the Khiva Museum, uzbek national artist A. Boltayev and Sh. Vohidov are among the most valuable works.

Officials family tree was cited in different lists and documents in the archive of Khiva, introducing with their title and ranks properly has a big part for not only the building the system of the administrative office, but to learn the development process of Khiva government.

Finance-tax office was perfect in the khanate of khiva, firstly, it was characteristic for administrative apparatus of government. That is why officials working at this office have a special role in the country, the three men, mehtar, qo shbegi, and devan at finance-tax office.

As N. N. Muravyov cited, Khan's treasure was under the will of mehtar, he counted income-outcome, accepting for-eign ambassadors and feeding them was also under his will. When the khan made a trip out of Khiva he believed to rule the khanate to mehtar, sometimes even the khan relied him his own governing power also [2, p. 60].

Mekhtar (persian word) -means big, grand, greatest. Me-khtar was chosen from closest people around khan and at the same time one of the khan's kinsman. Mekhtar was considered as the treasurer and prime minister.

“Qosh begi” the second minister was also the member of council. He was from qiyot-kungurot clan as the khan. He was considered as the representative of the clan in conflictive situation and everybody respected him [2, p. 60—61].

Qoshbegi (from turkish “qo’sh” — means military camp, “begi”-the chief, the head, the head of the military camp). Qoshbegi was the second minister in Khivian khanate (a lot of historians called this title as “the head of hunters”).

Qoshbegi, devonbegi, mekhtar and yasovulboshi were the owners of military industrial ranks or the commanders of its departments and of course took part in battles. Qo’shbegi and mekhtar was paid by the khans special decree and they got salary according the ammount of taxation [3, p. 260].

In XIX century. the owners of the above mentioned ranks took main part in social-political life of the khanate. In archieve notes there we can find special chapter which was called “Beklar”(the governors, ministers).

Bek (from turkish) was the name of the title. The word bek means in its origin the governor, but it was used with the meaning

sir. Among central asian people the word meant the governor of the city or region. This title was given to the khan's relatives and other statesmen's children as the honorary degree.

The rank following after the rank “bek” was “beklar-begi”. Beklarbegi (from turkish) was the honorary and military title was awarded to the chiefs of karakalpak and other nations. His main function was checking up the regular tax-collection from his tribe and controlling the tax delivery to the khan's treasure over. Beklarbegi (the assistant of the bek) was the commander of the troop he ruled over a number of “yuzboshi” (the leaders of hundreds) [4, p. 112, 113, 114].

It is known that, mekhtar, as the prime minister of the state he was the leader of external affairs of the country besides being responsible for finance, tax and charity affairs. In this sphere shigavul (a rank) was the direct assistant of the mekhtar. Shigavul, from turkish-mongolian, means the ass-sistant of mekhtar.

The activities of shigavuls were closely connected with the activities of “bukhri”. Bukhri a the spy or secret service serviceman. As we can in the 60-notebook of the Khiviankhanate archive, Bukhriy Makhmudbek, Bukhriy Bolokhon got 20 golden coins as the salary (at that time, the officials on the ranks of mekhtar, qoshbegi, devonbegi, bek, beklarbegi and shigavul got about 20 golden coins as wages pay) [4, p. 203-204].

As a result of administrative-territorial reforms implemented during the reign of Mukhammad Rakhimkhon, the khanate was divided into regions and districts which were called “machit”. All the administrative and political affairs concerning to the region were in hand and under control of “khokim”-governors and his “noib”-assistant, vice-governors. They were designated from the owners of large landlords, khan's kins and relatives and makhrams (from relatives of khan's wife). The Khokim or governor was the khan's representative in the region. The governors assistants “noib”, the chief of hundreds “yuzboshi” and “katkhudo” or leaders ruled the

towns in the khanate. In the villages all affairs were under control of imams and “merob” [5, p. 2].

Mirshab (from arabic, persian “mir”-the chief, “shab”-night) has two meanings which of the first one means, night guard, the chief night guard.and the second meaning is the night governors of the towns, a rank in khanates of Central Asia, whose post is to control public discipline in towns.Mir-shab began his working day after 6 pm everyday, because, at this time, all town markets were closed and in an hour the town gates were closed and the town abated.From this time, nobody shouldn't go out of the house and walk along the streets of the town.All who broke the rule were caught by the “mirshab” and brought to “mirshabkhona” or police office [6, p. 77].

In central Asian khanates the permanent soldiers of troop were called “Sarboz”.Sarboz (from persian) means the regular or permanent soldier of the army. In Khivian khanate they were gathered during war times and they were about 30—100 thousand in an army.

References:

The chief commander of the military forces in Khivian khanate was “Amir ul Ulamo” from arabic.Amir ulU-lamo meant the the chief amir of amirs or the greatest of all amirs. Amir ul Ulamo from Chigatoy dynasty period, was the commander of all military affairs. During the reign of amir Temur and other Temuriyds, he was the chief supreme commander in some situations the amir's vice-exe-cuter, it was a title established in 1272 (1855-1856) in the khanate [7, p. 376 a].

There was another rank of “Mingboshi” (the chief of thousand men) which in khivian khanate mean the chief of “yasavul” (mounted guard), but in Kukon khanate the title was given to the person who stands in second post after the khan. It means that “mingboshi” (from turkish) is a military and administrative title in khivian khanate which means he head of the Yasavul (from

mongolion, means a small functionary or state official) and ruled the small military and administrative posts in the khanate.

Besides above mentioned ranks and titles, there were also the titles and posts of “sarkhang”(a responsible official on building defending fortresses), “kutvol”(who was responsible to reconstruct the the damages of the fortified city), “sarkarda”(commander. troop leader), “nakib”(the title awarded to sayids and khodja who were considered the noblemen of the khanate), 'navkar"(khan', padishakh', sultan' and prominent lords' the permanent military serviceman).

In conclusion, we can say that historical process is the direct human development, but the foundation of civilizations and social life as its result, spiritual heritage of the society in its turnis connected with a person's spirituality and value.It is required to identify the future progress and forecast by comprehending the content of real development process as foundation of civilization.

1. Семёнов А. А. Бухарский трактат о чинах и званиях и об обязанностях носителей их в средневековой Бухаре // СВ. 1848, № 5
2. Муравьев П. П. Путешествие в Туркмению и Хиву в 1819—1820 гг. гвардейского Генерального Штаба капитана Николая Муравьева, посланного к сию страну для переговоров. Ч. 1—2,— М., 1822. 60 б.
3. М. Yo'ldoshev. Ko'ysatigan asar. 260 b.
4. Ivanov P.P. Ko'satilgan asar.— 112,113, 114 b.
5. Кун. Л. А. Культурный оазис Хивинского ханства //ТВ. 1874. — С.2
6. Чориев З. Тарих атамаларининг кискача изохли лугати.— Т.: Шарк, 1851.—77 б.
7. Bayoniy. Xorazm tarixi. 376 a — b.

OGAHIYNING TARJIMADA ASLIYATNI SAQLASH MAHORATI XUSUSIDA

Ogahiyning tarjimonlik mahorati haqida qator ishlarda bir qancha, fikrlar bayon qilingan va Najmiddin Komilov, Vahob Rahmonovlar tomonidan maxsus monografik tadqiqotlar amalga oshirilgan. Biz ham quyida Shayx Muslihiddin Sa’diy Sheroziyning “Guliston” asarining asliyatini Ogahiy tarjimasidagi “Guliston” bilan qiyoslagan holda ba’zi bir fikrlarni bildirmoqchimiz. Ogahiy tarjimasidagi “Guliston”da o’qiymiz.

“Bu baytlar Faridun ayvonining toqig’a yozilmish erdikim, masnaviy:

Jahon mulki ermas turur poydor,
Ko’ngil bog’la bas xaqq’a, ey xushyor.
G’urur etma ko’b bo’lsa dunyou zar,
Egon ermas ondin dame kimsa bar.
Chiqar vaqtda teng durur joni pok,
Badan joyi taxt o’lsun u yo’qsa xok.

Ushbu satrlarni asliyatda quyidagicha o’qiymiz:

“Bar toqi Faridun navishta bud, masnaviy:
Jahon, ey birodar, namonad ba kas,
Dil andar jahon ofarin bandu bas!
Makun takya bir mulku payou pusht,
Ki bisyor kas chun tu parvarda kusht.
Chu ohangni raftan kunad foni pok.
Chi bar taxt murdan, chi bar ruyi haq.

Asliy matn va Ogahiy tarjimasini qiyoslagan holda quyidagi fikrlarni bayon qilish mumkin:

Avvalo tarjimadagi she’riy parcha (masnaviy)da vazn bir xilligi saqlangan, ya’ni tarjimada:

G’u-ru ret ma ko’b bo’l - sa dun yo u zar

| | | | |
|------------|------------|------------|--------|
| fa' uv lun | fa' uv lun | fa' uv lun | fa' ul |
| V - - | V - - | V - - | V - |
| E-gan er | ma son din | da me kim | sa bar |
| V - - | V - - | V - - | V - |

Mutaqoribi musammani mahzuf va asliyatda:

| | | | |
|------------|-----------|------------|--------|
| Ja xo ney | bi ro dar | na mo nad | ba kas |
| V - - | V - - | V - - | V - |
| Di lan dar | ja ho no | fa rin ban | du bas |
| V - - | V - - | V - - | V - |

Fa' uv lun fa' uv lan fa' uv lun fa' ul

Mutaqori musammani mahzuf.

Bu jihatni alohida ko'rsatishimiz boisi shundaki, fors adabiyotidan qilingan ko'pgina tarjimalarda keyingi vaqtlarda o'zbek adabiy tilinng xususiyatlari hamda bugungi kitobxonga matn mazmuni to'la ravshan bo'lishi uchun aruzdagi she'rlar (yoki butun bir lira-epik asarlar, she'riy parchalar) barmoqda amalga oshirgan.

She'riy parchaning bugungi o'zbek tiliga nasriy tarjimasi quyidagicha bo'lishini ko'ramiz:

“Ey do'st, shu bas. Molu mulkka suyanma va orqa qilma, chunki senday ko'plab kimsalarni (o'zi) parvishlab o'ldirgan. Pok jon ketar vaqtda taxt ustida o'lmoq nima-yu, tuproq ustida o'lmoq nima!”.

Ko'rinadiki, Ogahiy tarjimasida she'riy parcha mazmuni to'la saqlangan. She'riy tarjimada ham shaklni (vazn nuqtai nazardan hamda qofiyalanish tartibini etiborga olgan holda), ham mazmuni saqlash ijodkordan katta salohiyat va iste'dod talab qiladi. Shu bilan birgalikda she'riy tarjimada asliyatdan mazmuni saqlagan holda chekinish ham o'ziga xos fazilat hisoblanadi. Shu o'rinda Ogahiy tarjimasida ushbu baytlar asliyatdan o'ziga xos chekinishlar ham borligini ko'rsatib o'tsak, o'rinli bo'lsa kerak:

Birinchi baytda asliyatda jahon va jahon ofarin (jahonni yaratuvchi, xudo) so‘zlari orqali ishtiyoq san’ati yuzaga kelgan. Tarjimada esa mazmun saqlangan, san’at esa saqlanmagan.

Uchinchi baytda “badan” so‘zini qo‘llash orqali mazmun asliyatdan ko‘ra tarjimada fahmlash uchun qulay holga keltirgan.

Ko‘rinadiki, Ogahiyning tarjimonlik mahorati xususida asliyat bilan solishtirgan holda juda ko‘plab fikrlar bildirish mumkin. Bu esa zimmamizga g‘oyat murakkab vazifa - fors tili va adabiyoti, forsiy tarixnavislik (Ogahiyning yigirmata tarjimasidan o‘n to‘qqiztasi forscha badiiy va tarixiy asarlar)ni hamda Ogahiy ijod maktabini nihoyatda yaxshi bilishni qo‘yadi.

ADABIYOTLAR:

1. Komilov N. Muhammad Rizo Ogahiyning tarjimonlik mahorati. DDA, T.: 1989; Rahmanov V. Sa’diyning “Guliston” asari o‘zbekcha tarjimalari. NDA, T.: 1976.

2. Ogahiy. Asarlar, olti jildlik, VI jild. Nashrga tayyorlovchi Subutoy Dolimov, T-1977. 90-91-betlar.

3. Asari Shayxiy Sa’diy. Tobe v a nashr; sohibimtiyoz va mudiri ro‘znomai “Tarjimon” Ismoilbek G‘aspirinskiy. Dar matbai elektriki ro‘znomai “Tarjimon” bahalliyani tab rasid-Bog‘chasaroy, Krim, Rossiya, 1291 hijriy. Sah. 18.

“Ogahiy olami”. 2-kitob, Urganch-2005. (45-47 betlar)

***“ МОЛОДОЙ УЧЕНЫЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ”
7-2015 ЧАСТЬ VII, (656-657).***

OGAHIYNING FORSIY TARIXLARI

Ma'lumki, o'zbek mumtoz adabiyotida Ogahiy o'zining ijodiy salohiyati, zullisonaynligi va tarixnavisligi bilan ajralib turadi. Uning g'azaliyot bobidagi nufuzi hazrat Navoiydan keyin o'zbek adabiyoti, umuman, turkiy adabiyot olamida o'ziga xos g'oyani egallaydi va shuning barobarida alohida qimmatga ham ega.

Ogahiyning ijodiy merosi haqida juda ko'p ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Lekin uning o'z tadqiqotini kutayotgan Xorazm, aniqrog'i, Xiva tarixi uchun qimmatli materiallar beruvchi ijodiy merosi borkim, bu haqda hali diqqatni jalb etuvchi biror ilmiy izlanishlar qilinmagan.

Biz ushbu maqolamizda Ogahiyning forsiy tilda bitilgan she'riy ta'rixlari haqida so'z yuritmoqchimiz. Ma'lumki, she'riy ta'rixlar deganda abjad hisobida yili yashiringan, nazmda bitilgan asarlarni ko'zda tutamiz. Ogahiyning forsiy ta'rixlari mazmun jihatidan xonlarning taxtga o'tirishi, madrasalar qurilishi, tarixiy shaxslar, ulamolar vafotiga bag'ishlangan tarixlardan iborat.

Ma'lumki, Xiva xonlaridan Olloqulixon davrida Xiva shahrida ancha obodonchilik ishlari amalga oshirilgan. Jumladan, madrasa va maqbaralar qurilishi, sug'orish inshootlarining obod etilishi aksariyat Olloqulixon davriga to'g'ri keladi. Pahlavon Mahmud maqbarasi, Olloqulixon madrasasi va boshqa inshootlar shular jumlasidandir.

Ogahiy o'zining 1-tarixini Olloqulixon vafotiga bag'ishlagan bo'lib, uning vafoti xalqni iztirobga solganini va ilm-fan ahlining fig'onini tasvirlaydi:

*Olloqulixon ma'dalat kesh,
Makone shohi falak janob omad.
Az hukmi qazo ba bistari marg,
On shohi jahon ba xob omad.*

*Dar motamash ohi otash olud,
Dilso'zi bashayxu shohob omad.*

*Az sho’ri fig’oni ahli olam,
Ayvoni falak xarob omad*

Tarjimasi:

*Adolatparvar Olloqulixon
Makon qilib falakni fayziyob keldi.*

*Haq hukmi bilan ul shohi jahon
O’lim uyqusiga ketib, dunyoga azob keldi.*

*Yosh-qari ko’ksiga dillarni yoqquvchi
Otashin yuz fig’on, iztirob keldi.*

*Ahli olam dod ila faryodi
Ayvoni falakni qilib xarob keldi.*

Keyin uning o’g’li Rahimqulixon taxtga o’tirganini, “qari ketib, yosh”, xalqni boshqara oladigan keng fikrli juvon kelganini yozadi:

*Az do’lati u ba Zoli dunyo,
Piri rafta shabob omad.*

Tarjimasi:

*Uning do’lati bois Zol bu dunyodan
Pir ketdi-yu, o’rniga shabob keldi.*

Shoir oxirgi satrlarda tarix muammosini yozadi:

*Ogahiy bafikr buda yak shab,
Kaz xotifash in xitob omad.*

*Tarix bar in du vokea go’yi,
Fikri tu basi savob omad.*

*Go’ft az sari osmon guzashta
Mah rafta oftob omad.*

Tarjimasi:

*Ogahiy bir oqshom fikr etganida
Hotifdan shundayin bir xitob keldi.*

“Bu ikki voqea tarixin ayt

Sening fikring-chun ko‘p savob keldi”

“Mah rafta oftob omad”

Tarixi bo‘lib shunda javob keldi.

“Mah rafta oftob omad” so‘zlaridan tarix moddasi chiqib, bu abjad hisobi bo‘yicha hijriy 1258, milodiy 1842 yildir.

Ogahiy 2-tarixida Muhammad Aminxonning binokorlik faoliyatiga e‘tibor berganligini, obodonchilik ishlari bilan Xorazmni “Bog‘i eram”ga aylantirganini yozadi:

Shude afzun baxalq, ayshu tarab,
Tozagi yoft mahfili olam.

Ogahiy bar julusi tarix
“Xoni gardun shukuh”, kard raqam.

Tarjimasi:

Xalqning shodligi haddin afzun bo‘lib
Toza bir fayz hosil qildi olam.

Ogahiy uning taxtga chiqish tarixin
“Xoni gardun shukuh” deb qildi raqam.

“Xoni gardun shukuh” so‘zlari tarix moddasi bo‘lib, bu abjad hisobida hijriy 1261, milodiy 1845- yildir.

Yuqorida aytganimizdek, Ogahiy tarixlarining aksariyati madrasa qurilishlariga bag‘ishlangan. “Tarixi binoi madrasai Muso to‘ra” tarixi ushbu satrlar bilan boshlanadi:

Bek oliy nasab to‘ra Muso
Chand muddat bajoh, vosil sho‘d.

Chun zi javri spehr gashta shahid
Bariyoze behisht doxil sho‘d.

Tarjimasi:

Oliynasab to‘ra Musobek,
Bir oz muddat taxtga vosil bo‘ldi.

Falak jabri bilan bo‘lib shahid
Oqibat behishtga doxil bo‘ldi.

Muso to‘ra Xiva xonligida yuksak martabani egallagan. Uning vafotidan keyin onasi o‘g‘lining nomiga madrasa qurdiradi. Ogahiy mazkur tarixda madrasaning qurib tugallanish sanasini ko‘rsatgan:

Modarash az bahri u in madrasa,
Kard imorat sarf karda zi rusim.

Shud bag‘oyat oliy dilkash bino,
Az jami aybu nuqsonho salim.

Tarjimasi:

Onasi uning uchun qildirdi bino
Sarf etib qancha zaru siym.

Bu bino shu qadar dilkash bo‘ldiki,
Erdi barcha nuqsonlardan salim.

Tarix moddasi oxirgi baytda ochiladi:

Soli itmomash ba go‘shi Ogahiy
Guft Xotifi: “Mavjubi ajru azim”.

Tarjimasi:

Tamom bo‘lish yilin tingla Ogahiy,
Xotif dediki, “Mavjubi ajru azim.”

“Mavjubi ajru azim” tarix moddasi bo‘lib, hijriy 1272, milodiy 1856 -yildir.

Biz ushbu kichik tadqiqotimizda, xulosa qilib, shuni ta’kidlab o‘tishni joiz topdikki, Ogahiyning forsiy tarixlarini, umuman, uning forsiy merosini tadqiq etish o‘tmish tariximizni o‘rganishda faktik materiallar berishi jihatidan, qolaversa, she’riy san’at sifatida katta ahamiyatga egadir.

ADABIYOTLAR:

1. Ogahiy. *“Ta’viz ul-oshiqin” devoni, Qo‘lyozma, 1868y.*
2. Mahmud Hasaniy. *“Ta’rixlarda Navoiy vasfi”.* Toshkent, 1991, F. G‘ulom nashriyoti.
3. A. Juvonmardiyev. *“Harf va raqam”, Toshkent, 1971, “Fan”.*

“Ogahiy adabiyoti”. Toshkent-1999. (101-104 betlar.

XX ASRNING BIRINCHI YARMIDA BITILGAN XORAZM TARIXINI YORITUVCHI QO‘LYOZMA ASARLAR

Annotatsiya: Ushbu maqolada XX asrning birinchi yarmida bitilgan tarixiy qo‘lyozmalar va ularning tafsilotlari bayon etiladi.

Kalit so‘zlar: nasta‘liq, avtoqraf, tarixiy manba, vaqf hujjatlari, geografik tarix, etnik tarix.

Аннотация: В этой статье говорится об исторических руко-писях первой половины XX века и их значениях.

Ключевые слова: насталик, автограф, исторический источник, вакуфные документы, географическая история, этническая история.

Annotation: In this article, historical instructions and their definitions are learned which were written in the first half of 20 th century.

Key words: nastalik, autograph, historical source, waqf documents, geographical history, ethnic history.

Xorazm tarixini yorituvchi arab va fors tillarida bitilgan qo‘lyozma asarlar qatorida XX asr birinchi yarmida arab yozuviga asoslangan eski o‘zbek yozuvida yaratilgan qo‘lyozma asarlarni o‘rganish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Ular qatorida 1869-1912 yillarda yashab ijod etgan Ahmadjon Tabibiyning “Tavorix ul-xavonin” (Xonlar tarixi) nomli qo‘lyozma tarixiy asari ham Isfandiyorxon davri (1910-1918 yy) tarixini o‘z ichiga olib, asar vaziri akbar Islomxo‘janing (1872-1913 yy) buyrug‘i bilan yozilgan. Qo‘lyozma muhridagi yozuvga ko‘ra 5-sonli Sergeev fabrikasida chiqarilgan sarg‘ish qog‘ozga nasta‘liq yozuvida yozilgan. Sarlavhalar va muhim voqealar nomi qizil rang bilan bitilgan. Qo‘lyozma o‘lchami 35x22 sm⁸⁸.

Xivalik tarixchilardan yana biri Abdulla Boltayev bo‘lib, u 1890 –yili Xivada bo‘yoqchi oilasida dunyoga kelgan. U o‘zining “Xorazm tarixi materiallari” asarida⁸⁹ XX asr boshlaridagi

⁸⁸Xудойберганов К. Пахлавон Махмуд кабр тошидаги ёзувлар... Тарих фан, ном. дисс..... -Б. 81.

⁸⁹Болтаев А. Хоразм тарихи материаллари. // Қўлёзма. ЎЗ ФА ШИ. № 9320, 93+3 вар.

voqealarni guvohi va ishtirokchisi sifatida bayon qiladi. Nasta’liq xatida qayd daftarida yozilgan. 93+3 varaq. 94^a varag‘ida muallifning tarjimai holi keltirilgan⁹⁰.

Asar 1950 -yili Xivada yozilgan. Tarixiy manba sifatida mazkur asar ham juda qimmatlidir. Tarixiy ma’lumotlaridan Xiva xonligida qulchilik, Xiva va uning atrofidagi madrasalar ularning vaqflari, soliqlar, hunarmandchilik va ularning mahsulotlari, chorvachilik, boj va hokazoni alohida ta’kidlash mumkin. Xonlikdagi 1910 –yili voqealari, 1917-18 yillaridagi va 1920 –yilidagi xalq qurultoyi, inqilobiy voqealar guvoh tilidan yozilgan.

A.Boltayevning “Xiva esdaliklari” nomli asarida esa muallifning esdaliklari turli manbalar, gazeta maqolalari va boshqa guvohlarning esdaliklari arab va kirill yozuvida, o‘quvchidaftoriga yozilgan. Asarning birinchi qismida Xiva madrasalari, Xivaning me’moriy obidalari, sug‘orish tizimi haqida keng ma’lumotlar berilib, turli chizmalar keltirilgan (4^b-6^a, 7^b-12^b, 59^b, 78^a-81^b). Ikkinchi qismda muallif ko‘pgina Xiva hujjatlari nusxalarini keltirib, ularni tahlil qilgan (97^b-101^b). Unda Xiva shahrida 1911 yilda yerga bo‘lgan munosabatlar, po‘stindo‘zlarning arizalari, xalqning turli urf-odatlarini haqida qaydlar va fikrlar mavjud. Asarning hajmi 111 varaq⁹¹. Avtograf. 2 ramazon 1384/5 yanvar 1965 Xivada yozilgan⁹².

Xiva xonligi tarixini o‘rganishda Bobojon Safarovning asarlari ham juda qimmatlidir. Bobojon Safarov XIX asrning oxirlarida Xivada tug‘ilib, madrasa ta’limidan so‘ng mufti a’lam bo‘lib ishlagan. Uning shartli ravishda nomlangan “Xorazm tarixi”, “Xorazm xonligiga tegishli tarixiy materiallar”, “Xorazmda o‘tgan o‘zbek podshohlarining nasablari, xonliklari, avlod-u oilalari, mol-mulkulari, xulqu odatlarining voqea ahvollari”, “Xorazmda bo‘lib o‘tgan qulchilik ahvollarining voqealari”, “Isfandiyorxonning xonlik vaqtidagi qilg‘on ishlaridan ba’zi voqealar” asarlari va yozishmalari

⁹⁰Кўлёзма. ЎзФА ШИ. - № 9320.

⁹¹Кўлёзма. ЎзФА ШИ. – № 11645.

⁹²СВР. История - С, 239-240.

yetib kelgan. Mazkur asarlarning barchasi O‘zbekiston FA Sharqshunoslik instituti xazinasida (-№№10231, 11117, 11254/I1254/II, 11254/III) saqlanadi.

Safarov Bobojonning asarlari sho‘rolar davrida yozilgani va ularning mazmunida davrning g‘oyaviy ta‘sirini inobatga olish lozim. Ularning biryoqlama voqealarga baho berishi bilan undagi ko‘p tarixiy voqealar tafsilotlaridan yangi va o‘ta muhim ma‘lumotlarni olish mumkin.

“Xorazm tarixi” asarida B. Safarov Xorazmda yuz bergan 1864-1934 yillardagi voqealar bayon etilgan. Asarda, ayniqsa, 1920-1922 yillardagi siyosiy voqealar kengroq yoritiladi. Asarda keltirilgan geografik hamda Xiva xonligining etnik tarixiga oid ma‘lumotlar juda qimmatlidir. Asar muqaddima va 36 bobdan iborat. Boblar nomlari quyidagacha:

“Xorazm xonligiga tegishli tarixiy materiallar”da xonlik davriga oid o‘ta muhim ma‘lumotlar mavjud. Unda xonlik tarixi XVII asrdan XX asrning boshlarigacha yoritilgan. Asarda soliqlar, xiroj, zakot, boj olish haqida ma‘lumotlar keltirib, unda Muhammadrahimxon II va Asfandiyorxon davrlari kengroq yoritiladi. Asar nasta‘liqda, oddiy qalamda Xivada yozilgan va 16 varaqdan iborat.

“Xorazmda o‘tgan o‘zbek podshohlarining nasablari, xonliklari, avlodu oilalari, mol-mulklari, xulqu odatlarining voqea ahvollari” nomli asarini B. Safarov O‘zbekiston FA Tarix instituti buyurtmasi bilan yozgan. Unda xonlik tarixi Eltuzarxon davridan (1804-1806) boshlab Asfandiyorxon davrigacha (1918 –yili o‘ldirilgan) bo‘lgan voqealar bayon etiladi. Asar 81 sahifadan iborat.

Bobojon Safarov oxirgi ikkita asarida Xorazmda qulchilik masalasini (12 sahifada) va Isfandiyorxon davri tarixini (4 sahifada) yoritgan.

Xivalik tarixchilardan yana biri davlat va siyosiy arbob hamda tarixchi Polvonniyoz Hoji Yusupov 1861 –yil Xivada tug‘ilib, 1936 –yili dunyodan o‘tgan. U yigitlik davrida tijorat ishlari bilan shug‘ullangan. Bir qancha xorijiy mamlakatlarda, jumladan,

Rossiya, Turkiya, Misr va Suriyaga borgan. U arab, fors va rus tillarida erkin gapira olgan. Polvonniyoz Hoji Yusupov “Yosh xivaliklar” partiyasining asoschisi va rahbari bo‘lib, u o‘z faoliyati davomida ro‘y bergan muhim tarixiy voqealarni kundalik daftariga xotiralar tarzida yozib qoldirgan. “Xotiralar” tarzida yozilgani uchun kitobga nom, mavzu va boblar qo‘yilmagan. Asar asosan “Yosh xivaliklar” partiyasining demokratik faoliyatiga, uning xon istibdodini ag‘darib Xorazmda mustaqil xalq jumhuriyatini barpo qilish va uni mustahkamlash borasidagi ishlarga bag‘ishlangan.

Polvonniyoz Hoji Yusupovning o‘z qo‘li bilan arab imlosida yozgan bu “Xotiralar”ning asl nusxasi tarix fanlari nomzodi A.Sotliqov, Mullo Bolta Davlatov, Mullo Baxtiyor Otajonovlar tomonidan Hozirgi o‘zbek imlosiga o‘girildi va asar “Yosh xivaliklar tarixi” nomi bilan nashr etilgan, “Xotiralar”ning asl qo‘lyozma nusxasi esa Polvonniyoz Hoji Yusupovning nevarasi qo‘lida saqlanmoqda. “Yosh xivaliklar tarixi” kitobi 10 bob, 485 betdan iborat. Asar Muhammadrahimxon II Feruz vafoti va uning o‘g‘li Xiva xonligi taxtiga ko‘tarilish davridan boshlanib, Turkistonda “Milliy hududiy chegaralanish” va XX asrning tugatilishigacha bo‘lgan davr voqealarini o‘z ichiga oladi⁹³.

XIX asrning oxiri XX asrning boshlariga oid yuqorida ko‘rib o‘tilgan tarixiy asarlar ham xonlikning ijtimoiy adabiy muhiti haqida to‘la ma’lumot beradi va ular ham Xorazmdagi kitob va kitobat san’atining yaqqol namunasi sifatida qimmatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Boltayev A. Xorazm tarixiga materiallar. //Qo‘lyozma. UZ FA SHI. - № 9320. 93+3 var.
2. Qo‘lyozma. O‘z FA SHI. - № 11645.
3. Polvonniyoz Hoji Yusupov. Yosh xivaliklar tarixi. - Urganch, 2000. - B.42.
4. SVR. Istoriya. - S, 239-240.
5. Xudoyberganov K. Pahlavon Maxmud qabr toshidagi yozuvlar. Tarix fan. nom. diss... - B. 81.

“Tamaddun nuri”, 2009-yil, 3-son. (54-55-betlar)

⁹³Полвонниёз Ҳожи Юсупов. Ёш хиваликлар тарихи. - Урганч, 2000. – Б.42.

BAYONIY TARIXIY ASARLARINING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada Xorazm turkiy tarixnavisligiga oid bo'lgan Bayoniyning "Shajarayi Xorazmshohiy" hamda "Xorazm tarixi" asarlarining lingvistik xususiyatlari tahlil qilingan. Ulardagi leksik qatlam va davlatchilik terminologiyasiga oid ayrim atamalar o'rganilgan.

Kalit so'zlar: turkiy tarixnavislik, tarixiy leksika, etimologiya, davlatchilik terminologiyasi, tarixiy manba

Аннотация. В данной статье анализируются лингвистические особенности произведений Баяни "Шаджараи Хорезм Шахи" и "История Хорезма", относящиеся к турецкой историографии Хорезма. В них изучались некоторые термины, относящиеся к лексическому пласту и терминологии государственности.

Ключевые слова: турецкая историография, историческая лексика, этимология, государственная терминология, исторический источник.

Abstract. This article analyzes the linguistic features of Bayani's works "Shajarai Khorezm Shahi" and "History of Khorezm", related to the Turkish historiography of Khorezm. They studied some terms related to the lexical layer and terminology of statehood.

Key words: Turkish historiography, historical vocabulary, etymology, state terminology, historical source.

Xorazm turkiy tarixnavisligiga oid manbalar haqida fikr yuritganda, ularlar orasida eng muhimlaridan biri bo'lgan Muhammad Yusuf Bayoniyning "Shajarayi Xorazmshohiy" hamda "Xorazm tarixi" tarixiy asarlari borasida alohida to'xtalish zarur. Ushbu ikki manba, ayniqsa, "Shajarayi Xorazmshohiy" asarining tarixiy, badiiy, ilmiy ahamiyati haqida ko'plab olimlar fikr bildirganlar. Ayrimlari, hatto ushbu asarni Munis va Ogahiyning tarixiy asarlaridan ham ustun turishi haqida to'xtalganlar [2, 3-9].

Bayoniyning "Shajarayi Xorazmshohiy" asari 16 bobdan iborat. Asarning muqaddimasida uning yaratilish sabablari aytib o'tilgan. Jumladan, Bayoniy "Shajarayi Xorazmshohiy" asarini yozish buyrug'ini xondan Tolibxo'ja ibn Avazberdi orqali jumod-ul-avvalning yigirma ikkinchi kuni (1329/1911-yili 10-may) oladi. Bu haqida muarrixning o'zi shunday yozadi: Bas, arkoni davlatning mashvaratlari bila nizomi umuri mamlakatga qiyom ko'rguzdilar, tokim, tarixi hijriyning ming uch yuz yigirma to'qquzlanchisi va

jumod-ul-avvalning yigirma ikkilanchi kuni bo‘ldi. Faqiri haqirg‘a muqarrabi borgohi falaki ishtibohlari, ya’ni Tolibxo‘ja ibn Avazberdi eshoni mag firatnishonning vasotatlari bila amri oliy sudur toptikim, bu jahoni nopoydorda yogdor qo‘ymoq yaxshidur va so‘zdir baqoliroq va yaxshiroq yodgor yo‘qdur.

Tarixiy manbaning ifoda uslubi sodda va ravon ekanligi, hodisalarga obyektiv yondashuvning ustunligi, tarixiy haqiqatni aslicha ta’riflash, ko‘tarinki ruh, yuqori pafos, jimjimador ta’riflarning nisbatan ozligi uning tarixiy asarlari uchun xos jihat ekanligi bot-bot takrorlanadi.

Ushbu jihatlardan biz uchun muhim bo‘lgan taraflar - bu yuqori pafosning ozligi, xon, bek, va boshqa yuqori mansabdagi shaxslarning ta’rif-tavsiflarida musajja’ usulining nisbatan kamligi, ifoda uslubining soddaligi, she’riy bezaklardan foydalanish mahorati, asar leksikasidagi o‘zlashma qatlam, davlatchilikka oid terminologiya birliklaridan foydalanish darajasi kabi jihatlardir. “Shajarayi Xorazmshohiy”ning lingvistik tahlilini amalga oshirishda ushbu xususiyatlar katta ahamiyat kasb etadi. Shular asosida ijodkorning xos uslubi, asardagi o‘zlashmalar qatlami, o‘zlashmalarning asar badiiyatida tutgan o‘rni va ahamiyati, davlatchilikka oid terminlardan foydalanishdagi o‘ziga xosliklar, ichki va tashqi siyosatga oid terminologik tizim, asarda tilga olingan kasb-kor otlari, antroponimlar va, umuman, onomastik tizim kabi tilshunoslikning dolzarb masalalariga ma’lum darajada aniqlik kirituvchi tomonlarga e’tibor qaratamiz.

Eng avvalo, “Shajarayi Xorazmshohiy”dagi o‘zlashmalar tizimiga xos xususiyatlarga to‘xtaladigan bo‘lsak: asar leksikasida shu davrdagi barcha tarixiy asarlardagi kabi arabiy va forsiy so‘zlarning salmog‘i katta. Ammo asardagi arabiy va forsiy o‘zlashmalar ham nisbatan soddaroq, oson tushuniladigan so‘zlash ekanligini ta’kidlash zarur: Vaqtekim, Sayyid Muhammad Rahim Bahodirxoni soniy sariri saltanatda qaroro tutdilar, shuaro va fuzalo hayli juluslari uchun torixlaru qasidalaru masnaviylar oytib, in’omi shohona va atoyi xusravonadin sarshor bo‘ldilar.

O‘zlashmalar “Shajarayi Xorazmshohiy”dagi badiiy-tasviriy vositalarning yuzaga kelishida katta ahamiyat kasb etadi. Chunonchi, “Shajarayi Xorazmshohiy”dagi so‘zlar ohangdoshligini aksariyat hollarda ayni o‘zlashmalar qatlami ta‘minlaydi: Bas, tamomi oboyi izomu ajdodi kiromlarimizning voqeotu holatlarin ilo yavmino hazo takallufoti munshiyonadin oriy bo‘lg‘on iboroti mutadovalaning zimmida majozu istioradin kanora tutib, izyoju ixtisor bilan tarix sahifasig‘a sabt etilgay, tokim ommayi atrok eshitgan hamono betaraddudi xotir fahmlagaylar.

Parchadan ko‘rinib turibdiki, ijodkor maxsus omma uchun bir tarix yaratishni va omma uni betaraddud fahmlashini orzu qilgan. Shu sabab ham “Shajarayi Xorazmshohiy”dagi murakkab jumlarlar, o‘quvchi uchun tushunilishi qiyin bo‘lgan arabiy va forsiy o‘zlashmalar faqatgina hamd, na‘t qismida uchraydi. Asarning boshqa o‘rinlarida oddiy ifoda ustunlik qiladi.

“Shajarayi Xorazmshohiy”dagi she‘riy bezaklarga to‘xtaladigan bo‘lsak, muarrix she‘riy qismlarda asosan, o‘z qalamiga mansub she‘riy parchalardan, shuningdek, Munis va Ogahiyning she‘rlaridan ham foydalangan. Ular orasida o‘zbek tilida ham, fors tilidagilar ham mavjud. Biz asardagi she‘riy bezaklarni mutolaa qilib, bemalol Bayoniyni zullisonayn shoir deb aytishimiz mumkin:

Bayon aylayin zo‘ri andozasin, Olib otdi Xaybarni darbozasin. Bayoniy chu ul erdi sheri Xudo, Degil so‘z uzotmay onga jon fido [2, 11].

“Shajarayi Xorazmshohiy”da forsiy she‘riy matnlar ham yuqori saviyada bitilgan. Vazn mukammalligiga alohida e‘tibor qaratilgan. Bundan kelib chiqadiki, muarrix, she‘riy ta‘limni mukammal o‘rgangan:

Dar hama vaqt on shahi olam, Bod xushvaqt, xushdilu xurram. Ahli Xorazm z-u shuda xushhol, Karda bar xud duoyi alzam [2, 12].

Ma‘nosi: Ey olam podshohi, har dam xushvaqt, xushdil va xurram bo‘lgin. Xorazm ahli xushhol bo‘lib, sen uchun lozim bo‘lgan duolarni qilmoqdalar. Tadqiqot uchun eng muhim bo‘lgan

lingvistik xususiyat bu, so‘zsiz, “Shajarayi Xorazmshohiy”da qo‘llangan davlatchilikka oid bo‘lgan terminlar tizimidir. Ta’kidlash zarurki, Xorazm turkiy tarixnavisligiga oid bo‘lgan manbalar orasida o‘zining leksik tizimi bilan boshqalaridan aslo qolishmaydigan ushbu asarda davlatchilikka oid ko‘plab tushunchalarni ifodalovchi terminlar mavjud. Xususan, davlat tushunchasini ifodalovchi davlat, saltanat, mamlakat, viloyat, nohiya, xonlik, mulk, mamolik, yurt, hukumat kabi so‘zlar shular jumlasidan: Jarchilar ko‘chalarda “Davri-davri Muhammad Rahim Bahodirxon!” deb munodo ura berdilar. Viloyatda ajab bir xushhollik dast berdi [2, 17-18]; Hamma yurt ulug‘larining ittifoqlari bilan Bobojon to‘ra, ya’ni Muhammad Rahim to‘ra ibni Sayyid Muhammadxonni jannatmakon xon bo‘lub, taxti davlatda o‘lturdilar [2, 11]; Abul-Muzaffar va al-Mansur Sayyid Asfandiyor Muhammad Bahodirxon “xalladallohu mulkahu va sultonahu va afoza alal olamin birrahu va ehsonahu” (Alloh uning mulku saltanatini abadiy etsin hamda ezgulik va ehsonlarini olamga yoysin) Xorazmi Erambazmning taxti saltanatida o‘lturdilar [2, 12]; Bas, arkoni davlatning mashvratlari bila nizomi umuri mamlakatg‘a qiyom ko‘rguzdilar...[2, 13]

Shahi hukmron turki omil qani? Hukumat rusumida komil qani? [2, 20]

Albatta, bu davlat tushunchasi bilan bog‘liq bo‘lgan ayrim davlatchilik atamalarining qisqacha izohi va ularga asardan keltirilgan ayrim misollar, xolos. Ishning keyingi boblarida ushbu atamalarga to‘liq izoh berilib, ularning tarixiy ildizlari yoritishga harakat qilinadi.

Ushbu o‘rinda davlat tushunchasi bilan bog‘liq atamalar izholanar ekan, albatta, davlat boshlig‘i tushunchasi bilan bog‘liq bo‘lgan tushunchalar ham tarixiy asar leksikasida muhim ahamiyat kasb etishni ta’kidlash joiz. Davlat boshqaruvchisi tushunchasi davlat tushunchasi paydo bo‘libdiki, yashab kelayotgan, u bilan yonma-yon tilga olinadigan tushuncha hisoblanadi. Mulk - molik, hokim hukumat, voliy viloyat, sulton saltanat (sultonlik), xon

xonlik, podshoh podshohlik, imperator imperiya, xoqon xoqonlik kabi tanosublar aynan shu sababli ham paydo bo'lganligi shubhasiz. Shu o'rinda Bayoniyning "Shajarayi Xorazmshohiy" asari leksikasida uchraydigan davlat boshqaruvchisi tushunchasi bilan bog'liq bir qancha davlatchilik terminologiyasi birliklarini tahlil qilib, asardan ular qatnash misollarni keltirib o'tamiz.

Asarda davlat boshqaruvchisi tushunchasi bilan bog'liq atamalar yuqorida ta'kidlangani kabi, davlat tushunchasi bilan bog'liq holda tahlil qilingani ma'qulroq. Demak, nohiya so'zi davlat ma'nosida qo'llansa, uni boshqaruvchi noib so'zi ham ayni davlat boshqaruvchisi ma'nosida qo'llanadi. Viloyat so'zi davlat ma'nosini ifodalasa, muarrix voliy so'zini ham ayni davlat boshqaruvchisi ma'nosida istifoda etayotgan bo'ladi. Ba'zan viloyat, nohiya kichik bir hudud shu sabab noib yoki voliy so'zi ham davlat boshqaruvchisi bo'la olmaydi degan fikrni ilgari suradilar. Lekin mumtoz adabiyotimizda aksariyat hollarda biz bugun davlat emas, kichik hudud ma'nosida qo'llayotgan so'zlarimiz butun bir davlat ma'nosida uni boshqaruvchi hokim, voliy, noib kabi so'zlar esa aksar hollarda davlat boshqaruvchisi ma'nosida qo'llanganini kuzatamiz. Bunda ushbu tushunchalar va so'zlarning diniy mazmuniga ham e'tibor qaratilgan. Shoh, sulton, podshoh va boshqa davlat boshqaruvchisi tushunchasi bilan bog'liq so'zlar asosan Yaratganga nisbat bergan holda qo'llangan, voliy, hokim, noib kabi so'zlar esa Yaratgan bergan iqbol tufayli uning yerdagi noibi ma'nosida davlat boshqaruvchisi ma'nosida ham, har qanday boshqaruvchi (hukmdor, viloyat esa aksar hollarda davlat boshqaruvchisi ma'nosida qo'llanganini kuzatamiz. Bunda ushbu tushunchalar va so'zlarning diniy mazmuniga ham e'tibor qaratilgan. Shoh, sulton, podshoh va boshqa davlat boshqaruvchisi tushunchasi bilan bog'liq so'zlar asosan Yaratganga nisbat bergan holda qo'llangan, voliy, hokim, noib kabi so'zlar esa Yaratgan bergan iqbol tufayli uning yerdagi noibi ma'nosida davlat boshqaruvchisi ma'nosida ham, har qanday boshqaruvchi (hukmdor, viloyat boshqaruvchisi, ish boshqaruvchi kabi ma'nolarda ham) ma'nosida

ham istifoda etilgan. Bu holatni, ayniqsa, Navoiyda ko‘p uchratamiz. Navoiyni o‘ziga ma’naviy ustoz deb bilgan undan keyingi barcha ijodkorlarda ham shu holatni uchratishimiz esa, bizningcha, g‘ayritabiiy holat emas.

Yetti gunbadki, anglading oliy,
 Yetti ayvon aro yetti voliy.
 Bu yeti gunbadi sipehr erdi,
 Ichida yetti mehr chehr erdi [1, 50].

Ko‘rinib turganidek, ushbu o‘rinda voliy o‘zlashmasi ish boshqaruvchi, boshliq ma’nosida qo‘llanmoqda.

Anda bir shoh hokimu voliy,
 Mulki ma’muru himmati oliy.
 Oti Nu’monu mulki oti Yaman,
 Adlidin mulki gulistonu chaman [1, 306].

Dostonning mazkur baytlarida esa Navoiy o‘zlashmani hukmdor, shoh ma’nosida istifoda etmoqda.

“Shajarayi Xorazmshohiy”da ko‘p hollarda biz hukmdor ma’nosida xon so‘zi qo‘llanganini kuzatdik. Ammo ba’zi o‘rinlarda davlat boshqaruvchisi ma’nosida boshqa so‘zlar ham qo‘llanish holatlari ham kuzatiladi: Xon hazratlari amr etdilar: “Suvni bog‘lab yamut tarafiga suv o‘tkarmasunlar”.

Ey, shohlarg‘a sandin erur joh taxti toj,
 Ehsoni addur sani amring bila rivoj [2, 10].

Shahriyor shahr hukmdori ma’nosidagi o‘zlashma “Shajarayi Xorazmshohiy”da, ayni damda, Xorazm turkiy tarixnavisligiga oid boshqa manbalarda ham aksar hollarda xon, podshoh so‘zlari bilan o‘rin almashib, sinonim so‘z sifatida qo‘llanilib kelinadi. Alloh taoloning qazovu irodati va ahli Xorazmning rizovu jam’iyatlari

bilan hazrati shahriyori boviqor... Mazkur parcha davomida davlat boshqaruvchisi ma'nosida muarrix bir necha so'z va izofiy birikmalarni keltirib o'tadiki, ularning barchasi mazmunan xon, hukmdor ma'nosini ifodalaydi: sipahdori lutfshior, moyili avomir, ilohi qobili taxti xorazmshohiy, vorisi toji mukarramat, xorisi bazri marhamat, robiti raboti amni amon, bositi bisoti adlu ehson, as-sulton ibn as-sulton... [2, 12] Muarrix keltirilgan forsiy tarixlaridan birida shunday deydi:

Shoho, muborakat bod in toji xusravoniy,
Dar taxti izzatu joh umri tu jovidoniy [2, 13].

Ya'ni, Ey shoh, senga ushbu xusravoniy toj muborak bo'lsin, taxtingda umring oxirigacha izzatda bo'l.

Xorazm turkiy tarixnavisligiga oid manbalarda bir e'tiborli jihatni ta'kidlash zarur. Xon termini tarkibiy qism sifatida muarrixlarning asarlarida, odatda, hukmdor ismi aytilib, ismdan so'ng xon komponenti qo'shilgan holda tilga olinadi. Xususan, Abulg'oz Bahodirxon, Muhammad Rahimxon, Sayyid Muhammad Bahodirxon, Shergo'zixon, Eltuzarxon, Olloqulixon, Asfandiyorxon kabi. Xon ismi oldidan yoki so'ngidan keltirilgan xoqon, sulton, shoh kabi davlatchilikka oid birliklar odatda ta'kid, kuchaytirish, ulug'lash, madh kabi subyektiv munosabatlarni ifodalash uchun xizmat qiladi. Ushbu so'zlar matnda ham o'ziga xos vazifalarni bajarishi mumkin. Chunonchi, tanosubni yuzaga keltirish, tajnis, ishtiqoq, tavzi', saj kabi lafziy va ma'naviy san'atlarni, ayniqsa, musajja' usulini yuzaga keltirish jarayonida ham hukmdor ma'nosini ifodalovchi so'zlar faol qatnashganligini ta'kidlash zarur. Shuningdek, ayrim hollarda hukmdor tushunchasini ifodalovchi so'zlar yakka holda ham qo'llanishini e'tibordan soqit qilmaslik zarur: Bu yil xon hazratlari Peterburg' safari azmin jazm etib, jumodul avval oyining yigirma beshi va javzoning sakkizlanchisi va dushanba kunida otlanib Peterburg' tarafig'a ravon bo'ldilar [2, 101].

Yo‘q surur ishrat ermas bahordinkim,
Sultoni odil o‘ldi el ichra lutfgustar.
Ismi sharifi Sayyid Asfandiyor sulton,
Yetmish atolaridur olamga elga sarvar [2, 101].

Bas, hijratning mingu uch yuz yigirma sakkizlanchisi va sunbularning yigirma beshu sha'boni muazzamning yigirma to‘rtlanchisi va dushanba kunindakim, oftobning gurubig‘a ikki yarim soat qolib erdi, hazrat shahzodayi valiahd Sayyid Asfandiyor to‘ra doma umrahu muborak boshlarig‘a jig‘ali telfakni kiyib xon bo‘lub ota taxtida o‘lturdilar.

Shahanshoh - shohlarning shohi, peshvosi, rahnamosi ma'nosida mumtoz adabiyotimizda keng qo‘llangan.

Ilohi, shahanshohi kishvarpanoh,
Kim, uldur karamli, adolatli shoh [2, 94].

Yuqorida keltirilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Bayoniyning “Shajarayi Xorazmshohiy” asari Xorazm turkiy tarixnavisligiga muhim ahamiyat kasb etuvchi manbadir. Eng avvalo, asar rus bosqini davri hamda undan keyingi Xiva xonligi tarixi, Xiva xonlarining mazkur davrdagi ma'rifatparvarlik, birdamlik, savdosotiqni rivojlantirish, xalq tinchligini saqlash kabi yurt ravnaqi va ozodligi yo‘lida amalga oshirgan sa'y-harakatlari, Xiva xonligidagi xalqning ruhiy va ma'naviy ahvoli, hukumatdagi bo‘lgan o‘zgarishga munosabatlar, mahalliy urug‘larning ichki nizolari, ularning o‘zbek xalqini Rusiyaga qaramligini toborqa chuqurlashtirishga sabab bo‘layotganligi va, umuman, tarixan qiyin bir davr, muarrixlar tomonidan to‘liq aks ettirilmagan va yolg‘onlarga yo‘g‘rilgan o‘zbek xalqining murakkab tarixiy sahifalarini yoritishga bag‘ishlangani bilan biz uchun juda qimmatli tarixiy asar. Ikkinchidan, eski o‘zbek adabiy tilining so‘nggi bosqichi va hozirgi o‘zbek adabiy tili shakllanayotgan bir davrda yaratilgan, tilning shu davrdagi butun bo‘y bastini ko‘rsatib berishga xizmat qiladigan yana bir lingvistik manba sifatida ham mazkur asar ilmiy ahamiyati jihatidan salmoqlidir. Shu sababli ham biz ushbu tarixiy manbalarning lingvistik qimmatini ko‘rsatib bermoqdamizki,

ular eski o‘zbek adabiy tilining so‘nggi davrini yortishda shu paytgacha deyarli tilga olinmas edi. Demak, tilning qaysi bir davrdagi holatini tahlil qilar ekanmiz, shu davrdagi barcha adabiy, ilmiy, tarixiy asarlar biz uchun muhim lingvistik manba bo‘lib xizmat qila oladi. Chunki ular shu davrning jonli tilini bizga ko‘rsatib beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. XI том. Т. Фан. 1992. –Б. 50.
2. Баёний. Шажараи Хоразмшоҳий. Т.: Адабиёт ва санъат. 1994. –Б. 20.

**“XORAZM MA’MUN AKADEMIYASI AXBOROTNOMASI” -2/4 -2024.
(57-61 betlar)**

**ХОРАЗМ ТАРИХНАВИСЛИГИДАГИ АЙРИМ
ДАВЛАТЧИЛИК АТАМАЛАРИНИНГ ЛЕКСИК-
СЕМАНТИК ХУСУСИЯТЛАРИ**

Аннотация: Мазкур мақолада Огаҳий тарихий асарлари мисолида Хоразм тарихнавислигидаги айрим давлатчилик атамалари изоҳланган.

Аннотация: В статье разъясняются некоторые термины государственности в историографии Хорезма на примере исторических трудов Агахи.

Annotation: The article explains some terms of statehood in the historiography of Khorezm on the example of Agahi's historical works.

Калит сўзлар: тарихнавислик, терминология, термин, давлатчилик, мансаб, унвон.

Ключевые слова: историография, терминология, термин, государственность, должность, титул.

Key words: historiography, terminology, term, statehood, position, title

Xorazm tarixnavisligi o‘zining rang-barangligi, arabiy-forsiy o‘zlashmalarga boyligi, tilining ravon, o‘xshatishlarga boyligi kabi jihatlari bilan alohida ajralib turadi. Shuningdek, mazkur tarixnavislik maktabining o‘ziga xosliklaridan eng muhimi –

davlatchilik terminologiyasining mukammalligidir. Quyida Xorazm tarixnavisidagi davlatchilik terminologiyasiga mansub ayrim mansab va unvonlarning leksik-semanitik tahlillarini keltirib o‘tamiz.

Eng oliy harbiy amaldor xonning o‘zi edi. Xon boshchiligida boshqa hududlarga yurishlar olib borilgan, ba’zi harbiy-siyosiy ishlar amalga oshirilgan. Harbiy-ma’muriy unvonlariga: amirulumaro, bek, beklarbegi, biy, bojbon, botirboshi, buxri, vazir, vakil, darvozabon, dahboshi (o‘nboshi), devonbegi, doruchi, dorg‘a, jallod (nasaqchi), jallodboshi, jig‘achi, imomi jilov, inoq, kutvol, mahram, mahramboshi, mahram dahboshi, mergan, mehtar, miltiqsoz, mirshab, mufti askar, navkar, naqib, noib, ot chopar, otaliq, panjsadboshi (besh yuzboshi), sipohiy, sarboz, sardor, sarkarda, sartib, sarhang, soqchi, tunotar, tunqotar, tug‘chi, tug‘chiboshi, to‘pchi, to‘ra, udaychi (hidoyachi), shamxolchi, shig‘ovul, shotir, ellikboshi, eshikog‘asi, yuzboshi, yasovul, yasovulboshi, o‘nboshi, qilichkor, qozi askar, qozi urdu, qorovul, qorovulbegi, qo‘shbegi, hokim kabi mansab va vazifalar kirgan.

Moliya-soliq boshqarmasi mukammal bo‘lib, birinchi o‘rinda turishi Xiva davlatining ma’muriy apparati uchun xarakterli edi. Shu sababdan bu boshqarma tepasida turuvchi amaldorlar ham davlatda birinchi o‘rinda turar edilar. Moliya-soliq boshqarmasiga uch kishi: mehtar, qo‘shbegi va devonbegi boshchilik qilar edilar.

Mehtar (forscha) – ya’ni katta, ulug‘ degani. Mehtar xonga yaqin kishilardan va xon urug‘iga mansub a’yonlardan tayinlanardi. Mehtar bosh xazinachi va bosh vazir. Xazina uning ixtiyorida bo‘lib, kirim-chiqimni hisob-kitob qilib boradi. *“...osafsiyar Muhammad Ya’qub mehtar va Abdulloh Yasovulboshi va Muhammad Ya’qubboy valadi Gadoyniyoz mahram va Muhammadjonxoja va g‘ayrihumni majmu’i navkarlari bila ul janobning rikobi humoyuni xizmatig‘a buyurdi”*⁹⁴ Saroyda xizmatkorlarning boshlig‘i. “Mehtar mansabi

⁹⁴ Muhmmad Riza mirabAgahi. Zubdat al-tavarikh. International institutefor Central Asian Studies, Al-Beruni Centerfor Oriental Manuscripts Tashkent State Instituteof Oriental studies. Edited in the original Central Asian Türkiwith an Introduction and Notes by

xonlikdagi asosiy amallardan biri bo‘lib, u yer solig‘i (solg‘ut) to‘playdi”⁹⁵ – deydi L.F. Kostenko.

“Mehtar maosh to‘lash ishlariga mutasaddi, qo‘shin xizmati ustidan nazorat qiladi va qo‘shin hisobini oladi”⁹⁶, - deb yozadi Ivanin.

Qo‘shbegi (turkcha) - qo‘sh, harbiy lager, qarorgohning boshlig‘i. Qo‘shbegi Xiva xonligida ikkinchi vazir bo‘lgan. Xonlikning shimoliy qismiga mutasaddi edi. “...shanba kuni amiri soyibtadbir va vaziri ravshanzamir nizomu-l-mulki va-d-dunyo Muhammad Rizo qo‘shbegi ijizat olib, ba‘zi ahli basirat bila sur‘at ko‘rguzub”⁹⁷ Bu unvonni ko‘p olimlar qushbegi (ovchilar boshlig‘i) bilan adashtiradilar. Aslida O‘rta Osiyodagi davlatlarda qushbegi emas, balki qo‘shbegi, ya‘ni qo‘shinning boshlig‘i bo‘lgan. U saroy qo‘shinda katta lavozim va maqomga ega edi. Olimlarimizning Xiva xonlari arxivi hujjatlarida uchragan qo‘shbegi so‘zini qushbegi deb o‘qib, “qushchi, qarchig‘aychi; “ovchi” deb talqin qilishlari xatodir. Qo‘shbegi aslida Xiva xonligida saroyning oliy mansablaridan bo‘lib, moliya va soliq ishlarini bajargan. Qo‘shbегining ham o‘z devoni va amaldorlari bo‘lgan⁹⁸. Mehtarning unvoni kabi uniki ham xonadon boshlig‘idan meros qolgan⁹⁹.

Devonbegi (forscha, turkcha) – devon boshlig‘i. O‘rta asrlarda soliq yig‘uvchi muassasa boshlig‘i bo‘lib, keyinchalik unga mamlakatning barcha moliya ishlari yuklatilgan. Devonbegi gumrukhona (bojxona) va pul zarb qiladigan ustaxonaning

Khilola Nazirova. International Institute for Central Asian Studies (IICAS) by the UNESCO Silk Road Programme. – Tashkent – Samarkand, 2016. – P. 409^a.

⁹⁵ Костенко Л.Ф. Город Хива в 1873 г. -СПб., 1874. – С. 24.

⁹⁶ Иванин М.И. Сведения Хивинском ханстве //Манфактура и торговли. 1873, №4. –С. 154.

⁹⁷ Мухаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огаҳий. Риёзу-д-давла. Абу Райхон Беруний номидаги Шарқшунослик институти фонди. №5364 // П. 271^a-варақ.

⁹⁸ Хива хонлигида овва саёсат ишларини калон халифа, овчи халифа бошқарар эди. Бухоро ва Қўқонда қушбеги, қушчилар бўлган. Қар.: Воҳидов Ш. Қўқон хонлигида унвон ва мансаблар //Шарқ юлдузи. 1995, №3, 4. – Б.87, 103.

⁹⁹ Залесов Н. Посольство в Хиву капитана Никифорова в 1841 г. //ВС. Т. XXVI, 1861. Ч. II. – С. 65.

boshlig‘idir. “Va hamul marhalada muqarrabi janobi sultoni, rozdori asrori xoqoniy, nizomu-d-davla Beknoz devonbegikim, xoni mag‘urning hukmi humoyuni mujibi bila jamshidiya ko‘chi ahvolining xabardorlig‘i uchun Qaboqli to‘g‘oyg‘a kelib”¹⁰⁰ Bu unvon va amal 1807 -yili joriy etilgan. “Muhammadrahimxon I o‘z amakivachchasi Muhammad Murodbekka bosh devonbegilik mansabini, ya’ni daromad-buromadlarni boshqarish vazifasini topshirdi. Shu bilan birga, xon Muhammad Murodbekka mehtar Yusufni sherik qilib tayinlaydi. Shu yo‘sinda ular hamjihat bo‘lib, katta ish olib bordilar, bu ish shu sohada yaxshi natija berdi va yangilik bo‘ldi”, - deb yozadi Bayoniy “Xorazm tarixi” asarida. Ta’kidlash lozimki, devonbegilik bilan birga amaldorlarga “muzakkiylik” vazifasi ham berilgan. Muzakkiy tekshiruvchi, nazoratchi sifatida devonda (viloyatlar va butun xonlik bo‘yicha) faoliyat olib borgan va faqat xonga hisobotlarni bergan.

Bek (turkcha) - unvon. Bek so‘zi aslzoda, hukmdor, janob ma’nolarida ham ishlatilgan. O‘rta Osiyo xonliklaridagi shahar yoki viloyat boshlig‘i. “...anga va shahzodalarg‘a va beklarg‘a va ulamolarg‘a bashoratnoma bitib, Jo‘lomon sardor va O‘roz sardor bila irsol qildi” Bek xon va davlat arboblarning qarindoshlari, bolalariga beriladigan faxriy unvondir. Agar xonning o‘g‘li yoshligida to‘ra deb atalsa, xonning aka-ukalarining o‘g‘li yoki boshqa a‘yonlarining bolalari bek deb atalardi. Masalan, Qutlimurodning o‘g‘li Abdullaxon taxtga minguncha bek deb atalgan. Beklar xonning har xil topshiriqlarini bajarar va urush safarlariga chiqar edilar. Beklar 10 tilladan 100 tillagacha maosh olgan.

Beklarbegi (turkcha) - unvon. Viloyat, katta shahar hokimlari ana shu unvonga ega bo‘lishgan. Qoraqalpoq va boshqa

¹⁰⁰ Muhammad Riza mirab Agahi. Zubdat al-tavarikh. International institutefor Central Asian Studies, Al-Beruni Centerfor Oriental Manuscripts Tashkent State Instituteof Oriental studies. Edited in the original Central Asian Türkīwith an Introduction and Notes by Khilola Nazirova. International Institutefor Central Asian Studies (IICAS)by the UNESCO Silk Road Programme.– Tashkent – Samarkand, 2016. – P. 400^o.

ko'chmanchi xalqlarning oqsoqollariga beriladigan faxriy hamda harbiy unvondir. "...sarafrozig'lar topib, tavoyifi mazkurag'a beklarbegilik yarlig'i humoyuni vusulidin farqi mubohoti farqadon avjidan o'tdi..." Beklarbegi lavozimiga, odatda, xonning qarindosh-urug'lari tayinlanar edi. Beklarbegining asosiy vazifasi o'z urug'idan yig'iladigan soliqlarning to'g'ri yig'ilishini tekshirib turish va ularni to'la ravishda xazinaga topshirish ustidan nazorat qilishdir. Xon farmonlarini amalga oshirish, tegishli masalalarni biy, otaliqlar, oqsoqollar kengashi bilan kelishib, hal qilishdan iborat bo'lgan.

1873 -yili qoraqalpoqlarni ikkita beklarbegi birlashtirib turardi, ulardan biri qo'ng'irot urug'iga, ikkinchisi mang'itlarga boshliq edi. Qoraqalpoqlarning barcha biy va otaliqlari shularga itoat qilgan. Beklarbegi jamshidiy urug'larida, turkmanlar, qozoqlarda ham bo'lgan. Ular 20 tilladan 60 tillagacha maosh olganlar va ularga kunbay hisobida don ham berilgan.

Beklarbegi qo'shin sarkardasi bo'lib, uning yuzboshilari bo'lar edi.

Shig'ovul (turkcha-mo'g'ulcha) - mehtarning yordamchisi. Ma'lumki, mehtar moliya, soliq va hashar ishlariga mutasaddilik qilishdan tashqari, bosh vazir sifatida davlatning tashqi munosabatlariga ham rahbarlik qilgan. Bu sohada shig'ovul uning bevosita yordamchisi edi. "Ibrohim shig'ovul va Do'sniyoz dorug'a va yuzboshilardin Bekpo'lod yuzboshi va Xolmurod yuzboshi va Muhammad yuzboshi va Yusuf otaliqni o'zlarig'a tobe' navkarlari bila..." U ajnabiy elchilarni qabul qilish va ularning ta'minoti bilan shug'ullangan. Odat bo'yicha elchilarni qabul qilish uchun xon xazinasidan ajratiladigan puldan 10 foizini shig'ovul o'z foydasiga olib qolardi. Arxiv ma'lumotlariga qaraganda, elchilarning kelish-kelmasligidan qat'iy-nazar shig'ovul har yili 15 tilladan maosh olib turgan.

Shig'ovullarning faoliyati "buxrilar"ning faoliyati bilan yaqindan bog'liq bo'lgan. Buxrilar ayg'oqchi, razvedkachilar edi.

60-daftardan ko‘rinishicha, Buxriy Mahmudbek, Buxriy Bolaxon 20 tilladan olganlar.

Elchilarni qabul qilish marosimida mehtar asosiy rol o‘ynagan. Kapitan Nikiforovning ma’lumotlari buni tasdiqlaydi: “1841 -yil 11 -avgustda Oллоhqulixon elchini salomxonada qabul qilgan. Bu marosimda mehtar, qo‘shbegi, devonbegi, Xojash mahram va yana ikkita amaldor hozir bo‘lganlar”.

Abbotning ma’lumotiga ko‘ra, mehtarining hatto mustaqil ravishda muzokara olib borish huquqi ham bo‘lgan.

Xiva xonligida maxsus diplomatiya kadrlari yo‘q edi. Shu sababdan, boshqa mamlakatlarga elchi jo‘natish zaruriyati tug‘ilsa, odatda ko‘zga ko‘ringan amaldorlardan yoki bu ishga bobroq bo‘lganlardan, aksari mutavallilar yuborilar edi. Chunonchi, XIX asrda Rossiyaga Fozil Xo‘ja shayx al-islom, Muhammadamin yuzboshi, Shukrullo oqo yuborilgan. Buxoroga esa Shomurod inoq, Avazmurod mirob, Hakim Niyoz Otaliq va boshqalar jo‘natilgan.

Viloyatdagi barcha ma’muriy va siyosiy ishlar hokimlar va noiblar qo‘lida bo‘lgan. Ular katta yer egalari, xonning qarindosh-urug‘lari va mahramlaridan tayinlanardi.

Hokim (arabcha) – o‘zbek xonliklarida viloyat boshlig‘i. Hokim xonning viloyatdagi noibi hisoblangan. Shaharni hokimning noibi, yuzboshi va kadxudo idora qiladi. “Marv viloyatining hokimu hukmroni sadoqatnamoy Niyozmuhammadboy soruq jamoasining akobir va a’oliysi bila kelib...” Qishloqlarda barcha ishlar merob va imomlar qo‘lida edi. Viloyatlarning xokimlari to‘la huquqli xukumdorlik huquqidan foydalanar edilar. Ammo jinoyatchilarning hayot-momoti to‘g‘risida bir hukm chiqarishga haqlari yo‘q, bu to‘g‘rida xonning hukmini so‘raydilar.

Asfandiyorxon davrida xonlikda, yuqorida aytganimizdek, 26 hokimlik bo‘lgan.

Noib (arabcha) - hokimning o‘rinbosari. Ular katta yer egalari, xonning qarindosh-urug‘lari yoki mahramlaridan tayinlanardi. “Abbos Mirzo otlig‘ o‘g‘lig‘a Noib us-saltana laqab berib, ko‘p cherik bila O‘rus muqobalasig‘a urush va muqotala

uchun irsol qildi” Noib 5 tilladan tortib, 14 tillagacha maosh olardi. Shaharlarda hokimlarning yordamchilari yuzboshilar edi. Ular 15 tilladan tortib, 25 tillagacha maosh olganlar.

Sardor (forscha) – O‘rta Osiyo xonliklarida xon qo‘shini qo‘mondoni, xalq lashkarboshisi. Xiva xonlariga tobe bo‘lgan ko‘chmanchi turkman, qoraqalpoq, qozoq aholisi qabila va urug‘lari tomonidan saylangan shaxs. Bu unvon ham harbiy-ma‘muriy vazifalarga ega bo‘lgan. “Mirdod sardor samanduk toifasidin yuz uylukni ko‘churub, Lolaxon boshlig‘ jame‘ kadxudolarin atabai a’lo xokbo‘sliqi darajasig‘a yetkurdi”.

Davlat hokimiyati sudlar, qamoqxonalar va boshqalar kabi faqat zo‘rlash muassasalaridangina iborat emas edi, hokimiyat qurolli kishilardan, ya’ni mirshablik, armiyadan ham iborat edi.

Mirshab (arabcha, forscha) – 1. Tungi soqchi, tungi soqchilarning boshlig‘i. 2. O‘rta Osiyo xonliklari shaharlarida jamoat tartibini saqlovchi lavozim bo‘lib, odatda shaharning kechki xo‘jayini (miri-shab) deb ham yuritilgan. Mirshab asosan o‘z ishiga kechqurun soat 6 dan keyin kirishgan, chunki bu davrda barcha shahar bozorlari yopilib, bir soatdan so‘ng shahar darvozalari berkitilib, shahar suv quyganday jim-jit bo‘lgan. Mana shu vaqtdan boshlab, hech kim uyidan chiqmasligi va shahar ko‘chalarida yurmasliklari kerak bo‘lgan. Ushbu qoidani buzgan barcha shaxslar mirshablar tomonidan ushlanib, mirshabxonaga keltirilgan.

Tadqiqotchi S.Saburova aniqlanishicha, Xivada turli-tuman mirshablar bo‘lgan:

1. Xiva shahar bosh darvozarida turuvchi mirshablar. Ular orasida quyidagi darvoza mirshablari bor: a) Pahlavon darvoza mirshablari; b) Shayx darvoza mirshablari; v) Mahmud ota darvoza mirshablari; g) Hizir Bobo darvoza mirshablari. Maosh to‘lash ro‘yxatida bu mirshablarning har qaysisi 4 tilladan maosh olganligi ko‘rsatilgan. Umuman olganda, mirshablar 4 tilladan 44 tillagacha maosh olganlar.

2. Safarga boradigan mirshablar. Mirshab askarboshigina emas, jallodboshi ham edi. Hazorasp shahriniki singari, shahar va daha mirshablari bo‘lgan.

XIX asrda Xivada agrar ishlab chiqarish munosabatlarining o‘zgarishi faqat moliya-soliq tizimini emas, balki moliya soliq idoralarining tuzilishini ham o‘zgartirib yubordi. Shu bilan birga, davlatning harbiy tuzilishida ham o‘zgarishlar yuz berdi. Agar ilgari qo‘shin ayrim tobe urug‘larning lashkarlaridan iborat bo‘lsa, XIX asrga kelib, xonlikning qurolli kuchlari markazlashgan davlat apparatining tarkibiy bir qismiga aylandi. XIX asrda xonlikda jami 13 ming kishilik muntazam qo‘shin paydo bo‘ldi.

Tinchlik vaqtida xon qo‘shini shaharni muhofaza qilishdan tashqari, boshqa vazifalarni ham bajarardi.

Xiva xonlari arxivining 60-daftarida Xiva tumani va boshqa joylardagi yuzboshilarning nomlari yozilgan ro‘yxat bor. Bu daftarda qo‘shinning qo‘mondon tarkibi sifatida 186 ta mahramning nomi ham ko‘rsatilgan.

Xiva qo‘shini, asosan, navkarlardan tuzilardi. 1840 yillarda Xivaning asosiy tumanlarida 6445 navkar bo‘lgan. Bundan tashqari, Hazorasp, Beshariq va Pitnakda yana 2396 navkar bo‘lgan. XIX asrning o‘rtalarida navkar qo‘shinning umumiy soni taxminan 9-10 ming kishi bo‘lgan. Bu qo‘shinning tabaqaviy tarkibi qanday bo‘lganligini ham aniqlash mumkin. Masalan, navkarlar yerlari miqdori jihatidan 66 foizi a‘lo, 17 foizi avsat (o‘rta), 17 foizi adno (past) darajadagi tabaqaga tegishli edilar. Navkarlarning o‘rta hisobda 20 tanobdan yeri bo‘lgan va bu yerlar ijaraga berilgan.

Sarboz (forscha) – O‘rta Osiyo xonliklaridagi muntazam qo‘shin askari. “Abbos mirzoning o‘n ikki ming sarboz va o‘ttuz aroba to‘p va otashxona va munga loyiq sipohi bekarona bila Mashhadga kelganidin yamrali Mulla Subhonnazar otlig‘ bir kishi bila darbori falakmiqdor navvobig‘a axbor qildi” Xiva xonligida sarbozlar urush vaqtida to‘plangan va ularning soni 30-100 ming oralig‘ida bo‘lgan.

Xonlikda oliy harbiy hokimiyat xon qo'lida edi. Xon qo'shinga yo bevosita o'zi yoki amiral-umaro orqali farmon berardi. Har bir mulkdor yoki amaldor, hatto harbiy lavozim egasi bo'lmasa ham, sarkarda etib tayinlanishi mumkin edi. Buning sababi ravshan, chunki Xiva sharoitida, haqiqatda, har bir mulkdor "harbiy kishi" edi.

Mazkur tahlillarda ko'rinib turibdiki, Xorazm tarixnavisligida mansab va unvonni anglatuvchi atamalar juda keng qamrovlidir. Ularni tizimlashtirish, semantik guruhlariga ajratish galdagi vazifalarimizdandir.

"Innovatsiya va taraqqiyot" jurnali, 2023 –yil, 1 –son.

MUNDARIJA

| | |
|---|---|
| Serqirra olim olami. <i>A. O‘razbojev</i> | 3 |
|---|---|

“AVESTO” TADQIQOTLARIGA OID MAQOLALAR

| | |
|--|-----|
| “Avesto” va davlat qonunchiligi..... | 8 |
| “Avesto” da davlatchilik atributlarining aks etishi..... | 14 |
| “Avesto” da davlat chegaralari masalasi..... | 19 |
| “Avesto” da varaxran obrazining timsoliy talqinlari..... | 23 |
| “Avesto”dagi Vayu obrazining funksional tahliliga doir..... | 24 |
| “Avesto” da yomg‘ir oti obrazi..... | 31 |
| “Avesto” tadqiqotlariga oid..... | 40 |
| “Avesto” va o‘zbek folkloridagi mushtarak motivlar..... | 42 |
| “Avesto” va Xorazm..... | 46 |
| “Avesto” da suv kul‘ti..... | 47 |
| Quyosh kul‘ti va uning “Avesto”dagi talqini..... | 54 |
| “Avesto”da yulduz kul‘ti va uning mifologik talqinlari..... | 57 |
| “Avesto”ning Yevropada o‘rganilishi..... | 62 |
| “Avesto”da “Xurshid – yasht” alqovi..... | 66 |
| “Avesto”da “Xurshid-yasht” alqovining yaratilishiga doir..... | 68 |
| “Bahrom yasht”da mifologik timsollar..... | 70 |
| “Avesto”dagi mifologik qatlam haqida..... | 75 |
| “Avesto” davri ijtimoiy munosabatlar tarixidan..... | 82 |
| “Avesto” jamiyatida oila, nikoh va meros masalalari..... | 89 |
| “Avesto”da Ardvisura Anaxita obrazining mifo-epik talqini..... | 97 |
| “Avesto” da Dota ilohi haqida..... | 104 |
| To the interpretation of “Apam napat” in “Avesto”..... | 109 |
| Munajjim Mazdak..... | 110 |
| Abu Rayhon Beruniy avestoshunos sifatida..... | 113 |

TARIXIY JARAYONLARGA OID MAQOLALAR

| | |
|--|-----|
| X-XII asr olimlarining ijtimoiy-gumanitar fanlarga qo‘shgan hissasi..... | 120 |
| Xorazm yozma manbalarida o‘zbek davlatchiligi tarixi aksi..... | 125 |
| Xorazmshohlar davlatidagi unvon va mansablar..... | 130 |
| Xorazmshohlar tarixiga oid manbalar..... | 138 |
| Yoqut al-Hamaviyning “Mu’jam al-udabo” asaridagi xorazm adiblari..... | 146 |
| Yoqut al-Hamaviy Ma’mun akademiyasi va uning olimlari haqida..... | 150 |
| Xorazmshohlar davlatining ma’muriy boshqaruv tizimi..... | 152 |
| Xorazm turkiy tarixnavisligiga oid “Chingiznoma” asarining lingvistik tadqiqi..... | 156 |
| “Tarixi O‘temish Hoji ibn Mavlono Muhammad Do‘st sulton” (Chingiznoma)da mo‘g‘ul va turkiy sulolalar tavsifi..... | 169 |
| “Tarixi O‘temish Hoji ibn Mavlono Muhammad Do‘st sulton” (Chingiznoma)da mo‘g‘ul va turkiy sulolalar tavsifi..... | 175 |
| Muhammad Aminxon davrida Xiva-Buxoro diplomatik munosabatlariga doir..... | 182 |
| Oloqulixonning Rossiya bilan diplomatik munosabatlari..... | 186 |
| History of Khorezm statehood in antique sources..... | 191 |
| Munis va Ogahiyning “Firdavs ul-iqbol” asari..... | 198 |
| Komyobning “Tavorix ul-xavonin” asari haqida..... | 217 |
| Mansur as—Saolibiy va uning adabiy qarashlari..... | 222 |
| Rus istilosi arafasida Xivada ta’lim..... | 224 |
| Xorazm tarixini o‘rganishda muhim manba | 227 |
| Xorazm turkiy tarixnavisligiga oid manbalarida davlat boshqaruvchisi tushunchasini ifodalovchi ayrim atamalar tadqiqi..... | 234 |

TILSHUNOSLIKKA OID MASALALAR

| | |
|---|-----|
| XI-XII asrlarda Xorazmda tilshunoslik..... | 248 |
| Xorazmiy tiliga doir tarixiy va ilmiy manbalar xususida..... | 249 |
| Письменное наследие Хорезма как важный источник в узбекской государственности..... | 252 |
| Abulg‘ozi Bahodirxon tarixiy asarlarining lingvistik tadqiqi..... | 258 |
| Рукописные источники, созданные в Хорезме..... | 266 |
| Fors tili Hirot lahjasining ba’zi xususiyatlari haqida..... | 272 |
| Fors tili leksikasining yevropa tillari leksikasi qiyosiga oid..... | 275 |
| Arab-fors alifbosida “alif” harfining qo‘llanishi haqida..... | 277 |
| Fors tili leksikasidagi ba’zi turkiy so‘zlar xususida..... | 280 |
| Fors tili leksikasining Yevropa tillari leksikasi qiyosiga oid..... | 283 |
| Beruniy – etnolingvist..... | 285 |
| О художественном творчестве Сулеймана Бакиргани..... | 292 |
| Military-administrative Posts and Ranks in the khanate of Khiva during the Reign of Kungirof Dynasty (2nd half of the XIX th century and the beginning of the XX th century)..... | 295 |
| Ogahiyning tarjimada asliyatni saqlash mahorati xususida..... | 300 |
| Ogahiyning forsiy tarixlari..... | 303 |
| XX asrning birinchi yarmida bitilgan xorazm tarixini yorituvchi qo‘lyozma asarlar..... | 307 |
| Bayoniy tarixiy asarlarining lingvistik xususiyatlari..... | 311 |
| Хоразм тарихнавислигидаги айрим давлатчилик атамаларини лексик-семантик хусусиятлари..... | 320 |

Monografiya
MADAMIN ESHMURODOV

**ISTE'DOD QIRRALARI:
ТИЛ, ТАРИХ, ТАФАККУР**

Муҳаррир:

Техник муҳаррир ва sahifalovchi:

Муқова дизайнери:

A. Ўразбоев

Sh. Qalandarova

A. Бобожонов



Nashriyot
TASDIQNOMA
raqami:
№152441

Bosishga 2024 yil **8 mayida** ruxsat berildi.
Bichimi 60x84^{1/16}.. “Cambria” garniturasida.
Hajmi – **20,75** bosma taboq. Adadi - 100 dona.
Buyurtma № 20. Bahosi kelishilgan narxda.

Ogahiy nashriyotida tayyorlandi.
Manzil: Urganch shahri Al-Xorazmiy ko‘chasi. 23-uy
“Shams nashr” matbaa korxonasida chop etildi.
Manzil: Yangiariq t., “Gulshan diyor” k., 56-uy.